ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

4-son
(iyul-avgust)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT

4 Elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish texnologiyasi

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

B. Abdullayeva, D. Taylakova 6 Ta'limiy maqsadlarga mo'ljallangan elektron o'quv resurslarni tarkibiy tuzilishi

M. Maxmarajabov, R. To'rayev 9 Umumiy o'rta ta'lim maktablarida elektron o'quv muhitini shakllantirish bosqichlari

D. Mustafoyeva 12 Professional ta'lim sharoitida shaxsning kasbiy rivojlanish tamoyillari

Sh. Ergashev 15 Texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari

D. Abduvaliyeva 19 Kompetentlikka asoslangan yondashuv – pedagogik ta'lim nazariyasi va amaliyoti rivojlanishining ilmiy asosi sifatida

T. Nizomov 23 Abu Lays Samarqandiy yashagan davr – X asrda ta'lim tizimi

U. Abirova 26 Oila, mahalla va ta'lim muassasasi ma'naviy-ma'rifiy hamkorligining ijtimoiy-pedagogik resurslar holati

N. Axmedova 29 Bo'lajak shifokorlar ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari

T. Tashmetov 32 Milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishning innovatsion texnologiyalari

B. Mamarajabov 36 Bo'lajak tarjimashunoslarni lingvistik-kommunikativ kompetentligini shakllantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samarali yo'llari

TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

O. Mavlonov 39 Ingliz tili darslarida vatanparvarlikka oid so'zlarni o'rgatishining ahamiyati

N. Fayzullayeva 42 Talabalar kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda iqtisodiy tushunchalarni o'zlashtirish usullari

X. Bozorova 46 Rus tili o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari

S. Yo'ldashev 49 Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kreativ yondashuv asosida mehnat faoliyatiga tayyorlash

K. Tursunmetov, F. Sultonova 53 Temperaturaning shakllanish tarixi va uni o'lchash usullari

F. Nizomova, L. Mavlonova 58 Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya darslarida dizayn yo'nalishining o'rni

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

S. Akbarova 62 Kreativ kompetensiyalar va ularni talabalarda shakllantirish masalalari

L. Babaxodjayeva 66 Pandemiya sharoitida masofaviy ta'lim mashg'ulotlarining zarurati

M. Maxmudova 70 Ta'lim oluvchilarning shaxsiy erkinligini ta'minlashning mohiyati

N. Maxmudova 74 Umumiy o'rta ta'lim maktablarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari

F. Nazarova 78 Akademik litseylar uchun shaxsga yo'naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalarini modellashtirish

M. Artikova, M. To'raboyeva 84 Talabalarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari



MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Sh. Yo'ldosheva 88 Boshlang'ich sinflarda ta'lim tarbiya jarayonini tashkil qilishning innavatsion texnologiyalari (Ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy asarlari misolida)

N. Sobirova 91 Xalq og'zaki ijodi va folklorning yoshlar ma'naviy hayotida tutgan o'rni



TA'LIMDA MENEJMENT

S. Eshqobilov 94 Umumiy o'rta ta'lim maktabi direktorlarining boshqaruv faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar



TA'LIMDA MONITORING

M. Fayziyeva 98 Ta'lim samaradorligini oshirishda baholashning shakllantiruvchi va xulosalovchi bosqichlarining o'rni



JISMONIY TARBIYA VA SPORT

B. Karimov 101 Ta'lim-tarbiya jarayonida Olimpiya o'yinlarining ahamiyati



MAKTABGACHA TA'LIM

Sh. Xo'jamberdiyeva 105 Maktabgacha ta'limda multimedia vositalaridan foydalanish (O'zbekiston qahramoni, O'zbekiston Respublikasi xalq shoiri Erkin Vohidov ijodi misolida)

G. Nazirova 109 Maktabgacha ta'lim-tarbiya sifatini ta'minlashda hamkorlik pedagogikasining o'rni

N. Abdusamatova 113 Integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash omillari

M. Fayzullayeva 117 Maktabga tayyorlov guruhi uchun nutqni rivojlantirishning variativ dasturi



ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

H. Umarova
B. Karimov 120 Maktablarda raqamli bilimlar samaradorligini oshirish masalalari



MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH

D. Yusupova 124 Malaka oshirish tizimida ta'lim muassasasi rahbarining huquqiy kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari



QIYOSIY PEDAGOGIKA

U. Babaxodjayev
O. Ismanova 129 Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika fanini o'qitishda xorij tajribasidan foydalanish



МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

З. Дзугаева 133 Компоненты речевой деятельности в процессе обучение студентов медицинского образования



НАУКА, ПРОСВЕЩЕНИЯ И ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Н. Шарипова 137 Информатизация учебного процесса – один из важнейших факторов оптимизации обучения



ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Л. Евстафьева 140 Использование наглядного моделирования в речевом развитии детей дошкольного возраста

ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINI ISHLAB CHIQISH TEXNOLOGIYASI

Hozirgi kunda XXI asr tafakkur asri, yalpi axborotlashuv asri, yuksak texnologiyalar zamoni, globallashuv davri deb ta'rif etilmoqda. Axborotlar inson tafakkuri va fikrlash qobiliyatini shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omildir. Shu sababli zamonaviy sivilizatsiyalashgan jamiyatning hozirgi davrdagi rivoji axborotlashtirish jarayoni bilan tavsiflanadi. Jamiyatni axborotlashtirish – global ijtimoiy jarayon va umumjamiyat ishlab chiqarish sohasida yetakchi faoliyat turi bo'lib, zamonaviy mikroprotsessor va kompyuter texnikalari hamda axborot almashinuvida foydalaniladigan boshqa turli xil texnik vositalar yordamida axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash, uzatish va foydalanish jarayonlari majmuidir. Jamiyatni axborotlashtirish jarayonining yetakchi yo'nalishlaridan biri ta'limni axborotlashtirish hisoblanadi. Ta'limni axborotlashtirish – ta'lim sohasini uslubiy-amaliy jihatdan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalari bilan ta'minlash hamda ulardan samarali foydalanish asosida ta'lim-tarbiya jarayonining psixologik, pedagogik maqsadlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan jarayondir.

Ta'limni axborotlashtirish ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatini intellektuallashtirish jarayoni sifatida faqatgina zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida rivojlanadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini milliy iqtisodiyotimizning barcha tarmoq va sohalariga keng va jadal kirib borishi axborotlashgan jamiyatni shakllantirishga zamin yaratmoqda. "Axborotlashgan iqtisodiyot", "Elektron hukumat", "Elektron boshqaruv", "Masofaviy ta'lim", "Ochiq ta'lim", "Elektron ta'lim" kabi tushunchalar hayotimizga keng kirib keldi. Ma'lumki, nafaqat "Elektron ta'lim", "Ochiq ta'lim", "Masofaviy ta'lim"da, balki an'anaviy ta'limni zamon talablari asosida tashkil etishda ham elektron ta'lim resurslari muhim rol o'ynaydi. "Resurs" iborasi hozirgi vaqtda juda keng ma'noda ishlatiladi. "Ta'lim resursi" deganda esa o'quv jarayoni davomida bilim olishda foydalaniladigan turli xil ko'rinish va shakllardagi o'quv materiallari manbasi tushuniladi. Boshqacha aytganda, ta'lim resursi – o'quv jarayonida foydalaniladigan axborotlar manbasi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ta'lim resurslarini quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin:

1. Matn, rasm, sxema va jadvallarni o'z ichiga olgan an'anaviy nashr materiallari (darslik, o'quv-qo'llanma, ma'ruzalar matni va kursi, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha qo'llanmalar, masalalar to'plami, lug'atlar, kataloglar, ma'lumotnomalar, tarqatma materiallar, o'quv-ko'rgazmali materiallar, turli xil uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar, savol va topshiriqlar).

2. An'anaviy audio va video-materiallar: musiqiy va nutqiy materiallar (ma'ruzalar yozilgan disklar, audiokitoblar, o'quv videofilmlari va boshqa), namoyish roliklari, taqdimot lavhalari, kinematografik mahsulotlar.

3. Zamonaviy (raqamli) elektron resurslar: turli xil axborot tashuvchi vositalar (disk, fleshka va boshqalar)ga yozilgan fayllar, zamonaviy elektron vositalari yoki kompyuterlar yordamida eshitish va ko'rish imkoniyati yaratilgan raqamli elektron materiallar.

4. O'qish, mustaqil ta'lim olish va olingan bilimlarni tekshirish uchun maxsus das-

turlar: o‘quv mazmuni yoritilgan va o‘quvchi bilan o‘zaro muloqotga yo‘naltirilgan hamda ma’lum pedagogik vazifalarni yechish uchun mo‘ljallangan dasturlar, dasturlar majmui yoki tizimlar.

Zamonaviy elektron resurslar va o‘qish, mustaqil ta’lim olish va olingan bilimlarni tekshirish uchun maxsus dasturlar birgalikda “Elektron ta’lim resurslari” deb ataladi. Elektron ta’lim resurslari deganda, foydalanuvchi, ya’ni o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda avtomatik rostlanish imkonini beruvchi, egallangan bilimni avtomatik nazorat qilish tizimi bilan birlashgan o‘quv materiallarini uzatish (yetkazish) tizimi tushuniladi. Elektron ta’lim resurslarini saqlash va ma’lumotlarni taqdim etish shakliga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

● alohida fayllar – an’anaviy resurslarning faylli ekvivalentlari (jadvallar va grafik illyustratsiyalardan iborat matnli hujjatlar, illyustratsiyalarning grafik fayllari, audio-video formatli fayllar va boshqa);

● gipermatnli materiallar – matn, grafiklar;

● multimedia elementlari kabi elektron o‘quv adabiyotlarining elementlaridan tashkil topgan elektron o‘quv adabiyotlari va muayyan an’anaviy resurslarning elektron ekvivalenti. Elektron ta’lim resurslarini shartli ravishda quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

● elektron o‘quv-tarbiyaviy resurslar;

● o‘quv materiallarini uzatish elektron resurslari;

● o‘qishni tashkil etish elektron resurslari;

● ta’lim-tarbiyani boshqarishni tashkil etish elektron resurslari.

Elektron o‘quv-tarbiyaviy resurslar o‘z navbatida quyidagilardan tashkil topadi:

● elektron o‘quv adabiyotlari (elektron darslik va o‘quv-qo‘llanmalar, nashrlar, ma’lumotlar banki, elektron ma’ruza matnlar, o‘quv-uslubiy majmualar) mashg‘ulotlar, mashqlar va boshqalar;

● uslubiy materiallar: dars rejasi, uslubiy tavsiyalar, tadbirlar ssenariysi (intellektual o‘yinlar, teleko‘rsatuvlar, adabiy kechalar va boshqalar), didaktik materiallar, ko‘rgazmali namoyish materiallari (dars bo‘yicha taqdimot, diagrammalar, jadvallar, rasmlar, videorasm materiallari);

● lug‘atlar: onlayn-ensiklopediya, lug‘at, to‘liq matnli kutubxona, ma’lumotnomalar;

● mediaresurslar: virtual laboratoriyalar, virtual sayohatlar, virtual muzeylar, ko‘rgazmali qo‘llanmalarning raqamli kutubxonasi va boshqalar.

O‘quv materiallarini uzatish elektron resurslari: elektron pochta, chat, chat-forum, ovozli chat, audio-video chat (videochat), ISQ, IP-telefoniya (internet-telefoniya), forum, bloglar, videoblog, jonli jurnallar, vikipediya, multimedia, interaktiv mediatexnologiya, onlayn videokonferensiya va boshqa.

O‘qishni tashkil etish elektron resurslari: masofaviy o‘qitish, elektron ta’lim, ochiq ta’lim. Ta’lim-tarbiyani boshqarishni tashkil etish elektron resurslari: internet (Intranet) korporativ tarmog‘i va turli xil dasturlar (“Rektor” dasturi, dars jadvali dasturi, ta’lim dispetcheri dasturi, elektron dekanat dasturi va boshqa). Albatta, ta’lim sifatini ta’minlashda elektron ta’lim resurslari tarkibida elektron o‘quv resurslari muhim o‘rin egallaydi. Elektron o‘quv resurslari nafaqat masofaviy ta’lim, elektron ta’lim yoki ochiq ta’limda, balki an’anaviy ta’limda ham keng qo‘llaniladi. Elektron o‘quv resursining namunaviy tarkibi quyidagilardan iborat bo‘lishi muallif tomonidan tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi talablar asosida tayyorlangan elektron-o‘quv resurslarini foydalanishga tayyorlash uning tarkibiy qismlariga ba’zi bir o‘zgartirishlar kiritishni ko‘zda tutishi mumkin. Talablar darajasida tayyorlangan elektron-o‘quv resursiga undan foydalanish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma ilova qilinishi zarur.

Barno ABDULLAYEVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy va innovatsiya ishlari bo'yicha prorektori, pedagogika fanlari doktori, professor
Dilnoza TAYLAKOVA,
Toshkent shahar Olmazor tumani 134-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori

TA'LIMIY MAQSADLARGA MO'LJALLANGAN ELEKTRON O'QUV RESURSLARNI TARKIBIY TUZILISHI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'limiy maqsadlarda foydalaniladigan elektron o'quv resurslarni tuzilishi va tarkibiy qismlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar. TMMEO'R, elektron o'quv kompleks, o'quv dastur, modul, o'qituvchi, psixolog, testolog, dasturchi.

В статье описываются структура и компоненты ресурсов электронного обучения для общеобразовательных школ.

Ключевые слова. ТММЭУР, электронный учебный комплекс, учебная программа, модуль, педагог, психолог, тестолог, программист.

This article describes the structure and components of e-learning resources for general secondary schools.

Key words. TMMEO'R, e-learning complex, curriculum, module, teacher, psychologist, testologist, programmer.

Axborot texnologiyalari sohasi jadal sur'atlar bilan rivojlanib, takomillashib borayotgan bugungi kunda ta'limni axborot texnologiyalari asosida tashkil etish, uning mazmunini o'quvchilar ongiga to'laqonli singdirish dolzarb muammo sifatida ko'tarilmoqda.

TMMEO'R zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida o'qitishning didaktik, dasturiy va texnik interfaol majmuasidan tashkil topadi. TMMEO'R an'anaviy majmualardan farqliroq, o'qitishning kompyuter va an'anaviy texnologiyalari birligi sifatida namoyon bo'ladi.

TMMEO'R an'anaviy hamda masofaviy ta'lim o'quv-metodik ta'minotining samarali integratsiyasini ta'minlashi, o'quvchilarga mustaqil izlanish yo'li bilan materiallarni topish, o'rganish hamda muammoli masalalarni hal etish orqali ularda ma'lum tadqiqot ishlarini amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirishi, o'quvchilarning kurs, malakaviy bitiruv ishlarini bajarishda, magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlashda o'quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlab olish, axborot hamda ma'lumotlarni tahlil eta olish kabi malakalarni shakllanishi uchun sharoit shakllantirishi kabi didaktik vazifalarni ham amalga oshiradi.

Shu ma’noda, umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quv dasturlariga mos interaktiv elektron o‘quv komplekslarni shakllantirish hanuzgacha dolzarbligicha qolmoqda.

TMMEO‘R o‘quv-metodik materiallarining turli shakllari bo‘lib, ular har bir fanning ta’lim dasturlariga mos keluvchi, o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlari va mustaqil ta’limni tashkil etish bo‘yicha o‘quv-metodik ta’minotdan foydalanish metodikasini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘ladi.

TMMEO‘R tarkibiy tuzilishi va undagi materiallarni shakllantirishda quyidagilarga alohida ahamiyat berish kerak:

- majmua mazmunan shunday tuzilgan bo‘lishi kerakki, undan qo‘shimcha o‘quv axborotlarini olish uchun o‘quvchi ham, o‘qituvchi ham mutlaqo qiynalmasligi kerak;
- o‘quv materiallarining tarkibiy tuzilmasini shakllantirishda modul tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq;
- mustaqil ta’limni tashkil etish imkoniyati mavjud bo‘lishi darkor;
- o‘quv materiallarini o‘rganish bo‘yicha to‘liq yo‘riqnoma keltirilgan bo‘lishi lozim;
- nazorat topshiriqlari, o‘z-o‘zini tekshirish savollari va javoblari, mashq qildiruvchi topshiriqlar bo‘lishi shart.

TMMEO‘R mazmunida bilimlar jozibali, ta’sirchan shaklda ifodalanadi, asosiy tushuncha va ta’riflar aniq va ravshan beriladi, nazorat qilinadi. Shu bois, barcha fanlardan TMMEO‘R shakllantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Sababi, TMMEO‘Rda axborotlar zamonaviy usulda multimedia va animatsiya vositalari yordamida to‘laqonli yoritiladi. TMMEO‘Rning asosiy e’tiborli xususiyati ham ana shunda. Shuningdek, olingan bilimlarni interaktiv usulda nazorat qilish imkoni mavjud. Yana bir tomoni o‘quv-uslubiy majmualarning bugungi holati o‘quvchiga og‘irlik qiladi, binobarin, TMMEO‘Rni diskka yozib, undan boshqa kompyuterlarda ham foydalanish imkoni mavjud.

TMMEO‘Rni yaratish katta mahorat talab qiladigan va uzoq davom etadigan jarayon. TMMEO‘R ta’lim jarayonida yaxshi samara berayotgan va ularga katta ehtiyoj sezilayotgan hozirgi kunda har bir predmet, kurs uchun bunday vositalarni yaratish davr talabi bo‘lib qoldi.

Shu bois ham, respublikamizda ayni paytda TMMEO‘R yaratish sohasida tushunchaviy apparat shakllanmoqda. Bunda quyidagilar asosiy tushunchalar bo‘lib xizmat qiladi. TMMEO‘R – davlat ta’lim standarti asosida mutaxassislik va yo‘nalishlar bo‘yicha fanlarning alohida muhimroq bo‘limlariga oid nashrlar, namunaviy va ishchi reja, shuningdek, mashqlar va masalalar to‘plami, xarita va sxemalar albomi, tuzilmalarga oid atlaslar, xrestomatiya, diplom loyihasi bo‘yicha ko‘rsatmalar, ma’lumotnoma, ensiklopediya, trenajyorlar majmuidir.

Demak, TMMEO‘R:

- o‘quv dasturiga mos kelishi va o‘quv-uslubiy nashrlarga qo‘yilgan talablarga javob berishi kerak; TMMEO‘R umuman yangi yoki birinchi marta e’lon qilinayotgan bo‘lishi, avval, chop etilgan o‘quv-uslubiy majmuaning elektron varianti bo‘lishi, shuningdek, umumiy, maxsus va fakultativ kurslarga mo‘ljallangan bo‘lishi ham mumkin;
- o‘rganilayotgan kurs (yoki uning bir qismi)ning mazmunini ochib berishi, o‘quv-uslubiy maqsadga erishish uchun yetarli hajmga ega bo‘lishi lozim;
- o‘quv-uslubiy maqsadlarga erishishga xizmat qiluvchi illyustrativ elementlarni o‘z ichiga olishi, ya’ni u orqali kompyuterning multimediali imkoniyatlaridan imkon qadar maksimal darajada foydalanish mumkin;
- majmuada boshqa qismlarga gipermurojaat qilish, zarur bo‘lganda tashqi veb-manbalar va resurslarga ham murojaat qilishni o‘zida jamlashi kerak;

- o‘quvchining o‘quv materialini o‘zlashtirish va mustaqil baholash uchun o‘z-o‘zini tekshirish imkonini beruvchi nazorat savollariga ega bo‘lishi kerak.

TMMEO‘Rni yaratish jarayoniga turli yo‘nalish bo‘yicha mutaxassislarni jalb qilish zarur, hech bo‘lmaganda, ularning fikrlarini o‘rganib chiqish kerak. Bunday mutaxassislar qatoriga quyidagilar kiradi:

- o‘qituvchi;
- psixolog;
- testolog – o‘qitish natijalarini nazorat qilish usullari bo‘yicha mutaxassis;
- shakllar dizayneri yoki veb-usta;
- dasturchi.

TMMEO‘R oddiy o‘quv-uslubiy majmualardan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

1. Qo‘yilgan maqsadi.
2. Bilim berishda yangi usullarning qo‘llanganligi.
3. Darsga ajratilgan vaqtning rejali taqsimlanishi.
4. Dastur materiallaridan chetga chiqishning imkoniyati mavjudligi.
5. Ta’limning ijobiy tomonga o‘zgarishi.
6. Ta’limning yangi texnik vositalariga tayanishi.

TMMEO‘R tarkibiga kiruvchi elektron ta’lim resurslari (elektron darsliklar, o‘quv yoki amaliy qo‘llanmalar, o‘tilgan mashg‘ulotlarni o‘zlashtirish sifatini nazorat qilish uchun test materiallari, fan yoki o‘quv kursini o‘rganish, nazorat va kurs ishlarini bajarish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar, o‘quv (didaktik) qo‘llanma va masalalar to‘plamlari)ni ishlab chiqish asosida modullik prinsipi yotmog‘i lozim.

Bir tarafdan, amaliy bilimlar moduli mazmunan mashqli amaliy topshiriqlar qo‘yishning yagona usul talablariga mos kelishi, boshqa tarafdan esa, masalalarning o‘zi muayyan usullar asosida shakllantirilishi lozim. Amaliy bilimlar modulining asosiy elementlariga: amaliy modul bilan ishlash bo‘yicha ko‘rsatmalar, amaliy topshiriqlar va amaliy masalalarni yechish variantlari kiradi. Shuningdek, TMMEO‘Rning amaliy moduli tadqiqot obyektiga bevosita muloqotga chiqmagan holda tajriba-sinov o‘tkazish imkonini beruvchi virtual laboratoriyalar va hisoblash-modellashtirish vositalarini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi mumkin. Bunday tajriba-sinovlar matematik modellardan foydalanib o‘tkazilishi lozim.

Shunday qilib, TMMEO‘R an’anaviy o‘quv majmualardan farqli o‘laroq, o‘quvchilarda bilimga bo‘lgan tashnalikni kuchaytiradi, ularning faolligini oshiradi va, o‘z navbatida, yuqori natijaga erishishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdug‘aniyev A.A., Ziyayev A. Ta’lim jarayonida elektron ta’lim resurslarining o‘rni haqida innovatsiya o‘quv jarayonida (tezislar to‘plami). – T., 2009. – 31-33-betlar.

2. Begimqulov U.Sh. Ta’lim muassasalarining yagona axborot makonini tashkil etish va uni rivojlantirish istiqbollari Xalq ta’limi. – T., 2006. – Xalq ta’limi ilmiy-metodik jurnali № 4. – 4-7-betlar.

3. Taylakova D.N. Ta’limiy maqsadlarga mo‘ljallangan elektron o‘quv resurslar mazmuniga qo‘yiladigan talablar zamonaviy uzluksiz ta’lim sifatini oshirish: innovatsiya va istiqbollar xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. III TOM. TDPU. –T., 2020. – 132-135-betlar.

Mirsalim MAXMARAJABOV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Ro‘ziboy TO‘RAYEV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davat pedagogika universiteti
Termiz filiali o‘qituvchisi

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA ELEKTRON O‘QUV MUHITINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI

Annotatsiya

Maqolada masofaviy ta’lim yangi rivojlanayotgan o‘quv texnologiyasini xalq ta’limi bo‘limlarida qo‘llash va o‘quv fanining materiallari elektron kutubxona tizimiga joylashtirish, masofaviy texnologiyalar orqali maktablarning barcha o‘quvchilari uchun ochiqliligini ta’minlash, elektron axborot ta’lim muhiti foydalanuvchilari guruhlari vazifalari hamda masofaviy ta’lim uchun elektron kurslarini maxsus dasturiy mahsulotlardan foydalanish maqsadga muvofiqligi keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Masofaviy ta’lim, elektron darslik, elektron axborot ta’lim muhiti, KnowledgeCT, TrainerSoft, Lectura.

В статье рассматриваются вопросы применения новой развивающей образовательной технологии дистанционного образования в отделах народного образования и размещения материалов учебного предмета в электронной библиотечной системе, обеспечения доступности для всех учащихся школ посредством дистанционных технологий, задачи групп пользователей электронной информационной образовательной среды, а также целесообразность использования специальных программных продуктов электронных курсов для дистанционного образования.

Ключевые слова. Дистанционное обучение, электронный учебник, среда электронного обучения, KnowledgeCT, TrainerSoft, Lectura.

The article deals with the application of a new developing educational technology of distance education in the departments of public education and the placement of educational subject materials in the electronic library system, ensuring accessibility for all school students through distance technologies, the tasks of groups of users of the electronic information educational environment, as well as the feasibility of using special software products of electronic courses for distance education.

Key words. Distance learning, e-textbook, e-learning environment, KnowledgeCT, TrainerSoft, Lectura.

Hozirgi kunda jamiyatimizda sodir bo‘layotgan tub o‘zgarishlar, axborotlashgan jamiyatga bosqichma-bosqich o‘tish borasidagi amaliy harakatlar va jahon ta’lim tizimiga integratsiyalanish bo‘yicha olib borilayotgan keng islohotlar ta’lim jarayonida zamonaviy axborot va kommunikatsion texnologiyalarni keng joriy etishni taqozo etmoqda.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar sohasini rivojlantirish uchun 2018-yil 21-sentabrdagi “2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovat-

sion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli, 2018-yil 19-fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349-son, 2017-yil 30-iyundagi “Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5099-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O‘zbekistan Respublikasi rivojlanishining beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatimizni barcha sohalar bo‘yicha yanada rivojlanishini ta’minlash, hududiy-demokratik jamiyat qurish bo‘yicha bajarilishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda yoshlar ta’limi va ayollar bandligi bo‘yicha “Besh tashabbus” loyihasi doirasida 2020-yil 1-sentabrdan boshlab alohida umumta’lim muassasalarida bolalarni maktab fanlariga elektron o‘qitish bo‘yicha, shu jumladan, elektron sinf jurnali, o‘quvchilar kundaliklarini raqamlashtirish va elektron materiallar kutubxonasini (darsliklar, video darslar, virtual laboratoriyalar va boshqalar) o‘z ichiga olgan tajriba tariqasida axborot tizimlarini qog‘oz hujjatlarni bekor qilgan holda joriy etilishi nazarda tutilgan.

Elektron ta’lim – bu bilimlarni taqdim etish va yetkazish, o‘quvchi va o‘qituvchining o‘zaro ta’sirini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, bilimlarni boshqarish uchun kompyuter texnologiyalari va ma’lumotlarni uzatish tizimlaridan foydalanishga asoslangan texnologiyadir.

Axborot ta’lim muhiti har doim har qanday ta’lim tizimining asosi bo‘lib kelgan. Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlar, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, mehnat bozoridagi o‘zgarishlar, bularning barchasi ta’lim muassasasining zamonaviy axborot-ta’lim muhiti shakllanishiga va uning ta’lim tizimidagi roliga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Masofaviy ta’lim yangi rivojlanayotgan o‘quv texnologiyasi bo‘lib, o‘quv fanining materiallari xalq ta’limi bo‘limlarining elektron kutubxona tizimiga joylashtiriladi va masofaviy texnologiyalar orqali maktablarning barcha o‘quvchilari uchun ochiqdir. O‘qituvchining roli sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Ikkita tarkibiy qismni ajratish mumkin: elektron kurslarni rivojlantirish, amaliy mashg‘ulotlar va maslahatlarni o‘tkazish. O‘quv jarayonini tashkil etishda jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Zamonaviy kompyuter va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanib, video ma’ruzalar va vebinarlar, onlayn maslahatlar, sinf loyihalari, virtual laboratoriyalarda o‘tkaziladi.

1. O‘quvchilar tomonidan asosiy talablar xalq ta’lim bo‘limi veb-sayti orqali tarqatiladigan axborot materiallari, shuningdek, maktab elektron kutubxonasi va tashqi elektron kutubxona tizimining elektron axborot resurslari hisoblanadi. O‘quv jarayonda masofaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

2. O‘qituvchi, bir tomondan, elektron axborot ta’lim muhitini yaratishda qatnashadi (elektron materiallar tayyorlaydi, dasturlarni ishlab chiqadi), ikkinchi tomondan, ushbu vositani o‘quv faoliyati uchun ishlatadi.

3. Xalq ta’limi bo‘limlarining tarkibiy bo‘linmalari xodimlari uchun elektron axborot ta’lim muhiti uchun eng muhim sifat mezoni uning tarkibidagi elektron hujjat aylanish tizimining mavjudligi bo‘lib, u o‘quvchilarning barcha asosiy ishlarni avtomatlashtirishni

ta’minlaydi.

4. Elektron axborot ta’lim muhitining tashqi foydalanuvchilar toifasida bir nechta asosiy kichik guruhlar mavjud bo‘lib, ular ma’lumotlarga bo‘lgan ehtiyoj turlarida farqlanadi. Elektron axborot ta’lim muhitining yana bir vazifasi – bu ta’lim muassasasi faoliyati natijalari bo‘yicha turli xil elektron hisobotlarni shakllantirish.

Masofaviy ta’limni rivojlantirish umumta’lim maktablarni PISA, PIRLS xalqaro tadqiqotlar ishtirokida ijobiy natijalarga olib kelishda muhim rol o‘ynaydi.

Elektron ta’limning hozirgi rivojlanish bosqichining o‘ziga xos xususiyati va yaqin kelajakda dunyo axborot ta’lim resurslarining ta’lim muassasasining o‘quv muhitiga ta’siri, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning globallashuvi va sanoat jamiyatidan bilimlar jamiyatiga o‘tish global elektron ta’lim axborot muhiti shakllanishini ko‘rib chiqilishi mumkin. Ta’lim sohasidagi globallashuvning o‘ziga xos belgilari sifatida ochiq ta’lim manbalarining paydo bo‘lishi, ta’lim muassasalarini boshqarish uchun dasturiy ta’minotni birlashtirish, masofaviy o‘qitish texnologiyalarini rivojlantirish, bulutli xizmatlardan foydalanishning tobora ko‘payishi ko‘rib chiqilishi mumkin.

Vaqti-vaqti bilan o‘quv jarayonida foydalaniladigan elektron darsliklarning atrofida, munozaralar yuzaga keladi. Fikr almashish uchun mehmonlar kitobi yaratiladi va ba’zi loyihalarda maxsus elektron konferensiya (forum) bo‘lib, unda o‘quv jarayonining har qanday ishtirokchisi savol berish, yordam so‘rash yoki elektron muhitda ta’limning har qanday jihatlari bo‘yicha izoh berish huquqiga ega, vaqt o‘tishi bilan o‘quv multimedia obyektlari bilan boyitiladi. Tasvirlardan tashqari, ularga video va audio fayllar, animatsiyalar, uch o‘lchovli obyektlar va interfaol jadvallar kiradi, ular bizga o‘rganilayotgan jarayon va hodisalarni yanada aniqroq namoyish etish imkonini beradi.

Multimedia obyektlarining mavjudligi, qo‘shimcha ravishda, elektron va ayniqsa, masofaviy o‘qitishning asosiy kamchiliklarini qoplaydi, bu o‘quvchilar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa yo‘qligida namoyon bo‘ladi. Ta’riflangan elektron o‘quv nashrlarining barcha elementlari bevosita kompyuter ko‘nikmalariga va Internetda ishlash qobiliyatiga ega bo‘lgan fan o‘qituvchilari tomonidan yaratilishi mumkin. Bunday o‘quv kurslarini yaratish vazifasi KnowledgeCT, TrainerSoft yoki Lectura kabi maxsus dasturiy mahsulotlarning mavjudligi bilan ta’minlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, masofaviy ta’lim yangi rivojlanayotgan o‘quv texnologiyasini xalq ta’limi bo‘limlarida qo‘llashda o‘quv fanining materiallari elektron kutubxona tizimiga joylashtiriladi va masofaviy texnologiyalar orqali maktablarning barcha o‘quvchilari uchun ochiqligi ta’minlanadi. Elektron axborot ta’lim muhiti sifatini baholashning asosiy mezoni bu atrof-muhit bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan barcha foydalanuvchilar guruhlarining axborot ehtiyojlarini qondirishdir. Masofaviy ta’lim uchun elektron kurslarini yaratishda KnowledgeCT, TrainerSoft yoki Lectura kabi maxsus dasturiy mahsulotlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Владислава К.О.. Разработка и внедрение цифровой обучающей среды.– Екатеринбург 2017.

2. Зыкова Т.В., Сидорова Т.В., Шершнева В.А.. Проектирование, разработка использования электронных обучающих курсов по математике. – Красноярск 2014.

Durdona MUSTAFOYEVA,
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

PROFESSIONAL TA’LIM SHAROITIDA SHAXSNING KASBIY RIVOJLANISH TAMOYILLARI

Annotatsiya

Maqolada muallif professional ta’lim nazariyasi va amaliyoti uzviyligini yanada rivojlantirishda innovatsion kasbiy salohiyat elementlarining uyg‘unligi va uzviyligini ta’minlash asosida ta’limning integrativ tashkiliy funksiyasini yanada kengaytirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Professional ta’lim, kasbiy mahorat, integratsiya, muhandis-pedagog, integrativ yondashuvlar.

В статье автор размышляет о дальнейшем расширении интегративной организационной функции образования на основе обеспечения сочетания и преемственности элементов инновационного профессионального потенциала в дальнейшем развитии преемственности теории и практики профессионального образования.

Ключевые слова. Профессиональное образование, профессиональные навыки, интеграция, инженер-преподаватель, комплексные подходы.

In the article, the author reflects on the further expansion of the integrative organizational function of education on the basis of ensuring the combination and continuity of elements of innovative professional potential in the further development of the continuity of the theory and practice of vocational education.

Key words. Professional education, professional skills, integration, engineer-teacher, integrated approaches.

Jahonda inson sivilizatsiyasining rivojlanishi juda murakkab va ziddiyatli jarayonlar va tendensiyalar bilan tavsiflanadi. Ilm-fan, texnika va texnologiyalardagi ajoyib yutuqlar insonlarning hayot sifatini tubdan yaxshilash uchun xizmat qiladi, shu bilan birga ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, moddiy-texnika va ularning hayotiy faoliyati uchun boshqa shart-sharoitlarni yaratishi bilan birga shaxsiy ehtiyoj va manfaatlarini ro‘yobga chiqaradi.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya mazmunini fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvini dual tizimi asosida shakllantirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “ta’lim sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish, ta’lim xizmatlarining mavjudligi va samaradorligini oshirish” va “zarur bo‘lgan mutaxassisliklar bo‘yicha ta’lim olish va kadrlar malakasini oshirish ishlarini keng ko‘lamda yo‘lga qo‘yish” kabi ustuvor vazifalarning ijrosini ta’minlashda ta’lim oluvchilarda yaxlit va tizimli integrativ bilim, kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va ta’lim natijalarini diagnostik baholash muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan kasb ta’limi mutaxassislarni va ishlab

chiqarish xodimlarini kasbiy faoliyatga tayyorgarlik holatini o‘rganish, ularning ixtisoslik sohalari va ishlab chiqarish yo‘nalishlari bo‘yicha kasbiy kompetentligini tadqiq etish, pedagogik tashxislashning innovatsion usullarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishni taqozo etmoqda.

Hozirgi vaqtda ta’lim sohasida turli xil ta’lim va pedagogik texnologiyalari qo‘llanilmoqda, ularning asoslari o‘quv jarayonini bir tomondan: fanning mazmuni; talabalarning ko‘nikmalari va qobiliyatlari yoki o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatish. Shu nuqtayi nazardan, jahon pedagogikasida ma’lum bo‘lgan barcha texnologik yondashuvlarni ikki xil guruhga bo‘lish mumkin: qayta ishlab chiqarish texnologiyalari va rivojlanish texnologiyalari. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu yondashuvlarning ikkalasi ham innovatsion ta’lim muammosini hal qiladi.

Shu bilan birga, zamonaviy kasb-hunar ta’limi muassasalari insonparvarlik pedagogikaning asosiy tamoyillari va g‘oyalarini o‘zlashtirish hamda ta’lim amaliyotiga tatbiq etilishini ta’minlaydigan vositalar va texnologiyalar qo‘llanilmoqda. Bizga ma’lumki, 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab professional ta’lim tizimida respublika bo‘yicha jami 725 ta ta’lim muassasasi, jumladan, 339 ta kasb-hunar maktabi, 200 ta kollej va 186 ta texnikum faoliyat ko‘rsatishi belgilangan. Professional ta’limning sifat va samaradorligini ta’minlash maqsadida o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini mamlakatimizdagi ta’lim-tarbiya sifatini yanada oshirish, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvini dual tizimi asosida shakllantirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Professional ta’lim tizimining xususiyatlaridan biri shundaki, universal mustaqil sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim usullarining ahamiyatini oshiradi. Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan professional ta’lim tizimi muhandis-pedagogik kasbiy ta’limida professor-o‘qituvchilar va talabalar amalda qo‘llaydigan metodik aloqa muhim didaktik sharti bo‘lib qoladi va shuning uchun alohida e’tibor talab etiladi.

Talabalar va tinglovchilarni ajratib turadigan bir qator xususiyatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin: tinglovchilar bilan o‘qituvchi o‘rtasida o‘zaro ishonch va hurmat muhitini shakllantirish lozim. Buning uchun savollar berish yoki o‘qituvchilar jiddiy qabul qilinmasligi yoki kulishidan qo‘rqsalar mavzularni o‘rganishda ishtirok etish kerak; tinglovchilarda bilim yetishmasligi sababli qo‘rquv, xurofot va turli fikrlar yuzaga keladi; barcha tinglovchilarni bir xil hurmat qilish lozim.

Ta’lim jarayonida tinglovchilarning yuqori darajadagi ishtirokini ta’minlash birinchidan, bunday ta’lim usullarini tanlashni o‘z ichiga oladi, u tinglovchilarni maksimal darajada jalb qiladi. Ularga buni tushuntirish muhim, har qanday shaxsiy qadriyatlar, e’tiqodlar va fikrlarning bayonoti faqatgina mamnuniyat bilan qabul qilinadi. Bunday ta’lim usullari muhokamalar, kutilmagan g‘oyalarni muhokama qilish, muayyan misollarni muhokama qilish, ushbu muammoning turli jihatlarini, rolli o‘yinlarini namoyish etish, tajriba almashinuvini tashkil etishga imkon beruvchi guruh ishi va boshqalar eng foydali hisoblanadi. Ta’lim berish tezligi kichik bo‘lishi mumkin, ammo bu holatda o‘rganish qobiliyati yoshga bog‘liq emas.

Kasbiy munosabatlar subyekti funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun shaxs nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishi, balki jamiyatning madaniy merosini ham bilishi, uni o‘z ichki dunyosi mulkiga aylantirish ham muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta’lim muassasalarida kasbiy ta’limning maqsadlarini ko‘rsatib, quyidagi tarkibiy qismlarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

– birinchi bosqich talabalarini professional ta’limi muassasasi muhitiga moslashtirish;

– talabalarda yuksak darajadagi bilim, ko‘nikma va malakalarni oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

– ularning ma’naviy-axloqiy rivojlanishini ta’minlash;

– ijtimoiy va professional (kasbiy) o‘z-o‘zini anglash muhitini yaratish;

– talabalarning kasbiy muhim bo‘lgan qobiliyatlari va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlarini rivojlantirish;

– bitiruvchilarning raqobatbardoshligini shakllantirish;

– talabalar o‘rtasida xulq-atvorning kasbiy-axloqiy me’yorlarini shakllantirish va uni yuksalishiga erishish.

Shu bilan birga, professional ta’limi tizimi ikki tomonlama vazifani hal qilishi kerak: birinchidan, mehnat va kasb resurslariga bo‘lgan davlat ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash uchun jamiyatning ijtimoiy buyurtmasini bajarish; ikkinchidan, mutaxassisning shaxs sifatida, uning ma’naviy rivojlanishiga e’tibor qaratish axloqiy xarakter, uzluksiz o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘z-o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyojini tarbiyalash.

Kasbiy tayyorgarlik mavzusini ishlab chiqish, ya’ni o‘quvchining kasbiy yo‘nalganligini, uning shaxsiy identifikatsiyasi va xarakter xususiyatlarini hisobga olish zarurligi, dolzarb o‘quv axborotiga – albatta, zarur va majburiy hamda uni idrok etishni boshqarishga qaratishning maqsadga muvofiqligini qayd etish ham muhimdir. Sinov yoki imtihonda keyingi reproduksiya uchun mexanik eslab qolish emas, balki bu ma’lumotlarning aksariyatini rag‘batlantirish, uni nafaqat mavjud va egallangan hayot tajribasi bilan, balki kelajakdagi kasbiy (professional) faoliyat uchun kutilgan natijaviy o‘sish bilan rivojlantirish zarur.

Oliy ta’lim muassasalarida kasb ta’limi jarayonida fanlararo bog‘lanish, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini amalga oshirish, rivojlantirish va rivojlanish qonuniyatlari va tendensiyalari, kasb ta’limi mutaxassislarini professional ta’lim tizimi asosida kasbiy pedagogik va ishlab chiqarish faoliyatga tayyorlash masalalari, kasbiy tayyorgarlikning pedagogik diagnostikasi nazariy va texnologik asoslari muayyan daraja o‘rganilgan bo‘lsada, hozirda kasb ta’limi mutaxassislarini tayyorlashda umumkasbiy va ixtisoslik fanlari integratsiyasining didaktik imkoniyatlari, integrativ yondashuv asosida o‘qitishning o‘quv-uslubiy ta’minoti hamda ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish hamda amalga tatbiq etish zarurati professional ta’lim tizimining dolzarbligini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – № 6 (766)-70-modda. – T.: Adolat, 2017. – 38-b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017 -yil 22-dekabr. http://uz24.uz.

3. Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс…док.пед.наук. –Т.: 1995. – С.43.

Sharibboy ERGASHEV,
Namangan muhandislik qurilish instituti dotsenti

TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada jahonda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, talabalarning ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlash jarayonlarida pedagogik yondashuvlardan keng miqyosda foydalanishga alohida e'tibor qaratilayotganligi, ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi jadal o'zgarishlar, ta'lim tizimini takomillashtirish muammolarini bartaraf etish, shu bilan birga talabalarni matematik tabiiy-ilmiy, umumkasbiy va ixtisoslik fanlarni integratsiyasini ta'minlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar. Kasbiy faoliyat, innovatsion texnologiyalar, model, gnesologik yondashuv, metodologiya, ijtimoiy-psixologik yondashuv, ta'lim tizimi, texnologiya.

В статье особое внимание уделяется широкомасштабному использованию педагогических подходов в процессах повышения качества и эффективности образования в мире, поддержке образования студентов, ускоренным изменениям в социально-экономической сфере, устранению проблем совершенствования системы образования, а также раскрытию возможностей использования инновационных технологий в обеспечении интеграции математических естественнонаучных, общеобразовательных и профильных дисциплин.

Ключевые слова. Профессиональная деятельность, инновационная технология, модель, гнесологический подход, методология, социально-психологический подход, образовательная система, технология.

The purpose of the article is to improve the quality and efficiency of education in the world, to pay special attention to the widespread use of pedagogical approaches in the processes of supporting students education, rapid changes in the socio-economic sphere, to eliminate the problems of improving the education system, and at the same time to identify the possibilities of using innovative technologies in education.

Key words. Professional activity, innovative technology, model, epistemological approach, methodology, socio-psychological approach, educational system, technology.

Jahonda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, talabalarning ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlash jarayonlarida pedagogik yondashuvlardan keng miqyosda foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi jadal o'zgarishlar, ta'lim tizimini takomillashtirish muammolarini bartaraf etish alohida e'tibor qaratishni talab etadi. Bunda, talabalarni tabiiy-ilmiy, umumkasbiy va ixtisoslik fanlarni integratsiyasini ta'minlash, hodisa va jarayonlarni innovatsion texnologiyalar orqali loyihalash, konstruksiyalash, tadqiqotchilik kabi kompetensiyalarini shakllantirish hamda kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahondagi yetakchi davlatlarning pedagogik tajribalariga asosanб bo‘lajak muhandislarning texnologik jarayonlarni innovatsion modelini qurish asosida zaruriy kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, loyihalash, konstruksiyalash va tadqiqotchilik faoliyati turlariga tayyorlash muhim o‘rin egallaydi. Jumladan, fanlararo integratsiya asosida o‘qitishning didaktik ta’minotini takomillashtirish, hodisa va jarayonlarni faoliyatli, matematik va strategik yondashuvlarga asoslanish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta’lim muassasalarida texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish ta’lim yo‘nalishi talabalarini innovatsion texnologiyalar asosida kasbiy faoliyat turlariga tayyorlashda dasturiy vositalar, ta’lim metodlari va texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali mehnat bozori talablariga muvofiq loyihalash, konstruktorlik, tadqiqotchilik kabi kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish zaruratini taqozo etadi.

Kasbiy faoliyatga va bilimga ega bo‘lgan talabalar kasbiy faoliyatda quyidagilarni amalga oshira olishi zarur:

– mutaxassislikka oid adabiyotlarda uchraydigan matematik apparatdan bemalol foydalana olishi;

– amaliyotda qo‘llaniladigan natijalarga – texnika va texnik jarayonlarni bajarishni sifatli xulosagacha – yetkazish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

– texnik ko‘nikmalarni qo‘llashga yordam beradigan to‘g‘ri texnik intuitsiyaga ega bo‘lishi, ya’ni texnik jarayonlarga xos kerakli jihozlarni tanlay olishi va amaliyotda hosil bo‘lgan foydali yo‘lni belgilay olishi, bu yo‘lda hosil bo‘ladigan qiyinchiliklarni oldindan ko‘ra bilishi kerak.

Kasbiy faoliyatga o‘rgatish o‘qitishning quyidagi asosiy tamoyillariga javob beradi: ilmiylikka, talabalarni bilimlarini zamonaviy fan darajasiga mos kelishiga olib keladi; ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga, bo‘lajak muhandislarda voqelikni bilishning innovatsion metodlari haqida to‘g‘ri tasavvurni yaratadi; amaliy yo‘nalganlikka, xilma-xil amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarni innovatsion texnologiyalar asosida qo‘llashning roli va muhimligini ko‘rsatadi.

Mutaxassis ishlab chiqarish jarayoni texnologiyasini va har bir ishlab chiqarish sohasini muhim jihatlarini bilishi, amaliy kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Kasbiy pedagogik ta’lim, pedagogik va boshqa maxsus kasbiy ta’lim turlaridan (texnik, iqtisodiy va h.k.) farqlanadi. Kasbiy ta’lim pedagogi xalq xo‘jaligini mutaxassislaridan farqli ravishda ishchi kasbini professional ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, hamda uni bo‘lg‘usi muhandislarga o‘rgata olishi lozim.

Kasbiy faoliyatga bog‘liqlik nuqtayi nazaridan matematika hamda tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish fanlarini o‘rganishda, o‘quv faoliyatini umumiy usullari sifatida, integrativ bog‘lanishlarni tatbiq etish imkoniyatlarini e’tiborga olib, bo‘lajak muhandislar egallashi zarur bo‘lgan quyidagi intellektual qobiliyatlar ajratildi: vaziyatni o‘rgana olishi, vaziyatni matematik tilga o‘tkaza olishi, model ichidagi yechimlarni bajara olishi, ilmiy, konstruktorlik, ijrochilik qobiliyatlariga teng kuchli bo‘lgan, yechimlarni o‘rgana olishi[1].

Bo‘lajak muhandislarda yuqorida ko‘rsatilgan qobiliyatlarni shakllantirish orqali, ularda taqqoslash, umumlashtirish, tahlil, abstraktlashtirish kabi umumiy intellektual

[1] Imomov Sh.B., Eshonqulov J.S., Alimardonov X,. Ibragimov S.L. Penobeton. //“Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash sharoitida fan-ta’lim-ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish muammolari va yechimlari” respublika ilmiy-amaliy anjumani. Qarshi. 29-30-may 2015-yil, 65-66-betlar.

metodlarni rivojlantiramiz. Bu metodlar kasbiy faoliyatda texnologik jarayonlarini asosini tashkil etadi[2].

Pedagogik texnologiyalardan foydalanish talabalarda quyidagilarni rivojlantirishga yordam beradi: umumiy intellektual metodlar (taqqoslash, umumlashtirish, tahlil qilish, mavhumlashtirish); umumkasbiy ko‘nikmalar (tadqiq qilish, konstruksiyalashni bilish, bajarish) kasbiy kompetensiyalar (tadqiqotchilik, konstruktorlik, loyihalash). Bo‘lajak muhandislarni mutaxassislik bo‘yicha kasbiy faoliyatga tayyorlash bo‘yicha mavjud adabiyotlar tahlil qilindi (o‘quv, iqtisodiy, texnologik va boshqa jarayonlarni modellashtirish).

Olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijasida oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kasbiy faoliyatini takomillashtirish modeli ishlab chiqildi va uning tarkibiy qismlarining mohiyati yoritib berildi.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli modullarning o‘zaro aloqadorligini o‘z ichiga oladi: protsessual-metodologik (talabalarni kasbiy faoliyatini takomillashtirishda metodologik yondashuv va tamoyillarni amaliyotga joriy etish xususiyatlari); muammoli-mazmunli texnik, texnologik yo‘nalishi o‘quv rejasiga muvofiq talabalarda texnikaviy dunyoqarash va kasbiy kompetensiyalarni shakllantiruvchi kasbiy-amaliy va amaliyotga yo‘naltirilgan o‘quv fanlari tavsifi (tabiati); tashkiliy-texnologik (o‘quv-amaliy faoliyatni tashkil etish, o‘quvchilarning auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlari o‘zaro aloqasini ta’minlash, qo‘shimcha ta’lim infratuzilmalarini rivojlantirish, talabalar ilmiy-tadqiqot (texnik-ijodkorlik) faoliyati shakllarini rivojlantirish; natijaviy-mezonli (talabalarda texnikaviy dunyoqarashni takomillashtirish harakatlarini baholash monitoringi).

Oliy ta’lim muassasalarida texnikaviy yo‘nalish talabalarida texnikaviy dunyoqarash va kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish asoslarining strukturasi pastki tuzilmalarning birligini quyidagilar anglatadi:

– motivatsion texnikaviy dunyoqarashni shakllantirishda texnologik me’yorlarga rioya qilish nuqtayi nazaridan qiymatli munosabat, kasbiy faoliyatida ijodiy tashabbus ko‘rsatilishiga ijobiy munosabat, amaliy texnologik muammolarini yechishning asl usullarini izlashni o‘rgatish;

– kasbiy-gnostik fanlararo kasbiy bilimlar tizimini o‘zlashtirish, ijodiy vazifalarni hal qilish metodikasi, ixtirochilik muammolarini hal qilish nazariyasi va texnologiyasini o‘zlashtirish, ijodiy tasavvurni ishlab chiqish, mualliflik g‘oyasini amalga oshirish uchun dizayn loyihasi va texnologiyasini yaratish uchun kasbiy vazifalarni tizimli tahlil qilish va boshqalar; ijodiy-protsessual ko‘nikma va malakalarni hamda texnologik mahsulotini mustaqil ravishda yaratishning o‘ziga xos vazifasini hal qilish, o‘z faoliyatlarini mustaqil ravishda rejalashtirish va nazorat qilish, o‘z g‘oyalarini va e’tiqodlarini himoya qilish, oddiy g‘oyalarni yaratish ko‘nikmasini oshirish, ularni amalga oshirilishi kasbiy faoliyatning sifat jihatidan yangi darajasiga olib keladi.

Oliy ta’lim muassasalarida texnologik yo‘nalishi ijodkori (talabasi)ning yuqorida ko‘rsatilgan tuzilmasiga muvofiq, uning shakllanishini baholash mezonlari quyidagilardir: aksiologik (kasbiy faoliyatining jarayoni va natijalariga mas’ul munosabat, kasbiy muammolarni ijodiy hal qilish xohishi va boshqalar);

– ijodiy-kognitiv (kasbiy vaziyatlarning tizimli tahlilini amalga oshirish ko‘nikmasi, mehnat faoliyati muammolarini hal etishning noan’anaviy usullarini ishlab chiqish qo-

[2] Choriyev R.K. Oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarida kasb ta'limi mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning dual tizimini qurish. Tavsiyalar. –T., 2020-y. 1 Qo‘ziyev N.M. Texnika yo‘nalishlari talabalarida texnik tafakkurni rivojlantirish. O‘quv-qo‘llanma. – Qarshi, 2020. – 100-b.

biliyati, mustaqil kasbiy faoliyatida ixtirochilik muammolarini hal qilish usulidan faol foydalanish);

operatsion-faoliyatli (ishlab chiqarish muammolariga nostandart yechimlarni mustaqil ravishda topish, o‘ziga xos dizayn mahsulotini yaratish qobiliyati, kasbiy va badiiy faoliyat hamda dizayn sohasida yangi innovatsion g‘oyalarni yaratish va amalga oshirish qobiliyati).

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oliy ta’lim muassasalarida texnik yo‘nalishi talabalarida kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish modeli va uning tarkibiy qismlarini amalga oshirish jarayonida mustaqil faoliyat yurita oladigan ijodiy, texnologik dunyoqarashga ega, jamiyatga kasbiy ijodiy munosabatda bo‘lgan, kasbiy va shaxsiy, texnologik sifatlari shakllandi. Kasbiy faoliyatli sifatlar bilan shaxsiy sifatlar uyg‘unlashib, talabalarda kasbiy faoliyat, texnologik dunyoqarashni rivojlanganligini yuqori sifat darajasiga ko‘taradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imomov Sh.B., Eshonqulov J.S., Alimardonov X., Ibragimov S.L. Penobeton. // “Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash sharoitida fan-ta’lim ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish muammolari va yechimlari” respublika ilmiy-amaliy anjumani. – Qarshi. 29-30-may 2015-yil, 65-66-betlar.

2. Choriyev R.K. Oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarida kasb ta’limi mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning dual tizimini qurish. Tavsiyalar. –T., 2020-y.

3. Qo‘ziyev N.M. Texnika yo‘nalishlari talabalarida texnik tafakkurni rivojlantirish. O‘quv-qo‘llanma. – Qarshi, 2020. – 100-b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli Farmoni.

5. Abduquddusov O. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashga integrativ yondashuv. – T.: Fan, 2005, –157-b.

6. Ergashev Sh. Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi kasb-hunarga yo‘naltirish faoliyatining mazmuni metodik tavsiyalar. – T.: Maktab va hayot jurnali, 2004-yil.

Dilsora ABDUVALIYEVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

KOMPETENTLIKKA ASOSLANGAN YONDASHUV – PEDAGOGIK TA’LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI RIVOJLANISHINING ILMIY ASOSI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada kompetentlikka asoslangan yondashuv – pedagogik ta’lim nazariyasi va amaliyotini rivojlanishining ilmiy asosi sifatida ekanligi, kompetentlik va kompetensiyalar tushunchasi qanday shakllanishi va rivojlanishi bo‘yicha tahlillar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Kompetentlik, ta’lim nazariyasi, pedagogika, tizimli yondashuv, metodika, pedagogik jarayon.

В статье анализируется, как компетентностный подход является научной основой развития теории и практики педагогического образования, а также как формируется и развивается понятие компетентность и компетенция.

Ключевые слова. Компетентность, теория образования, педагогика, системный подход, методика, педагогический процесс.

The article analyzes how the competency-based approach is the scientific basis for the development of the theory and practice of pedagogical education, and how the concept of competence and competencies is formed and developed.

Key words. Competency, theory of education, pedagogy, systematic approach, methodology, pedagogical process.

Ma’lumki, tadqiqotning ahamiyatli natijasini olish dastlabki nazariy pozitsiyaga nuqtayi nazarga, muammoni qo‘yishga prinsipial yondashishga va tadqiqot tafakkuri harakatining umumiy yo‘nalishlari, yo‘llarini belgilashga bog‘liq. Shuning uchun ham pedagogik voqelikni anglashga tizimli yondashuv mohiyatini ochib berish muhim ahamiyatga ega deb tushuniladi.

Pedagogikada tizimli yondashuv “ta’lim” fani tizimli obyekt sifatida tadqiq qilinsa va tashkil etilsa namoyon bo‘ladi va aynan mana shunday tushunish asosida ilmiy va amaliy xulosalar chiqariladi. Ushbu obyektga tizimli yondashuvni amalga oshirish quyidagilarni nazarda tutadi:

– obyektning ichki tuzilishini, uning alohida elementlari va ular o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish;

– obyektga xos bo‘lgan va uning rivojlanish jarayonini belgilovchi ichki ziddiyatlarni aniqlash, shu asosda integratsion (birlashish) xususiyatlarini tuzish;

– ta’lim muassasasining o‘zini o‘rab turgan muhit bilan, uning komponentlari bilan tashqi aloqalarini tahlil qilish;

– obyektning tizim sifatida kelib chiqish (paydo bo‘lishi) xususiyatlari, hozirgi holati va rivojlanish an’analarini o‘rganish.

U pedagogik tizim va rivojlanayotgan shaxsda integrativ tizim shakllantiruvchi aloqalar va munosabatlarni ajratib ko‘rsatishga; tizimda nima barqaror va yana nima o‘zgaruvchan ekanligini o‘rganish va tushunishni shakllantirishga; shaxsning tizim sifatidagi rivojlanishiga alohida komponentlar, jarayonlarning hissasini aniqlashga yo‘l ko‘rsatadi (orientatsiya beradi).

Shunday qilib, XX asrning ikkinchi yarmida tizimli yondashuv g‘oyalarining rivojlanishini tahlil qilish:

1) yaxlit pedagogik jarayonni tushunishdagi mavjud farqlarga qaramasdan, olimlar pedagogik jarayonning mohiyatini ochib berish va uning yaxlitlik xususiyatlarini olishi (kasb etishi) shartlarini faqat zamonaviy pedagogik tushunchalarning asosiga aylangan tizimli yondashuv metodikasi asosida aniqlash mumkinligi;

2) tarbiya samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishi “tarbiya tizimlarining optimal ishlashini ta’minlash” hisoblanadi.

3) asrlar almashinuvi davrida murakkab obyektlarni ko‘rib chiqishda, ularni loyihalash va takomillashtirishda tizimli yondashuv g‘oyalarini keng ilmiy-amaliy qo‘llashga ehtiyoj tug‘ildi.

Bu ilm-fan o‘z taraqqiyoti jarayonida mavjud voqelikning murakkab ko‘p jihatli obyektlarini – narsa va hodisalar olamini bilishdan tortib, tizimlar olami va ularning qonuniyatlarini o‘rganish zaruriyati bilan bog‘liq muayyan bosqichga kelganligi bilan izohlanadi. Zamonaviy ilmiy izlanish an’analari shundan iborat.

XX asr oxiriga kelib, pedagogikada tizimli yondashuv g‘oyalarining rivojlanishi olimlarni tarbiya tizimlarining makro darajada paydo bo‘lishi mumkinligi va muqarrarligi haqidagi xulosaga olib keldi. Pedagogikada tarbiya makonlari nazariyasini ishlab chiqqan olim Y.P. Sokolnikov[1]; “ijtimoiy tarbiyaning mohiyatiga” ta’rif berish jarayonida idoralararo madaniy-ta’lim markazlarining rivojlanish istiqbollarini o‘rgangan V.G.Bocharova va RTAning Ijtimoiy pedagogika markazi xodimlari; tuman, shahar va butun mintaqa ko‘lamida tarbiya tizimlarining integratsiya qilish imkoniyatlari masalasini ko‘targan olima L.I.Novikova va uning maktabi olimlari tarbiya subyektlarining integratsiya jarayoni alohida maktab doirasidan tashqariga chiqadigan tizim shakllantirishning yangi darajasini asoslashga yaqin kelishgan.

Tizimli yondashuv g‘oyalarini aks ettirish bo‘yicha oxirgi o‘n yillikda ishlab chiqilgan kasbiy pedagogik ta’lim muammosiga oid bir qator konsepsiyalar, konseptual yondashuvlar, materiallarning tahlili[2,3,4] bizga quyidagilarni qayd qilish imkonini beradi:

1) ikki asr o‘rtasidagi davrda olimlar, metodistlar va amaliyotchilarning o‘qituvchilarni kasbga tayyorlashning alohida tomonlari, jihatlari, muammolari haqida emas, balki umuman, kasbiy ta’lim jarayoni haqida refleksiya qilish (mulohaza yuritishga) intilishlari yaqqol ko‘zga tashlanadi;

2) hozirgi kunda kasbiy ta’lim faoliyatining variativlik g‘oyasini amalga oshirish, pedagogika ta’limi muassasalarida va ularning tarkibiy qismlarida (kafedra, fakultet,

[1] *Ю.П. Сокольников,* О тенденциях, перспективах и стратегии развития педагогической науки на современном этапе / Ю.П. Сокольников. – Чебоксары: ЧГПУ им. И.Я. Яковлева, 2000.

[2] *Гершунекий, Б.Є.* Философское образование для XXI века (в поисках практико-ориентированных образовательных концепций) / Б.С. Гершунский. – М.: Совершенство, 1998.

[3] *Зеер, Э.Ф.* Модернизация профессионального образования: компетентностный подход / Э.Ф. Зеер // Образование и наука. – 2004. – № 3 (27).

[4] *Маркова, А.К.* Психология труда учителя / А.К. Маркова. – М.: Просвещение, 1993.– С.192.

bo‘limlarida) kasbiy ta’limning (kasbga tayyorlashning) noyob (unikal) tizimlarini yaratish yo‘li tanlangan, chunki bunday muassasalardagi ta’lim jarayonining samaradorligi asosan, jarayonni qurishning tizimli xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi (sabab bo‘ladi);

3) o‘zgartirish yo‘naltirilganligiga ko‘ra, texnosentrik va tabiatiga ko‘ra, avtoritar bo‘lgan ta’lim faoliyatining o‘rniga bo‘lajak mutaxassisning kasbiy shakllanishi va rivojlanishining shaxsga-yo‘naltirilgan gumanistik jarayoni kirib kelmoqda, pedagogik ta’lim muassasalari pedagoglarining asosiy sa’y-harakatlari bo‘lajak o‘qituvchining individualligini va shaxsining subyektliligini pedagogik faoliyatni tizimli tushunish asosida namoyon bo‘lishi va rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlashga qaratilgan;

4) OTMlarining pedagogik jamoalarining talabalar bilan ta’lim nuqtayi nazaridan ta’sir ko‘rsatishni tizimli yo‘lga qo‘yishga (qurishga) intilishlari kuzatilmoqda. Yaxlit integral tizimi sifatida bo‘lajak o‘qituvchining shaxsi barcha komponentlari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan yaxlit pedagogik jarayonda rivojlanishi anglash/tushunish sodir bo‘lmoqda;

5) pedagogik ta’lim mazmunini tanlashda bir tomondan bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy rivojlanishi sohasini eng muhim yutuqlar bilan to‘ldiradigan umuminsoniy qadriyatlarining, ikkinchi tomondan – pedagogik mahorat (ustalik) va ijodning bitmas-tuganmas manbalari bo‘lmish milliy madaniyat qadriyatlari, mintaqaviy va mahalliy an’analarning ahamiyatliligining oshishi sodir bo‘ldi;

6) pedagogik ta’limning zamonaviy amaliyotida kasbiy pedagogik ta’limda (tayyorlashda) “ta’limning barcha bo‘g‘inida” va kasbiy-ta’lim ishlarining kichik shakllarini optimal tarzda uyg‘unlashtirish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Tashkiliy shakllarning birinchi guruhi uzluksiz pedagogik ta’limi tizimida yagona ta’lim makonini shakllantirishga yordam beradi, ikkinchi guruh esa har bir talabaning shu makonda o‘z o‘rnini topish imkoniyatiga ega bo‘lishini ta’minlash uchun mo‘ljallangan.

Pedagogika fanining rivojlanishi bizga bog‘liq bo‘lmagan ko‘pgina an’analarga muvofiq kechadigan obyektiv jarayondir. Bu an’analar pedagogikaning tizimli yondashuvga asoslangan rivojlanishining muayyan yo‘nalishlari sifatida, bu ochib beradigan (ishga tushirib yuboradigan) jarayonning bosqichlarining muayyan ketma-ketligi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, bu ketma-ketlikning hech bir bosqichini chetlab o‘tib bo‘lmaydi, ularning hech birida ehtiyojsiz, zaruratsiz, ilm-fan taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan chegarasiz to‘xtab o‘tib bo‘lmaydi.

Pedagogika fanining rivojlanishi istiqbolida tizimli yondashuv g‘oyalarini amalga oshirish yo‘llari – uni tabiiy tarzda o‘zaro bog‘langan sohalar tizimiga bosqichma-bosqich aylantirish, ularning umumiy ta’lim nazariyasi asosida yaxlit fan sifatida rivojlanishi voqelikni tizimli tushunish asosida bo‘ladi. Tarbiya uning vazifalari, ierarxik strukturasi va omillarini tizimli tushunish tarbiyaviy tizimni yaxlit tizim sifatida ehtimoliy rivojlanishini ifodalaydigan va bu bilan zamonaviy jamiyatning tabiiy qismini tashkil qiluvchi an’analarni bashorat qilish imkonini beradi[5].

Umumiylik va o‘ziga xoslikning xilma-xilligining qo‘shilib ketishi, va ularning turli ko‘rinishda birga kelishlari (birlashuvi) natijasi sifatida har bir ta’lim tizimi yagona, ma’lum darajada betakror hodisa bo‘lib xizmat qiladi. Bunday betakrorlik pedagoglardan o‘z faoliyatida ijodkorlikni namoyon etishni talab qiladi, biroq bu ijodkorlik shaxsning yaxlitligi va uning tarbiya jarayonining tizimliligidan kelib chiqadigan pedagogik nazariyaga tayanishdagina ommaviy, samarali bo‘lishi mumkin.

Pedagogik ijod turlari turli-tuman, ularning tasnifi xilma-xil bo‘lishi mumkin, biroq

[5] *Сокольников, Ю.П.* Системный анализ воспитания школьников / Ю.П. Сокольников. – М., 1986.

ularning eng muhimlari – tarbiyani tizimli tushunish nuqtayi nazaridan quyidagilar: optimal amal qilishini ta’minlash uchun tarbiyachilarning ijodi yo‘naltirilgan tarbiya tizimining xususiyatlari; ularni hal qilish jarayonida ijod namoyon bo‘ladigan pedagoglarning faoliyat vazifalari[6].

O‘qituvchining kasbiy kompetentligi uning metodologik, maxsus va psixologik-pedagogik tayyorligining birligi bilan belgilanadi, deb yozadi V.A. Slastenin. Olim kompetentlikning eng umumiy ko‘rsatkichlari orasida pedagogik fikrlay olish va pedagogik amal qila olishni nazarda tutadi. Ushbu malakalar pedagogik faktlar va hodisalarni malakali tahlil qilishda namoyon bo‘ladi.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikni bilim va malakalar majmui sifatida tadqiq qilish o‘qituvchining pedagogik faoliyatida nima muhim va foydali hisoblanishini, kompetentlik va kompetensiyalar tushunchasi qanday shakllanishini, zamonaviy o‘qituvchining kompetensiyalari majmui qanday ta’riflanishini aniqlashga imkon beradi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogning tahsil oluvchilar bilan o‘zaro faoliyat va hamkorlikning samaradorligini ta’minlovchi empatik-kommunikativ kompetensiyasi (pedagogik faoliyatda) innovatsion kompetensiyaning analogiga aylanishi mumkin.

Demak, psixologik-pedagogik tadqiqotlarning metodologik asosi sifatida kompetentlikka asoslangan yondashuvga murojaat qilish kasbiy-pedagogik kompetentlikda: nazariy-metodik, yoki texnologik, psixologik-pedagogik, shaxsiy-ijodiy kabi uchta asosiy komponentni ajratish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сокольников, Ю.П. Системный подход к воспитанию школьников / Ю.П. Сокольников. – М., 1990.

2. Сокольников, Ю.П. О тенденциях, перспективах и стратегии развития педагогической науки на современном этапе / Сокольников Ю.П. – Чебоксары: ЧГПУ им. Яковлева И.Я., 2000.

3. Гершунский, Б.Э. Философское образование для XXI века (в поисках практико-ориентированных образовательных концепций) / Гершунский Б.С. – М.: Совершенство, 1998.

4. Зеер, Э.Ф. Модернизация профессионального образования: компетентностный подход / Э.Ф. Зеер // Образование и наука. – 2004. - № 3 (27).

5. Маркова, А.К. Психология труда учителя / А.К. Маркова. – М.: Просвещение, 1993.– С.192.

6. Сокольников, Ю.П. Системный анализ воспитания школьников / Сокольников Ю.П. – М., 1986.

7. Сокольников, Ю.П. Системный подход к воспитанию школьников / Сокольников Ю.П. – М., 1990.

8. Sobithon Turgunov., Muhayyo Umaraliyeva. The Development of Professional Competencies of Teachers on the Basis of an Innovative Approach// Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics. –2016. – №2. – P.119-125.(DOI:10.14706/JFLTAL163212).

[6] *Сокольников, Ю.П.* Системный подход к воспитанию школьников / Ю.П. Сокольников. – М., 1990.

Tolibjon NIZOMOV,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
“Islomshunoslik va Islom sivilizatsiyasini o‘rganish ICESCO”
kafedrasi tayanch doktoranti

ABU LAYS SAMARQANDIY YASHAGAN DAVR – X ASRDA TA’LIM TIZIMI

Annotatsiya

Maqolada Turkistondagi ilk oliy ta’lim muassasalari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif buyuk mutafakkirlar, allomalar amalga oshirgan ulkan kashfiyotlari, ma’naviy va madaniy merosi hozirga qadar o‘z ahamiyatini saqlab qolganligini aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Buyuk mutafakkir, alloma, ulkan kashfiyotlar, shijoatli, madaniy meros, qomusiy bilim.

В статье рассматриваются первые вузы Туркестана. Автор также отметил, что великие открытия великих мыслителей и ученых, их духовное и культурное наследие сохраняют свое значение и по сей день.

Ключевые слова. Великий мыслитель, ученый, великие открытия, мужество, культурное наследие, энциклопедические знания.

The article discusses the first higher education institutions in Turkestan. The author also noted that the great discoveries made by great thinkers and scholars, as well as their spiritual and cultural heritage, have retained their significance to this day.

Key words. Great thinker, scientist, great discoveries, courageous, cultural heritage, encyclopedic knowledge.

Taraqqiyotni belgilaydigan omillar ko‘p, sabablar bisyor. Lekin bu omil va sabablarning hech biri ta’limchalik ulkan ahamiyatga, keng qamrovga ega emas. Xuddi shunday jamiyat va davlatlar sivilizatsiyasida ham ilm, bilim va ta’limning o‘rnini hech narsa bilan taqqoslab bo‘lmaydi. Bu oltin haqiqatni asrlar osha tobora yaqqol anglab boryapmiz.

O‘zbekiston qadimdan ulug‘ allomalari, buyuk mutafakkirlari bilan butun jahonga mashhur bo‘lgan. Yurtimizda har bir sohada yetishib chiqqan olimlar dunyo tamaddunida benazir hissa qo‘shishgan. Buning natijasida, o‘rta asrlarda uyg‘onish davri, ya’ni Sharq renessansi vujudga kelgan.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim”, deya ta’kidladi.

Darhaqiqat, nur Sharqdan taraladi. Ilm ahli o‘rtasida “Nur – Sharqdan” degan

mashhur ibora bor. Haqiqatan, ko‘hna Sharq, xususan, bizning zamin buyuk mutafakkirlari, allomalari amalga oshirgan ulkan kashfiyotlar tufayli katta shuhrat qozongan. Ularning ilm va kashfiyotlari, ma’naviy va madaniy merosi hozirga qadar o‘z ahamiyatini saqlab qolgan.

Abu Bakr Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida qayd etilganidek, yurtimiz hududidagi ilk oliy o‘quv maskani 937-yilgi yong‘indan zarar ko‘rgan Forjak madrasasi hisoblanadi.

Turkistondagi ilk oliy ta’lim muassasalari ikki turga bo‘lingan. Birinchisi, “Madrasa” deb atalgan va talabalarga ilohiy (naqdiy) va dunyoviy (aqliy) ilmlar berilib, kichikroq shaharlar, tumanlarda faoliyat ko‘rsatgan. Ikkinchisi, “Oliy madrasalar” (madrasai a’lo) deyilgan. Madrasada berilgan diplom (sanad) musulmon olamining barcha joyida bir xilda o‘tgan. Talabalar o‘zlashtirish darajalariga qarab, ta’limning quyi (adno), o‘rta (avsat) va yuqori (a’lo) bosqichlarini o‘taganlar. Muayyan bosqichni sakkiz yilda o‘tay olmagan talaba madrasadan chetlatilgan.

Ahmad Amin “Zuha al-islom” asarida IX–XI asrlarda Movarounnahrda madrasalar, maktablar[1], masjidlar, kutubxonalarning ilm ahllari bilan doimo gavjum ekani hamda ulamolarning bilim dargohlariga safarlari, ular o‘rtasidagi ilmiy hamkorliklar[2] abbosiylar davridagi ilmiy institutlar darajasida bo‘lganini alohida qayd etgan.

Maktablarda yosh bolalar o‘qitilgan, masjidlarda halqalar bo‘lib, ustozlar dars bergan, ilmiy bahs-munozaralarida turli soha olimlari yig‘ilib, o‘zaro fikr almashib, ulamolarning ilmiy safarlari juda samarali kechgan, olimlar ilm izlab bir yurtdan boshqa yurtga tez-tez safar qilganlar[3].

Samarqand ilmiy hayotida masjid, madrasa muhim o‘rin tutgan, shuningdek, bu yerda ayrim olimlar xonadonlari ham ilmiy markaz vazifasini o‘tagani qator manbalarda zikr etilgan[4].

Saljuqiylarning vaziri Nizom al-Mulk ta’sis etgan madrasa ham bundan keyinroq 1064-1066 yillarda qurilgan edi[5].

Somoniylar davrida Buxoroda kutubxonalar ham mavjud bo‘lib, bu haqda Ibn Sino 17 yoshida Nuh ibn Mansurni (976-997) davolayotgan vaqtidagi ma’lumoti barchaga ma’lum: ‘‘Bir kun men undan saroy kutubxonasidan tibbiyotga doir asarlardan foydalanishga ruxsat so‘radim. U menga ruxsat berdi. Men juda ko‘p xonali binoga kirdim. U yerda kitoblar ustma-ust solingan sandiqlar bor edi. Bir xonada arab tili va she’riyatiga oid kitoblar, yana bir xonada fiqh bo‘yicha kitoblar, shu kabi har bir xonada ma’lum soha kitoblari bor edi. U yerda qadimgi mualliflar kitoblari ro‘yxatini ko‘rib, o‘zimga keraklilarini berishlarini so‘radim. Men u yerda hali boshqalarga nomlari ham noma’lum bo‘lgan kitoblarni ko‘rdim. Bu kabi kutubxonani undan oldin ham keyin ham ko‘rmadim’’[6]. Shu kabi ba’zi kutubxonalarning ichida alohida darsxonalar tashkil etilib, darslar o‘tilganligi haqidagi ma’lumotlar bor.

Shuningdek, “Dor al-ilm” – “Bilimlar uyi” nomi bilan ham atalgan kutubxonalar bo‘lgan. “Bilimlar uyi” mustaqil idora sifatida alohida binoda joylashgan bo‘lib, unda

---

[1] “Kuttob” deb ham atalgan.

[2] Ahmad. Zuha al-Islom. 3 jildli – Bayrut. Dor al-kutub al-arabiy, 1985. J. 2. B. 50-69.

[3] O‘sha manba. J. 2. B. 50-69.

[4] Rahimjonov D. "Abu Hafs an-Nasafiyning "kitob al-qand Fi ma'rifat ulamo Samarqand" asari Samarqandda hadis ilmi tarixi bo‘yicha muhim manba". Tarix fanlari nomzodi.. dis. – T.: Toshkent Islom universiteti, 2003. – B.166.

5 Сагадеев А. Аль-Джувайни. // Ислам: Энциклопедический словарь. – М.: Наука, 1991.–С,. 68.

[6] А. Б. Халидов. Арабские рукописи и арабская рукописная традиция. - М.: Наука, 1985. - С,244.

olimlar faoliyat ko‘rsatgan, darslar berilgan. Alohida ta’kidlab o‘tish joizki, bu joylarda doimiy o‘quvchilar, asosan, musofir va kambag‘allar nafaqat kitob mutolaasi imkoniyatiga ega edilar balki, qog‘ozlar bilan ham ta’minlangan. Hatto musofirlarga yotoqlar va moddiy yordamlar ko‘rsatilgan[7]. Manbalarda keltirilishicha, kutubxonalar uch xil bo‘lgan: vaqf kutubxonalari, xususiy kutubxonalar, saroy kutubxonalari. Bu kabi bilim uylari keyinchalik, madrasalarning qurilishiga sabab bo‘ldi.

Ko‘rinadiki, yurtimiz azaldan ilmu ma’rifat beshigi sanalgan. Insoniyat sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk mutafakkirlar, qomusiy bilimga ega allomalar ilk bor aynan shu yerdan yetishib chiqqanligi bunga dalildir.

Ana shunday allomalardan biri – Abu Lays Samarqandiy bo‘lib, u kishi mashhur faqih va mutakallim olimning to‘liq ismi – Abu Lays Nasr ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ibrohim Samarqandiy bo‘lib, “Abu Lays” kunyasi bilan mashhur bo‘lgan. “Abu Lays”, ya’ni sherning otasi[8] kunyasi bilan mashhur bo‘lishiga sabab sifatida sherdek bahodir, jasur, dovyurak, shijoatli bo‘lgan.

Abu Lays Samarqandiyning 24 nafar ustozi borligi, ular o‘sha davrda yurtimiz ta’lim tizimiga juda katta hissa qo‘shgani va ko‘plab shogirdlar yetishtirgani tadqiqot davomida aniqlandi.

Olimning ustoz va shogirdlari haqidagi ma’lumotlar ularning ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo‘shganini tasdiqlaydi. Zero, uning ko‘p sonli shogirdlari ham Movarounnahr ma’naviy taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.https://uza.uz/uz/posts/o‘zbekiston-respublikasi-prezidenti-Shavkat-Mirziyoyevning-oliy-majlisga-murojaatnomasi_198650

2. “Kuttob” deb ham atalgan.

3. Ahmad Amin. Zuha al-islom. 3 jildli – Bayrut. Dor al-kutub al-arabiy, 1985. J. 2. 50-69-betlar.

4. Rahimjonov D. “Abu Hafs an-Nasafiyning “Kitob al-qand fi ma’rifat ulamo Samarqand” asari Samarqandda hadis ilmi tarixi bo‘yicha muhim manba”. Tarix fanlari nomzodi.. dis. –T.: Islom universiteti, 2003. – 166-b.

5. Luays Ma’luf. Al-Munjid fil lug‘a. – Bayrut, Dorul mashriq, 1986-y. – 741-b.

6. An-Na’ym. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003-y. – 766-b.

7. Сагадеев А. Аль-Джувайни. // Ислам: Энциклопедический словарь. – М.: Наука, 1991.– С. 68.

8. А. Б. Халидов. Арабские рукописи и арабская рукописная традиция. – М.: Наука, 1985. – С.244.

[7] O‘sha manba. 185-b.

[8] Luays Ma’luf. Al-Munjid fil lug‘a. – Bayrut, Dorul mashriq, 1986-y. – 741-b.

Umida ABIROVA,
Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi mustaqil tadqiqotchisi

OILA, MAHALLA VA TA’LIM MUASSASASI MA’NAVIY-MA’RIFIY HAMKORLIGINING IJTIMOIY-PEDAGOGIK RESURSLAR HOLATI

Annotatsiya

Maqolada yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim muassasasi ijtimoiy hamkorligini takomillashtirish texnologiyalari va tavsiyalari berilgan.

Kalit so‘zlar. Yoshlar, ta’lim, tarbiya, oila, mahalla, ijtimoiy, ma’naviyat, ma’rifat.

В статье представлены технологии и рекомендации по совершенствованию социального партнерства семей, сообществ и образовательных учреждений в обучении молодежи в Узбекистане.

Ключевые слова. Молодежь, образование, воспитание, семья, соседство, социальное, духовное, просвещение.

The article provides technologies and recommendations for improving the social partnership of families, communities and educational institutions in educating young people in Uzbekistan.

Key words. Youth, education, upbringing, family, neighborhood, social, spirituality, enlightenment.

Tobora globallashib borayotgan bugungi davr barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim muassasalariga bir necha talab va vazifalarni yuklaydi. Mamlakatimizda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligini takomillashtirishda eng avvalo, shaxs manfaatlari ustuvorligi, uning huquqlarini himoya qilish masalalaridan biri hisoblanadi. Shu bois ta’lim muassasalari, mahalla faollari, oilalar mamlakatda yoshlarning har jihatdan yetuk inson bo‘lib yetishishlari uchun bevosita va bilvosita mas’uldir. Biroq, “Oila, mahalla va ta’lim muassasalarida yoshlar tarbiyasi, chekka hududlar va mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan maqsadli g‘oyaviy-tarbiyaviy ishlarning yuzaki tarzda olib borilayotgani, jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terroristik harakatlarga adashib qo‘shilib qolish, milliy qadriyatlarga e’tiborsizlik, erta turmush qurish, oilaviy ajralishlar kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan targ‘ibot ishlarining aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotgani bu masalalarda jiddiy e’tiborni talab etmoqda”[1].

Ayni vaqtda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar o‘rtasida sodir etilayotgan jinoyatchilik masalasi ustuvor masalalardan biri, xususan, 2017-yilning 10 oyi davomida yoshlarning 22 ming nafari jinoyatga qo‘l urgan.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishning yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi 2017-yil 28-iyul PQ-3160 sonli Qarori.

Vazirlar Mahkamasining 371-sonli Qarori ijrosi amaliyotga tatbiq etilgan bo‘lsada, nega bugungi kunga qadar ta’lim muassasalarida o‘quvchilar davomati ko‘rsatkichi past. O‘quvchilar sababsiz va muntazam ravishda darslarga qatnashmaydi. Bunga asosiy sabab 371-175-sonli Qarorlarning ijro intizomi haqqoniy tashkil etilmaganligi ekanligi aniqlandi. Kasb-hunar kollejlari pedagoglari biriktirilgan o‘quvchilarning uylariga, mahalla fuqarolari yig‘inlariga o‘zlari emas, o‘quvchilardan maxsus yuritiluvchi daftarlarini berib yuboradi. Natijada, o‘quvchilarning o‘zlari daftarga muhr va imzo qo‘ydirib kelishadi. Bu esa ijro intizomining o‘z vaqtida haqqoniy ta’minlanmasligiga, davomat pastligiga, oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligidagi salbiy kamchiliklarga olib kelmoqda.

1. Kasb-hunar kollejlarida ota-onalar yig‘ilishlari rejasi ishlab chiqilib pedagogik kengash qarori bilan tasdiqlanmagan. Ota-onalar yig‘ilishlari rejasi asosida tashkil etilmaydi.

2. Ta’lim muassasalarida yarim yillik semestr yakunlaridagi tashkil qilinadigan ota-onalar yig‘ilishlariga guruhdagi o‘ttiz nafar o‘quvchilardan 15-20 nafarining ota-onalar kelishadi. Ular ham a’lochi, yaxshi o‘qiydigan, tarbiyali o‘quvchilarning ota-onalaridir. O‘zlashtirishlari past, tarbiyasi muammoli, o‘quvchilar ota-onalari yig‘ilishlarga kelmaydi.

3. Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilar bandligini ta’minlash masalasi ham oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bugungi kunda ta’lim muassasalarida o‘quvchilar o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha bandligi to‘liq ta’minlanmay kelmoqda. Sabab kasb-hunar kollejlarining bitiruvchilariga mutaxassisliklarda tashkilotlarda vakant ish o‘rinlarining yo‘qligi. Shu tufayli bitiruvchilar nomutaxassis ish o‘rinlarida ishlashga majbur bo‘lmoqda. Ayrim holatlarda bandligi ta’minlanmagan yoshlar ish izlab xorijga ishga ketishlariga sabab bo‘lmoqda.

O‘rganilgan 1573 ta oilani o‘rganish ota-onalar tomonidan farzand tarbiyasida nazorat ostiga olinishi zarur bo‘lgan jabhalar holatini baholash imkoniyatini berdi. Hududlar kesimidagi statistik tahlil ota-onalarning o‘smirlar bolalarining dars tayyorlashini nazorat qilishlarini asosiy vazifa deb bilishlarini ko‘rsatdi. Ayni vaqtda farzandlarining kimlar bilan do‘st ekanliklari, bo‘sh vaqtlarini qanday o‘tkazishlari va kitobxonlikka qiziqishlariga e’tibor yetarli emasligini ko‘rsatdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan besh muhim tashabbus doirasidagi ishlarning to‘rtinchi yo‘nalishi bevosita yoshlarda kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan. Bu talab o‘z o‘rnida barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim muassasalariga bir necha talab va vazifalarni yuklaydi. Biroq, ushbu yo‘nalishning ilmiy pedagogik ta’minlanmaganligi tufayli bu borada muayyan kamchiliklar kuzatildi. Jumladan, oilaviy kutubxona mavjud bo‘lgan xonadonlar soni o‘rtacha 37 foizni tashkil etadi. Qolgan 63 foiz xonadonlarda oilaviy kutubxonalarning mavjud emasligi yoki talabga javob bermasligi kuzatildi.

Davlatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar va sohani takomillashtirishga qaratilgan farmon, qaror va chora-tadbirlarga qaramasdan oila, mahalla va ta’lim muassasalarining o‘smirlarni turli to‘garaklarga jalb qilish bo‘yicha hamkorligida kamchiliklar mavjud ekanligi kuzatildi. O‘rganishlar 56 foiz o‘quvchilarning to‘garak va qo‘shimcha darslarga jalb qilinganligi, 44 foizining bo‘sh vaqtlarini oqilona tashkil qilish bo‘yicha ijtimoiy pedagogik samaradorligi pastligini ko‘rsatdi.

Tadqiqotimiz nuqtayi nazaridan pedagogika fanlari doktori, professor

Muhammadjon Quronov tomonidan ishlab chiqilgan, o‘quvchilarning milliy tarbiyalanganlik mezonlari, ko‘rsatkichlari, darajalari va fazilatlarini o‘lchashning uch komponentli o‘lcham tizimsi alohida ahamiyatga ega. Zero, O‘zbekiston vatanparvarligi, milliy g‘ururlik, millatlararo muloqot madaniyati, vijdoniylik, milliy odob va milliy mafkuraviy onglilikni uyg‘un shakllantirishda ilmiy va xalq pedagogikasining amaliy birligidan kelib chiqib yondashish rivojlanayotgan shaxsning milliy tuyg‘usiga bevosita va bilvosita bog‘lanuvchi fazilatlar hisoblanadi[2].

Ma’naviy tarbiyaning gender xususiyati islom ma’rifatida ham o‘z aksini topgan. Bu haqda O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy Usmonxon Alimov shunday yozadi: “Ayollar iffatli kiyinishi va o‘zlarini yaxshi tutishi lozim. Bu shundan dalolat beradiki, o‘zbek qizlarining milliy tarbiya asosida kiyinishlari, o‘zlarini tutishlari va ularda ma’naviy-axloqiy fazilatlar shakllantirilsa, ular g‘arbdan kirib kelayotgan “ommaviy madaniyat” xurujlari iskanjasida qolmaydi”[3].

Sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalashda jamoat tashkilotlarining ijtimoiy hamkorligini keng yo‘lga qo‘yish maqsadida oilalarning ijtimoiy-ma’naviy holatini tizimli o‘rganishning samarali mehanizmini yaratib, amaliyotga tatbiq etish hamda aholi turmush darajasining haqiqiy ahvolini doimiy o‘rganib borish, joylardagi jamoatchilik vakillariga bu borada uslubiy ko‘maklashish, oilalardagi mavjud muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish borasida chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish zarur. Bu borada mahalla, oilaning farzand tarbiyasi borasidagi mas’uliyatini oshirish, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni saqlashda oilaning tutgan o‘rnini ko‘rsatish hamda oila institutining pedagogik mavqeini oshirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalar turkumini ishlab chiqish shart!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishning yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi 2017-yil 28-iyul PQ-3160 sonli Qarori.

2. Quronov M. O‘zbekiston umumta’lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari: Doktorlik diss . – T., 1998. – 363-b.

3. Alimov U. Fazilatli avlod. –T.: Muharrir, 2019. – 42-b.

[2] Quronov M. O‘zbekiston umumta’lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari: Doktorlik diss . – T., 1998. – 363-b.

[3] Alimov U. Fazilatli avlod. –T.: Muharrir, 2019. 42-b.

Nigora AXMEDOVA,
Andijon davlat tibbiyot instituti,
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti

BO‘LAJAK SHIFOKORLAR MA’NAVIY-AXLOQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada tibbiy faoliyatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi madaniyat ushbu kasbning inson manfaati uchun kelib chiqishi hamda bo‘lajak shifokorlarni kasbiy-ma’naviy madaniyatini maqsadli rivojlantirish ham ijtimoiy-ma’naviy ham kasbiy faoliyat ekanligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar. Axloq, madaniyat, ma’naviyat, tarbiya, pedagogik jarayon, bo‘lajak shifokor, fazilat, qadriyat.

В статье утверждается, что культура, участвующая в осуществлении медицинской деятельности, является источником этой профессии в интересах человека, и что целенаправленное развитие профессионально-духовной культуры будущих врачей является как социально-духовной, так и профессиональной деятельностью.

Ключевые слова. Нравственность, культура, духовность, воспитание, педагогический процесс, будущий врач, добродетель, ценность.

In the article, the origin of this profession for the benefit of a person, as well as the targeted development of professional and spiritual culture of future doctors, the totality of both socio-spiritual and professional activity is emphasized.

Key words. Morality, culture, spirituality, upbringing, pedagogical process, future doctor, virtue, value.

Shifokorning zaruriy shaxsiy fazilatlari qo‘qqisdan va bir lahzada paydo bo‘lib qolmaydi. Uni shakllantirish bo‘lajak shifokorlarga ta’lim berayotgan pedagoglarnigina vazifasi emas. Pedagoglar bilim berib, ko‘nikmani hosil qiladi, ammo bu yetarli emas. Bo‘lajak shifokor va yosh mutaxassisning shaxsiy istagi va niyatisiz juda chuqur joylashgan psixologik ko‘rsatmalarni, ong va ongsizlikni, tuyg‘u va intellektual qobiliyatlarni – shaxsiy fazilatlarni o‘stirish mumkin emas. Agar talaba yoki yosh mutaxassis ularning ma’nosini tushunsa, o‘zining kasbiy yetukligi uchun ahamiyatini anglab yetsa, o‘zida paydo qilishga intilsa, kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlar shakllantirilib, qayta-qayta mashq qilinadi. Mazkur mashqlar asosida talaba va yosh mutaxassislarda shifokor uchun zarur kasbiy fazilatlarni mohiyati, ma’nosini tushunish hamda anglash orqali faoliyat olib borish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Buyuk tabib va pedagog Abu Ali ibn Ibn Sino o‘z nazariy pedagogik qarashlarida ma’naviy qadriyatlarning boshqa turmush ne’matlaridan ustuvorligini tasdiqlab, inson qalbini buzuvchi boylikka va oltin-kumushga hirs qo‘yishni, turli shahvoniy lazzatlarga bo‘lgan ishtiyoqlarni insonning ma’naviy-axloqiy kamolot topishi yo‘lidagi to‘siqlar[1], deb

[1] Ибн Сина. Избр. Философские произведения. Т.I. – Душанбе, 1980.

qaraydi. Ushbu axloqiy-tarbiyaviy o‘gitlar garchi bundan ming yildan ortiq vaqt ilgari yozilgan bo‘lsada, haligacha o‘z qimmatini yo‘qotmagan va u bugungi kunda bo‘lajak shifokorlar ma’naviy tarbiyasi uchun ham muhim nazariy pedagogik manba vazifasini o‘taydi.

Ma’naviy-axloqiy fazilatlar, qadriyatlar mohiyatan tibbiy faoliyat xususiyatlari, uning ijtimoiy ahamiyati va mutaxassisning imkoniyatlari bilan belgilanadigan kasbiy-ma’naviy fazilatlar aniqlashga imkoniyat yaratadi. Tibbiy faoliyatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi kasbiy-ma’naviy fazilatlar ushbu kasbning inson manfaati uchun yo‘naltirilganligidan kelib chiqadi. Bu faoliyat o‘z navbatida, bemorlarning nafaqat tibbiy muammolarini, balki hamdardlikka, insoniy mehrga bo‘lgan ehtiyojlarini ham qondiradi. Shu sababli bo‘lajak shifokorlarni kasbiy-ma’naviy fazilatlarini maqsadli rivojlantirish ham ijtimoiy-ma’naviy, ham kasbiy faoliyat sanaladi.

Bo‘lajak shifokor(vrach)ning ma’naviy-axloqiy madaniyati, deganda shaxsning bemor va ularning qarindoshlariga, kasbiy faoliyatiga, hamkasblariga insonparvar hamda mas’uliyatli munosabatlarida, kasbiy o‘z-o‘zini takomillashtirishda namoyon bo‘luvchi ma’naviy-axloqiy rivojlanish darajasini tushunamiz. Shifokor ma’naviy-axloqiy madaniyatining asosini har bir shifokor o‘z kasbiy faoliyatida, xulqida va shaxslararo muloqotlarida amal qiluvchi ma’naviy va kasbiy axloq me’yorlarini bilish yotadi.

Tibbiyot oliy ta’lim muassasalari talabalari kasbiy ma’naviy fazilatlarini rivojlantirish – murakkab, uzoq davom etadigan, izchil rivojlanib boruvchi jarayon bo‘lib, bunda tarbiyaviy jarayon ishtirokchilarining barchasi – pedagogik jamoa va talabalarning hamkorligini talab qiladi. Ushbu jarayonning samaradorligi eng avvalo, o‘tkaziladigan tarbiyaviy ishlarning ilmiy asosga egaligi, tizimliligi, kreativligi, ma’naviy-ma’rifiy asos va o‘tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligiga, talabalar uchun o‘z-o‘zini ma’naviy-axloqiy rivojlantirishning eng maqbul shart-sharoitlarini yaratish orqali erishiladi.

Shunday qilib, talaba – bo‘lajak shifokor yuqori axloqli shaxs sifatida shakllanishi kerak, chunki uning kelajakdagi amaliy faoliyati odamlar sog‘lig‘i va hayotiga, shuning uchun ularning taqdiriga ta’sir ko‘rsatishni, boshqarishni o‘z ichiga oladi. Har qanday mutaxassis shifokorga rahmdillik, insonparvarlik, rostgo‘ylik, mas’uliyat, samimiylik, xayriya, xayrixohlik, qat’iyatlilik kabi fazilatlar juda zarur. Shifokor shaxsiyatidagi barcha harakatlar, uning faoliyati va xatti-harakatlari, albatta, ijtimoiy axloq qoidalariga mos kelishi kerakligini tushunish muhimdir. Boshqacha qilib aytganda, shifokorning ma’naviy va axloqiy darajasi, unga ishonib topshirilgan bemor manfaatlari va farovonligini o‘zining shaxsiy manfaatlaridan yuqori qo‘yishida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot doirasida qilingan ilmiy adabiyotlar tahlili, pedagogik faoliyat tajribasi, tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning xususiyatlari, shuningdek, o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari mazkur muammo yechimlari bo‘yicha quyidagi xulosalarni qilishga asos bo‘ldi:

XXI asr shifokori bu – namunali ziyoli, yuksak malakali mutaxassis, boy ma’naviyat va yuksak axloqiy madaniyat, ijodiy faollik, o‘z kasbiga mas’uliyat bilan yondashuvchi, odamlar bilan muloqotga ochiq, tarix va madaniyat sohasida chuqur bilimlarga ega shaxsdir.

Zamonaviy dunyo tezkor iqtisodiy rivojlanish, ilmiy va texnologik rivojlanish, globallashuv, ekologiyaning buzilishi bilan ajralib turadi. Oddiy odamni moddiy tovar va arzon ishchi kuchi iste’molchisiga aylantiradi. Shu munosabat bilan, jamiyatimizning axloqiy asoslari o‘zgarib bormoqda va jamiyatning axloqiy asoslarining amalda bu-

zilishi kuzatilmoqda. Bu tibbiyot sohasida o‘z aksini topmoqda. Bugungi kunda oliy tibbiy ta’limda alohida mazmun-qadriyatli, ma’naviy, axloqiy dominant talab etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori[2]ga asosan zamonaviy ta’lim tizimining maqsadi dunyoqarash salohiyatiga, kasbiy, intellektual va ijtimoiy ijodkorlik qobiliyatiga, kasbiy vazifalarni bajarish uchun barqaror ko‘nikma va qobiliyatlarga ega bo‘lgan madaniyatli shaxsni tayyorlashdir.

Ushbu maqsadga erishish tarbiyaviy ishlarning tegishli bosqichlarida amalga oshiriluvchi tarbiyaviy faoliyatning aniq maqsadlarini belgilash orqali amalga oshiriladi.

Bo‘lajak shifokorlarda kasbiy ma’naviy fazilatlarni tarbiyalashning maqsadi – shaxsning kundalik hayotda, shifokorlik faoliyatida, shaxslararo munosabatlarida va kasbiy muloqotlarida namoyon bo‘luvchi yuksak ma’naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishdan iboratdir.

Yuqoridagi tahlillar va kuzatishlar hamda izlanishlar natijasida bir qator takliflar ishlab chiqildi. Nafaqat tibbiyot institutlari, har bir institut kasbiy yo‘nalishining xususiyatlaridan kelib chiqib, “Qoidalar”ni yangi tahrirda ishlab chiqish va qayta tasdiqlash;

– “Andijon davlat tibbiyot institutining odob-axloq qoidalari”ga “O‘zbekiston Respublikasi shifokorlari qasamyodi”da qayd etilgan kasbiy-ma’naviy fazilatlarni kiritish;

– “Andijon davlat tibbiyot institutining odob-axloq qoidalari”ga rioya qilinishi ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish orqali “Qoidalar”ning institut ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonidagi rolini oshirish;

– kafedralar yig‘ilishida, akademik guruhlarning “Ma’naviyat soatlari”da “Andijon davlat tibbiyot institutining odob-axloq qoidalari”ga rioya qilinishi masalasini muhokama qilib borish.

Institut saytida “Shifokor ma’naviyati” resurs bo‘limini tashkil qilish va unda shifokorning ma’naviy fazilatlariga doir tarixiy, zamonaviy, milliy, xorijiy namunalar, korrupsiyaga qarshi kurashga qaratilgan daydjest materiallarini, yangiliklarni, hikmatli o‘gitlarni joylashtirib borish orqali amalga oshirildi. Amalga oshirilgan ilmiy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy yangiliklar asosida tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida amalda bo‘lgan axloq-odob qoidalari reglamenti “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” g‘oyasi asosida konseptual takomillashtirish ishlari olib borilishi maqsadga muvofiq deb ayta olamiz.

Foyodalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son Qarori.

2. Ибн Сина. Избр. Философские произведения. – Т.: – Душанбе, 1980.

3. Чекина Е.В. Теория нравственного воспитания: история развития и современное состояние: монография / Чекина Е.В. – Гродно: ГрГУ, 2008.– С. 14-15.

4. Нурматова М.А. Некоторые особенности духовно-нравственного воспитания студентов медицинских вузов / Нурматова М.А. [и др.] // Молодой ученый. — 2014. №6.– С.868-870.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son Qarori.

Tuxtasin TASHMETOV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti,
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

MILLIY G‘OYANI YOSHLAR ONGIGA SINGDIRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Maqolada bugungi global o‘zgarishlar davrida ijtimoiy hodisaning har bir mohiyatini yanada chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini har tomonlama o‘rganish lozimligi aytib o‘tilgan. Bunda esa milliy g‘oya umummilliy dastur bo‘lib xizmat qilishi, hamda shu dasturni innovatsion texnologiyalar orqali yoshlar ongiga singdirish haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Global, texnologiya, milliy g‘oya, madaniyat, ma’rifat, modernizatsiya, innovatsiya, internet, manipulyatsiya, mafkura, demokratiya, individualizm, egotsentrizm, axborot xurujlari, kommunikatsiya, ma’naviy tahdid.

В статье говорится о том, что в сегодняшнюю эпоху глобальных изменений необходимо более глубоко осмыслить каждую сущность социального явления, всесторонне изучить его особенности. При этом говорилось о том, что национальная идея должна служить общенациональной программой, а также о внедрении этой программы в сознание молодежи посредством инновационных технологий**.**

Ключевые слова. Глобальный, технология, национальная идея, культура, просвещение, модернизация, инновация, интернет, манипуляция, идеология, демократия, индивидуализм, эгоцентризм, информационная чувствительность, коммуникация, моральная угроза.

In today’s era of global change, it is necessary to more deeply understand each essence of the social phenomenon, to comprehensively study its features. At the same time, the national idea serves as a national program.

Key words. Global, technology, national idea, culture, education, modernization, innovation, Internet, manipulation, ideology, democracy, individualism, egocentrism, information sensitivity, communication, spiritual threat.

Bugungi insoniyat tez sur’atlarda o‘zgarib borayotgan, shu kungacha boshidan kechirgan jamiyat bosqichlaridan tubdan farq qiladigan o‘ta tezkor, shiddatli va butun murakkabliklarni to‘la namoyon qilayotgan tarixiy davrda yashamoqda. Keyingi yillarda “globallashayotgan dunyo”, “global jamiyat”, “global integratsiya”, “global taraqqiyot” kabi so‘zlar, tushunchalar tildan tushmay qoldi. Insoniyat yangi bir voqelikka – global o‘zgarishlar davriga duch kelib, uni anglashga, undagi ijobiy jihatlardan unumli foydalanib taraqqiyotini ta’minlashga intilmoqda. Ammo, global o‘zgarishlarni faqat ijobiy voqelik sifatida qarashga hali erta, u ziddiyatlarga to‘la, goho esa milliy taraqqiyotga, milliy madaniyatga, milliy g‘oyaga salbiy ta’sir etuvchi belgilarga ega. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek: “Bugun biz tez sur’atlar bilan o‘zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan

farq qiladigan o‘ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha ta’riflab, har xil nomlar bilan aytmoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda.

Xususan, birgina axborot-kommunikatsiya sohasidagi global o‘zgarishlarni kuzatar ekanmiz, uning ta’siri jahonda g‘oyaviy va madaniy gegemonlik uchun asosiy qurolga aylanayotganini ko‘ramiz. Axborot texnologiyalari yuksalgan davlatlar esa, bu jarayonning harakatga keltiruvchi kuchlari bo‘lmoqda. Ayniqsa, ommaviy axborot kommunikatsiyalar orqali turli voqealarni noxolis sharhlab, yoki biroz soxtalashtirib, ko‘pirtirib muayyan davlatga butun jahon jamoatchiligini, shu jumladan, o‘sha davlat fuqarolarining bir qismini ham qarshi qilib qo‘ymoqda. Siyosiy muxolifat yaxshi rivojlanmagan davlatlarda turli g‘arazli guruhlarni, ba’zan hatto ekstremistik va radikal diniy guruhlarni siyosiy muxolifat darajasiga ko‘tarishga urinmoqdalar. G‘arb mamlakatlari bunday guruhlar rahbarlariga boshpana berib, ulardan g‘arazli geosiyosiy o‘yinlarida, muayyan mamlakat aholisi ongi bilan manipulyatsiya qilishda foydalanmoqda.

Fikrimizni davom ettirib, “manipulyatsiya” terminining ma’nosiga e’tibor qaratsak: Manipulyatsiya – insonlarga ta’sir ko‘rsatish harakati bo‘lib, ularni mohirona boshqarish, xususan, ularga obyekt sifatida qarab, bepisand munosabatda bo‘lish, yashirin boshqaruv yoki ishlov berishdir. “Manipulyatsiya (lot. Monipulus – qo‘l harakati) – maxinatsiya, aldov, tovlamachilik, qalloblik orqali g‘arazli maqsadga erishish”. Manipulyatsiya – zo‘ravonlik emas, u insonda biror narsaga havas tug‘diruvchi vasvasa, uni yo‘ldan ozdirish usulidir. Shu nuqtayi nazardan ham global o‘zgarishlar bilan bog‘liq ziddiyatlar, ayniqsa milliy g‘oya va ma’naviy sohada yaqqol namoyon bo‘layotganligini hayotning o‘zi isbotlamoqda. Shunday ekan, jamiyat hayotini modernizatsiyalash orqali milliy g‘oya va ma’naviy sohada amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalarni yanada rivojlantirib borish dolzarb ahamiyatga egadir.

Buning uchun esa jamiyat hayotining modernizatsiyalashish sharoitida jamiyatda milliy g‘oya va ma’naviy sohada quyidagi vazifalarni bajarishimiz lozim:

– yoshlarimizni ma’naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish;

– turli qarash va fikrga ega bo‘lgan yoshlarning o‘ziga xos orzu-intilishlarini uyg‘unlashtiruvchi g‘oyalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, yagona Vatan tuyg‘usi, adolat – qonun ustuvorligida, xalq roziligi, jaholatga qarshi ma’rifat, innovatsion taraqqiyotni ta’minlash barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddas maqsadga aylanishiga erishish, milliy hamjihatlikni yanada mustahkamlash;

– ota-bobolarimiz dinining gumanistik mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish borasidagi ishlarni davom ettirish.

Buning uchun, avvalo:

– ommaviy axborot vositalarida milliy ma’naviyatimiz aks etgan ko‘rsatuvlar, seriallar, kino va badiiy filmlar namoyishini omma e’tiboriga taqdim qilish;

– internet tizimidan foydalangan holda milliy saytlar ko‘paytirish hamda yoshlar-bop ruknlarni ochish va ular orqali milliy g‘oyalarni singdirib borishni ta’minlash;

– jamiyatda milliy g‘oya va ma’naviyatni takomillashtirish mavzusida ilmiy loyihalar joriy etish hamda qonun ustuvorligini ta’minlash ham zarurdir.

Shu bilan birgalikda, milliy g‘oyamizning asosiy tushuncha va tamoyillarini xalqimiz ongi va qalbiga singdirish masalasi ham muhim vazifalardan biridir. Jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh yigit va qizlarimizning ma’naviy va ma’rifiy saviyasini doimiy

yuksaltirish – birinchi darajali ahamiyatga ega. Shu bois, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan dasturiy g‘oya asosida yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish – o‘ta sharafli vazifaga aylangan. Ayniqsa, milliy g‘oya va ma’naviyatni yoshlar ongi, qalbi va ichki dunyosiga singdirish orqali jamiyatda bo‘layotgan turli voqea-hodisalarni o‘rganish va ularga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, milliy-ma’naviy qadriyatlarni asrab-avaylash, jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishga o‘rgatib borish muhim vazifalardandir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, har qanday davlatning kelajagi yoshlar qo‘lida bo‘lganligi bois himoyalanish chorasini ham, avvalo, yosh avlod ongiga milliylik ruhini singdirishdan boshlash zarur. Shundagina biz istiqbolda ma’naviy barkamol bo‘lgan, sog‘lom avlodni tarbiyalashga erishamiz. Zero, bu davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biridir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatning ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” zarur bo‘lsa, biz mamlakatimiz suvereniteti va mustaqilligiga, xalqimizning tinch va osuda hayotiga tahdid soladigan har qanday urinishlarga qarshi keskin zarba berishga qodirmiz” deb fikr bildirgan. Darhaqiqat, globallashuv yaratayotgan imkoniyatlardan hozirgi kunda ma’naviy bo‘shliqni to‘ldirishga harakat qilayotgan siyosiy va mafkuraviy markazlar foydalanmoqda. Buning oqibatida insoniyat tomonidan katta ma’naviy yo‘qotishlar, millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotganini, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarziga xavf solayotganini alohida qayd etish lozim.

Ma’lumki, global o‘zgarishlar davrida milliy g‘oyani demokratiyaning umuminsoniy prinsplari orqali yoshlar ongi, qalbi va ichki dunyosiga singdirishda quyidagi holatlar orqali amalga oshiriladi: 1) ezgu g‘oya va maqsad har bir kishining ongi va tafakkurida ishonch va e’tiqodiga aylanishi lozim, ya’ni unga ishonish zarur; 2) inson o‘zi ishongan ezgu g‘oya va maqsadlarini hayotida qo‘llash ko‘nikmasi, malakasiga ega bo‘lishi, unga amal qilish hayotiy maqsadiga, hayot turmush tarzining uzviy qismiga aylanishi; 3) bu muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, etnos, xalq, millat, jamiyat a’zolarining ong va tafakkuri darajasida ijtimoiylashishi fikrni – g‘oyaga aylanganligini bildiradi; 4) milliy g‘oyaning maqsadlarini yagona mafkuraga aylanishi uni turli xil sotsial guruhlar, qatlamlar, xalq, millatni birlashtirib turgan umumiy maqsadlarida birgalikda, hamjihatlik bilan shu yo‘lda xizmat qilish, umumiy maqsadni amalga oshirish uchun ishlash, u to‘g‘rida qayg‘urish, izlanish, ilm-fan yutuqlarini egallash, uni hayot sohalariga tatbiq etishdagi umumiy mas’uliyat tuyg‘usini anglatadi.

Bu o‘rinda taraqqiyparvar insoniyat erishgan jamiki yutuqlar, millatimiz rivojiga xizmat etadigan umuminsoniy qadriyatlar va demokratiya tamoyillarini inkor etishdan yiroqmiz. Biz faqat asrlar osha sayqal topib kelgan milliy urf-odat va an’analarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashuvi lozimligini ta’kidlamoqchimiz, xolos. Aniqroq aytganda, demokratiya tamoyillari milliy qadriyatlarimizdan voz kechish hisobiga emas, aksincha, ularning yanada takomillashuvi va gullab-yashnashiga xizmat qilmog‘i darkor. Shuningdek, xalqimizning necha asrlik ma’naviy-ma’rifiy merosi, urf-odat va an’analarini targ‘ib etibgina qolmay, boshqa millat, elatlar qadriyatlari va oilaviy

an’analarini o‘rganish, o‘zga xalqlar milliy g‘oya va ma’naviyatida yuz berayotgan ijobiy va salbiy o‘zgarishlarni tahlil etish ham yurtimizda oila institutining iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy asoslarini yanada mustahkamlash, yoshlarimizni ziyrak, aql-farosatli, dono, ilm-ma’rifatli, Vatanimizning rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o‘rin egallashiga fidokorona xizmat qiladigan etib tarbiyalashga zamin yaratgan bo‘lar edi.

Global o‘zgarishlar hayotimizga toboro tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni obyektiv tan olish kerak – bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo‘shnilar balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog‘lanib borayapdiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushinish anglash qiyin emas. Globallashuv insoniyat tamadduni rivojining ichki ehtiyojlarini ifoda etadigan obyektiv, tabiiy-tarixiy jarayon.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, bugungi global o‘zgarishlar davrida milliy g‘oyani har bir inson, ayniqsa, yoshlarning qalbi, ongi va ichki dunyosiga zamonaviy usullar orqali targ‘ib qilish ularda ma’naviy, axloqiy, tarbiyaviy sifatlarni har tomonlama shakllantirish, hozirgi kunning davr talabidir. Zero, millat taraqqiyoti, ma’naviyati va madaniyati yuksak bilimli biz yoshlarga bog‘liqdir. Buning uchun bugungi yangilanayotgan jamiyatda nafaqat erkin harakat qilishi, balki uni rivojlantirishi uchun yagona milliy g‘oya asosida birlashishi, balki “Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot barpo etish” va “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasi ustuvor bo‘lishi lozim. Shundagina biz yoshlar, shu bilan birga xalqimizni globallashuvning har qanday yovuz kuchlaridan va ma’naviy tahdidlar to‘fonidan omon saqlaymiz, ular qalbida yurtga sadoqat, vatanga muhabbat tuyg‘ularini yanada yuksalishi uchun zamin yaratamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat. 2008-yil, 110-b.
2. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. –T., O‘zbekiston, 2000. – 491-b.
3.Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. –T.: G‘ofur G‘ulom nashriyoti, 2010. – 278-b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24-yanvar 2020-yil. https://president.uz/uz/lists/view/3324
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston: NMIU, 2016. – 14-b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston: NMIU, 2016. – 11-b.
7. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 120-b.
8. Uzokov B. “Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari –T.: Fan va texnologiya 2020-yil, 93-94-betlar.
9.Umarova N.. Madaniy vasvasa yoxud axloqning globallashuvi // Jamiyat va boshqaruv.- T-№2. – 37-b.

Botir MAMARAJABOV,
Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti,
“Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK TARJIMASHUNOSLARNI LINGVISTIK-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI YO‘LLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak tarjimashunos talabalarni lingvistik-kommunikativ kompetentligini shakllantirish jarayonida qo‘llaniluvchi pedagogik texnologiyalari tahlil etiladi. Bo‘lajak tarjimashunos talabalarni lingvistik-kommunikativ kompetentligini shakllantirish jarayonida ta’lim metodlarini tanlash shartlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar. Bo‘lajak tarjimashunos talabalar, lingvistik-kommunikativ kompetentlik, shakllantirish, usullar, ta’lim metodlari, tanlash shartlari.

В статье анализируются педагогические технологии, используемые в формировании лингвокоммуникативной компетентности будущих студентов-переводчиков. Рассматриваются условия выбора методов обучения в процессе формирования лингвокоммуникативной компетенции будущих студентов-переводчиков.

Ключевые слова. Будущие студенты-переводчики, лингвокоммуникативная компетенция, формирование, методы, методы обучения, условия отбора.

This article analyzes the pedagogical technologies used in the formation of linguistic and communicative competence of future translation students. The conditions for the choice of teaching methods in the process of forming the linguistic and communicative competence of future translation students are considered.

Key words. Future translation students, linguistic and communicative competence, formation, methods, teaching methods, selection conditions.

Bo‘lajak tarjimashunos talabalarni lingvistik-kommunikativ kompetentligini shakllantirish jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha ilg‘or tajribalar tahlili pedagogik texnologiya funksiyasiga aniqlik kiritish va uning konseptual modelini qurishga oid yondashuv variantini asoslash imkonini berdi. Bo‘lajak tarjimashunos talabalarni lingvistik-kommunikativ kompetentligini shakllantirish ta’limi maqsadini amalga oshirishda turli ta’lim metodlarini tanlashda eng asosiy omil sifatida o‘quv mashg‘ulotlarining didaktik vazifasi inobatga olinadi[1]. Mazkur ta’limda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta’lim metodlarini tanlashning mezoni dars jarayonidagi tahsil oluvchilar sonini hisobga olishdir. Agar ularning soni ko‘pligini tashkil etmasa, u holda faol

[1] Ярошенко О. Н. Развитие перцептивно-коммуникативной компетентности будущих переводчиков – М., 2007.

o‘qitish metodlaridan foydalanib, o‘qitishni jadal sur’atlarda olib borish mumkin bo‘ladi. Pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga binoan ta’lim metodlarini tanlashda yuqorida keltirilgan mezonlarga asoslangan holda o‘quv jarayonlarini to‘liq loyihalashtirish orqali tashkil etiladi va berilgan o‘quv materiallari mazmuni ongiga tez va oson singdirilishiga hamda ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanishiga erishiladi[2]. “Karusel” metodi mavzu yuzasidan ma’lumotlarni umumlashtirish va mukammal o‘zlashtirishda samarali usul sanaladi. Ushbu usulni qo‘llash quyidagicha amalga oshirilishi mumkin. Har bir guruhga asosiy savollar bo‘lib beriladi. Har bir guruhga qog‘oz beriladi va guruh a’zolari 4-5 daqiqa mobaynida o‘zaro fikrlashib, javobni qog‘ozga yozadilar. Belgilangan vaqt o‘tgach, o‘qituvchining ishorasi bilan mikroguruhlar raqamiga qarab javoblar yozilgan qog‘ozni keyingi guruhga uzatadi. Har bir guruh har bir savolga o‘zidan oldingi guruh yozganiga qo‘shimcha javob yozib chiqadi. Har bir guruh o‘zining yozgan javobini izohlab beradi. Har bir guruhning savollarga yozgan javobi boshqa guruhlarning qo‘shimcha izohlari berilgan holatda o‘ziga qaytib keladi, go‘yo savol yozilgan, qog‘oz guruhlar orasida aylanib, to‘ldirilgan shaklga keladi. O‘qituvchi yozilgan javoblarga qarab mikroguruh a’zolarini baholaydi. Ushbu metodning afzalligi shundan iboratki, bunda guruh a’zolari mavzuni savollarga bo‘lib, to‘liq o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Har bir guruhning fikrlari muhokama qilinishi natijasida guruh a’zolari o‘z yutuq va kamchiliklarini aniqlab oladi. Eng muhimi talabalar mustaqil fikrlashga, faollikka yo‘naltiriladi va ularda bir-birini baholay olish ko‘nikmasi shakllanadi. Shu yerda muammoli va hamkorlikdagi ta’lim texnologiyalarining hamohang tarzdagi uyg‘unligi ko‘rinadi. “Amaliy mashg‘ulotlarda har bir talaba ishini maksimal darajada faollashtirish va uni keys ustida ishlash jarayoniga jalb qilish maqsadida o‘quv guruhlari 4-6 kishidan iborat ishchi kichik guruhlarga bo‘linadi. Kichik guruhlarni shakllantirish va rollarni taqsimlash talabalarning o‘zlariga topshiriladi. “Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash” metodi tarjimashunos talabalarni lingvistik-kommunikativ kompetentligini mustahkamlashga oid tezkor savol-javobni tashkil etishda foydalanish mumkin. Metodni qo‘llash jarayonida quyidagi amallar bajariladi:

– o‘qituvchi o‘rganilayotgan mavzuning mohiyatini mantiqiy ketma-ketlikda yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalarni ifoda etgan maxsus kartochkalar majmuini tayyorlaydi (har bir kartochkaning orqa tomoniga mavzu mohiyatini yorituvchi “yadro” tushunchaning bittadan harfi joylashtiriladi va maxsus qoplama bilan berkitiladi);

– har bir guruhga maxsus kartochkalarning alohida majmuasi topshiriladi va kartochkalarni ulardagi tushunchalarga asosan, mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish vazifasi yuklanadi;

– guruhlar tomonidan topshiriq bajarilib bo‘lingach, kartochkalarning orqa tomoni o‘giriladi va maxsus qoplama ochilib, topshiriqning qay darajada to‘g‘ri bajarilganligi aniqlanadi.

“Zakovatli zukko” metodi “bilimlarni puxta o‘zlashtirishda o‘quvchi-talabalarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi[3]. “Zakovatli zukko” metodi o‘quvchi-talabalarda tezkor fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o‘z xohishlariga ko‘ra, shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko‘rish istagida bo‘lgan o‘quvchi-talabalar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o‘qituvchi tomonidan berilgan

[2] Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari –T.: O‘qituvchi, 2004.

[3] Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. –Т.: Молия, 2002.С.99.

savollarga qisqa muddatlarda to‘g‘ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko‘ra har bir savolga qaytarilgan to‘g‘ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o‘rtacha arifmetik qiymatini topish asosida o‘quvchi-talabalarning tafakkur tezligi aniqlanadi. “Zakovatli zukko” metodi o‘quvchi-talabalar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo‘llanilishi mumkin.

“Qarama-qarshi munosabat” metodi o‘zlashtirilgan bilimlarni tahlil va sintez qilish natijasida asosiy hamda ikkinchi darajali ma’lumotlar sifatida guruhlarga ajratish imkonini beradi. Metodni qo‘llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

– mavzuning umumiy mazmuni yodga olinib, uning ahamiyatini yorituvchi tayanch tushunchalar aniqlanadi;

– ular muayyan ketma-ketlikda qayd etiladi;

– tushunchalar shaxsiy yondashuv asosida muhim va u qadar muhim bo‘lmagan tushunchalar tarzida guruhlanadi;

– jadval yaratilib, uning 1-ustuniga muhim bo‘lgan, 2-ustuniga muhim bo‘lmagan tushunchalar yoziladi;

– kichik guruhlar asosida shaxsiy yondashuvlar muhokama qilinadi;

– jamoaning umumiy fikriga ko‘ra, yakuniy xulosani ifoda etuvchi jadval yaratiladi.

Videotahlil ham zamonaviy ta’limda so‘nggi yillarda tobora ommalashib borayotgan metodlardan biri bo‘lib, o‘quv materialining talabalar tomonidan obrazli o‘rganilishiga yordam beradi. Muayyan nazariy yoki amaliy ma’lumotlar video tasvir yordamida talabalarga yetkazilib beriladi. Tasvir namoyish etilgach, talabalar u yuzasidan bahsga kirishib, ma’lum muammoning yechimini topishga harakat qilishlari lozim. Ushbu jarayonda asosiy o‘rinlarga e’tibor qaratish, namoyish etilgan materialning eng asosiylarini ajratib olish, ular asosida qarorlar qabul qilish va umumiy xulosalarga kelish muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o‘rganish o‘quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to‘g‘ri yechimini topishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Demak, ta’lim metodlarini to‘g‘ri tanlash va ularni amalga oshirilishi har bir o‘tkazilgan o‘quv mashg‘ulotlarining sifati bilan bir qatorda tahsil oluvchilarning ilmiy-intellektual salohiyatini oshirishga, erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. –Т.: Молия, 2002. С.99.

2. Баканова Ю. В. Развитие межкультурных коммуникативных способностей будущих переводчиков в образовательном процессе вуза Автореф. дис. …канд.пед.наук. – М.: МГПУ. 2010.

3. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: ИРПО, 1996.

4. Ziyomuhammedov B. Ilg‘or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. –T.: Ibn Sino. 2001.

5. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari – T.: O‘qituvchi, 2004.

Otabek MAVLONOV,
Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti,
“Gumanitar-iqtisodiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

INGLIZ TILI DARSLARIDA VATANPARVARLIKKA OID SO‘ZLARNI O‘RGATISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada har bir insoning yetuk shaxs sifatida shakllanish jarayonida vatanparvarlik tuyg‘ularini singdirish va yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirish faqatgina ma’lum adabiyotlar va turli tadbirlar bilan emas, balki izchillik bilan har bir fan doirasida amalga oshirilishi kerakligi ingliz tili darslari misolida ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Vatanparvarlik, uzluksiz ta’lim, tarjima, sadoqat, shovinizm, jingoizm, ingliz tili, yosh avlod, bag‘rikenglik.

В статье на примере уроков английского языка показано, что воспитание патриотических чувств и формирование высоких нравственных качеств в процессе становления каждого человека как зрелой личности должно осуществляться не только с помощью определенной литературы и различных мероприятий, но и последовательно в рамках каждого предмета.

Ключевые слова. Патриотизм, непрерывное образование, перевод, лояльность, шовинизм, джингоизм, английский язык, молодое поколение, толерантность.

The article elucidates that the process of inculcating patriotism and the maintaining of high moral qualities in the formation of each person as a perfect person should be carried out not only with specific literature and various spiritual activities, but also organizing consistently within each discipline with an example of English lesson.

Key words. Patriotism, continuing education, translation, loyalty, chauvinism, jingoism, English, young generation, tolerance.

Har bir insonning yetuk shaxs sifatida shakllanishida ta’lim-tarbiya jarayonining o‘rni inkor etib bo‘lmaydigan darajada ulkandir. Bu jarayonning murakkabligi va uning mas’uliyatini naqadar sharafli va o‘z navbatida, og‘irligini, avvalo, pedagog xodimlar bevosita his qilish bilan bir qatorda, uning samaradorligini yanada oshirishga intilish ham talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risida qabul qilingan normativ hujjatlarda ham ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy maqsadlaridan biri ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik tamoyillari asosida, ta’limning uzluksizligi va izchilligini ta’minlash dozarb masalalardan ekanligi ta’kidlangan[1]. Uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirishning sharoitida ta’lim sohasida faoliyat olib boruvchi har qanday mutaxassisga o‘z fanini talaba-yoshlarga o‘rgatishdan tashqari ularda vatanparvarlik g‘oyalarini shakllantirish,

[1] Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi. Sharq, –T., 1997. – 44-bet.

sadoqat, el-yurt va xalqqa xizmat kabi tuyg‘ularni qaror toptirish ularning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Shunday ekan, yoshlarda vatanparvarlikni shakllantiruvchi darslar, ma’naviyat soatlari kabi turli mashg‘ulotlardan tashqari aynan butun boshli dars bo‘lmasada, har qanday o‘quv mashg‘ulotlari vatanparvarlikka chorlovchi elementlarni o‘z ichiga olishi kerak bo‘ladi.

Tillardagi har qanday leksik birliklar boshqa til birliklari bilan muomalada qo‘llanilganda o‘zlarida milliy-madaniy ma’lumotlarni tashish bilan birgalikda, shu kabi omillarning manbasi bo‘lib ham xizmat qiladi[2]. Bir tildagi so‘z, maqol yoki hikmatli gaplarni boshqa tilga tarjima qilganda uning muqobili aksariyat holatda topilishi mumkin, biroq chet tilidagi so‘zlarning aksariyatida milliylik va o‘sha millatning madaniy unsurlari sezilib turadi. Ingliz tilida so‘zlashuvchi xalqlarda ham vatan va unga bog‘liq so‘zlarning izohi orqali o‘ziga xos ma’nolarni anglash mumkin.

Ingliz tilida bu kabi g‘oyalar bilan bog‘liq bo‘lgan ilk so‘z motherland (fatherland) ya’ni vatan so‘zidir. Morfologik jihatdan murakkab so‘z biriligi hisoblanmasa ham, leksik va etimologik jihatdan so‘zga e’tibor berilsa u ikki qismdan iborat: mother (father) va land. Ya’ni har bir insonning hayotidagi eng muhim va yaqin, birinchi taniydigan insonlari otasi yoki onasi bilan qiyoslanmoqda. Ma’lumki, har qanday millatda ularning mentaliteti va urf-odatlaridan qat’i nazar ota-onaga hurmat va ularni qadrlash yuksak odob va tarbiyaning namunasi hisoblanadi. Ota-ona tushunchasi vatan tushunchasiga nisbatan torroq ma’noga va qamrovga ega bo‘lishiga qaramasdan insonning hayotda eng birinchi taniydigan va hayotining keyingi bosqichiga asosiy tamalni qo‘yuvchi insonlar sifatida gavdalanadi. Vatan ham ona kabi e’zozlanishi, qadrlanishi va albatta, sevilishi zarurligi dars jarayonida munosib vaqti kelganida ta’kidlanib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Aynan “vatanparvar” so‘zining inglizcha muqobili *patriot* bo‘lib, etimologik jihatlariga diqqat bilan nazar solinadigan bo‘lsa, u ingliz tiliga fransuz tilidan kirib kelgan. Ajablanarli tarafi shundaki, uning avvalgi shakli *compatriot* bo‘lgan. Hozirgi kunda ingliz tilida ikkala so‘z ham mavjud va hamon muomalada bo‘lib, ma’nolari bir-biridan u qadar uzoq bo‘lmasada ikkala so‘zning mustaqil ma’nosi bor. *Patriot* so‘zi, o‘zbek tiliga “vatanparvar” kabi tarjima qilinsa, *compatriot* esa “vatandosh” ma’nosini beradi. Mazkur so‘zning ildizlari qadimgi yunon tilidagi qaratqich kelishigidagi *patros* so‘ziga borib taqaladi va u *pater* ya’ni ota so‘zidan olingan.

Har qanday tilda bo‘lgani kabi ingliz tilidagi so‘zlarning ham asl mohiyatini to‘liqroq anglash uchun o‘sha tilning izohli lug‘atlaridan foydalanish lozim bo‘ladi. *Patriot* so‘ziga eng ommabop lug‘atlardan biri “vatanini sevuvchi, kerak bo‘lsa uning uchun kurashuvchi shaxs (a person who loves their country and, if necessary, will fight for it)” sifatida ta’rif berilgan. Demak, vatanparvar sifatiga ega bo‘lish uchun shaxsda faqatgina unga nisbatan muhabbatgina emas, balki uning koriga yaraydigan kerak bo‘lsa u uchun kurashishga tayyor ham bo‘lish kerak degan tushuncha bo‘lishi talab etilar ekan.

Ona yurtning koriga yarash, vatanga xizmat qilish va uning oldida o‘z burchini ado etish kabi muqaddas g‘oyalar faqatgina ma’lum bir toifa insonlar – harbiylar, ichki ishlar xodimlari yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlargagina tegishli emasligini millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va jamiyatdagi maqomidan qat’i nazar yurtimizda istiqomat

[2] Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура. Три лингвострановедческие концепции: лексического фона, речеповеденческих тактик и тем. Под редакцией и с послесловием академика Ю. С. Степанова. – М.: Индрик, 2005. — С.1040.

qilayotgan har bir shaxsning burchi ekanligi pedagogik jarayonda doimo ta'kidlanib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, har bir kasb egasi yoki jamiyatning turli qatlamlarining vakili o'z vazifasiga sidqidildan yondashsa, uni vijdonan ado etsa u ham vatanparvarlikning yuksak namunasi ekanligini uqtirib borilishi zarur.

Vatanparvarlik bilan bog'liq bo'lgan so'zlarning barchasi ham ijobiy ma'noga ega bo'lavermaydi. Bunday holat ayniqsa ushbu masalada o'ta chuqur ketish orqali sodir bo'lishi boshqa salbiy konsepsiyalarning kelib chiqish tarixidan ham ma'lum. Shunday tushunchalar sirasiga **shauvinizm** va **jingoizm** kabi so'zlarni kiritish mumkin. Ikkala so'zning ham ma'nolari deyarli bir xil bo'lib, o'z millati yoki vatanini asossiz ravishda boshqa millat va xalqlardan ustun qo'yish orqali yuzaga kelgan. Shauvinizm so'zi allaqachon baynalmilal so'zlar sirasiga kirib ulgurgan va "Shovinizm" so'zi nafaqat shu kabi holatlarda balki, erkak va ayol o'rtasidagi tengsizlikka asoslangan munosabatlarga nisbatan ham qo'llaniladi. Bevosita mazkur so'zning kelib chiqish tarixiga e'tibor qaratadigan bo'lsak fransuz davlat va siyosat arbobi Napoleon Banopartning qo'shinida xizmat qilgan va uning o'limidan so'ng uni ko'klarga ko'targan askar Nikolya Shoven nomi bilan bog'lash mumkin. Istilohda esa "bo'rttirilgan, asossiz ravishda biror kishining o'z millati, irqi yoki mamlakatini boshqa millat va elatlardan ustun deb kuchli ishonish" sifatida izoh berilgan.

Demak, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bir qatorda ularga bag'rikenglik g'oyalarini ham o'rgatish muhim hisoblanadi. Vatanparvarlik g'oyalarini yosh avlodga o'ta singdirib yuborish ba'zi hollarda ta'bir joiz bo'lsa "Shovinizm" va "Jingoizm" kabi buzg'unchi g'oyalarni shakllanishiga ham olib borishi mumkin. Shuning uchun, vatanparvarlik kabi ezgu g'oyani bag'rikenglik tamoyillari asosida o'rgatish maqsadga muvofiq.

Mazkur mavzuga bir necha yuzlab so'zlarni bog'lash va ularga atroflicha izohlar berish mumkin, lekin mutaxassisligi filologiya yoki lingvistika bilan bog'liq bo'lmagan yo'nalish talabalariga dars jarayonida barchasiga to'xtalib o'tish shart bo'lmasada, yuqoridagi keltirilgan ba'zi so'zlarni kezi kelganda, ma'qul va munosib vaqtini topib tushuntirib ketilsa o'z samarasini berish ehtimoli yuqoriroq. Bunda professor-o'qituvchidan nafaqat pedagogik kompetensiya, balki hayotiy tajriba va chuqur bilim ham talab etiladi. Ta'lim muassasasining ixtisosligi va talabalarning bo'lajak kasblaridan kelib chiqqan holda aynan bir mashg'ulot bo'lmasa ham, dars mobaynida uning ma'lum bir qismini shu maqsadga yo'naltirish har bir talabada mazkur g'oyalarni shakllantirish va keyinchalik rivojlantirib borish uchun samarali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi. Sharq, –T., 1997. – 44-bet.

2. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. Три лингвострановедческие концепции: лексического фона, речеповеденческих тактик и сапиен темы. Под редакцией и с послесловием академика Ю. С. Степанова. — М.: Индрик, 2005. – С. 1040.

3. Kate Woodford, Guy Jackson. Cambridge Advanced Learner's Dictionary. Cambridge University Press, 2003. – 1550 pages.

Nilufar FAYZULLAYEVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Innovatsion ta’lim” kafedrasi dotsenti

TALABALAR KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA IQTISODIY TUSHUNCHALARNI O‘ZLASHTIRISH USULLARI

Annotatsiya

Maqolada iqtisodiy tushunchalarni o‘zlashtirishda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish muammosining dolzarbligi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning metodologik asosi bo‘lgan konsepsiyani shakllantirishning asosiy texnikasi va usullari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim jarayoni, iqtisodiy kompetensiyalar, o‘quv samaradorligi, o‘qitish metodikasi, o‘qitish usullari, iqtisodiy ta’lim.

В статье рассматривается актуальность проблемы формирования профессиональных компетенций студентов при усвоении экономических понятий. Раскрываются основные приёмы и методы формирования основных понятий, являющихся методологической основой исследования.

Ключевые слова. Образовательный процесс, профессиональные компетенции, эффективность обучения, методика преподавания, методы преподавания, экономическое образование.

The article examines the relevance of the problem of the formation of professional competencies of students in the assimilation of economic concepts. The main techniques and methods of forming the basic concepts, which are the methodological basis of the research, are revealed.

Key words. Educational process, professional competencies, learning efficiency, teaching methods, teaching methods, economic education.

O‘qitish metodikasi o‘qituvchilarga bir qator usullarni taqdim etishi kerak, ularning yordamida o‘rganilayotgan fanning nazariy mazmunini talabaga yetkazish va ushbu bilimlardan kasbiy faoliyat va hayotda foydalanish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirish mumkin. Ta’limning turli usullari va shakllari o‘quv jarayoniga o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradigan, kasbiy madaniyatini rivojlantiradigan, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi voqea va hodisalarni baholashda ma’lum bir yondashuvni shakllantirish qobiliyatini rivojlantiradigan ilmiy bilimlarni kiritish imkonini beradi. Ta’lim jarayoni qonunlarini shakllantirishga qaratilgan birinchi urinishlar Suqrot tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u o‘quvchi fikrining tug‘ilishi o‘qituvchi tomonidan tashkil qilingan dialokga bog‘liqligini ta’kidlagan.

Bizning xotiramiz xususiyatlari o‘quv jarayonining quyidagi modelini aniqlashga yordam beradi (Edgar Deyl o‘rganadigan konus): o‘qiganlarimizning 10 foizini eslaymiz, 20 foiz eshitganimizni, ko‘rgan narsalar 30 foiz, eshitgan va ko‘rganlarni 50 foiz,

o‘zimiz aytadigan narsalarning 80 foizi, va biz bir vaqtning o‘zida aytadigan va qiladigan narsalarning 90 foizini eslab qoladi. Ushbu qolip turli xil fanlarni o‘qitishda faol ta’limning rolini, passiv idrokning faol o‘zaro ta’sirga o‘tishini ta’kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi va metodikasi. O‘qitishdagi turli xil yondashuvlar va uning modellari o‘qituvchilarga ta’lim maqsadlarini, ularning shaxsiy xususiyatlarini, tajribasini, voqealar va hodisalarni baholashdan kelib chiqib, ta’lim jarayonini har xil tomondan tahlil qilish, tanlash va o‘qitish jarayonida turli xil usullarni kiritish imkoniyatini beradi.

Uslubiy bilimlarga ega bo‘lish o‘qituvchining samarali kasbiy faoliyatini ta’minlaydi. Ular ushbu faoliyatning texnikasi va usullari bilan, shuningdek, o‘qituvchining individual-tipologik xususiyatlari, uning vakolatlari darajasi, hayotiy va pedagogik tajribasi va sezgi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu asoslarni tavsiflab, metodologiyani tanlash fanning mohiyatidan kelib chiqishi kerakligini ta’kidlash mumkin. O‘qituvchi o‘zining faolligi va ijodkorlikning namoyon bo‘lishi bilan ma’lum bir fanni o‘qitishning mazmuni, tashkil etilishi va metodikasini belgilaydigan eng muhim talablarga rioya qilishi kerak. O‘qituvchi umumiy tamoyillardan tashqari iqtisodiy fanlarni o‘qitishning o‘ziga xos tamoyillarini ham bilishi kerak. Bunga quyidagilar kiradi:

1. Talabada hayotiy tajriba va iqtisodiy bilimlarning mavjudligini hisobga olish prinsipi. Ushbu prinsipga muvofiq, iqtisodiy fanlarni o‘qitish tabaqalashtirilgan tarzda olib borilishi kerak.

2. Talabaning ta’lim jarayoniga doimiy shaxsiy aralashuvi prinsipi. Ushbu tamoyil talabaning doimiy ravishda boshqa manbalardan olingan o‘qishlar va bilimlarning mazmuni bilan o‘zining kasbiy rivojlanish g‘oyasi bog‘liqligi bilan belgilanadi.

3. O‘quv fanining mazmunini talabaning shaxsiy rivojlanishidagi ijtimoiy vaziyatga kiritish prinsipi. Ushbu prinsipga asoslanib o‘qituvchining vazifasi – o‘qitish jarayonida fanning mazmuni talaba uchun hayotiy ahamiyatga ega bo‘lishi lozim.

Umumiy didaktik va o‘ziga xos prinsiplarga rioya qilish o‘qituvchiga nafaqat talabalar tomonidan kelajakdagi kasbi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash, balki bo‘lajak mutaxassislarning shaxsiy rivojlanish darajasi yuqori bo‘lishiga erishish imkonini beradi.

Tanlangan uslubiyot sifatli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishi, jamiyat va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olishi kerak. Kasbiy o‘qitish metodikasida savollar ma’lum bir o‘quv fani bo‘yicha ustunlik qiladi: Qanday o‘qitish kerak? Fan mazmunini o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalariga aylantirish uchun qanday o‘qitish vositalari qo‘llaniladi? Talabalarning bilish faoliyati muvaffaqiyatini qanday nazorat qilish kerak?

Talabalar uchun fanni o‘rganishdagi asosiy muammolardan biri bu tushunchalar va terminologik apparat bilan ishlashdir. Har qanday ilm-fandagi, maxsus fanlarni o‘qitish metodikasida ham uning asosiy tushunchalari fanni o‘qitish jarayonining fundamenti bo‘lib xizmat qiladi va shu bilan birga uning rivojlanish darajasining ko‘rsatkichidir. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasining umumlashtirilgan rivojlanish tajribasiga asoslanib, uslubiy bilim tushunchalarda, ushbu tushunchalarni mantiq qonunlariga muvofiq belgilashda shakllanadi.

Ta’lim jarayonida tushunchalarni shakllantirish o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarning butun majmuasining tarkibiy qismlaridan biridir. Har qanday o‘quv fani o‘ziga xos konseptual apparatga ega bo‘lib, u toifalar, tamoyillar va qonunlar to‘plamini o‘z ichiga oladi. Ularning yordami bilan tadqiqot metodologiyasi, fanning mavzular mazmuni ochib beriladi. Tushunchalarni shakllantirish – bu tushunchaning tahlilini, uning ta’rifi va shakllanishini o‘z ichiga olgan aniqlanishning

ilmiy usulidir.

Har qanday tushunchaning o‘ziga xos mazmuni bor, u belgilarning o‘zaro bog‘liqligidan iborat. Bunga “element” so‘zi misol bo‘la oladi. Ayni paytda bu biz uchun aniqlanmagan tushuncha. Ushbu obyekt nima ekanligini aniq bilmaymiz. Bu boshqaruv panelidagi batareya, metall konstruksiyaning qismlaridan biri yoki jamiyatning ijtimoiy qatlami bo‘lishi mumkin. Bizning miyamiz ko‘proq ma’lumotga muhtoj. Qo‘shimcha ma’lumotni qabul qilgandan so‘ng, bu kimyoviy element ekanligi aniqlandi. Endi noaniq tushuncha aniq terminga aylanadi. Yaqindan o‘rganib chiqsak, u plutoniy ekan. Shu paytdan boshlab ma’lum bir tushuncha ta’rifga (definisiyaga) aylanadi. Ya’ni, mavhumlikdan aniq, qat’iy xususiyatlarga ega bo‘lgan aniq obyektga aylanadi.

Bundan tashqari, alohida tushunchaning tuzilishiga u yoki bu darajaga ushbu tushunchani boshqalar bilan bog‘laydigan ulanishlar kiradi. Shunday qilib, tushunchalarning shakllanishi ikkita asosiy bosqichga ega: birinchisida odam muhim xususiyatlarni, belgilarni sezadi, ikkinchisida u tushuncha xususiyatlari va boshqa obyektlar o‘rtasidagi mantiqiy aloqani o‘rnatadi. Tushunchani shakllantirishda, avval ushbu tushunchaga kiritilgan xususiyatlarning eng xarakterli va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash kerak.

Interfaol ta’lim usullaridan ta’lim jarayonining turli bosqichlarida foydalanish mumkin:

– bilimlarni birlamchi o‘zlashtirish bosqichida evristik suhbat, o‘quv munozarasi, “aqliy hujum” usuli va boshqalar kabi usullardan foydalanish mumkin;

– bilimlarni nazorat qilish (mustahkamlash) bosqichida “davra suhbati” usuli, testlar, ularni muhokama qilish bilan amaliy ishlar tanlovlari va boshqalar kabi usullardan foydalanish mumkin;

– bilim va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga asoslangan kasbiy mahorat va bilimlarni shakllantirish bosqichida modellashtirish, ishbilarmon o‘yin uslubi, Case-study uslubi va h.k.lardan foydalanish mumkin. Ta’kidlash joizki, o‘qitishning interfaol usullarining aksariyati ta’lim jarayonida ko‘p funksiyali ahamiyatga ega.

An’anaviy iqtisodiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilar tomonidan ilmiy tushunchalar ta’riflarini takror ishlab chiqarishning to‘liqligi, insonning kasbiy va shaxsiy rivojlanishining asosiy ilmiy qoidalari va qonuniyatlarini anglash ta’lim sifatining asosiy mezonlari hisoblanadi. Shu bilan birga, fanning o‘ziga xosligi har doim ham e’tiborga olinmaydi, bu ma’lumotni idrok etish xususiyatlarini va talabalarning iqtisodiy fikrlashining namoyon bo‘lishini birlashtiradi.

Turli xil ta’lim darajalarida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligi iqtisodiy kompetensiyalarni shakllantirish modelini va uzluksiz iqtisodiy ta’lim konsepsiyasini yaratishda hisobga olingan bir qator obyektiv, subyektiv omillar bilan bog‘liq. Barcha bosqichlarning oraliq natijalarini sarhisob qilar ekanmiz, shunday xulosaga keldikki, natijada, talabalarning kasbiy kompetensiyasi, kasbiy yo‘naltirilgan ta’lim ishining mezonlari ma’lum tashkiliy tuzilishda belgilanadi, iqtisodiy vakolatlarning namoyon bo‘lish darajalari shaklida harakat qiladigan va darajaviy xususiyatga ega bo‘lgan tizim hisoblanadi.

Talabalarning iqtisodiy kompetensiyalarini shakllantirishda biz ushbu darajalarni aniqladik: past, o‘rta va yuqori.

Har bir daraja iqtisodiy kompetensiyalarning shakllanish darajasiga (asosiy, kasbiy va qo‘shimcha) talabaning individual va shaxsiy rivojlanishi shaklida asoslanadi.

Biz iqtisodiy kompetensiyalarni mutaxassisning professional muhim fazilatlarini ifodalovchi va uchta tarkibiy qismni o‘z ichiga olgan integral tushunchasi sifatida ko‘rib chiqdik.

Talabalarning iqtisodiy kompetensiyalari darajasi uchta mezon bo‘yicha aniqlandi: kognitiv, motivatsion-shaxsiy va faollik-ijodiy. Mezonlarning har biri bitta komponentning shakllanish darajasini aks ettiruvchi empirik ko‘rsatkichlar tizimi orqali aniqlanadi.

Diagnostik tadqiqotlar natijalari o‘quvchilarning kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv ishlari va iqtisodiy tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qildi. Iqtisodiy bilim, ko‘nikma va malakalarning haqiqiy darajasini aniqlash metodikasi uch bosqichni o‘z ichiga olgan: 1-qadam – iqtisodiy bilim, 2-qadam – iqtisodiy ko‘nikmalar, 3-qadam – iqtisodiy malakalar. Har bir qadam iqtisodiyotning asosiy mavzulari, jihatlari, muammolari bo‘yicha tobora murakkablashib boradigan vazifalarni birlashtirdi.

Vazifalarning har bir bosqichi va darajasi uchun o‘quv fani, o‘qitish ixtisosligi, o‘quv kursining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, o‘z baholash mezonlari ishlab chiqildi.

Birinchi guruh topshiriqlari testlardan iborat bo‘lib, ularning yordamida talabalarning nazariy iqtisodiy bilimlari darajasi baholandi. Case – vaziyatlar talabalarning iqtisodiy kompetensiyalarini diagnostika qilishning asosiy vositasi sifatida ishlatilgan – bular talabani haqiqiy iqtisodiy masalani tushunishga taklif qiladigan muammoli vazifalar bo‘lib, ularning tavsifi nafaqat hayotiy, ishlab chiqarish yoki ijtimoiy muammolarni aks ettiradi, balki ushbu muammoni hal qilish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy va kasbiy bilimlarning ma’lum bir to‘plamini amalga oshiradi.

Ushbu muammo aniq yechimlarning yo‘qligi bilan ajralib turadi, bu esa talabani yondashuvlarni optimallashtirish yo‘llarini izlashga, yechim usullarini tahlil qilishga va o‘z uslubini tanlashni asoslashga undaydi.

Shunday qilib, zarur empirik ma’lumotni olish uchun biz og‘zaki va yozma javoblarni sifatli tahlil qilish, testlar, suhbatlar, kuzatishlar, ekspertlarni baholash, sinovlar, ishlarni o‘lchash moslamalari, natijalarni qayta ishlashning statistik usullari uchun umumiy qabul qilingan usullar tizimidan foydalandik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Блинов В.І. Методика преподавания в высшей школе: учебно-практическое пособие для вузов. – М.: Издательство Юрайт, 2015.– С.96-100.

2. Интерсионизм в американской социологии и социальной психологии первой половины XX века: Ефременко Д.V. –М.: тип., 2010. – С. 273-276.

3. Шамсутдинова Т.М. Проблемы обучения студентов концептуальному анализу данных / / бизнес-аналитика. – Рязань: Лаборатория базовых данных, 2010. – С. 40-44.

4. Fayzullayeva Nilufar. Activating the process of studying economic concepts in the formation of economic competencies. European Journal of Humanities and Social Sciences. Scientific journal. № 1 2021.– Pp.92-97.

Xulkar BOZOROVA,
Toshkent davlat pedagigika universiteti, Termiz filiali o‘qituvchisi

RUS TILINI O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek maktablari rus tili o‘rgatishda yuzaga keluvchi xususiyatlar, darslarga qo‘yiladigan didaktik, tarbiyaviy talablar, tovushlarni talaffuz qilishda yuzaga keladigan xatoliklar, o‘qitishda foydalaniladigan metodik izohlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. O‘quvchini tarbiyalash, talaffuz, taqqoslash, dars mazmuni, interfaol metodlar.

В статье представлены особенности, возникающие при обучении русскому языку в узбекских школах, дидактические, воспитательные требования к урокам, ошибки в произношении звуков, методические замечания, используемые при обучении.

Ключевые слова. Воспитание студентов, произношение, сравнение, содержание урока, интерактивные методы.

This article describes the problems that arise in the teaching of Russian in Uzbek schools, the didactic, educational requirements for lessons, errors in the pronunciation of sounds, methodological explanations used in teaching.

Key words. Student upbringing, pronunciation, comparison, lesson content, interactive methods.

I.A. Boduen de Kurtene hozirgi zamonda rus tilini o‘rganish uchun muhim bo‘ladigan fikrlarni bildirdi: “Agar o‘quvchilar ongida ikkita til haqida bilimlar bo‘lsa, biz ularga bu tillarning o‘xshashligi va farqlari, xususiyatlari, ularning bog‘liqligi yoki qisman aloqadorligi haqida qiyosiy tasavvur bera olamiz”[1].

Barcha maktab fanlarida, jumladan, rus tili darslarida quyidagi umumiy didaktik (yoki umumiy mavzu) maqsadlar amalga oshiriladi:

– o‘quvchilarni tarbiyalash;

– mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;

– o‘quvchilarni rus tili haqidagi bilimlarini mustaqil egallashga o‘rgatish.

So‘nggi vaqtlarda o‘zbek maktablarida rus tilini o‘rgatish bo‘yicha turli xil muammolar mavjudligicha qolmoqda. Odatda, ularning rus tilini bilish darajasi yetarlicha yuqori emas.

Maktab o‘quvchilariga, xususan, o‘zbeklarga rus tilini o‘rgatish muammolari ekstralingvistik va lingvistik omillarga ham bog‘liq.

Asosan, o‘quvchilar duch keladigan dolzarb til muammolari fonetika, grammatika, imlo qoidalari bilan bog‘liqdir. Rus tili o‘rganayotgan o‘quvchilarda ona tillari bo‘lgan

[1] Анисимова И.Н. “Об аудировании в процессе обучения русскому языку иностранных студентов экономичесого факультета”/И.Н. Анисимова// Научно-методический электронный журнал Концепт. – 2015. – Т., 24. – С.11-15.

o‘zbek tili va rus tili o‘rtasidagi yetarli darajada farq sezishadi.

O‘quvchilar rus tili alifbosidagi harflarni talaffuz qilishda ko‘pgina xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkin. Bundan tashqari, o‘zbek umumiy o‘rta ta’lim maktablarida dastlab o‘quvchilar lotin alifbosini to‘liq o‘zlashtiradi, natijada, bu bosqichda rus tilida o‘qish va yozishda qo‘shimcha qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Bundan tashqari, rus alifbosida harflarning ko‘pchiligi lotin alifbosida mavjud emasligi, tovushlarning noto‘g‘ri talaffuz qilishiga olib keladi. Masalan, o‘quvchilar ko‘pincha rus alifbosidagi *s, щ, ы,* harflari yoki *“r”*ni *[p], “t*’ ni qo‘l bilan yozgan *[m]* va hokazolarni o‘qiydi. Bunday xatolar, qoidalari tushuntirilgan holda, ko‘plab o‘quv mashg‘ulotlarida talaffuz qilish mashqlari davomida yo‘q qilinadi.

Umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilar orasida yozuvdagi ko‘p qiladigan xatolar yumshoq belgidan foydalanishda paydo bo‘ladi. Bu o‘zbek alifbosida bunday harf yo‘qligi bilan izohlanadi. O‘qituvchi uning so‘z o‘rtasida, ot va fe’llarning oxirida ishlatilishining asosiy holatlarini tushuntirishi hamda grammatik qoidalarni sanab o‘tishi kerak.

Birinchi bosqichda rus tili morfologiyasini, boshqa jihatlar bilan parallel ravishda o‘rganish ham katta ahamiyatga ega. Jins turkumiga alohida e’tibor qaratish lozim, chunki o‘zbek tilida jins vakillariga nisbatan toifalash kuzatilmaydi. Shu munosabat bilan, ismlarni ishlatganda, ko‘pincha, masalan, *мужского* и женского рода so‘zlarda *-l*, shuningdek, jinsni aniqlashda xatolar tez-tez uchraydi, masalan, o‘g‘il bolalar *я родилась,* qiz bolalar *я родился*. Rus tilida belgilangan so‘z bilan jins kelishigini talab qiluvchi va ular belgilagan otlarga semantik jihatdan qarama-qarshi bo‘lgan leksemalarning ishlatilishida tegishli xatolar sodir bo‘ladi[2].

Muayyan holatlarda ishlatilgan ruscha qo‘shimchalari ham o‘quvchilar uchun qiyinchilik tug‘diradi *(на болнице, в рынке, вы сейчас на университете, привезла на деканат).*

Rus tilini o‘rganishda o‘quvchilarda fikrlashni ham rivojlantirish ahamiyatlidir. Fikrlash insonning olam haqidagi bilimidagi eng yuqori bosqichidir (hislar va tasavvurlardan keyin). Insonda fikrlash ikki shaklda mavjud: hissiy-vizual fikrlash va mavhum umumlashtirilgan (yoki og‘zaki-mantiqiy). Sensorli-vizual fikrlash dunyoni konkret predmetlar tasvirida, mavhum umumlashtirilgan fikrlashni esa tushunchalar shaklida aks ettiradi. Faqatgina mavhum umumlashtirilgan fikrlash bilan “inson tafakkurini ro‘yobga chiqarish vositasi” vazifasini til bajaradi[3].

Rus tili o‘rganishda bilimlarini tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish zarurdir. Asosan, o‘zbek tilida ta’lim olayotgan o‘quvchilar rus tilida biror so‘z yoki matnni tarjima qilishda va gapirishda birinchi galda o‘z tillarida fikrlaydilar.

Shuningdek, o‘zbek umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi o‘quvchilarning ota-onalarining ko‘pchiligi rus tilini bilmasligi, uyda muloqot yo‘qligi natijasida, til o‘rganishda sezilarli daraja oqsashlar yuzaga keladi.

O‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirishda quyidagi bosqichlar ajratiladi:

1) kayfiyat ko‘taruvchi, qiziqarli misollar;

2) mavzuning ahamiyati to‘g‘risida o‘qituvchining so‘ziga ishonchligi;

3) mavzu bo‘yicha bilimning amaliy ahamiyatini anglash.

Shuningdek, rus tilini o‘rgatishda interfaol metodlardan foydalanish, o‘quvchining

[2] Бодуэн де Куртенэ И.А. “Избранные труды по общему языкознанию” / И.А. Бодуэн де Куртенэ. –М., 1963. – С.2.

[3] Панфилов В.З. “Взаимоотношение языка и мышления” –М., 1971.– С.16.

bilim, ko‘nikma, malakalarni rivojlantirishda ahamiyatlidir.

Interfaol asosda dars jarayonini tashkil etilganda:

– o‘quvchining o‘zaro faolligi oshadi, hamkor, ijodkorlikda ishlash ko‘nikmalari shakllanadi.

– o‘quv reja, dastur, darslik, standart me’yor, qo‘llanmalar mavzu mazmuni bilan ishlash malakalari shakllanadi.

– ta’lim mazmunini, matnni mustaqil mutolaa qilish, ishlash, o‘zlashtirish kundalik shaxsiy ishlariga aylanadi.

– o‘quvchi erkin fikr bildirish, o‘z fikrini himoya qilish, isbotlay olish, tasdiqlay olishga odatlanadi.

Darsni interfaol metodlarda tashkil etishning qanday afzalliklari mavjud:

• o‘qitish mazmuni yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;

• o‘z vaqtida o‘quvchi-o‘qituvchi-o‘quvchilar orasida ta’limiy aloqalar o‘rnatiladi;

• o‘qitish usullari ta’lim jarayonida turli xil ko‘rinishlarda kechadi(yakka, juft, guruh, katta guruhlar);

• o‘quv jarayoni o‘quv ehtiyojini qondirish bilan yuqori motivatsiyaga ega bo‘ladi.

• o‘zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o‘quv materiali yaxshi esda qoladi;

• o‘quvchida o‘zaro muloqotga kirishish, fikr bildirish, fikr almashinish ko‘nikmalari shakllanadi;

• o‘quvchi jarayonida-o‘quvchining o‘z-o‘ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi;

• o‘quvchi uchun dars qiziqarli o‘qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi, o‘qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo‘ladi;

• har bir o‘quvchini o‘zi mustaqil fikr yurita olishga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi;

• interfaol usulda o‘tilgan darslarda o‘quvchi faqat ta’lim mazmunini o‘zlashtiribgina qolmay, balki o‘zining tanqidiy va mantiqiy fikrlashini ham rivojlantiradi.

Eng muhimi, o‘quv jarayonida didaktik motivlar vujudga keladi. Ya’ni o‘quvchining ehtiyoj, xohish, istagi qondiriladi. O‘quv-biluv jarayonida o‘quvchining manfaatdorligi oshadi. Bu holat o‘quvchini o‘quv maqsadlariga erishishda yuqori bosqichga ko‘taradi.

Demak, o‘zbek o‘quvchilariga rus tilini o‘rgatishning asosiy muammolari va ularning muloqot xatolari, avvalo, ikki til tizimlari o‘rtasidagi tafovut, o‘quvchilarning ona tilida bir qator grammatik hodisalarning yo‘qligi bilan bog‘liq. O‘zbek tili va madaniyatining rus lingvistik madaniyatiga nisbatan yuqorida bayon etilgan xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quvchilar nutqidagi xatolarni bartaraf etish uchun unumli ishlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Анисимова И.Н. “Об аудировании в процессе обучения русскому языку иностранных студентов экономичесого факультета”/И.Н. Анисимова// Научно-методический электронный журнал Концепт. – 2015. – Т., 24. – С.11-15.

2. Анисимова И.Н. “Функционально-семантические особенности адэктивных лексем в составе пейзажного описания художественного текста” / И.Н. Анисимова// Вестник Чувашского университета. – 2012. - №1. – С.200-206.

3. Бодуен де Куртене И.А. “Избранные труды по общему языкознанию” / И.А. Бодуен де Куртене. – М., 1963. – С.2

Sodiq YO‘LDASHEV,
Qashqadaryo davlat universiteti o‘qituvchisi

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA MEHNAT FAOLIYATIGA TAYYORLASH

Annotatsiya

Maqolada interfaol metod va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarini kreativ ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati bayon etilgan. Bunda asosiy e’tibor kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim oluvchilarda kreativ qobiliyatlarni rivojlanganligini aniqlash mezonlari va mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar. Kreativ yondashuv, texnologiya, qobiliyat, mezon, mexanizm, kompetensiyaviy yondashuv, ko‘nikma.

В статье изложена важность развития креативных навыков у учащихся начального образования на основе интерактивного метода и современных педагогических технологий. Основное внимание при этом уделяется совершенствованию критериев и механизмов определения уровня развития креативных способностей у обучающихся на основе компетентностного подхода.

Ключевые слова. Креативный подход, технология, способность, критерий, механизм, компетентностный подход, умение.

The article describes the importance of developing creative skills of primary education students on the basis of interactive methods and modern pedagogical technologies. The main emphasis of Bunda is on the improvement of criteria and rules for determining the development of creative abilities in educators on the basis of a competency approach.

Key words. Creative approach, technology, ability, criterion, mexanizm, competency approach, skill.

Respublikamizda ta’lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoiy va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e’tibor berilmoqda. Hozirgi davrda ishlab chiqarishda texnika va texnologiyalarning yangilanayotganligi, ilm va fanning jadal taraqqiyoti mutaxassis kadrlardan o‘z bilimlarini mustaqil va muntazam ravishda chuqurlashtirib, yangilab, to‘ldirib va kengaytirib borishni talab etadi.

Darhaqiqat, yangilangan ta’lim tizimini joriy etishda har bir bo‘lajak o‘qituvchining o‘z faniga va barkamol avlod ta’lim-tarbiyasiga oid kasbiy kompetentligini shakllantirish va ularni pedagogik faoliyatda izchil qo‘llay bilish mahoratiga ega bo‘lishi bugungi kunning muhim talabidir. Texnologiya ta’limi o‘qituvchisini kasbiy-pedagogik tayyorlash sifatini tubdan oshirish uning mazmuni bilan bevosita bog‘liqdir. Pedagogik kadrlar tayyorgarligi sifatini sezilarli darajada oshirish uchun pedagogik va texnik bilimlar sintezini ta’minlash zarur. Texnologiya ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirish pedagogik va texnik bilimlarni fan, ta’lim, texnika, texnologiya va ishlab chiqarish iqtisodiyoti sohalaridagi o‘zgarishlarga asoslangan integratsiyasi ta’lim jarayonining

samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayon kasb ta’limi o‘qituvchisini tayyorlash mazmunini asoslash va kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasini yaratishda muayyan o‘zgarishlarni amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Globallashuv va ta’limning integratsiyalashuvi jarayonlarida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. O‘zbekistonda kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta’lim muassasasini jahonning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatishi, o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, ta’lim oluvchilar, ilmiy-pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, yoshlar auditoriyasi bilan ish olib borishda interfaol usullardan samarali foydalanish masalalari Harakatlar strategiyasining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq oliy ta’lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirishning asosiy vazifalari sifatida belgilandi.

Hozirgi vaqtda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini loyihalash orqali rivojlantirish turli xil test sinovlari, topishmoqlar, jumboqlar, masalalarni yechish va shartli ravishda bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan uslubiy va didaktik metodlarga asoslangan. “Texnologiya” fanini o‘rganishda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarining rivojlanish darajasini diagnostika qilish uchun o‘rganilayotgan fanning mazmuniga mos keladigan ijodiy vazifalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun taklif qilish kerak; masalan, nostandart topshiriqlar, bir nechta mavzular bo‘yicha bilimlardan foydalangan holda ijodiy loyihalar (STEAM tarkibidagi integral topshiriqlar), dizayn va ishlab chiqarish uchun ijodiy amaliy topshiriqlar, gullarni yetishtirish va boshqa ko‘p narsalar. Bunday ijodiy topshiriqlarni berishda o‘quvchilarning individual psixologik va yosh xususiyatlarini, qiziqish va moyilligini individual yondashuv asosida hisobga olish zarur.

Fikrni kashf etishga, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat kreativlik sifatlari bilan bog‘lab tushuntiriladi. Kreativlik – shaxsning muhim tavsifiy belgisi bo‘lib, u boshqalarnikiga o‘xshamagan noyob va takrorlanmas fikrlashga imkon beradi.

Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Kreativlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi. Ko‘rinib turibdiki, kreativlik bevosita shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Uning rivojlanishi esa intellekt-intuitsiya-mantiqiy fikrlash jarayoni ta’sirida kechadi. Ta’lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda ta’lim oluvchilarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Ta’lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi ish shakllaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega:

- ma’lumotlarni tahlil etish, tezkor qarorlar qabul qilish, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi treninglarni tashkil etish;
- tasavvurlarni va obrazli qarashlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ijodiy mashq-

lar, topshiriqlarni bajarish;

- guruhiy ish shakllari va debatlarni tashkil etish;
- kastinglar uyushtirish;
- to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish va hokazo.

Ta’lim oluvchilardagi kreativlik qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasini aniqlashning quyidagi mezonlari mavjud:

– kreativ faoliyatga nisbatan motivatsiyaning qaror topganligi;

– kreativ fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanganligi;

– kreativ sifatlarning shakllanganligi;

– amaliy kreativ faoliyat jarayonini tashkil etish;

– ixtisoslashgan kreativlikning shakllanganligi va b.

Kreativ yondashuv quyidagilarga asoslansa, maqsadga erishishning optimal yo‘li kafolatlanadi:

– bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning dolzarb muammolari nimalardan iborat ekanligini anglab olish;

– bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashni optimallashtirishga oid ilmiy-uslubiy, dasturiy-didaktik, dasturiy-axborotli ta’minot yaratish;

– bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash bo‘yicha ilmiy, ilmiy-uslubiy, innovatsion loyihalar bilan tanlovlarda qatnashish va ularni bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashga keng joriy etish borasida muntazam ijodiy faoliyat yuritish va shu kabilar.

Faylasuflarning fikricha, kreativlik – bu bir vaqtning o‘zida subyektning o‘ziga va shu jumladan, tashqi olamga tegishli bo‘lgan asl mohiyatdir. Kreativlik yaratuvchanlik, yuqori ijodkorlik – subyektivlik ishtirokisiz amalga oshmaydi va faqat ijodkor shaxsning o‘ziga xos xususiyati bilan amalga oshiriladi. Pedagogika fanida kreativlik deganda, asosan, ixtirochilik, originallik, fantaziya, sezgirlik, muammoni tez hal qila olish qobiliyatlari tushuniladi. Bu qobiliyatni ko‘p qirrali ekanligi ta’kidlanadi. Kreativlik – bu insonning har tomonlama fikrlash, his qilish va harakat qilishga bo‘lgan potensial layoqat hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, ta’lim-tarbiya tizimida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarining yetarlicha shakllanmaganligi zarur metodika, usul va vositalarning yetarlicha mukammal ishlab chiqilmaganligi hamda amaliyotga tatbiq etilmaganligi, kreativlik qobiliyatlarning o‘zlashtirish darajasining o‘ziga xosligi muammoning ijobiy yechimiga to‘sqinlik qilayotgan omillar qatoriga kiradi.

Ayniqsa, taraqqiyotning zamonaviy bosqichida yoshlarni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda dizayn loyihalar vositasida o‘quvchilar kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish, bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash dolzarb pedagogik muammo bo‘lib, u chuqur ilmiy-metodik izlanishlarni taqozo etmoqda.

Texnologiya mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish va o‘tkazish ko‘plab yechimlarga ega. Biroq, sohada to‘la ilmiy asoslangan xulosalar mavjud emas. Bundan kelib chiqqan holda, dizayn loyihalar vositasida o‘quvchilar kreativ qobiliyatlarini shakllantirish bilan bog‘liq muammolarni hal etishda uning mazmun va mohiyatini tashkil etuvchi takomillashgan shakl, metod hamda vositalarini tanlab, tizimlashtirish talab etiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda doimo o‘rganilayotgan jarayonga kreativ yondashuvga erishish. Kreativ yondashuv quyidagilarga asoslansa, maqsadga erishishning optimal yo‘li kafolatlanadi:

– bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning dolzarb muammo-

lari nimalardan iborat ekanligini anglab olish;

– bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashni optimallashtirishga oid ilmiy-uslubiy, dasturiy-didaktik, dasturiy-axborotli ta’minot yaratish;

– bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash bo‘yicha ilmiy, ilmiy-uslubiy, innovatsion loyihalar bilan tanlovlarda qatnashish va ularni bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashga keng joriy etish borasida muntazam ijodiy faoliyat yuritish va shu kabilar.

Bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi jarayonga kreativ yondashuvni odatiy holga aylantirish bunda ta’lim jarayoni o‘ziga xos ko‘p variantli dinamik jarayon sifatida qaraladi. Ta’lim metodlari, usullari va texnologiyalari zamon bilan hamnafas yangilanib borayotgani hisobga olinadi.

Xulosa qilib aytganda, kreativ ko‘nikmalarni ta’lim oluvchilarda rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan bo‘lib, yuqorida keltirilgan nazariy asoslarga tayangan holda ta’lim metodlari va texnologiyalari ta’lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarining shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi, hamda ta’lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan interfaol o‘qitish jarayoni o‘zining muayyan mazmuni, vositalari, pedagogik shart-sharoitlari, xususiyatlari va usullariga ega. Ta’lim oluvchilarning pedagogik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlarini tizimli tarzda o‘rganish, bunda ularning kreativ faoliyatni tashkil etishida uchraydigan psixologik to‘siqlarni bartaraf etishning samarali yo‘llarini belgilash lozim bo‘ladi. Ta’lim oluvchilarning kreativlik ko‘nikmalarini rivojlantirish asosida ulardagi ixtisoslashgan ya’ni pedagogik kreativlik kompetentligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish, bunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion strategiyalar, interfaol ta’lim metodlari va texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi miqyosida 2019-yil 6-mayda o‘tkazilgan “Boshlang‘ich ta’limda integratsiyaviy – innovatsion yondashuvlar” respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. –T., 2019.

2. Ismailova, Z.K, Musurmanova, A, Shomurotova, N.N, Kholiqova, N.A "Methods of training of teachers of technical university on advanced training courses."Annals of the Romanian Society for Ceff Biology 25.2 (2021): 2959-2970

3. Karabaevna Z., Xamroevich R., Musurmanova A. Improving the competence of future vocational education teachers based on modular-rating education //International Journal of Engineering and Advanced Technology. – 2019. – T. 9. – №. 1. – C. 6903-6906.

4.To‘rabekov F. S. Bo‘lajak mehnat ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llash metodikasi: Ped. fan. nom.… diss . – T.: TDPU. – 2011. – 177b.

Komiljon TURSUNMETOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti professori
Feruza SULTONOVA,
Andijon mashinasozlik instituti tayanch doktoranti

TEMPERATURANING SHAKLLANISH TARIXI VA UNI O‘LCHASH USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada temperatura va harorat tushunchalarining ma’nosi, uni o‘lchash muammolari hamda o‘lchash asboblarining xronologik shakllanish tarixi bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar. Temperatura, termometrik shkala, absolyut temperatura, termoqarshilik, termojuftlar.

В статье приводиться сведения о температуре и её смысл, проблемы её измерения, хронологические сведения о формирования измерительных приборов.

Ключевые слова. Температура, термометрическая шкала, абсолютная температура, терм сопротивление, термопара.

This article provides information about temperature and its concept, problems of its measurement, chronological information about the formation of measuring instruments.

Key words. Temperature, thermometric scale, absolute temperature, thermo resistance, thermocouple.

Uzluksiz ta’limning barcha bosqichlarida fizika ta’limida o‘quvchilar temperatura, issiqlik hamda harorat fizik tushunchalari bilan tanishib ularni issiqlik jarayonlarini o‘rganishda, texnikada, texnologiyada hamda hayotda amaliyotda qo‘llaydi. Umumta’lim maktablarida issiqlik, temperatura to‘g‘risidagi ma’lumotlar 6,9,10-sinf darsliklari asosida o‘rganiladi. 6-sinf fizika darsligida:

– temperatura haqidagi umumiy fikrlar keltirilgan bo‘lib, uni aniqlashda termometrlarning turlari yetarlicha ko‘rsatib o‘tilmagan.

– hozirgi kunda ishlatiladigan termometrlarda simob va spirt ishlatilishi aytib o‘tilgan, lekin hozirgi kunda turmushda va texnikada qo‘llanilayotgan termometrlar haqida ma’lumotlar berilmagan.

– 1^0 S, 1^0 K tushunchalariga ta’rif berilmagan. Harorat va temperatura tushunchalari farqi yoritilmagan.

Amaldagi 9-sinf darsligida modda tuzilishining molekulyar-kinetik nazariyasi asoslari bobida temperatura to‘g‘risida qisqacha ma’lumot berilgan bo‘lib, uni aniqlashda termometrdan qanday foydalanish to‘g‘risida fikr berilmagan va faqat jismlarning issiqlik muvozanati to‘g‘risida fikr yuritiladi. Shuningdek, temperaturaning shkalalari to‘g‘risida aniq ma’lumotlar kiritilgan. Selsiy shkalasidagi “gradus”da belgilanishi va absolyut temperaturada “kelvin”da aniqlanishi hamda ularning orasidagi bog‘liqlik to‘g‘risida ko‘rsatib o‘tilgan.

– Molekulyar kinetik nazariyaga asosan, temperatura va molekulalarning o‘rtacha kinetik energiyasi orasidagi bog‘lanish formulasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri berilgan. Bu ifodani

keltirishda, uning keltirib chiqarish aspektlari berilmagan.

10-sinf darsligida berilgan termodinamika asoslari bo‘limida temperatura, termometr haqida hech qanday ma’lumotlar keltirilmagan.

Shunday qilib, umumta’lim maktab darsliklarida temperatura va harorat tushunchalarining farqi, ularni o‘lchash tamoyili va texnikasi, termometrning shakllanish tarixi, turlari, ularning ishlash tamoyili yoritilmagan. O‘rta, o‘rta maxsus ta’lim o‘quvchilari ham temperaturani, haroratni ma’nosi va ularni o‘lchash prinsiplari hamda metodlarini yuzaki, mexanik holda o‘rganadi. “Temperatura” tushunchasi bilan “harorat” tushunchasini ko‘pchilik o‘quvchi va talabalar farqlamaydi, qator mavjud darslik, o‘quv qo‘llanma va ilmiy maqolalarda ulardan to‘g‘ri foydalanmaydi. Bu mavzular ta’limdagi mavjud darsliklarda yetarli darajada yoritilmagan.

Shu sababli, ushbu maqolaning maqsadi – temperatura, harorat tushunchalarini aniqlashtirish, temperaturani o‘lchash muammolari, termometrlar hamda temperaturani o‘lchash metodlarini tahliliy bayon qilishdir.

Dastlab temperaturani o‘lchash va uni tavsiflash Galiley tomonidan harakat qilindi. U 1597-yil “termoskop” degan asbob yasab, uning yordamida jismning issiqlik darajasini baholashga imkon berdi. Galiley 1636-yilda “temperatura” tushunchasini kiritdi.

Jismning issiqlik darajasini o‘lchash uchun asbob-termometr yasash muammosi dolzarb bo‘lib qoladi. Termometr yasash uchun termometrik modda hamda termometrik kattalik tanlash kerak edi. Termometrik modda qilib tarixan simob olindi va termometrik kattalik sifatida uning temperaturaga bog‘liq bo‘lgan hajmi olindi.

1742-yilda shved olimi A.Selsiy tomonidan ancha qo‘llashga qulay simobli va 100^0 S li temperatura shkalali termometr ishlab chiqildi. Unda temperaturaning reper nuqtalari muzning erish temperaturasi 0^0 S va suvning qaynash temperaturasi 1 atm – 101325 Pa bosimda 100^0 S deb qabul qilindi. Demak, muzning erish temperaturasidan suvning qaynash temperaturasigacha bo‘lgan temperatura intervalining $\frac{1}{100}$ qismi 1^0 S deb qabul qilindi. Bu temperatura shkalasi tezda butun dunyo bo‘yicha keng tarqalib ketdi.

Selsiy temperatura shkalasida o‘lchangan temperatura t belgilangan Farageyt shkalasida o‘lchangan t_f temperaturalar orasidagi bog‘lanish quyidagi formula bo‘yicha ifodalandi:

$$t = \frac{5}{9}(t_f - 32^0\,S)$$

Lekin bu temperatura shkalalari va uning qiymatlari fizikaviy asosga ega emas. Shuning uchun fizika asosga ega bo‘lgan absolyut temperatura tushunchasi va uning shkalasi ishlab chiqildi.

Ideal gaz uchun molekulyar-kinetik nazariyaning asosiy tenglamasiga binoan $R = \frac{1}{3} n m\vartheta^2 = \frac{2}{3} . n \overline{E}_k$ hamda $\overline{E}_k = \frac{3}{2}kT$.

Bu yerda $ye_k = \frac{m\vartheta^2}{2} = \frac{3}{2} kT$ ideal gaz molekulasining ilgarilanma harakat o‘rtacha kinetik energiyasi, n – gaz molekulalarining konsentratsiyasi. Bu tenglamalardan R=

nkT – Bolsman formulasi kelib chiqadi. Haqiqatdan ham, tajribadan gaz bosimi R temperatura T ga to‘g‘ri proporsional.

Shunday qilib, absolyut temperatura gaz molekulalarining ilgarilanma harakatining o‘rtacha kinetik energiyasini xarakterlaydi. Shularga asosan temperaturaning absolyut temperatura shkalasi tavsiya qilindi. Unda ishchi jism qilib ideal gaz va termometrik kattalik qilib ideal gaz bosimi qabul qilindi. Unda gaz bosimi R=nkT, ya’ni gaz bosimini temperaturaga bog‘liqligidan foydalanildi.

Temperaturaning nolida, ya’ni 0^oK da termometrik kattalik nolga, aylansa, (T= 0 K da R=0), bunday temperatura shkalasi absolyut temperatura shkalasi deb ataladi. Undan aniqlangan temperatura absolyut temperatura deb ataladi.

Gazli termometrda gaz bosimini o‘lchovchi $\frac{P_K}{P_0}$ barometr ulangan. Agar termometr eriyotgan muzga qo‘yilsa, unda gaz bosimi R a teng bo‘ladi. Agar uni qaynayotgan suvga botirsak, $R_q$ni ko‘rsatadi. Tajribadan =1,366 ga tengligi aniqlandi va $\frac{P_K}{P_0} = \frac{T_K}{T_0} = 1.366$ ekanligi hamda T_0 – muzning erish temperaturasi va suvning qaynash temperaturasi orasidagi farq T_q—T_0 = 100^0 deb olinib, undan T_0 =273^0K va Tq = 373^0K ekanligi aniqlangan.

Aniqroq qilib, T_0 ni suvning uchlamchi nuqtasiga mos kelgan temperatura T_0 =273, 15^0K olingan, unda T_k=373, 15^0 bo‘ladi.

Bu temperaturaning termodinamik shkalasi-Kelvin shkalasi deyiladi va absolyut 0^0K dan 273,15^0 K gacha bo‘lgan temperatura intervalining $\frac{1}{273,15}$ qismiga 1^0K deyiladi. Bu shkalada aniqlangan temperatura absolyut temperatura deyiladi, 1968-yildan boshlab 1^0K simvoli 1 K ko‘rinishda yozilishi qabul qilingan. Shuningdek, 1K $\approx$ 1^0S ga teng deb olinadi. Selsiy shkalasida o‘lchangan temperatura ko‘pincha harorat deb yuritilib, u ko‘pgina havo, tirik organizmlar hamda o‘simliklar dunyosida amaliyotda qo‘llaniladi.

Texnika va texnologiya, fizik jarayonlarda issiqlik darajalari absolyut temperaturalarda o‘lchanadi va tavsiflanadi, Kelvin va Selsiy shkalalari orasidagi munosabat: T = t + 273, 15 $\approx$ t + 273.

Termometrlarning ilk turi bu suyuqlik termometrlardir. Ularni kashfiyotchilarini aniq aytish qiyin. Chunki, ularning ixtirochilari deyarli bir vaqtda Galiley, Sontorio, Aopd Vason, Robert Flud, Skapri, Karpilius Drevver, Porte, Salomon de Kone va boshqalar hisoblanadi. Lekin, ulardan eng qulay va bejirim simobli termometrni italiyalik shifokor Santorio ishlab chiqqan va amaliyotda-tibbiyotda qo‘llagan. Simobli termometrning ishlash tamoyili – hajmining temperaturaga bog‘liqligidir, ya’ni hajmining o‘zgarishi $\Delta V=V_0\alpha t$, ya’ni V~ t. Bu yerda α-simobning hajmiy kengayishining termik koeffitsienti, V_0 – t = 0^0 S dagi simob hajmi.

Termometrlardan gazli termometrga nisbatan aniq va sezgir hisoblanishi bilan birga, unda termometrik kattalik bosim bo‘lib, uni o‘lchash asboblari qo‘pol va noqulay barometr yoki monometrlardir. Simobli termometrning yutuqlari: kimyoviy toza simob oson olinadi, u shishani ho‘llamaydi, bug‘ bosimi past bo‘ladi. Lekin uni – 38^0 S past temperaturalarda ishlatib bo‘lmaydi (simob muzlaydi) va simobning qaynash temperaturasidan (356^0 S dan) yuqori temperaturalarda simob qaynamasligi uchun gaz (masalan N_2) bilan to‘ldiriladi va uni 500^0 S gacha ishlatish mumkin bo‘ladi. Shu

sababli amaliyotda pentanli (- 200^0: 20^{0}S), efirli (-120^0 : 25^0 S), toluolli (-70^0 : 200^{0}S), etil spirtli (- 80 : 80^{0}S) hamda kerosinli (- 60^0 : 300^{0}S) termometrlar qo‘llaniladi.

Termometrlarning keyingi turi bu qarshilikli termometrlardir. Ular nisbatan yuqori hamda ishlash sharoitlari murakkab bo‘lgan hollar uchun qo‘llaniladi. Ularning ishlash tamoyili–qarshilikning temperaturaga bog‘liqligidir, ya’ni $\Delta R = R_0 \alpha$ t. Bu yerda R_0 – 0^0 S dagi material (metall yoki qotishma)ning qarshiligi, α–qarshilikning temperaturaviy koeffitsientidir. Ularning temperaturaviy ishlash intervali qarshilikning temperatura bog‘liqligini chiziqli bog‘lanish intervali bilan aniqlanadi. Ularda platinali termometrlar - 263^{0}S :1100^{0}S temperatura intervalida, misli - 250^0 S dan 120^0 S gacha, nikelli - 50^{0}S dan 370^{0}S gacha, temirli - 50^0 S dan 150^0 S gacha, temir-nikel qotishmasli 0^0 S dan 600^0 gacha bo‘lgan temperaturalar intervalida ishlaydi. Past temperaturalarni o‘lchashda toza indiyli qarshilikli termometr ishlatiladi (3,4 dan 273 K gacha), bronzali esa 1K dan 4K gacha bo‘lgan intervalda qo‘llaniladi.

Amalda ko‘pincha alyumel-xromel (0: 1100^{0}S), xromel-kopel (0^0 : 900^0 S), konstantan-nixrom (0 : 900^{0}S), mis-konstantan (0 : 800^{0}S), nikel-nikellin (0: 1150^{0}S) kabilar ishlatiladi. Yuqori temperaturalar uchun ilk bor Le-Shatele (Rt – Rt Rh) juftligini taklif qildi va u Le-Shatele termoparasi nomini oldi. Lekin, uning sezgirligi yuqori bo‘lmagani uchun 1200^{0}S gacha bo‘lgan temperaturalarda Rt – Rt Re termojuftlari, 1000^0 -2000^0 S temperaturalar uchun Ir-IrRh, nisbatan sezgirligi yuqoriroq bo‘lgan Ir-IrRu, termojuftlari qo‘llaniladi. Nisbatan arzon, termik chidamli va 2500^{0}S bo‘lgan temperaturalarda (VR-5-VR-20) volfram – reniy termojuftlari bugungi kunda texnikada, sanoatda va ilmiy tadqiqotlarda keng qo‘llanilmoqda.

Past temperaturalarni o‘lchash ham texnikada va texnologiyada murakkab muammolardan biridir. – 200^0 S gacha bo‘lgan temperaturalar pentanli termometrlar yordamida o‘lchanadi. Undan past temperaturalar gazli (vodorod yoki geliyli) termometrlarda o‘lchanadi. Lekin amerikaliklar ko‘mir qarshilikli termometrlar yordamida o‘lchashni taklif qilishgan. Lekin 0: 20K temperaturalarni o‘lchash texnikasi ancha murakkabdir. Buning uchun maxsus quyidagi termometrlar ishlab chiqilgan:

1. Kondensatsion termometrlar,
2. Akustik termometrlar,
3. Magnit termometrlar;
4. Kvarsli termometrlar;
5. Sig‘imli (æ ~ T) termometrlar.

Past temperaturalarni o‘lchash asboblari gaz termometrlari bilan taqqoslanib, graduirovka qilinadi.

Termometrning eng mukamallashgan turi infraqizil nurda ishlovchi kontaktsiz termometrlardir. Uning ishlash tamoyili – odam, predmet, oziq-ovqat va boshqalardan chiqayotgan infraqizil nurlarni qabul qilib, uni qayd qilish tamoyiliga asoslangan. Uning yutuqlari:

a) xavfsiz, shisha, simob moddalari ishlatilmagan va infeksiyani tashimaydi;

b) o‘lchash vaqti qisqa bir necha sekund;

v) foydalanish qulay;

g) har qanday holatdagi: qattiq, suyuq, gaz holatdagi moddalarning temperaturasini o‘lchash imkoniga ega;

d) yoritish tizimsining mavjudligi qorong‘ida ham obyektlarning temperaturasini o‘lchashga imkon beradi;

e) o‘lchash jarayoni tugashi bilan tovush signali o‘lchash jarayoni tugaganligini

bildiradi va ekranda temperatura qiymati paydo bo‘ladi;

y) o‘lchash xatoligi katta emas – $0,2^0$ - $0,3^0$ larni tashkil etadi;

j) termometrni olib yurish qulay va xavfsiz;

Bu kontaktsiz infraqizil termometrni yuqori temperaturalarda (t>1000°C) hamda temperatura qiymatini avtomatik qayd qiluvchi hamda temperaturani rostlovchi tizimlarda qo‘llashda qator muammolar mavjud. Shuning uchun bu termometrni maishiy texnika, texnologiya va kundalik hayotda keng qo‘llash mumkin.

1. Temperatura, bu absolyut temperatura molekula yoki atomlarning o‘rtacha kinetik energiyasini tavsiflovchi kattalikdir, ya’ni $\overline{E}_k \sim \frac{kT}{2}$

2. Temperatura jismning yoki tizimning issiqlik darajasini tavsiflaydigan fizik kattalikdir.

3. Temperatura issiqlik uzatilish yo‘nalishini ko‘rsatadi, issiqlik temperaturasi katta bo‘lgan jismdan temperaturasi kichik bo‘lgan jismga uzatiladi.

4. Selsiy shkalasidan aniqlangan temperatura qiymatlarini harorat, Kelvin shkalasidan aniqlangan absolyut temperatura qiymatlarini temperatura deb atash maqsadga muvofiqdir.

5. Temperaturani o‘lchovchi barcha termometrlar ideal gazga xususiyati yaqin bo‘lgan gazli termometrlar orqali graduirovka qilinadi.

6. Absolyut 0 K ga erishish mumkin emas, chunki gaz bosimi $R = \frac{2}{3} n\overline{E}_k$

Termometrik kattalik $\overline{E}_k$ = 0 bo‘lganda temperatura nolga teng bo‘ladi. Lekin, modda va jismlardagi barcha zarrachalarining harakati to‘la to‘xtamasligidan $\overline{E}_k \neq 0$, $R=nkT \neq 0$ bo‘ladi, demak, temperatura 0 K ga teng bo‘lmaydi. Lekin, hozirgi kunda kichik hajmda va kichik vaqt davomida 0,0007 K - 0,0014 K temperaturaga erishilganligi haqida ma’lumotlar bor!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turdiyev N.Sh. 6-sinflar uchun darslik. – T., 2019.
2. Xabibullayev P., Boydadayev A. 9-sinf uchun darslik. –T., 2014.
3. Turdiyev N.Sh., Tursunmetov K.A. 10-sinf uchun darslik. –T., 2017.
4. Sivuxin D.V. Umumiy fizika kursi. II-qism. –T.: O‘qituvchi, 1984,. – 14-35-b.
5. Физический эпциклопедический словарь. – М.: Энциклопедия, –2011. – С. 755-756.
6. Ангерер Э. Техника физического эксперимента 1962 – М.: Ф-М-Л, гл.XIV, – С.329-351.

Feruza NIZOMOVA,
Lobar MAVLONOVA,
Yashnobod tumani 152-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
“Texnologiya” fani o‘qituvchilari

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA TEXNOLOGIYA DARSLARIDA DIZAYN YO‘NALISHINING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida texnologiya va dizayn yo‘nalishining o‘rni haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, mualliflar texnologiya darslarida o‘quvchilar ta’lim jarayonida kreativ sifatlarni shakllantirishda samaradorlikka erishishni aytib o‘tishgan.

Kalit so‘zlar. Texnologiya va dizayn yo‘nalishi, kreativ sifatlar, zamonaviy yondashuv, innovatsiya, sifat va samaradorlik.

В статье рассмотрена роль технологии и дизайнерского направления в общеобразовательных учреждениях. Также авторы отмечают, что на уроках технологии учащиеся достигают эффективности в формировании креативных качеств в процессе обучения.

Ключевые слова. Направление технологии и дизайна, креативные качества, современный подход, инновация, качество и эффективность.

The article gives an idea of the role of technology and design in general secondary educational institutions. Also in the lessons of technology, the authors mentioned the achievement of efficiency in the formation of creative qualities in the educational process in students.

Key words. Technology and design direction, creative attributes, modern approach, innovation, quality and efficienc.

Ijodda ilhomlanish muhim, ilhom insonning barcha kuchlari ijod obyektida batamom to‘planganligini, hissiy, ruhiy, ko‘tarinkilikni bildiradi, natijada, mehnat g‘oyat sermahsul bo‘ladi. Har bir inson o‘z shaxsiy fikriga va unga mos ravishda ijodiy qobiliyatga ega bo‘lmog‘i lozim. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli qarorida quyidagi fikrlari asoslidir. Hozirgi kunda “Jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini ishlab chiqish, samarali faoliyatini tashkil etish”[1] talab etilmoqda.

Qarorga muvofiq, ta’lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta’minlash, ta’limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta’lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish asosida xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish zarur hisoblanadi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Qarori.

Bu esa umumiy o‘rta ta’lim maktablarining texnologiya fani o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalardan samarali foydalanishni taqozo qilmoqda. Shu bois, texnologiya fani o‘qituvchilari malakasini oshirish kursining o‘quv dasturiga “Texnologiya fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar” moduli kiritilgan. “Texnologiya fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar” modulining ishchi o‘quv dasturi texnologiya fani o‘qituvchilari malakasini oshirish kursining o‘quv dasturi asosida tuzilgan bo‘lib, u texnologiya fani o‘qituvchilariga ta’limda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarning mazmun va mohiyatini ochib beradi.

Shuningdek, oxirgi paytlarda maktabda texnologiya fani bo‘yicha o‘quvchilar o‘zlashtirishi nisbatan past bo‘lib kelmoqda. Bu qaysidir ma’noda texnologiya fani mazmunining bir muncha nazariy, ilmiy, mantiqiy va amaliy tuzilishga ega ekanligi, texnologiya fani mazmunining hayotiy masalalarga kamroq bog‘langan holda o‘qitilishi, hamda texnologiya fanini o‘qitish metodikasining takomillashmagani bilan ham izohlash mumkin. Shulardan kelib chiqib, texnologiya fanini o‘qitishga ham zamonaviy talablar qo‘yilmoqda va uni kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Bu esa o‘quvchilarning umumiy o‘rta ta’lim maktablaridan texnik-texnologik ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor berilmayotganligini ko‘rsatishi mumkin. Ushbu ko‘nikmalar asosan, texnologiya fani darslarida shakllantirilishini hisobga olsak, ushbu fanga e’tiborni kuchaytirish davr talabi ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Aynan texnologiya fanida o‘quvchilarning ham intellektual ham jismoniy bilim, ko‘nikma va malakalari uyg‘unlashgan holda shakllanishi hamda texnikaga oid mehnat qilishning sensor ko‘nikmalarining rivojlanishi, shuningdek, kasblar olami, kasb tanlashdagi qiyinchiliklar va nomutanosibliklar, kasb tanlashda e’tiborga olinadigan omillar haqidagi ma’lumotlar fanning asosiy maqsadi sifatida beriladi. Demak, texnologiya faniga e’tibor berilishi natijasida, nafaqat texnikaga oid kollejlarga balki yoshlarning o‘z kasblarini ongli, barcha jihatlarini hisobga olgan holda tanlashlariga erishiladi. To‘g‘ri kasb tanlagan o‘quvchilarning qiziqishini oshirish ya’ni ta’lim sifati va samaradorligini yuksaltirish natijasida, yetuk, jahon talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlashga zamin yaratgan bo‘lamiz. Ushbu mutaxassislar bevosita ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirgan holda mamlakat rivojiga o‘z hissalarini qo‘shadi. Shuni aytish mumkinki, texnologiya fani darslarini tashkil etishda zamonaviy ta’lim texnologiyalari va vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish natijasida, o‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqishlari ortishi, amaliy mashg‘ulotlarda mehnat obyektlarini bajarish bo‘yicha aniq tasavvurlarga ega bo‘lishi, mehnat operatsiyalarini bajarish bo‘yicha chuqur bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilishida keng imkoniyatlar ochadi.

O‘quv mashg‘ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, o‘quvchilarda tanqidiy, o‘zgacha har tomonlama fikrlash tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish, ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil – kreativlik sanaladi.

“Texnologiya” darslarida o‘quvchilarda kreativ sifatlarni shakllantirishda quyidagi holatlar ta’lim jarayonida samaradorlikka erishishni kafolatlaydi:

– o‘quvchilarda kreativ tafakkurni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish;

– o‘quvchilarda kreativ tafakkurni shakllantirishning nazariy asoslaridan dars jarayonida o‘rinli, amaliy foydalanish;

– o‘quvchilarda kreativ tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish;

– o‘quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirishga yordam beruvchi shakl, metod va vositalarni ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etish;

– “Texnologiya” darslari jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta’minlash;

– o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratish.

O‘quvchilarda kreativ sifatlarni shakllantirish ta’lim jarayonida samaradorlikka erishishni kafolatlash orqali quyidagi masalalarni ijobiy hal etadi:

– “Texnologiya” darslarida ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish, o‘quvchilarda mashg‘ulotga nisbatan ijodiy, kreativ yondashish, mavjud muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan qobiliyat, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish;

– o‘quvchilarda o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga ijobiy, mustaqil yondashish, o‘quv topshiriqlarini bajarishda yangi, ijodiy va kreativ g‘oyalarni ilgari surish qobiliyati va ko‘nikmalarini shakllantirish hamda bosqichma-bosqich rivojlantirish asosida kasbiy tayyorgarlik asoslarini berishni ijobiy hal etish.

O‘quvchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish zarur:

– ular tomonidan ko‘p savollar berilishini rag‘batlantirish va bu odatni qo‘llab-quvvatlash;

– o‘quvchilarning mustaqilligini rag‘batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;

– o‘quvchilar tomonidan mustaqil faoliyatning tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

– o‘quvchilarning qiziqishlariga e’tibor qaratish.

Umumta’lim tizimida boshlang‘ich maktabning roliga ortiqcha baho berish qiyin. Uning asosiy vazifalari – o‘quvchilarda o‘qish, yozish, sanash ko‘nikmalarini hosil qilish bilan bir qatorda – o‘quvchilarni o‘rganishga o‘rgatish, muloqot qilishga o‘rgatish, tizimli ravishda mehnat qilish odatini singdirish, egallangan texnologik bilim elementlari asosida dastlabki qadriyatli yo‘nalishlarni ko‘rsatishdan iboratdir. “Texnologiya” ta’lim sohasining va butun ta’lim tizimining bosh maqsadini hal qilish hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘nalish oladigan, ijodiy shaxsni shakllantirish ko‘p hollarda boshlang‘ich maktabdagi ishga bog‘liq bo‘ladi. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarning texnologik tayyorgarligining asosi yaratiladi va ular asosiy hamda o‘rta maktabda takomillashtiriladi. O‘quvchilarda ijodiy fikrlovchi, faol harakat qiluvchi va oson moslashuvchi shaxs sifatlarini shakllantirishni birinchi sinfdan boshlash zarur. Ma’lumki, bolada ijodiy fikrlash uch bosqichda rivojlantiriladi:

I bosqich – 5-7 yoshga mos keladi va ko‘rish – xatti-harakatli fikrlashning rivojlantirilishi bilan bog‘liq.

II bosqich – 8-11 yoshga mos keladi, sababli fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan,

III bosqich – 11-14 yoshga mos kelib, evristik fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan. Dastlabki ikki bosqich, odatda, maktabgacha va maktabda o‘qitishning boshlang‘ich davriga to‘g‘ri kelishi kerak.

Aks holda maktabning o‘rta bo‘g‘inida ishni ko‘rish – xatti-harakati fikrlashni rivojlantirishdan boshlashga to‘g‘ri kelishi, chunki B.Vigotskiy o‘z davridayoq o‘z tadqiqotlarida fikrlashni rivojlantirish izchilligini ko‘rish – xatti-harakatli fikrlashni rivojlantirishdan ko‘rish-obrazga va so‘ngra fikrlashning so‘zli-mantiqiy ko‘rinishiga o‘tishi kerakligini va bosqichdan sakrab o‘tish mumkin emasligini isbotlab bergan. Fikrlashning har bir turini rivojlantirish uchun o‘zining senzetiv davri mavjudligini hisobga olib, ijodiy

fikrlashni shakllantirish bo‘yicha maktabning o‘rta bo‘g‘inida boshlangan ishlar boshlang‘ich maktabdagiga nisbatan kamroq samarali va ancha murakkab bo‘ladi, degan xulosaga kelish mumkin. Nafaqat ijod, balki faollik ham, shaxsning oson moslashish layoqati ham bolalikda o‘rgatiladi. Bola bolaligidanoq panada bo‘lishga, zaruratsiz o‘z fikrini aytmaslikka o‘rganib qolsa, keyinchalik ham u shundayligicha qoladi. Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari agar o‘qituvchi shunga rag‘batlantirsa va yo‘naltirilsa, o‘z faoliyatiga ehtiyojlarni va imkoniyatlarini aniqlash, zarur axborotni topish va qo‘llash, o‘z ishini rejalashtirish va yuzaga kelgan masalalarni hal qilish, o‘z faoliyatini baholash va tuzatish qobiliyatiga egadir. Biz o‘qitish jarayoni bajariladigan amallarni diktant yo‘li bilan yozdirib amalga oshiriladigan mehnat darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining reaksiyalarini kuzatishimizga to‘g‘ri kelgan. O‘qituvchining masalani yechish yo‘llarini o‘ylab ko‘rish, bajarilishi lozim bo‘lgan ishlarning rejasini tuzish va shunga o‘xshash boshqa takliflariga ular ajablanish va norozilik bilan javob berar edi, axir ularda mehnat darsi va ular savollarga javob berishlari emas, balki qo‘l bilan ishlashlari kerakligini aytar edi. Shunday qilib, ko‘p narsa o‘qituvchining o‘qish jarayonini tashkil qilishiga, o‘quvchining faol intellektual va amaliy faoliyatga jalb qilinish darajasiga bog‘liq ekan.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning ongli ravishda kasb tanlashlari haqida gapirish erta, bu yo‘nalishda tayyorgarlik ishlarini olib borish mumkin. U kasbiy ta’limdan – kattalarning mehnati haqida, kasblar va ishlab chiqarish haqida, mehnat tarbiyasi hamda bolalarning qiziqishlarini va layoqatini o‘rganish haqida tasavvurlarni shakllantirishdan iborat bo‘ladi. Layoqatni rivojlantirish darajasi ko‘p darajada tug‘ma qobiliyatga, o‘qitish va tarbiyalash sharoitiga bog‘liq bo‘ladi. Psixologik tadqiqotlar ko‘rsatishicha, qobiliyatlar harakatda va rivojlanishda mavjud bo‘ladi. Ular yuqori egiluvchanlikka ega bo‘ladi, hatto zarur hollarda bir qobiliyatning kompensator mexanizmlarini boshqasi bilan almashtirilganda ham mavjud bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘quvchilarni ongli kasb tanlashga tayyorlashda qobiliyatlarning rivojlanish kesimini o‘tkazish, mehnat fani bo‘yicha biror tipdagi kasbga moyilligini aniqlash va olingan natijalarni hisobga olib keyingi ishlarni rejalashtirish muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Qarori.

2. Avazboyev A.I, Xojikarimova G. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar kreativ yondashuvini shakllantirishida innovatsion ta’lim texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati. // Fan, ta’lim, ishlab chiqarish integratsiyalashuvi sharoitida paxta tozalash, to‘qimachilik, yengil sanoat, matbaa ishlab chiqarish innovatsion texnologiyalari dolzarb muammolari va ularning yechimi. Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to‘plami. TTYESI. 2019-yil. 70-73-betlar.

3. Мусурманова О. М. Повышение педагогической компетенции субъектов образовательного процесса в сфере педагогического менеджмента //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2018. – №. 3. – С. 92-95.

4. Aynisa M. Improving the mechanisms of interaction between family institutions and educational institutions in the development of spiritual culture of adolescents at social and right risk groups //Вестник науки и образования. – 2018. – Т. 2. – №. 2. (38).

Sayyora AKBAROVA,
Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

KREATIV KOMPETENSIYALAR VA ULARNI TALABALARDA SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi tezkor va raqamli rivojlanish davrida jamiyat uchun kreativ fikrlovchi, innovatsion g'oyalarni yaratuvchi va ularni amaliyotda samarali qo'llovchi malakali mutaxassislar yetishtirish masalalari ya'ni ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra, shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, hamda kreativlik va kreativ kompetensiya tushunchalari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Kreativlik, kreativ kompetensiya, kompetensiya, motivatsiya, mustaqil ta'lim, tanqidiy va ijodiy fikrlash, ijodiy qobiliyat, intellektual faoliyat.

В данной статье рассматривается вопросы подготовки квалифицированных специалистов, создающих креативные мышление, создающих инновационные идеи и эффективно применяющих их на практике в условиях современного стремительного и цифрового развития, а также обсуждается концепция творческой компетентности.

Ключевые слова. Креативность, креативный компетентность, компетенция, мотивация, самостоятельное обучение, критическое и творческое мышление, творческие способности, интеллектуальная деятельность.

This article examines the issues of training qualified specialists who create creative thinking, create innovative ideas and effectively apply them in practice in the context of modern rapid and digital development, and also discusses the concept of creative competence.

Key words. Creativity, creative competence, competence, motivation, independent learning, critical and creative thinking, creativity, intellectual activity.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi uchinchi renessans boshlanish va yangi O'zbekistonni qurish davrida innovatsion faoliyatning yutuqlaridan keng foydalanish jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishning, hamda mamlakatimizning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo'lib bormoqda. Chunki, bugungi tezkor va raqamli rivojlanish davrida jamiyat uchun kreativ fikrlovchi, innovatsion g'oyalarni yaratuvchi hamda ularni amaliyotda samarali qo'llovchi malakali mutaxassislar zarur. Bu esa o'z navbatida, ta'limni raqamlashtirish jarayoniga innovatsiyalarni, o'qitishning zamonaviy interfaol va ijodiy uslublarini joriy etish, sohaga yo'naltirish orqali ta'lim sifatini oshirishga ko'maklashuvchi innovatsion o'quv dasturlarini ishlab chiqish, oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining ilmiy tadqiqotlarini tashkil etish va boshqarish, talabalarni mustaqil ishlashi va kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishni talab etadi.

Sifatli va raqobatbardosh ta'lim — bu barqaror iqtisodiy o'sish, fan va texnologiya rivoji, ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilashdagi muvaffaqiyat garovi

hisoblanadi.Raqamlashtirish ta’lim sifatini yaxshilaydi, aynan shu sabab ham raqamli texnologiyalar qator mamlakatlarda faol tarzda ta’lim tizimiga kiritilmoqda: Bu talabalar o‘zlashtirishining monitoringini yaxshilabgina qolmay, o‘qish jarayonini qiziqarliroq, uning natijalarini sezilarli darajada yuqori bo‘lishiga yordam beradigan yangi ta’lim usullari va yondashuvlarini ishlab chiqishga ham yordam beradi.

Hozirgi zamon jamiyat rivojlanishining yangi bosqichi shaxsni rivojlantirishning yangi yo‘llarini izlash, uning ijodiy tashabbusi, mustaqil va harakatchanligini rivojlantirish sifatida baholanadi. Malakali mutaxassisni tayyorlash darajasiga, shu jumladan, uning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish darajasiga, kelgusi kasbiy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan turli muammolarni mustaqil ravishda yechish qobiliyatiga nisbatan talablar ortib bormoqda. Bugungi kunda faqat o‘z ishiga ijodiy munosabatda bo‘lgan insongina iqtisodiy o‘zgarishlar va ilmiy-texnik taraqqiyot uning oldiga qo‘yadigan barcha amaliy va nazariy vazifalarni bajara oladi. Zamonaviy sharoitda shaxsiy o‘sish, yaxshi ish topish hamda karyera qilish uchun olingan bilimlarni qo‘llay olish mahorati, intellektual va ijodiy qobiliyatlar bilan belgilanadi.

Jamiyatni modernizatsiya qilish jarayonining asosi bo‘lgan innovatsion faoliyat va o‘zaro rivojlanishlar shaxs muvaffaqiyatining muhim omillari bo‘lib, ular ta’lim sohasida islohotlar zarurligini belgilaydi. Bunday islohotlarni o‘tkazish uchun ta’lim jarayoni ishtirokchilarining kreativligini shakllantirish, ya’ni shaxslarda dunyoga tanqidiy va ijodiy munosabatda bo‘lishning yangi faoliyat usullari va fikrlash modellarini ishlab chiqish zarurligini nazarda tutadigan strategiya chizig‘ini (yo‘l xaritasi) yaratish kerakligini nazarda tutadi.

Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, kreativ fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda. Yuksak malakali mutaxassislarni iste’molchilar talablariga qarab tayyorlanishi, talabalarni tanlangan ixtisosliklari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarining shakllantirilishi mustaqil ravishda bilim olishga va amaliy faoliyatga o‘rgatilishi ta’limdagi bugungi kunning muammolaridan biridir.

Oliy ta’limda kreativ fikrlaydigan, ijod qiladigan talaba-yoshlarni tarbiyalash eng asosiy muammolarimizdan biri bo‘lib qolmoqda. Talabalik yillarida yoshlar biologik jihatdan barkamollik, ijtimoiy nuqtayi nazardan yetuklik, jismoniy baquvvatlik bosqichiga ko‘tariladi. Talabalarda o‘zini-o‘zi nazorat qilish, o‘zini-o‘zi baholash, o‘zini-o‘zi anglash, o‘zini-o‘zi boshqarish kabi aql-zakovatning muhim jihatlari taraqqiyotning yangi yuksak bosqichiga ko‘tariladi. Ularda tafakkurning rivojlanishi, ilmiy dunyoqarashining shakllanishida kreativlik muhim o‘rin tutadi. Shularni hisobga olgan holda savol tug‘iladi – kreativlik o‘zi nima?, kreativ kompetensiya nima uchun kerak?. Ushbu maqolada kreativlik va kreativ kompetensiya tushunchalari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

“Kreativlik” tushunchasini va uning kasbiy faoliyatdagi o‘rnini aniqlashda bir necha yondashuvlarni ko‘rish mumkin. Sotsiologlar, psixologlar va pedagoglar kreativlikni turli fikrlash (J. Gyilford, O. K. Tixomirov), intellektual faoliyat (D.B. Bogoyavlenskaya, L.B. Yermolayeva-Tomina), yoki shaxsning xususiyati (Y.A. Ponomarev va boshqalar) deb hisoblashadi. Hozirgi vaqtda kreativlikni qobiliyat deb aytishimiz mumkin va u nostandart qarorlar qabul qilish, ma’lum doiradan tashqariga chiqish hamda ijodiy salohiyatini o‘zida mujassam etgan.

Pedagogik lug‘atda ***kreativlik*** (ingliz tilidan. creativity) – bu shaxsning ijodiy qobiliyati, ijodkorligi sifatida tavsiflanadi. Kasbiy pedagogikada kreativlikka, ijodiy qobiliyat, yangi, nostandart fikrlashni qabul qilish va yaratish, ko‘p sonli original

va foydali g‘oyalarni yaratish qobiliyati sifatida qaraladi. Shaxsning kreativligi o‘zgarishga tayyorligini, stereotiplardan voz kechishini belgilaydi, noaniqlik sharoitida murakkab muammolarning asl yechimlarini topishga yordam beradi; jamiyatda o‘zini-o‘zi muvaffaqiyatli aniqlashga yordam beradigan bu insonning ichki resursidir. Talabaning kreativligi amalga oshiriladigan tadbirlar samaradorligiga yordam beradi. Bu kreativlik insonning nafaqat o‘z ishini sifatli bajarishi, balki yangi imkoniyatlarni izlash va ularni hamyonbop narxlarda amalga oshirishiga qiziqishi bilan belgilanadi; u har qanday vaziyatda tezda nostandart qarorlarni qabul qilishga va har qanday faoliyatni tashkil etish va bajarishga ko‘proq kuch va ishtiyoq bilan yondashishga qodir. Shuni ta’kidlash kerakki, kreativlik nafaqat amalga oshiriladigan faoliyatga, balki talabalarning o‘z shaxsiyatlarini rivojlanishiga ham ta’sir qiladi. Kreativlik o‘zini-o‘zi anglash, takomillashtirish va kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirib, karyera bosqichlaridan ko‘tarilishga olib keladi.

Kreativ kompetensiya – bu muammolarga yangi yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatidir. Har bir inson ma’lum aqliy qobiliyatlarga, fikrlash uslublariga va shaxsiyat xususiyatlariga asoslangan kreativlikka ega. Kreativ kompetensiyani maqsadga muvofiq shakllantirishga o‘xshashlik va tahlil qilish kabi kreativ texnika va intellektual strategiyalar yordam beradi.

Kreativ kompetensiya atamasi birinchi marta farzand tarbiyasi masalalari bilan shug‘ullangan amerikalik olim Jozef Chilton Pirsning tadqiqot ishida uchraydi. U “faol rolli o‘yin tarbiyada katta ahamiyatga ega, chunki bola atrofdagi olamni ijodkorona anglashiga hissa qo‘shadi”, deb taxmin qilgan.

Kreativ kompetensiya ‘‘nafaqat asosiy bilim va ko‘nikmalar, balki mutaxassisning faoliyat motivlari, o‘zini dunyo va atrofdagi dunyoda tushunish, insonlar bilan munosabatlar uslubi, uning umumiy madaniyati, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish qobiliyati’’ hisoblanadi.

Kreativ kompetensiyalar rivojlanishining xususiyatlari quyidagicha:

– umummadaniy tayyorgarlik;
– ijtimoiy faoliyat;
– kreativ fikrlashga moslashish;
– pedagogik fikrlashni rivojlantirish;
– pedagogik-psixologik va maxsus kompetensiyalarga ega bo‘lish;
– pedagogik improvizatsiya qobiliyati;
– o‘zini-o‘zi rivojlantirishga intilish.

Innovatsion jamiyatda faoliyat yuritayotgan mutaxassislarga kreativ kompetensiyalar: kreativ g‘oyalarni haqiqatga aylantirish strategiyasi orqali mahsulot yaratishga, uni amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganishga va tahlil qilishga, intellektual mulkni tijoratlashtirish uchun texnologiyalardan foydalana olishga juda zarur bo‘ladi.

Shunday qilib, “kreativ kompetensiya” tushunchasini mohiyatiga qarab ijodiy faoliyat samaradorligini ta’minlaydigan maxsus bilimlar, ko‘nikma, motivlar va shaxsiy fazilatlar tizimini o‘z ichiga olgan shaxsning integral xususiyati deb tushunish kerak.

Kreativ kompetensiyani shakllantirish shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga, o‘zini-o‘zi takomillashtirish va o‘zini rivojlantirish uchun ijobiy motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi va faoliyat samaradorligini ta’minlaydi. Shaxsning kreativ kompetensiyasini shakllantirish bosqichlari spiral yo‘nalishda rivojlanib boradi, ularning har bir burilishida shaxsga shaxsiy va kasbiy rivojlanish va takomillashtirish

jarayonida egallangan yana bir muhim fazilat qo‘shiladi.

Harakatlar strategiyasining “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” deb nomlangan to‘rtinchi yo‘nalishi oliy ta’lim sifatini yaxshilash va ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Oliy ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarni mustaqil ta’lim olishga, o‘z-o‘zini rivojlantirishga tayyorlash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Buning uchun mashg‘ulotlar jarayonida o‘qitishning turli xil texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

– talabalarda o‘quv faoliyat butunligini hamda mantiqiy tafakkurni shakllantirish;

– talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini faollashtirish;

– talabalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun fikrlash xususiyatlarini shakllantirish;

– mashg‘ulotlar jarayonida talabalarda dialektik tafakkurni rivojlantirish;

– ‘‘Raqamli iqtisodiyot’’ ‘‘Bilimlar iqtisodiyoti’’, ‘‘Innovatsion iqtisodiyot’’ va shu kabi iqtisodiyotga oid yangi fanlarni o‘tish jarayonida talabalarda ijodiy ya’ni kreativ tafakkurni shakllantirish.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, oliy ta’lim muassasalari oldida bu muammoni hal qilishning ahamiyati va zarurligini anglaydigan, o‘zlarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan, o‘z kasbiy faoliyatlarida kreativlikni namoyish etishga tayyor bo‘lgan yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash vazifasi dolzarb bo‘lib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hakimova M.F., Akbarova S.Sh. Oliy ta’lim talabalarining mustaqil va ijodiy izlanish faoliyatini rivojlantirish omillari //Maxsus pedagoglarni tayyorlash istiqbollari: Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish va qo‘shimcha ta’lim va ijtimoiy moslashish masalalari. Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: TDPU, 2020.

2. Морозов А.В. Формирование креативности преподавателя высшей школы в системе непрерывного образования: дис. … д-ра пед. наук. – М., 2004. – С. 445.

3. Ильин Е.Р. Психология творчества, креативности, одаренности. СПб.: Piter, 2009.– С. 433.

4. Xutorskoy A.V. Ключевые компетенции: Технологии конструирования // Народное образование. – 2003. – №5. – С.55-62.

5. Rosemond John. New Parent Power. – Kassel, 2001.

6. Erpenbeck J., Sauer M. Das Forschungs und Entwicklungs programm ‘‘Lernkultur Kompetenzen twicklung’’. In: Arbeitsgemeinschaft Qualifikations-Entwicklungs-Management (Hrsg.): Kompetenzen twicklung 2000: Lernen im Wandel – Wandel durch Lernen. Minster, 2000.

7. Ахмедова З.О. О формировании креативной компетенции педагога.// Современное педагогическое обозрение. – 2019. – №. 10.

8. Xakimova M.F. Bo‘lajak iqtisodchilarni yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida shakllantirishda ta’limning tarbiyaviy imkoniyatlarini kuchaytirish//Архив научных исследований. – 2020. – №. 27.

Lobar BABAXODJAYEVA,
Toshkent Xalqaro Vestminister universiteti pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

PANDEMIYA SHAROITIDA MASOFAVIY TA’LIM MASHG‘ULOTLARINING ZARURATI

Annotatsiya

Maqolada pandemiyaning ta’lim jarayonidagi oqibatlari, shu davrda ta’lim muassasalarida masofadan o‘qitishni ta’minlash choralari shuningdek, o‘qituvchi va talabalarni qo‘llab-quvvatlash uchun masofaviy o‘qitish amaliyotini samarali amalga oshirish yuzasidan mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Favqulodda masofadan o‘qitish zarurati, pandemiya, masofaviy ta’lim, aralash ta’lim, ta’lim portali.

В статье рассматривается последствия пандемии в образовательном процессе, меры по обеспечению дистанционного обучения в образовательных учреждениях в этот период, а также эффективное внедрение практики дистанционного обучения для поддержки учителей и учащихся.

Ключевые слова. Чрезвычайная необходимость в дистанционном обучении, пандемия, дистанционное обучение, смешанное обучение, образовательный портал.

The article discusses the consequences of the pandemic in the educational process, measures to ensure distance learning in educational institutions during this period, as well as the effective implementation of distance learning practices to support teachers and students.

Key words. Urgent need for distance learning, pandemic, distance learning, mixed education, education portal.

Ma’lumki, koronavirus (COVID-19) 2020-yil 12-martda global pandemiya, deb e’lon qilindi va infeksiyani cheklash uchun ko‘plab joylarda ijtimoiy masofa joriy etildi. Ayni paytda bu holat keskin ta’sir ko‘rsatadigan virus tarqalishining oldini olish uchun mamlakat bo‘ylab ta’lim muassasalarini yopishgadunyo mamlakatlaridagi millionlab bolalar, o‘spirinlar va talabalarning ta’lim olishlarini masofadan turib amalga oshirish zaruratining yuzaga kelishiga turtki bo‘ldi. Turli mamlakatlardagi ta’lim jarayoni onlayn o‘qitish tizimiga o‘tkazildi. Ushbu qaror insonlarning bevosita o‘zaro muloqotini cheklashi, virus tarqalishining oldini olishga yordam berganligi bois YUNESKO tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Shunday qilib, onlayn ta’lim o‘qitishning yangicha yondashuv talab qiladigan zamonaviy ko‘rinishini oldi. Adabiyotlarda onlayn ta’limning bir qancha afzalliklari ta’kidlangan, xususan, istalgan joyda va xohlagan vaqtda o‘qish imkoniyati; gavjum avtobuslarda yoki mahalliy transport vositalarida o‘qishga qatnash vaqtining tejalishi; fanlarni tanlash va akademik moslashuvchanlik kabi ustuvorliklarga ega. Fanlarni internet orqali o‘rganish global pandemiya davrida ta’lim mazmuni va uni o‘zlashtirish tamoyillari uchun tobora takomillashgan, mobillashganligi bilan ham ahamiyatlidir. Ayni paytda turli mam-

lakatlarda ko‘plab muammolar kelib chiqayotganligi mutaxassislar va siyosatchilar tomonidan keng muhokama qilinmoqda. Bunday muammolardan biri, ijtimoiy kam ta’minlangan guruhlarning onlayn o‘rganish uchun zarur bo‘lgan asosiy shartlarni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelayotganliklaridir. Ta’lim muassasalarining yopilishi iqtisodiy ta’minlangan va kam ta’minlangan odamlar o‘rtasidagi farqning kuchayishishiga, ya’ni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan farqlarning oshishiga sabab bo‘ldi. Onlayn ta’limni joriy etish zaruriyat, ammo, bu mutaxassislar, siyosatchilar, fuqarolar, o‘qituvchilar va talabalarni yangi yechimlarni topishga undaydi. Bu onlayn ta’lim konsepsiyasidan favqulodda masofadan o‘qitishga o‘tish, ya’ni “Inqiroz sharoitida o‘qitishni vaqtincha alternativ usulga o‘tkazish” tamoyillarini qo‘llab-quvvatlaydi. YUNESKO bosh direktori ta’kidlaganidek: “Biz o‘qishning davomiyligini ta’minlash uchun yuqori texnologiyali, past texnologiyali va texnologik bo‘lmagan yechimlarni topish uchun xaritalarsiz hududga kirib ishlayapmiz”. Shu sababli, ijtimoiy va texnologik darajada yangi muammolar va imkoniyatlar paydo bo‘lishi mumkin. Bu tajriba turli mamlakatlarda o‘rganilgan turli yondashuvlar va saboqlar haqida mulohaza yuritishga va qo‘shimcha ravishda yangi yechimlar topish imkoniyatini beradigan ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog‘liq. Bu tengsizlik asosan, resurslarning yetishmasligi, jumladan, ta’lim olish imkonini beruvchi texnologiya va internet tizimining, bolalarni qo‘llab-quvvatlash uchun tayanch ma’lumotlar va ko‘nikmalarning yetishmasligi oqibatida kelib chiqayotganligini ko‘rish mumkin. Maktablarning yopilishi, o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatishi, ayniqsa, bu kam ta’minlangan oilalarda yaqqol sezildi. Masalan, Niderlandiyada ushbu omillar pandemiya davrida bolalarning bilimlarini o‘rganishda sezilarli bo‘shliqqa olib kelganligi, Gana singari rivojlanayotgan mamlakatlarda, aksariyat talabalar internetga kirish imkoniga, yetarlicha o‘quv muhiti mavjud emasligi ijtimoiy tarmoqlarda bayon etildi. Shunday qilib, ta’lim jarayonida texnologiyani joriy etish yo‘lining uch turdagi muammolari mavjud: ijtimoiy, pedagogik va texnologik.

Texnologik muammolar – bu internet aloqasining mavjudligi va tezligi, ta’lim muassasasidagi ta’lim tizimi, o‘qituvchilar va talabalar uchun jihozlarning mavjudligidan boshlab texnologik infratuzilmani ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

Pedagogik muammolarga – o‘qituvchilar va o‘quvchilarning o‘quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish mahoratining yetarli emasligi, o‘qituvchilarning AKTdan interaktiv shaklda foydalanish mahoratlari va malakalari, bilimlarni baholash uchun AKTdan foydalanishlar kiradi.

Ijtimoiy muammolarga esa, o‘quv muhitining yaratilmaganligi yoki nomuvofiqligi, talaba va o‘qituvchilar uchun yetarli ijtimoiy yordam bermaslik kabilar kiradi.

O‘zbekistonda ham koronavirus infeksiyasi qayd etilgach, barcha ta’lim muassasalari masofadan o‘qitishga o‘tkazildi. Bu ikkinchi semestrning yakuniga to‘g‘ri kelganligi bois, o‘quv jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatmagan bo‘lsa-da, ammo, imtihonlar onlayn tarzda o‘tkazilishi, bilimlarni baholash strategiyasini qayta ko‘rib chiqilishi va talabalarning bilimlarini muqobil usul yordamida baholash masalasi masofaviy ta’limga o‘tish jarayonini tezlashtirdi. 2020-yil avgust oyi oxiriga kelib yangi o‘quv yili ham masofadan boshlanish zarurati, o‘qituvchilardan zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘qitish jarayonida foydalanish, xonalarni veb-kameralar bilan ta’minlash, o‘qitish tizimini modernizatsiya qilish va talabalarga onlayn rejimida ishlash ko‘nikmasining shakllanishiga olib keldi. Ayni paytda, aksariyat o‘qituvchilarning masofaviy o‘qitish uchun texnik jihatdan tayyor emasligi, an’anaviy metodlardan foydalanishlari ularning yangi paydo bo‘layotgan modellari va yondashuvlari bilan bog‘liq ravishda quyidagi:

• o‘quvchilar e’tiborini jalb qilish uchun tegishli interaktiv raqamli ta’lim manbalari (videofilmlar, animatsiyalar, viktorinalar va o‘yinlar)dan foydalangan holda materiallarni (mazmun, metodikalar va umumiy maqsadlar) tizimli va rejalashtirilgan o‘qitishni hamda yetarli darajada elektron o‘quv platformalarini ta’minlaydigan aniq va izchil reja ishlab chiqilishi, talabalarning o‘quv faolligini rag‘batlantirish va qayta aloqani ta’minlash;

• talabalar bilan qayta aloqaning o‘rnatilishi ularning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmasini shakllantirish;

• shaxsiy, inklyuziv va hamkorlikdagi onlayn ta’lim yo‘llarini rag‘batlantirish uchun sun’iy intellekt kabi masofaviy o‘qitish texnologiyalardan samarali foydalanish;

• an’anaviy pedagogik metodikalarni masofaviy ta’lim bilan integratsiyalashgan holda qo‘llay olish;

• psixologik va ijtimoiy jihatdan talabalarni qo‘llab-quvvatlash zarur bo‘ladi. Ushbu holat og‘ir bo‘lsa-da, tugagandan so‘ng, ta’lim muassasalari o‘qitishning uzluksizligini ta’minlash uchun favqulodda masofaviy o‘qitishni amalga oshirganligini baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunda ta’limni onlayn yoki masofaviy o‘qitish bilan tenglashtirish vasvasasidan qochish kerak.

Mazkur texnologiyalardan kutilayotgan natijalar

1. Chirchiq davlat pedagogika instituti innovatsion pedagogik ta’lim klasterining asosiy tamoyillaridan biri sifatida ilgari surilgan ***“Eshitdim (o‘qidim), ko‘rdim(tushundim), bajardim”*** tamoyili asosida pedagogik jarayon samaradorligini oshirish imkoniyatlarini pedagogik jamoa o‘rtasida keng targ‘ib etish.

2. O‘qituvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobatni kuchaytirish.

3. Yosh o‘qituvchilarning ilmiy-uslubiy pedagogik faoliyatiga jalb etish.

4. O‘qituvchilarning ***“axborot muhitida erkin harakatlanishi”*** bugungi kunning muhim mezoni ekanligini amalda ko‘rsatib berish.

5. An’anaviy darslardagi kabi onlayn darslarda ham talabalarni qayta aloqaga tortuvchi metodlar va mexanizmlar bilan tajriba almashish.

6. Keyingi rejalar uchun tanqidiy va tahliliy xulosalarni yig‘ib olish.

Amalga oshirish shakli: ochiq darslar, davra suhbatlari, “master klass”lar, kafedra yig‘ilishi, fakultet ilmiy kengashlarida muhokama, maqolalar.

1-bosqichda *“Eshitdim (o‘qidim), ko‘rdim(tushundim), bajardim”* tamoyilining mohiyati va amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha kafedrada o‘zaro suhbat orqali onlayn darsda o‘qituvchi va talaba faoliyati sxemasi chizib olinadi va tamoyilni joriy etish nuqtalari ajratib olinadi.

Darsda qo‘llash mumkin bo‘lgan hamda talabalarning qayta aloqaga asoslangan faoliyatini tashkil etishga mo‘ljallangan texnologiyalarni tanlab olish ham masofaviy ta’lim jarayoni uchun muhim omillardan sanaladi.

2-**bosqich**. Amaliyotda kuzatilgan kamchiliklar asosida keyingi tuzatishlar kiritilishi nazarda tutilgan. Bunda topshiriqlarning har bir mavzuga mos tarzda berilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi bosqich sifatida ta’lim platformasiga alohida topshiriqlar, har bir klasterni bajarishga oid namunalar yuklatiladi.

Talabalarning onlayn o‘qish tizimiga favqulotda o‘tishi ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarining axborot va axborot kommunikatsiya vositalari bilan ishlash ko‘nikmasini talab etsa, ikkinchi tomondan ta’lim platformasiga joylangan materiallardan foydalanish jihatlariga ham alohida e’tibor qaratilishi lozim. Masalaning yana bir muhim tomoni talabalarga beriladigan har qanday vazifalar aniq va manzilli bo‘lishi lozim.

3-bosqich. Talabalarning har ma’ruza matniga murojaatini tahlil qilish va nazoratini olib borish uchun quyidagi mexanizmni amalga oshirish mumkin. Bunday metodlar o‘quvchining olgan nazariy bilimlarining tayanch tushunchalarini o‘z xotirasiga katagiga joylash (mnemonika) imkonini beradi. Nostandart yozuvlar odatda, nostandart fikrlashga uyg‘un bo‘ladi.

4-bosqichda takomillashtirishga oid tavsiyalarni berish mumkin. Masalan, ta’lim piramidasini jamoaviy (juft, kichik guruhlarda) ishlab chiqish, o‘quvchi daftariga yozgan savollarni o‘zaro bir-biriga berish va mulohaza bildirish hamda amaliy mashg‘ulotlarda klaster taqdimotini yo‘lga qo‘yish.

5-bosqich. Monitoring va natijalarni maqsad bilan qiyoslash.

Amalga oshirgan har bir qadam nima berdi? Kelajakda nima beradi? kabi savollariga javob olinishi maqsadga muvofiq.

Agarda talabalar didaktika sandig‘ini to‘ldirib borsalar, ular kasbiy faoliyatga ma’lum darajada shaxsiy resurslari bilan kirib boradi. Nazariya amaliyotning fundamenti ekanligini his qiladi. Qachonki didaktika sandig‘iga solingan metodik vositalar ilmiy manbaga murojaat asosida tayyorlansa, o‘quvchi undagi so‘zlar, atamalar, tushunchalarning mohiyatini bilsagina manbalarni o‘rganganda ularni tushunadi. Bu tamoyil masofaviy va an’anaviy ta’lim shakli uchun ham birday aloqador.

Shunday qilib, ijtimoiy masofa ta’lim jarayonini susaytirmasligi, masofadan bo‘lsada ta’lim olishning minimal talablarini o‘zlashtirish asosida takomillashib borishi zarur. Mazkur takomillashuv esa, aralash ta’lim tizimi sharoitida yangi metodikalarning yaratilishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. YUNESCO. COVID-19 Educational Disruption and Response. 2020, https://en.unesco.org/ covid19.

2. Clark, R.C.; Mayer, R.E. E-Learning and the Science of Instruction, 4th ed.; Wiley: Hoboken, NJ, USA, 2016.

3. Nagrale, P. Advantages and Disadvantages of Distance Education. 2013. https://surejob.in/ advantages-anddisadvantages-of-distance-education.html

4. Brown, C. Advantages and Disadvantages of Distance Learning. 2017. https://www.eztalks. com/elearning/advantages-and-disadvantages-of-distance-learning.html.

5. Bijeesh, N.A. Advantages and Disadvantages of Distance Learning. 2017. http://www. indiaeducation.net/online-education/articles/advantages-and-disadvantages-of-distancelearning.html.

Maloxat MAXMUDOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti, “Informatika o‘qitish metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

TA’LIM OLUVCHILARNING SHAXSIY ERKINLIGINI TA’MINLASHNING MOHIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarining shaxsiy erkinligini rivojlantirishning mohiyati va vositalari haqidagi ma’lumotlar yoritilgan. Shuningdek, ta’lim tizimida axborot texnologiyalari asosida yaratilgan innovatsion dasturiy-didaktik majmualar o‘quv jarayonini tashkil etishda alohida o‘rinni egallashi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, mustaqil, ko‘nikma, maqsad, faollik, kompyuter, innovatsion, shaxsiy, erkinlik, multimedia, didaktika, elektron, o‘qitish, axborot texnologiyalari, darslik.

В данной статье представлена информация о характере и способах развития личной свободы учащихся общеобразовательной средней школы. Особую роль в организации учебного процесса играют инновационные программно-дидактические комплексы на основе информационных технологий в системе образования.

Ключевые слова. Образование, независимое, умение, цель, деятельность, компьютер, инновацион, личное, свобода, мультимедиа, дидактика, электроника, обучение, информационные технологии, учебник.

This article provides information on the nature and means of developing the personal freedom of general secondary school students. Innovative software-didactic complexes based on information technologies in the education system play a special role in the organization of the educational process.

Key words. Education, independent, skill, purpose, activity, computer, innovation, personal, freedom, multimedia, didactics, electronics, learning, information technology, textbook.

So‘nggi yillarda o‘quv jarayonini axborot texnologiyalari, xususan, kompyuterlar asosida tashkil qilish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda, chunki zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan mashg‘ulot jarayonida foydalanish yuqori ijobiy samara beradi. Xoh gumanitar (tarix, falsafa, adabiyot va b.q.), xoh tabiiy fanlar (“Informatika va axborot texnologiyalari”, fizika, kimyo va b.q.) bo‘yicha o‘quv jarayonini kompyuter va axborot texnologiyalari asosida tashkillashtirish, bir tomondan o‘qituvchini, ikkinchi tomondan o‘quvchini, hali barcha imkoniyatlari ochilmagan kuchli vosita bilan qurollantiradi. Jumladan, bunda o‘qituvchi ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, amaliy mashg‘ulotlar uchun vazifalar, seminar va mustaqil ish mavzulariga doir tavsiyalar, asosiy va yordamchi adabiyotlarni tayyorlashda operativlikka va mavzularni o‘zlashtirilishini oshirish uchun audio va video lavhalarni o‘z ichiga qamrab olgan in-

novatsion dasturiy-didaktik majmuaga tayanish imkoniyatiga ega bo‘lsa, o‘quvchilar mashg‘ulotda yoki istalgan vaqtida mazkur majmuadan foydalangan holda nazariyani chuqur anglash, amaliy mashg‘ulotlarda ko‘proq va mustaqil tarzda misollar yechish, seminarlarda faol bo‘lish, o‘z chiqishlarini vizuallashtirish, eng muhimi mustaqil tarzda yangi bilimlarni kashf etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Tabiiyki, ta’limda innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish, ularni o‘quv jarayoniga tatbiq etish jarayonida asosiy hisoblangan o‘quv-uslubiy ta’minot, ya’ni ta’limning intellektual bazasini rivojlantirish, mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish borasida bir qator o‘zgarish va islohotlarni amalga oshirishni talab etadi.

– Tadqiqotlarimiz davomida “innovatsiya” atamasini mazmuniga ko‘ra 3 xil tarzdagi ishlanmalarga, ya’ni avvaldan mavjud va amalda ishlab turgan ta’minotning yangi variantlariga;

– o‘qitish samaradorligini oshirish maqsadida yaratilgan, ilmiy jamoatchilik tomonidan tan olingan, pedagogik amaliyotda yuqori ko‘rsatkichlar bilan isbotlangan uslubiy ishlanma va texnologiyalarga;

– multimediali vositalarga asoslangan va o‘quv jarayoniga joriy etilgan dasturiy-uslubiy ta’minotga nisbatan qo‘llaymiz.

Innovatsion dasturiy-didaktik majmualarning muayyan predmet bo‘yicha tarkibi quyidagi turkumlardan iborat bo‘lishi mantiqan asosli:

a) predmetga oid an’anaviy o‘quv – uslubiy kompleks:

– mos Davlat ta’lim standartidagi majburiy bilim va ko‘nikmalar tafsiloti, mutaxassislikka doir o‘quv reja, namunaviy dastur, ishchi dastur, texnologik karta, poligrafik manbalar va hokazo.

b) innovatsion komponent:

– o‘quvchilar faolligini oshirishga yo‘naltirilgan va amaliyotda o‘zini samaradorligini tasdiqlagan uslubiy tamoyillar, ularga mos didaktik materiallar, ko‘rgazmali vositalar va dasturiy ta’minot, mustaqil mashg‘ulotlar bo‘yicha didaktik vazifalar, predmet bo‘yicha kompyuter amaliyotiga doir didaktik ishlanmalar, fan bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilimlar sifatini aniqlovchi test vazifalari to‘plami, o‘quv jarayoni sifati monitoringini amalga oshirishga doir so‘rovnomalar va uslubiy ishlanmalar.

c) elektron shakldagi o‘quv-uslubiy materiallar:

– elektron darslik yoki darsliklar, elektron o‘quv qo‘llanmalar, elektron ma’ruza matnlari, elektron kutubxonalar, maxsus (CD, Flash va hokazo) sig‘imlardagi audiovizual materiallar, interfaol o‘quv kurslari, kompyuterda virtual laboratoriya, jumladan, hisoblash tajribasini o‘tkazish uchun laboratoriya vazifalari, test sinovlarini o‘tkazish bo‘yicha tizimlar.

d) tarmoq texnologiyalariga asoslangan, kompyuter yordamida turli mashg‘ulotlarni o‘tkazish va o‘zlashtirish imkonini yaratuvchi, qulay interfeysga ega bo‘lgan dasturiy ta’minot.

e) innovatsion dasturiy-didaktik majmualarning ashyoviy bazasi:

– multimedia auditoriyalari, kompyuter sinflari, kompyuterli laboratoriyalar (masalan, informatika va axborot texnologiyalari fanidan), Web – serverlar, Internet mediatekalar.

Tabiiyki bu komponentlarning barchasiga yangicha tafsilot berish muhim, va bu katta hajmdagi masala hisoblanadi. Innovatsion dasturiy-didaktik majmualar ta’lim samaradorligini oshirish vositasi ekanligini va bular yordamida o‘quvchilarni shaxsiy

erkinligini takomillashtirishni isbotlashga harakat qilinadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida mashg‘ulotlar an’anaviy tarzda: ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, laboratoriya mashg‘uloti va seminar shaklida o‘tkaziladi. Ammo, o‘quvchilarni mashg‘ulot davrida faolligini oshirishga intiluvchi tashabbuskor pedagoglar amaliyotiga nazar solsak, bu mashg‘ulot shakllarini tutashib ketishi, muayyan tamoyillar asosida innovatsion texnologiyalarni va pedagogik ixtirolar, hamda topilmalarni tatbiq etilishi kuzatiladi.

Ta’lim tizimida axborot texnologiyalari asosida o‘quv jarayonini tashkil etishda turli elektron manbalar alohida o‘rinni egallab, o‘zlashtirilishi lozim bo‘ladigan bilimlarni har tomonlama mukammal egallanishida asosiy vositalardan biri sifatida ham e’tirof etiladi.

O‘tgan davr mobaynida yangi ta’lim standartlari asosida o‘quv adabiyotlarining yangi avlodlari (jumladan, elektron darsliklar, qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari va boshqa) yaratilib, bu adabiyot ixcham va mobillikni ta’minlash maqsadida kompyuter xotirasiga kiritila boshlandi. Ammo, an’anaviy o‘quv adabiyotini elektron varianti yoki nusxasi hali multimedia imkoniyatlaridan foydalanmagan holda yaratilganligi sababli bunday adabiyotdan foydalanish qator muammolarni keltirib chiqardi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan fanlar bo‘yicha elektron o‘quv-uslubiy majmualar (EO‘UM) yaratila boshlandi. Afsuski, ba’zi hollarda mazkur o‘quv-uslubiy materiallar didaktik chuqur ishlanmaganligi, kompyuter oldida bilim oluvchini psixologik holatini inobatga olinmaganligi, o‘quvchini bilim olish jarayonini monotonlikdan holi etish, qiziqarli tashkillashtirishga e’tibor qilinmaganligi bilan ajralib turadi. Bir qator mualliflar EO‘UM yaratish jarayonida unga gipermatn, animatsiya, audio va video lavhalarni joriy etish uslublaridan mutlaqo foydalanmaydilar yoki ularga o‘ta cheklangan tarzda murojaat etadilar. Natijada, EO‘UM oddiy jildli adabiyotdan kam farqlanib qolmoqda va oqibatda undan foydalanuvchilar, hatto professor-o‘qituvchilarda ham, bunday kuchli vositaga nisbatan salbiy munosabat hosil bo‘lmoqda.

Bu kabi muammolarni hal etish uchun vazirliklar qoshidagi uslubiy bo‘limlar, malaka oshirish muassasalari va nihoyat oliy o‘quv yurtlarining o‘quv-uslubiy bo‘limlari namunaviy dasturiy-didaktik majmualarni va ularni dasturlarini targ‘ib qilishi, tarqatilishini o‘z zimmasiga olishi yoki maxsus uslubiy anjumanlar, masalan, konferensiya va seminarlar, keng va muttasil tarzda tashkil qilishi maqsadga muvofiqdir.

Dasturiy-didaktik majmualar – zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ifodalanadigan muayyan bilimlar sohasiga doir ma’lumotlarni to‘plash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish, muayyan o‘quv materiallarini dasturiy mahsulotdan (masalan, MathCad, Maple, Mathematika) foydalanish orqali o‘rgatish imkoniyatiga ega bo‘lgan manbadir.

IDDMning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan EO‘UM ta’limiy axborot resurs sifatida an’anaviy jildli adabiyotga nisbatan ko‘pgina afzalliklarga ega bo‘lib, ma’lumotlarni turli shakllarda namoyish etish va multimedia vositalari yordamida bilimlarni mukammal o‘zlashtirib olish imkoniyatlari mavjudligi bilan ham ahamiyatlidir. Bu ta’limiy vosita ko‘p hollarda bepul nusxalanishi, ya’ni o‘quvchilar DDMdan sarf-xarajatlarsiz foydalana olishlari mumkinligi, alohida e’tiborga loyiq. EO‘UM mazmuni davr talabiga binoan tahrirlanishi mumkin. Bunday tahrirlash rasmiy qarorlar qabul qilinishi bilan nisbatan operativ amalga oshirilishi mumkin. Ammo, multimedia imkoniyatlari kengayishi bilan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb topilgan tahrirlashlar yoki innovatsion g‘oyalar asosida amalga oshiriladigan tahrirlashlar bu ta’limiy axborot resursiga nisbatan o‘ta tezkor va deyarli hech qanday sarf-xarajatlarsiz amalga oshirilishi mumkin. O‘z vaqtida bu

imkoniyatlar o‘quv-uslubiy materiallarni barcha turlariga taalluqliligini ta’kidlash lozim. EO‘UMni yaratish jarayonida mualliflar ko‘p hollarda 2 toifaga ajralib qoladi. 1-toifaga mansub mualliflar o‘quv materialining mazmuni, ya’ni har tomonlama to‘g‘ri bayon qilish jarayonini muhim hisoblaydi, ular tayyor materialni elektron shaklda kompyuterga joylashtirish u qadar muammo deb hisoblamaydi. 2-toifadagi mualliflar, odatda, yuqori malakali dasturchilar bo‘lib, istalgan an’anaviy o‘quv darsligini olib, muallif ko‘magisiz ham sifatli elektron variantini yaratish mumkin deb hisoblaydi. Bunda 1-holatda o‘quv materialining mazmuni, 2-holatda esa uning dasturining mukammal ishlab chiqilishi asosiy deb sanaladi. Afsuski kamdan-kam hollarda bunday sifatlar, – ya’ni predmetni va uslubiyotni chuqur bilish, axborot texnologiyalarini yuqori saviyada egallaganlik bir mutaxassisda mujassamlangan bo‘ladi. Shu bois, fanni o‘qitish tajribasiga ega malakali uslubiyotchilar va axborot texnologiyalari, jumladan, multimedia va tarmoq texnologiyalarini yuqori saviyada egallagan mutaxassislar hamkorligi EO‘UM yaratish yo‘lida samarali deb hisoblanadi. EO‘UM hayotiy siklida odatda uni tahrirlash, yangi bilim va didaktika bilan to‘ldirish, ishlanma hamda dasturiy ta’minotini takomillashtirish bilan kuzatiladi. Bu, ya’ni EO‘UMni yaratish va muttasil tarzda takomillashtirish bosqichlarida, uslubchilarni yetakchiligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, haqiqiy ma’noda sifatli EO‘UMlar tayyorlash ancha mehnat talab etish bilan birga, uni tayyorlash jarayonida tajribali pedagoglar, dasturchi-dizaynerlar, psixologlar va boshqa ko‘pgina mutaxassislarning ishtirok etishlari zarur bo‘ladi. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarining shaxsiy erkinligini rivojlantirishning yetakchi vositasi – bu shaxsiy erkinlik funksiyalarini ro‘yobga chiqarishga va talab qilishga qaratilgan mos keladigan shaxsni rivojlantiruvchi pedagogik vaziyat hisoblanadi. Pedagogik jarayonda kompyuterlarni qo‘llash orqali qo‘yilgan vazifalarni bajarish esa samaradorlikni ta’minlab beradi. Kompyuterli o‘qitish jarayoni uchun zarur elektron ta’lim resurslari darslarni sifatli va samarador bo‘lishiga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Taylaqov N.I. Elektron darslik yaratishga qo‘yiladigan talablar. Xalq ta’limi jurnali, 2005, 2-son. –17-20-betlar.

2. Taylaqov N.I., Usmonov M. Uzluksiz ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. Uzluksiz ta’lim jurnali, 2013, 5-son. – 67-70-betlar.

3. Usmonov M. Interaktiv elektron o‘quv kurslar – o‘qitish faoliyatining yangi vositasi sifatida. Xalq ta’limi jurnali, 2011, 6-son. – 22-23-betlar.

4. Djurayev R.X. Ta’limda interfaol texnologiyalar. – T.: Sano-standart, 2010. – 87-b.

5. Begimqulov U.Sh. va b. Ta’limda axborot texnologiyalari: metodik qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010.

6. Maxmudova M. A., Nasirova Sh.N. Kompyuter dasturlari vositasida o‘quvchilarning bilim egallashga qiziqishlarini rivojlantirish Mug‘allim hem uzluksiz bilimlendiri Ilmiy-metodikali jurnal 5, 2019 jil. Nukus – 2019. – 25-27-betlar.

7. Maxmudova M.A., Nasirova Sh.N.,Yodgorov G‘.R., Qutbiddinov A. Effectiveness Of Using Computer Technologies In Developing Students ‘Learning Ability Psychology and Education (ISSN: 0033-3077**)** Volume 57 No 8 (2020) (https://www.scopus.com/sourceid/50205) USA, p. 619-624-betlar.

Nargiz MAXMUDOVA,
Xorazm BXTXKTMOXM pedagogika fanlari nomzodi, v.v. dotsent

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada jamiyatimizda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tutgan o‘rni haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan. Undan tashqari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratish va o‘zlashtirish haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot, ta’lim-tarbiya, integratsiya, ilm-fan, jarayon, mexanizm, metodologiya, mafkura.

В статье рассматривается роль современных педагогических технологий в нашем обществе. Также автор предоставляет информацию о создании и внедрении современных педагогических технологий.

Ключевые слова. Современные педагогические технологии, информация, образование, интеграция, наука, процесс, механизм, методология, идеология.

The article discusses the role of modern pedagogical technologies in our society. It also provides information on the creation and adoption of modern pedagogical technologies.

Key words. Modern pedagogical technologies, information, education, integration, science, process, mechanism, methodology, ideology.

Mamlakatimiz ilm-fanining jahon ilm-faniga integratsiyasi sodir bo‘ldi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratish va o‘zlashtirish yuzasidan maqsadli innovatsiya loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish yo‘li bilan aloqasini ta’minlash chora-tadbirlari ishlab chiqilib amalga oshirilmoqda. Zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish uchun eksperimental maydonchalar barpo etish orqali ilmiy tadqiqotlar natijalarni o‘quv-tarbiya jarayoniga o‘z vaqtida joriy etish mexanizmini ro‘yobga chiqarishga shart-sharoitlar yaratilganligi hozirgi kunda o‘z samarasini bermoqda. Demak, mamlakat ilm-fanining xalqaro ilmiy hamjihatiga integratsiyasini faollashtirish kabi istiqboli dolzarb vazifalar bevosita pedagogika fanining zimmasiga tushadi. Zero, pedagogika fani yosh avlodni yashashga, hayotga tayyorlash, insonlarni tug‘ilganidan umrining oxirigacha ta’lim-tarbiyasining nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqishda yetakchi o‘rin tutadi. O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li – ta’lim-tarbiya va ma’naviyatning ustuvorligini metodik ta’minlaydi. Ming yillar mobaynida jahonda mashhur bo‘lgan buyuk mutafakkirlarimizning insonshunoslik borasidagi ilmiy merosi ma’naviyatning ustuvorligini XXI asrda yanada ilg‘or darajaga ko‘taradigan milliy pedagogika tarkib topadi. Insonshunoslik fanlarining o‘zaro hamkorligi, insonni bir butunlikda o‘rganish metodikasi yaratiladi. Pedagogika shaxsni shakllantirish jarayonini ilmiy-amaliy asosini ishlab chiqish, jamiyat ma’naviy madaniyatini tarkib topti-

rish, tarbiyalash qonuniyatlarini tadqiq etish bilan insonshunoslikda alohida o‘rin tutadi. Pedagogika o‘z yo‘nalishi, metodologiyasini milliy mafkura, rivojlangan mamlakatlar ilg‘or tajribasi asosida takomillashtiriladi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar vujudga keladi. Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, jahon andozalari darajasiga ko‘tarish, barkamol insonni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslarini yaratadi. Zamonaviy ta’lim taraqqiyotida paydo bo‘layotgan “Innovatsion yondashuv”, “Innovatsion faoliyat”, “Innovatsion pedagogika” tarzidagi tushunchalar yuqoridagi ehtiyojlar asosidan kelib chiqqan bo‘lib, ularning pirovard maqsadi – ta’lim sohasida o‘quv-tarbiya jarayoni natijasini kafolatlaydigan o‘zgarish, yangilanishlar kiritishdan iborat. Innovatsiya tushunchasi dastlab XIX asrda madaniyatshunoslik sohasidagi tadqiqotlarda paydo bo‘lib, bir madaniyat turlarini ikkinchi bir madaniyatga kiritish tushunilgan. XX asrga kelib esa, innovatsiya haqidagi fan paydo bo‘ldi. Bu fan doirasida moddiy ishlab chiqarish yangi soha – yangiliklar kiritish sohasiga texnik yangiliklar kiritish qonuniyatlari o‘rganila boshlandi. Yangiliklar kiritish haqidagi fan – innovatika firmalar faoliyatida yangicha xizmat ko‘rsatish g‘oyalarini tatbiq etishga qaratilgan ehtiyojdan kelib chiqqan. XX asrning 30-yillarida AQShda “firmalarning innovatsion siyosati”, “innovatsion jarayon” terminlari shakllandi. 60-70-yillarda G‘arb mamlakatlarida firmalar va boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan yangiliklarni empirik tadqiq etishga qaratilgan izlanishlar keng tarqaldi. Dastlab innovatika predmeti ilmiy-texnika yangiliklarini yaratish va qo‘llashning iqtisodiy va ijtimoiy qonuniyatlarini o‘rgangan. Ko‘p vaqt o‘tmasdan, innovatikaning o‘rganish sohasi kengayib, u falsafa, psixologiya, sotsiologiya, boshqarish nazariyasi, iqtisod va madaniyatshunoslik (kulturologiya) fanlari o‘rtasidagi oraliq fanga, 70-yillarga kelib yangiliklar kiritish haqidagi fan murakkab, ko‘p tarmoqli sohaga aylanadi. 50-yillarda innovatsion pedagogik jarayonlar G‘arb olimlarining maxsus izlanish predmetiga aylansa, 80-yillarda rus olimlarning tadqiqot obyekti bo‘ldi. Yangilanishlarni pedagogika faniga nisbatan qo‘llaganda ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish va uning natijalarini yaxshilashga qaratilgan pedagogik tizim ichida o‘zgarishlar kiritish tushuniladi. Rossiyada pedagogik innovatsiyalarning paydo bo‘lishi maktablarni tez rivojlantirish ehtiyoji bilan ularni o‘qituvchilar tomonidan amalga oshirishdagi qiyinchiliklar, qarama-qarashiliklardan kelib chiqqan. Mustaqil O‘zbekiston sharoitida esa, innovatsiyalarni o‘rganish, uni ta’lim jarayoniga tatbiq etish ta’lim tizimini isloh qilish masalalari bilan bog‘liq ravishda tayyor axborotlarni berishga asoslangan an’anaviy o‘qitish turidan, o‘quvchi-talabalarning o‘zlarini izlanishga, ma’lumotlarni o‘zlari izlab topishga o‘rgatadigan ta’lim tizimiga o‘tish yo‘lidagi harakatlar bilan asoslanadi. Shunga ko‘ra, yangi bilimlarga ehtiyoj, yangilik, innovatsion jarayonlar kabi tushunchalar mohiyatini anglashga ehtiyoj kuchaymoqda. “Yangilik kiritish” (Innovatsiya) tushunchasi yangiliklarda ham, ushbu yangilikni amaliyotga tatbiq etish jarayoni sifatida ham tushuniladi. “Innovatsion pedagogika” termini va unga xos bo‘lgan tadqiqotlar G‘arbiy Yevropa va AQShda XX asrning 60-yillarida paydo bo‘ldi. Innovatsion faoliyat F.N.Gonbolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlar innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg‘or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtayi nazaridan yoritilgan. Ba’zi mualliflar pedagogik yangilanishlarni ilg‘or tajribaning xususiy shakli tarzida qaraydi. Ularni radikal yangiliklar bilan tenglashtirib, quyidagilar bilan bog‘lab tushuntiradi; dolzarb muammoning yangi yechimi, ulardan foydalanish yangi sifat o‘zgarishlariga olib keladi, ularni qo‘llash tizimidagi boshqa komponentlarni ham sifat jihatidan o‘zgartiradi. Bunda yangilanishlar tizimining bir sifatli holatdan ikkinchi holatga o‘tishi tarzida

tushuniladi. Yangilik muayyan ta’lim tizimi ichida mavjud bo‘lib, yangilanish asosida yuzaga keladi. Shu tarzda yangilanishni yangilik yaratish, qo‘llash va o‘zlashtirish hisobiga ta’lim rivojlanishi jarayoni sifatida qarash mumkin. Yangilanish ta’lim jarayonining qaysi bo‘lagida o‘zgartirish kiritishni aniqlashdan boshlanadi. Pedagogik yangilanish predmeti – yangilanish jarayoni samaradorligi va ularni aniqlovchi omillar orasidagi bog‘liqlik, shuningdek, o‘zgarishlar samaradorligini oshirish maqsadida shu omillarga ta’sir etish usullaridan iborat.

Pedagogika fani va amaliyoti ayrim yetuk kishilarning tafakkurida sodir bo‘lgan yangilanishlarni, ma’naviyatlarida ro‘y bergan o‘zgarishlarni ko‘pchilikning odob-axloqi va xulq faktoriga aylantiradigan, ya’ni jamiyatning aksariyat a’zolarida ezgulik va yaxshilik kabi axloqiy sifatlarni shakllantirishga da’vat etilgan ijtimoiy faoliyatdir. Xalqimiz ijtimoiy tafakkuridagi yangilanishlar harakat faktoriga aylanib Milliy mustaqillik qo‘lga kiritilishi bilan istiqlol yo‘llarimiz, milliy g‘oya va mafkuramiz aniq qilib belgilab olindi. Mustaqil yurtda, sog‘lom aqlga muvofiq yangi ijtimoiy tuzumda yashaydigan yoshlarning ma’naviyatini shakllantirishdek zalvorli yumush borki, u bilan pedagogika fani shug‘ullanadi. Shuning uchun ham pedagogik fikrni ilgarilab ketgan davr, yangilanib borayotgan zamon talablari darajasiga yetkazish ehtiyoji tug‘ildi. Yangilanishlarni amaliyotda qo‘llashning yo‘llarini topishga alohida e’tibor qaratildi. Negaki, amaliy jarayonga tatbiq qilinmagan ilmiy g‘oya foydalanilmagan imkoniyatdir. Ana shu imkoniyatlardan to‘la foydalanish, ular tufayli ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish yangilangan pedagogik fikrlarning mazmunini va ustuvor yo‘nalishini tashkil etadi. Yangilangan ijtimoiy ong pedagogik tafakkurning sog‘lomlashuviga olib keldi. Bu hol milliy pedagogika fanining jahon andozalariga muvofiq rivojlanishini taqozo etdi va uning mazmun-mohiyati tubdan o‘zgardi. Tarbiyashunoslik insoniylashdi, ya’ni milliy pedagogika fani va amaliyoti markaziga tarbiyalanuvchi shaxsi – inson chiqarildi. Masalaning bunday tus olishi pedagogika amaliyotida tarbiyaning ustuvor mavqega ega bo‘lishini taqozo etadi. Negaki, yangilangan pedagogik fikrlar uchun ta’lim va tarbiya jarayoniga tortilgan shaxs egallagan bilimlar hajmi emas, balki unda qanday ma’naviy fazilatlar shakllantirilganligi muhim bo‘lib qoldi. Shu tariqa, pedagogika uchun ilk bora bilim emas, ma’naviyat, ta’lim emas, tarbiya muhim ekanligini hisobga olib ish ko‘rish zaruriyati paydo bo‘ldi. Pedagogika fani uchun ham, amaliyoti uchun ham tarbiyalanuvchi shaxsini imkon boricha barkamol inson qilib shakllantirish bosh maqsadga aylangach, maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari va pedagoglari, barcha didaktik vositalar va o‘quv-tarbiya anjomlari tarbiyalanuvchilar, o‘quvchi-talabalar uchun ekanligi anglab yetilgach, pedagogika ilmi beradigan xulosalarning xarakteri ham tubdan o‘zgarishi, avvalgilardan tamomila boshqacha bo‘lishi tabiiy hisoblanadi. Pedagogika ilmi va amaliyotidagi mavjud tajriba hamda an’analardagi asosiy yangilik uning demokratik prinsiplarga asoslanganligida yoki insonparvarlashganida ekan, pedagogika ilmi ta’lim-tarbiya jarayoniga ham ayni shu jihatdan yondashuvi va shu nuqtayi nazardan xulosalar chiqarishi ayondir. Bu holat pedagogika ilmi vakillarining istaklari natijasi bo‘lmay, balki milliy tarbiyashunoslik fani taraqqiyotining qonuniy talabidir. O‘zgargan jamiyat talablariga mos barkamol insonni shakllantirishi lozim bo‘lgan pedagogika kechagi xulosalar bilan bugun muvaffaqiyat qozona olmasligi ayon. Bugun tarkib topayotgan pedagogik qarashlar va fikrlar tizimida davrning ilg‘or belgilari qanchalik to‘liq aks etsa, bu qarashlar va fikrlar bergan tavsiyalarning ahamiyati shunchalik salmoqli bo‘ladi. Pedagogika fani bugungi kunda ma’lum bir yuksalish bosqichga ko‘tarilmoqda. Buning albatta, obyektiv sabablari

mavjud. Tarbiya maqsadining har bir davrda turlicha bo‘lishi ijtimoiy tuzum, mafkuraviy qarashlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq. Ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy rivojlanish davomida tarbiya maqsadiga erishish jarayoniga nisbatan pedagogik yondashuvlar ham turlicha bo‘lgan. Demak, ta’lim-tarbiyaning maqsadi, uni amalga oshirish jarayoni nazariy va amaliy jihatdan takomillashib borishi bilan pedagogika fani zamonaviy tus ola boshlaydi. Bizning milliy pedagogikamiz bugungi kunda aynan shunday holatni boshidan kechirmoqda.

“Pedagogik texnologiya – ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarni qo‘llash, ularning o‘zaro ta’sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir”.

Texnologiya deganda, subyekt tomonidan obyektga ko‘rsatilgan ta’sir natijasida subyektda sifat o‘zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vosita va sharoitlardan foydalanib, obyektga yo‘naltirilgan aniq maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko‘zda tutadi. Yuqorida keltirilgan tushunchalarni o‘quv jarayoniga ko‘chiradigan bo‘lsak, o‘qituvchi (pedagog)ning o‘qitish vositalari yordamida o‘quvchi talabalarga muayyan sharoitlarda ko‘rsatgan tizimli ta’siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo‘lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni jadal shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa yoki boshqacha aytganda, o‘qituvchi tomonidan o‘qitish vositalari yordamida o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni deb ta’riflash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, har bir pedagogik texnologiya muayyan ilmiy konsepsiyaga asoslanadi. Pedagogik texnologiyaning ilmiy konsepsiyasi ta’lim maqsadlariga erishishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy-pedagogik va didaktik asoslashlarini qamrab oladi. Ta’lim jarayoni mazmuni, ta’lim jarayonining umumiy va aniq maqsadlari, o‘quv materiali mazmunidan iborat bo‘ladi. Tadqiqotchilar har qanday pedagogik texnologiyalarni qanoatlantiradigan mezonlarni belgilaydi. Izchillik pedagogik texnologiyaning mezoni sifatida jarayonning mantiqiyligi, pedagogik texnologiyaning barcha qismlarining o‘zaro bog‘liqligi, yaxlitligini o‘z ichiga oladi. Pedagogik texnologiyaning mezonlaridan biri, uning boshqaruvga asoslanganligidir. U o‘quv jarayoni diagnostikasi, uni rejalashtirish va amalga oshirishni loyihalash, undagi o‘qitish metodlari va vositalari bilan o‘zgartirib turishdan iborat bo‘ladi. Pedagogik texnologiyaning samaradorlik mezoni ta’lim jarayonining konkret sharoitlarida olinadigan yuksak natijalarni ko‘zda tutadi. Qayta tiklash pedagogik texnologiyalar mezonlaridan biridir. Unda pedagogik texnologiyalarni boshqa o‘quv yurtlarida qo‘llash imkoniyati tushuniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. –T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009.

2. Mirtursunov Z. O‘zbek xalq pedagogikasi. –T.: Fan. 1973.

3. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.

4. Шарипова Д. Д., Мусурманова О., Таирова М. Здоровье будущего поколения в ваших руках //Ташкент: Fanvatehnologiya. – 2011.

5. Karabaevna Z., Xamroevich R., Musurmanova A. Improving the competence of future vocational education teachers based on modular-rating education //International Journal of Engineering and Advanced Technology. – 2019. – T. 9. – №. 1. – C. 6903-6906.

Farida NAZAROVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

AKADEMIK LITSEYLAR UCHUN SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TARBIYAVIY TEXNOLOGIYALARNI MODELLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada shaxsga yo‘naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalar bilan akademik litsey tarbiya tizimining o‘zaro determinatsiyasi mumkinligi nazariy asoslab berildi. Shaxsga yo‘naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalar bilan akademik litsey tarbiya tizimining komponentlari va ularni modellashtirishning o‘ziga xosliklari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Modellashtirish, texnologiyalar, tizim, shaxsga yo‘naltirilgan, akademik litsey, model, tizim.

В статье даётся теоретическое обоснование возможности взаимной детерминации личностно-ориентированных образовательных технологий и системы академических лицейев. Проанализированы компоненты системы образования с личностно-ориентированными технологиями обучения и специфики их моделирования.

Ключевые слова. Моделирование, технология, система, личностно-ориентированный, академический лицей, модель, система.

In the article, the theoretical justification of the possibility of mutual determination of the academic lyceum education system with educational technologies directed to the individual was given. The components of the academic Lyceum education system and the peculiarities of their modeling were analyzed with individual-oriented educational technologies.

Key words. Modeling, technologalap, system, personality-oriented, academic lyceum, model, tizim.

Tarbiya tizimi va shaxsga yo‘naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalar modelini yaratish bo‘yicha faoliyat o‘zagini tizimli yondashuv tashkil qiladi. Tizimli yondashuv mohiyati uning bilish yoki o‘zgartirish obyekti tizim sifatida qaraladigan faoliyatda metodologik orientatsiya sanalishidan iborat. Modellashtirish murakkab yaxlit tizim, uni obyekt, subyekt, model yaratish jarayoni va uning natijasi kabi komponentlarning o‘zaro bog‘liq jami sifatida tasavvur qilish mumkin. Modellashtirish obyekti tarbiya tizimi va shaxsga yo‘naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalar sanaladi. Tarbiya tizimini modellashtirishda subyekt o‘rni pedagoglar, o‘quvchilar, ota-onalar guruhi, umuman, akademik litsey jamoasi bajaradi.

Shunday qilib, tizimli yondashuv va tizimlilik tamoyili akademik litsey tarbiya tizimi va shaxsga yo‘naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalar modelini yaratish bo‘yicha tadqiqotchilik va amaliy faoliyat metodologiyasining uzviy qismiga aylanishi mumkin.

Tarbiya tizimi modeli, shaxsga yo‘naltirilgan tarbiyaviy texnologiya modelini yaratish – modellashtirish metodi yordamida erishilgan oraliq natija xolos. Asosiy nati-

jalarni modellashtirish subyekti keyinchalik yaratilgan modellardan ilmiy yoki boshqaruv faoliyatida foydalanish davomida oladi. Ular yangi ilmiy bilimni o‘zlashtirish, tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, akademik litsey jamoasida munosabatlarni yaxshilash, pedagoglar, o‘quvchilar, ota-onalarning akademik litseyda hayotiy faoliyatdan qoniqish hissi ortishidan iborat bo‘lishi mumkin.

Akademik litsey tarbiya tizimini modellashtirish va shaxsga yo‘naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalarni modellashtirish – bir paytda va parallel kechadigan ikkita o‘zaro bog‘liq jarayon. Shubhasiz, shaxsga yo‘naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalarni modellashtirish va hatto realizatsiyalash jarayoni, masalan, tarbiyaviy ishlar tizim sharoitida, hatto tizimli tashkil qilingan tarbiya tizimi mavjud bo‘lmaganda ham alohida tashkil qilinishi mumkin. Bundan tashqari, ko‘rsatilgan ikkita tizimli modelning tarbiyaviy samarasi, ustiga ustak o‘zaro rivojlanib boradi: tarbiya tizimi shaxsga yo‘naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalardan foydalanish hisobiga qo‘shimcha ijobiy effektlar yordamida boshqa darajaga ko‘tariladi, texnologiyalar, o‘z navbatida, bu tizimning muhim elementlari sifatida alohida sifatlarga ega bo‘ladi. Modellarning bu kabi o‘zaro belgilanganligini hisobga olib, shaxsga yo‘naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalarni akademik litsey tarbiya tizimini modellashtirish bilan parallel modellashtirish bosqichlari ishlab chiqildi.

Shaxsga yo‘naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalarni akademik litsey tarbiya tizimini modellashtirish bilan parallel modellashtirish bosqichlari

T.r.	Modellashtirish bosqichlari	
	Tarbiya tizimi	**Shaxsga yo‘naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalar**
1.	Tadqiqot jarayonida tizimning ichki holatini, uning xossalari yoki alohida asosiy sifatlarini ko‘rgazmali va og‘zaki aks ettirish	Tadqiqot jarayonida tizimning ichki holatini, uning xossalari yoki alohida asosiy sifatlarini ko‘rgazmali va og‘zaki aks ettirish
2.	Tizimning bazaviy komponentlari mavjudligi va shakllanganlik darajasini, ular o‘rtasidagi aloqalar, tizimning tarbiyaviy jarayonning boshqa komponentlari bilan munosabatlari, uning faoliyat mezon va ko‘rsatkichlari tahlili	Tizimning bazaviy komponentlari mavjudligi va shakllanganlik darajasini, ular o‘rtasidagi aloqalar tahlili, ularning tarbiya jarayonidagi roli va funksiyalari, faoliyat mezon va ko‘rsatkichlarini aniqlash
3.	Rivojlanishning ushbu bosqichida tadqiqot natijalari va tizimning real imkoniyatlariga asoslangan asosiy ishlarning karkas modelini qurish	Mavjud va yangidan yaratilgan, rivojlanishning ushbu bosqichida tarbiya tizimiga optimal kirishadigan texnologiyalarning karkas modelini qurish
4.	Tizimning akademik litsey real tarbiya jarayonidagi faoliyati, uni oraliq va yakuniy korreksiyalash, boshqaruvning birlamchi modelini yaratish	Tizimning akademik litseyning real tarbiya jarayonidagi faoliyati, uni oraliq va yakuniy korreksiyalash

5.	Tarbiya tizimining ideal istiqbolli modelini har bir komponentni aniq va izchil ishlash bilan yaratish; maqsad belgilash, faoliyat, subyektlar, munosabatlar, muhit, boshqaruv, rivojlanish	Tarkibiga sinalgan texnologiyalar, konstruksiyalangan va yangidan yaratilgan texnologiyalar kiritilgan shaxsga yo‘naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalar paketini yaratish
6.	Modelni bosqichma – bosqich joriy qilish: a) maqsad belgilash, tarbiya jarayoni subyektlari tomonidan konseptual g‘oya va maqsadlarning qabul qilinishi bo‘yicha ishlar; b) subektlarni asosiy tushunchalar, tarbiya tizimining yangi modeli doirasida faoliyat va munosabatlar strukturasi, mazmuniga nazariy va amaliy o‘rgatish; v) tarbiya tizimining yangi modeli konseptual yondashuvlar, maqsad belgilash va kutiladigan oraliq va yakuniy natijalarga muvofiq faoliyati; g) ta’lim tizimining bosqichli rivojlanishi tashxisi, faoliyat rejimi, uning samaradorlik mezon va ko‘rsatkichlarini ishlash, modelni faoliyatda erishilgan natijalarga muvofiq korreksiyalash; d) tarbiya tizimining keyingi faoliyati, akademik litseyda munosabat va psixologik muhitni maqsadli korrektirovkalash, tarbiya jarayonini psixologik – pedagogik ta’minlash bo‘yicha ishlar, psixologik – pedagogik va ijtimoiy – pedagogik treninglarni tashkil qilish va o‘tkazish	Modelni bosqichma – bosqich joriy qilish: a) tarbiyaviy texnologiyalarning ishchi tasnifini uni tarbiya jarayoniga amaliy kiritish uchun zarur belgilar bo‘yicha yaratish; b) subyektlarni shaxsga yo‘naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalar, ularning tarbiya tizimining yangi modeli sharoitida strukturasi va mazmuniga nazariy va amaliy o‘rgatish; v) shaxsga yo‘naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalarning ishchi tasnif va ularning tarbiya tizimining yangi modeliga ‘‘kirishishi’’ optimal sxemasiga muvofiq faoliyati; g) shaxsga yo‘naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalarning bosqichli rivojlanishi tashxisi, faoliyat rejimi, uning samaradorlik mezon va ko‘rsatkichlarini ishlash, sxema, tasnif, alohida texnologiyalar strukturasini faoliyat natijalariga muvofiq korreksiyalash; d) pedagogik qo‘llab – quvvatlash qoidalariga muvofiq psixologik, individual – shaxsiy texnologiyalar paketini yaratish; psixologik – pedagogik va ijtimoiy – pedagogik treninglarni o‘tkazish uchun metodik materiallarni shakllantirish
7.	Ijodiy atmosferani shakllantirish va tizim subyektlarini innovatsion g‘oya va rejalarga faoliyat rejimidan rivojlanish rejimiga o‘tish maqsadida motivatsiyalash. Akademik litsey tarbiya tizimining yangi modelini yaratish	Mavjud shaxsga yo‘naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalarni akademik litsey tarbiya tizimining yangi modeligi moslashtirish va shunga muvofiq tarzda uni tarbiya jarayoniga tatbiq qilishning yangi sxemasi va yangi paketni yaratish; shaxsga yo‘naltirilgan yangi tarbiyaviy texnologiyalarni modellashtirish va konstruksiyalash

Akademik litsey o‘quvchilari uchun shaxsga yo‘naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalar asosiy guruhlarining psixologik-pedagogik xarakteristikalari va konstruksiyalash, modellashtirish, amaliyotga joriy etish bosqichlari:

Intellektual rivojlantiruvchi – shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar

1. a) Maqsad: o‘quvchilarining bilish faolligini rivojlantirish va kognitiv sohasini shakllantirish.

b) Taxmin qilinadigan natijalar

• intellektual yetuklik darajasiga erishish;
• kognitiv pedagogik ta’sir natijasi sifatida bilimlar tizimini shakllantirish;
• umumiy bilish faolligini rivojlantirish;
• tashkilotchilik va ijrochilik malakalarini rivojlantirish;
• intellektni rivojlantirish;
• fikrlash faoliyatini faollashtirish usullarini ishlash;
• o‘ziga ishonchni shakllantirish;
• adekvat o‘z-o‘zini baholashni shakllantirish;
• pozitiv fikrlash usullarini shakllantirish;
• subyekt pozitsiyasi va pozitiv ‘‘men’’ – konsepsiyasini rivojlantirish;
• intellektual faoliyatda muvaffaqiyat vaziyatini yaratish.

2. Psixologik asoslar

Intellektual yetuklik. Yuqori sinf o‘quvchilarining turli hayotiy vazifalarni qo‘yish va hal qilishga qodirligi. Kasbiy o‘z-o‘zini belgilash. Shaxsiy o‘z-o‘zini belgilash. Rivojlanish hamda ilmiy va diniy qarashlarni birlashtirish xususiyatlari. Dunyoqarashning tiklanishi. Shaxslararo muloqotda tanlov va saylanmalilik zarurati. Shaxsning ichki pozitsiyasini shakllantirish. Shaxsiy mustaqil pozitsiyalarni ishlash. O‘z-o‘zini tarbiyalash faol jarayonini boshlanishi. Ideal va avtoritetlarga ehtiyoj. Qiziqish va ehtiroslar ko‘pligi. O‘z-o‘zini realizatsiyalashga ehtiyoj. Ichki hayot va ichki munosabatlarni barqarorlashtirish.

3. Realizatsiyalash bosqichlari mazmuni

a) Tayyorlash (motivatsiyalash) bosqichi:

• muammo, g‘oya, modelni realizatsiyalash modelini kiritish;
• zarur bo‘lganida muammoni kuchaytirish;
• muammoli vaziyatni yaratish va qayd qilish;
• qiziqishni uyg‘otish (emotsional va ratsional komponentlar);
• faoliyat maqsadlari jozibasini rag‘batlash;
• ehtiyojlarni (qaysi?)shaxsiy motivga o‘tkazish;
• motivni anglab yetish (motiv – rag‘batlarni tizim hosil qiluvchi motivlarga o‘tkazish);
• faoliyatga pozitiv munosabatni motivatsiyalash;
• bilish motivlarini shakllantirish;
• intellektual – rivojlantiruvchi faoliyatning ijtimoiy motivlarini shakllantirish;
• qatnashchilar pozitsiyalarini aniqlashtirish, keskinlashtirish va o‘zaro ta’sirini tashkil qilish;
• yangi shaklda muloqotga tayyorlikni qo‘llab – quvvatlash;
• diqqatni kiritish, qo‘llab – quvvatlash (informatsion materiallar mazmuni, ko‘rish, emotsional effektlar, materiallarni rasmiylashtirish va berish hisobiga);
• jamoani uyushtirish va rivojlantirish istagini qo‘llab – quvvatlash.

b) Asosiy bosqich

1. Axborot, fikr, g‘oyalar almashish.
2. Taqdim qilingan axborotni tushunish va qabul qilish.
3. Loyihani yaratish.
4. Loyihani kattalar va o‘quvchilar tomonidan ekspertizalash.
5. Loyihani harakatlar rejasiga rasmiylashtirish (ssenariy, bezash, zal bilan ishlash, musobaqa ko‘rinishi, baholash usullari va h.k.).
6. Harakatlarni muvofiqlashtirish.
7. Texnologiyani tatbiq etish (tashkil qilish; tashkilotchilar guruhi mavjudligi, har birining vazifalari, tashkil qilish bosqichlari va h.k.) va o‘tkazish (asl realizatsiyalash jarayoni).
8. Ijobiy emotsional muhitni yaratish.

v) Qabul qilish bosqichi

1. Shaxslararo o‘zaro hamkorlikni shaxsiy fikr, g‘oya, pozitsiyalardan umumiy pozitsiya – mahsulotga tomon harakatni tashkil qilish.
2. Shaxsiy mazmun va qadriyatlarni yaratish.
3. Hamkorlarning bir-birining mazmun – xabarlari, kechinmalari, holatlarini tushunishi.
4. O‘zini o‘zaro hamkorlik qatnashchisi sifatida his qilish.
5. Ilk sifat munosabatlarni o‘rnatish va ularning dinamikada namoyon qilish.
6. Emotsiya va kechinmalar almashish.

g) Refleksiya bosqichi

1. Shaxsiy mazmun va qadriyatlar tahlili.
2. Guruh mazmun va qadriyatlar tahlili.

Tarbiyaviy texnologiyalar:

– pedagogik maqsad;
– ijtimoiy foydalilik;
– shaxsiy mazmunlar;
– shaxsiy qobiliyatlar va malakalar realizatsiyasi;
– emotsional atmosfera;
– texnologiyaning tarbiya tizimida ahamiyatliligi (akademik litsey an’ana va qadriyatlari doirasida) nuqtayi nazaridan baholash.

d) Tashxis bosqichi

1. O‘quvchilarning tarbiyaviy texnologiyalarga jalb qilinganligi.
2. O‘quvchining tarbiyaviy texnologiyaga munosabati.
3. O‘quvchining tarbiyaviy texnologiyaga jalb qilinganlik darajasi.
4. Natijalarning qo‘yilgan maqsadga mosligi.
5. Texnologiyani o‘tkazish vaqtida muhit xarakteristikasi.
6. Jamoa, kichik guruhlar o‘zgarishi tashxisi.
7. Qatnashchilarning shaxsi o‘zgarishlari tashxisi.
8. Ushbu hodisaning qabul qilinishi – qilinmasligi (shaxsiy mazmunlar).

4. Texnologiyani realizatsiyalash xususiyatlari

a) Pedagoglarga talablar

1. Tarbiyaviy texnologiyalarning shu kategoriyasi qadriyat va maqsadlarini qabul qilish.
2. Insonparvarlik tarbiyaning konseptual asoslarini bilish va ularni pedagogik norma sifatida qabul qilish.
3. Qo‘yilgan maqsadga muvofiq natija olish istagi.
4. Pedagogning shaxsiy mazmunlari bilan mos kelishi.

5. Psixologik to‘g‘ri qurilgan muloqot.
6. O‘quvchilarning shaxsi o‘zgarishlarini rag‘batlash.
7. Insonning motivatsion – qadriyatli sohasi rivojlanishiga ta’siri.
8. Bu kategoriya texnologiyalarni bilish va egallash.
9. Intellektual muloqotga qiziqish.
10. Bilish axborotini egallash.
11. Tarbiyaviy ta’sir maydonini maksimal imkon qadar kengaytirish.
12. Manfaatli, xayrixoh va faoliyatli ishtirok.
13. Rahbarlikning nozik uslubi.
14. Tarbiyaviy ta’sirlarning izchilligi.

b) Qatnashchilarga talablar

1. O‘quvchining tadbirdagi o‘zining ishtirokiga pozitiv munosabati.
2. Jalb qilinganlikning nisbatan yuqori darajasi.
3. Manfaatli, xayrixoh va faoliyatli ishtirok.
4. Qatnashchi tomonidan tarbiyaviy texnologiya qadriyat va maqsadlarining qabul qilinishi.
5. Qo‘yilgan maqsadga muvofiq natija olish istagi.
6. Texnologiya g‘oyalarining o‘quvchining shaxsiy mazmunlari bilan mos kelishi.

1. **Texnologik tavsiyalar**

Shaxsga yo‘naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalar bilan akademik litsey tarbiya tizimining o‘zaro determinatsiyasi mumkinligi nazariy asoslab berildi. Shaxsga yo‘naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalar bilan akademik litsey tarbiya tizimining komponentlari va ularni modellashtirishning o‘ziga xosliklari tahlil qilindi. Shaxsga yo‘naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalarni akademik litsey tarbiya tizimini modellashtirish bilan parallel modellashtirish bosqichlari ishlab chiqildi.

Olib borilgan nazariy tadqiqot va modellashtirishning psixologik-pedagogik asoslari, shaxsga yo‘naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalar va akademik litsey tarbiya tizimining pedagogik mazmuni va mohiyati tahlili shaxsga yo‘naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalarni modellashtirishni akademik litsey tarbiya tizimini modellashtirish bilan o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida qarash imkonini beradi. Jarayon samaradorligi esa ularning o‘zaro bog‘liq komponentlari rivojlanganlik darajasiga jiddiy tarzda bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Воспитательная система школы: проблемы управления. Очерки прагматической теории. /Под редакцией Караковского В.А. , Новиковой Л.И. , Селивановой Н.Л., Соколовой Е.И.. – М.: Сентябрь. 1997. – С.112.

2. Воспитательные технологии. Выпуск 1. – Ульяновск: ИПК ПРО, 2001. – С.24.

3. Воспитательные технологии. Выпуск 2.– Ульяновск: ИПК ПРО, 2001. – С.32. .

Muhayyoxon ARTIKOVA,
Andijon davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari doktori
Madinaxon TO‘RABOYEVA,
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

TALABALARDA KREATIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya

Maqolada talabalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, bu borada o‘qituvchiga qo‘yiladigan ustuvor talablar, mavjud tajribalar, zamonaviy ta’lim va u orqali talabalarda rivojlantiriladigan kreativ kompetensiya sifatlari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Kompetensiya, kreativlik, zamonaviy ta’lim, talab, tajriba, texnika, texnologiya, tizimli fikrlash, xalqaro standart, intellektual qobiliyat.

В статье рассматриваются педагогические предпосылки развития креативной компетентности у учащихся, приоритетные требования, предъявляемые к учителю в этом отношении, имеющийся опыт, современное образование и качества креативной компетентности, через которые она развивается у учащихся.

Ключевые слова. Компетентность, креативность, современное образование, востребованность, опыт, техника, технология, системное мышление, международный стандарт, интеллектуальные способности.

The article discusses the pedagogical conditions for the development of creative competence in students, the priorities of the teacher in this regard, the experience, modern education and the quality of creative competence that students develop through him.

Key words. Competence, creativity, modern education, relevance, experience, technique, technology, systems thinking, international standard, intellectual abilities.

Hozirgi davrda ishlab chiqarishda texnika va texnologiyalarning yangilanayotganligi, ilm va fanning jadal taraqqiyoti mutaxassis kadrlardan o‘z bilimlarini mustaqil va doimiy ravishda to‘ldirib, yangilab va kengaytirib borishni talab etadi. Bugungi kun mutaxassisining xalqaro standartlar darajasiga mos, o‘z ustida ishlovchi, yangi g‘oyalar muallifi, shu bilan birga raqobatbardoshlik sifatlariga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o‘z navbatida, bo‘lajak kadrlarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish masalasini qo‘yadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida “Oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-

sharoit yaratish” oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlaridan biriga aylandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga navbatdagi Murojaatnomasi “Yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz” deb aytgan so‘zlari yuqoridagi vazifalarni haqiqatda muhim ekanligini amalda ko‘rsatmoqda.

Ushbu qaror va farmonlar hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Ta’limda kompetentli yondashuv insonning shaxsiy, shuningdek, jamiyat va davlat manfaatlari uchun olib boradigan faoliyatning asosiy sohalaridagi muvaffaqiyatini ta’minlovchi bilimlar va amaliy faoliyatini majmuaviy ravishda o‘zlashtirishiga yo‘naltirilgan.

Kompetentlik va kompetensiya kompetentli yondashuvning asosiy tushunchalari hisoblansada, ularning ikki xil talqini va munosabati mavjud bo‘lib, ular tenglashadi va tabaqalashtiradi.

Kompetentlik (lotincha competences) – munosib, muvofiq, tegishli, layoqatli, bilimli, har taraflama bilimlarga ega bo‘lgan insonning sifatidir. Kompetensiya (lotincha competere) – “maqsadga erishish, munosib bo‘lmoq, to‘g‘ri kelmoq” kabi ma’nolarni bildiradi.

Ushbu tushunchaning ilmiy adabiyotlarda turlicha ta’riflanishidan kelib chiqib shuni ta’kidlash mumkinki, hozirgi kunda ilmiy-pedagogik hamjamiyatda kompetentlik va kompetensiya tushunchalarining mazmuni haqida aniq to‘xtamga kelingan emas.

N.M. Muslimov inglizcha “competence” tushunchasining lug‘aviy ma’nosi “qobiliyat demakdir”, biroq kompetensiya atamasi bilim, ko‘nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi.

V.I.Baydenko esa kompetensiya deganda, harakatlarning maqsadi va kechish sharoitini e’tiborga olgan holda aniq vaziyatda dolzarb bo‘lgan barcha resurslarni harakatlantirishga (mobilizatsiyalashga) qobiliyatlilik yoki tayyorlik tushunilishini ta’kidlaydi.

E.F.Zeer fikricha, kompetensiya deganda, faoliyatning adekvat me’yoriga aylanadigan, bilim, ko‘nikma, malaka va faoliyat qobiliyatlari va qadriyatli motivatsion komponentlarini o‘z ichiga olgan interaktiv konstruksiyalar tushuniladi.

Shuningdek, tadqiqotimiz uchun kreativlik tushunchasida berilgan ta’rif ham ahamiyatli hisoblanadi.

N.Muslimov, M.Usmonboyevalarning fikricha, kreativlik – kelajakka turtki beradigan xususiyatdir. Kreativlik – shaxsni ilhomlashtirishga xizmat qiladi, shu nuqtayi nazardan shaxs kreativligini shakllantirish va rivojlantirish har qanday ta’lim qismiga singdirilishi kerak.

Kreativlik bo‘yicha o‘zining tizimli ilmiy-tadqiqotlarini olib borgan P.Torrens talabalardagi kreativlik qobiliyatlarining rivojlanishida ulardagi ijodiy faollikka nisbatan motivatsiyaning qaror topganligi, ijodiy ish natijalarini ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatliligi, shuningdek, o‘z-o‘zini doimiy kasbiy rivojlantirish ehtiyojini shakllanganligi muhim omillardan ekanligini ta’kidlaydi.

Tadqiqotchilar Y.S.Gromova va V.A.Molyako talabalar kreativligining yettita belgisini ta’kidlab o‘tadi: o‘ziga xoslik, yaratuvchilik, fantaziya, faollik, maqsadga yo‘nalganlik, aniqlik, ta’sirchanlik.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi.

Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Kreativlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi.

Shaxsga xos kreativlik sifatlari quyidagilar: ijodiy yo‘nalganlik, mantiqiy fikrlash qobiliyati, bilag‘onlik, boy tasavvurga egalik, ijodiy ta’sirchanlik va tashabbuskorlik, o‘z ijodkorligini to‘la-to‘kis namoyish etish, hissiyotga boylik, tavakkal qila olish qobiliyati, tafakkur tezligiga egalik, ichki sezgining rivojlanganligi, o‘ziga xos g‘oyalarni ilgari sura olish qobiliyati, innovatsion qobiliyatga egalik, yuksak badiiy qadriyatlarga egalik, mavjud tajriba va bilimlar asosida yangi qarorlarni qabul qilish malakasi.

Talabalarda kreativlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi. Bunda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

– talabalarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta’minlash;

– talabalarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, talabalar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish, ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlash, har bir talabada uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish;

– o‘quv jarayonini talaba shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;

– talabalarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash;

– kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo‘lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish.

Talabalarni kreativ fikrlashga o‘rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun, avvalo, o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor shaxs bo‘lishi zarur. Bordi-yu, uning o‘zi kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasa, u holda qanday qilib, talabalarni kreativ fikrlashga rag‘batlantira oladi. Chiqariladigan yagona xulosa quyidagicha: o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor bo‘lsagina, talabalar ham shunday bo‘la oladi. O‘qituvchining ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi zarur.

Shaxsiy-kreativ kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim talabalarda mustaqil tafakkur, faol fuqarolik pozitsiyasi, tashabbuskorlik, mediaresurslardan o‘z faoliyatida oqilona foydalanish, sog‘lom raqobat hamda tolerantlikni shakllantiradi va ma’naviy-axloqiy, jismoniy, aqliy xislatlarni kamol toptirishga, jumladan, ezgulikni himoya qilish, tez o‘zgaruvchan, murakkab dunyoda o‘z o‘rnini topish, dunyoviy muammolarni anglash, to‘g‘ri qarorlar qabul qila olish, zaruriy hayotiy ko‘nikmalarni egallash, o‘z xatti-harakatlari, qarorlari uchun javobgarlik hissi, shaxsiy imkoniyatlarini

ro‘yobga chiqarish, axborotlarni qabul qilish va ajrata olish, abstrakt, ijodiy, mantiqiy tasavvurni kengaytirishga xizmat qiladi.

O‘tkazilgan nazariy tahlil natijalarini umumlashtirish quyidagicha xulosalarga to‘xtalishga imkon berdi:

– kompetentli yondashuvning asosiy qoidalarining ishlab chiqilganlik darajasi kreativlik kompetensiyasini ma’lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarni qo‘llash qobiliyati sifatida tushunish imkonini berdi;

– talabalarda kreativlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari yoritildi. Natijada, talabalarda kreativ kompetensiyani auditoriya jarayonida ham yuqori darajada rivojlantirish mumkin degan xulosaga kelindi.

Talabalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari mavzusidagi tadqiqot ishimiz yuzasidan umumiy xulosaga keladigan bo‘lsak, talabalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirishning muhim pedagogik sharti – uni mustaqil bilim olish va ijodiy fikrlashga yo‘naltirishdan iborat. Ushbu jarayonni yuzaga keltirish uchun, avvalo, pedagog ushbu tushunchalarni o‘zida mujassam etishi va tarbiyalashi lozim. Bu esa o‘qituvchidan tinmay izlanishni, o‘z ustida ishlashni, har bir dars uchun puxta tayyorgarlik ko‘rishni, ta’lim jarayoniga innovatsion va axborot texnologiyalarini to‘g‘ri qo‘llay bilishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании // 2005. – № 6. – С.13-29.

2. Старовиков И.Ю. Формирование учебной исследовательской деятельности школьников в условиях информатизации процесса обучения (на материале курса физики) //Автореферат док. пед. наук. – Челябинск, 2007. – С. 34.

3. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari // 2007. Ped. fan. dok. ...diss. –T., – 315-b.

4. Байденко В.И. Концептуальная модель государственных образовательных стандартов в компетентностном формате (дискуссионный вариант): материалы ко второму методологическому семинару // – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – С. 20.

5. Зеер Э.Ф. Психология профессионального развития: учеб. пособие для студ. высш. учеб. Заведений // М., 2007. – С. 240.

6. Жонсон Б. 4 Ways to Develop Creativity in Students. George lucas educational foundation // 2019. – p. 35.

7. Torrence E.P. Developing creative thinking through school experience. // N.Y., 1962. – p. 215.

8. Muslimov N., Usmonboyeva M., Sayfurov D., To‘rayev A. Innovatsion ta’lim texnologiyalari // – T.: Sano standart nashriyoti, 2015. – 81-b.

9. Xoliqova M. Oila ilmiy-amaliy tadqiqot markazi. // – T.: Sano standart nashriyoti, 2015. – 81-b.

Sharofat YO'LDOSHEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL QILISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

(Ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy asarlari misolida)

Annotatsiya

Ushbu maqolada ajdodlarimiz merosining hozirgi ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati, boshlang'ich sinflarda Abdulla Avloniy asarlarini o'rganish mazmuni yoritilgan.

Kalit so'zlar. Boshlang'ich ta'lim, o'qish darslari, ma'naviy meros, nutq, tafakkur, masal, ilmiy-ommabop uslub, metod, integratsiya, guruhlarda ishlash.

В статье рассматриваются значение наследия наших предков в современном образовательном процессе, о содержании изучения произведений Абдуллы Авлоний в начальной школе.

Ключевые слова. Начальное образование, уроки чтения, духовное наследие, речь, мышление, пример, научно-популярный метод, методика, групповая работа.

In the article, the author examines about the significance of the heritage of our ancestors in the modern education process, about the content of studying the works of Avloni in primary school.

Key words. Primary education, reading lessons, spiritual heritage, speech, thinking, example, popular science, methodology, integration, group work.

Dunyoda globallashuv jarayoni tez rivojlanib, qarama-qarshi kuchlar o'rtasida ziddiyatlar kuchayib borayotgan bir sharoitda yangilanayotgan O'zbekiston oldida o'z nuqtayi nazariga ega, yot oqimlarga qarshi kurasha oladigan, ilmli, axloqli yoshlarni tarbiyalash vazifasi yanada dolzarblashmoqda. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda ajdodlarimiz Yusuf Xos Hojib, Ismoil al-Buxoriy, al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar tomonidan yaratilgan ma'naviy meroslar muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Yoshlarimiz bu buyuk allomalarning ma'naviy meroslarini o'qish, o'rganish orqali bilimlari oshadi, dunyoqarashlari kengayadi, ayni vaqtda vatanparvarlik, ilmga intilish, insof, poklik, iffat, sabr-matonat, mehr-shafqat, sihat-salomatlik, ota-onani hurmat qilish, halollik kabi axloqiy sifatlarni egallab boradilar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, buyuk ajdodlarimizning meroslari uzviylik va uzluksizlik tamoyili asosida ta'limning har bir bosqichida o'rganib boriladi. Jumladan, boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilar Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniyning ayrim asarlari bilan tanishsalar, yuqori sinflarda ularning hayoti va ijodlari, asarlari haqida keng ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida yashab ijod qilgan Abdulla Avloniy ham millat farzandlarini tarbiyalashga, ularni ma'rifatli qilishga umrini baxshida etgan ziyolilardan biri edi. U insonlarning yaxshi yomon bo'lishi tarbiyaga bog'liqligini, "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" deb ta'kidlab o'tgan edi. Tarbiyashunos olim bu qarashlarini o'zi ochib, faoliyat yuritgan maktablarida amaliy tatbiq etgan bo'lsa, bolalar va kattalar uchun yaratgan "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Maktab gulistoni", "Turkiy guliston yoxud axloq" asarlari orqali butun millat farzandlarini tarbiyalashga harakat qilgan. Uning asarlari va darsliklari o'z davrida bir necha bor qayta-qayta nashr qilingan va hozirgi kunda ham nashr qilinmoqda.

Tarbiya ilmining asoschisi bo'lmish Abdulla Avloniy millatning ilm-ma'rifatli bo'lishga chorlaydi. Ma'rifatli va ilmli bo'lish har bir xalqning taqdiri va taraqqiyotini belgilaydigan omildir deb bilgan Avloniy o'zining bir qator asarlarini mana shu mavzuga bag'ishlaydi. "Maktab", "Maktab bolasi", "Ilm" kabi asarlari ana shunday ruh bilan sug'orilgandir. U bolalarni yoshlikdan ilmga o'rgatish, ilm olishga qiziqish uyg'otish lozim deb bilgan va o'zining bu qarashlarini "Ilm" asarida aks ettirgan. Mazkur asar 2-sinf "O'qish kitobi"dan o'rin olgan[1]. Bir qarashda 2-sinf o'quvchilariga ilm so'zining ma'nosini tushunish qiyindek tuyuladi. Abdulla Avloniy bu so'zning ma'nosini bolalarga mos ravishda: "Ilm deb o'qimoq, yozmoqni yaxshi bilmoq, har bir kerakli narsalarni o'rganmoqqa aytilur", – deb ta'riflaydi. Asar boshlanishidayoq ilm nima ekanligini bilib olgan o'quvchilar matnni o'qish jarayonida ilmning foydasi haqida, …butun hayotimiz – salomatligimiz, baxtimiz, kelajagimiz ilmga bog'liq ekanligini bilib oladi. Asar ilmiy-ommabop uslubga xos bo'lib, o'quvchilar matnni bir o'qishda uning mohiyatini to'laqonli o'zlashtira olmaydi. O'qituvchining ifodali o'qishidan so'ng tashkil etiladigan matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilarning tasavvurlari kengayib, asar mohiyatini, unda ilgari surilgan g'oyani chuqurroq anglab yetadi.

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan manbalarda tekinxo'rlik, dangasalik kabi salbiy illatlar har doim qoralangan. Mehnatsevarlik, halol luqma topish esa ulug'langan. "Bolari va pashsha" masalidagi[2] Pashsha ishyoqmas va dangasa kimsalarning ramziy timsolidir. U o'zining xislatlari bilan Ariga maqtanadi:

– Oh, birodar! Bir boshing uchun buncha harakat qilasan! Sen ham men kabi yashasang nima bo'ladi? Mening yashashimda hech bir mashaqqat yo'q. Insonlar hozirlagan dasturxonlardan har xil taomlarni yeb-ichib umr o'tkazaman.

Ari uning gapiga javoban halol mehnat shirin meva berishini, insonlar uni mehnatsevarligi uchun qadrlashlarini aytib ishida davom etadi.

3-sinfda bu mavzuni o'rganishda lug'at ustida ishlash, asarni rollarga bo'lib o'qish, matn yuzasigan (asar mazmuni, qatnashuvchilarning xatti-harakati va allegoriyani ochishga oid) savollar berish, turli ta'limiy o'yinlar tashkil etish metodlaridan foydalaniladi. Natijada, o'quvchilar tekinxo'rlik yomon illat ekanligini, mehnat insonga sog'liq, to'kin – sochin hayot keltirishini bilib oladi.

Xalqimizda "Maqtangan pand yeydi, kamtarin qand yeydi" kabi maqollar mavjud bo'lib, maqtanchoqlik yomon odat hisoblanishi, bunday odamlar odatda, ko'pchilik oldida uyatga qolishlari ochib beriladi. Bu mavzuda ko'plab asarlar ham yaratigan. Jumladan, Abdulla Avloniyning 1-sinf "O'qish kitobi"dan o'rin olgan "Maqtanchoq

[1] G'afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. O'qish kitobi, 2-sinf, –T.: Sharq, 2018, – 33-b.

[2] Umarova M., Xamroqulova X., Tojiboyeva R. O'qish kitobi, 3-sinf, –T.; O'qituvchi, 2019, – 120-b.

g‘oz” masali ana shunday asarlardan biridir.[3] Asardagi g‘oz va baqaning xatti-harakatlaridan, suhbatlaridan maqtanchoqlik yaxshilikka olib kelmasligi, biror-bir hunar egasi bo‘lish kerakligi, hunarni oxirigacha to‘liq egallash lozimligi ko‘rsatib beriladi. Masalni o‘rganishda suhbat, tushuntirish, namoyish qilish, ifodali o‘qish metodlaridan, o‘quvchilarning tasavvurlarini kengaytirish, kreativ fikrlash qobiliyatlarini, nutqlarini, faolliklarini oshirish maqsadida integratsiyalashgan dars, kichik guruhlarda ishlash kabi dars shakllari va ish turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘quvchilarning matn mazmuni va g‘oyasini o‘zlashtirib olishlariga yordam berish maqsadida o‘quvchilar o‘zlashtirish darajalariga ko‘ra guruhlarga ajratiladi va har bir guruhning imkoniyatlariga qarab savol-topshiriqlar beriladi.

1. Matndagi hunarmand, birodar so‘zining ma’nosini ayting!
2. Matndan g‘ozning gaplarini topib o‘qing!
3. Matndan qurbaqaning javoblarini topib o‘qing!
4. G‘oz nechta hunarni bilar ekan?
5. Darslikdagi rasmda tasvirlangan voqeani so‘zlab bering!
6. G‘oz nima uchun uyalib qoldi?
7. Rasmda nima (lochin) tasvirlangan? U haqda nimalarni bilib oldingiz?
8. Baliq rasmini chizing! Asarda u haqida nima deyilgan?
9. G‘oz va qurbaqa gapira oladimi?

Ulug‘ ajdodlarimiz qoldirgan boy ilmiy-ma’naviy meros biz avlodlarga foydali va bebaho o‘git va ko‘rsatmalarni o‘zida aks ettiradi. Chunonchi, Abdulla Avloniy merosi ham ana shunday qimmatbaho ma’naviy meros hisoblanadi. Uning bolalar uchun yaratgan asarlari hajm jihatdan kichikligi, qiziqarli mazmunga egaligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham 1–4-sinf o‘quvchilari uning asarlarini sevib o‘qiydi. Bu sinflarda Abdulla Avloniy asarlarini o‘rganishda o‘quvchilarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradigan innovatsion texnologoyalar, har bir bolaning imkoniyatiga mos ish turlari va dars shakllarini to‘g‘ri tanlay bilishning ahamiyati katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova K., Matchonov S., Gulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi, –T.: Noshir, 2009-y.

2. Gafforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O‘qish kitobi. 1-sinf, Sharq, 2019-y.

3. G‘afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. O‘qish kitobi. 2-sinf, Sharq, 2018-y.

4. Umarova M., Xamroqulova X.,Tojiboyeva D. O‘qish kitobi. 3-sinf, O‘qituvchi, 2019-y.

5. Abdulla Avloniy, Tanlangan asarlar. 2-jild, Ma’naviyat, 2006-y.

6. Abdulla Avloniy, Tanlangan asarlar. 1-jild, Ma’naviyat, 2009-y.

[3] Gafforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O‘qish kitobi. 1-sinf, –T.; Sharq, 2019, – 106-b

Nasiba SABIROVA,
Xorazm viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi mudiri

XALQ OG'ZAKI IJODI VA FOLKLORNING YOSHLAR MA'NAVIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Annotatsiya

Maqolada milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va an'analarimizni tiklash, ularning yosh avlod tarbiyasi uchun nechog'liq ahamiyatga egaligi va bunda folklorning o'rni haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. Folklor, milliy qadriyat, urf-odatlar, marosimlar, san'at, an'analar, umumbashariy qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi.

В статье говоритсья о возрождении наших национальных ценностей, традиций и обычаев, их значении для воспитания подрастающего поколения и роли фольклора.

Ключевые слова. Фольклор, национальная ценность, традиции, обряды, искусство, традиция, общечеловеческие ценности, устное народное творчество.

The article talks about the restoration of our national values,traditions and traditions, their importance for the upbringing of the younger generation and the role of folklore in this.

Key words. Folklore, national values, traditions, rituals, art, traditions, universal values, oral creativity of the people.

Har bir millat o'z qadriyatiga ega. Binobarin, uning har bir mamlakat, har bir xalq rivoji uchun imkoniyatlaridan qay darajada foydalanish – demokratik jamiyatni barpo etishda muhim o'rin egallaydi. Hozirgi davrda qadriyatlarning muhim xususiyatlaridan biri ham ana shunda. Mustaqillikdan keyin milliy qadriyatlarning demokratik jamiyat qurishdagi o'rnini aniqlash borasida jiddiy ilmiy izlanishlar ham, amaliyot bilan bog'liq muammolar ham davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Negaki, biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongiga ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbollarini tasavvur eta olmaydi. Ayniqsa, bizning Sharqda xalqning ming yillik milliy qadriyatlari uning uchun qudratli ma'naviy manbai bo'lib xizmat qilgan. Xalqimizning yaqin o'tmishidagi uzoq vaqt davom etgan kuchli mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'lganligi sababli ham ruhida, qalbida doimiy ravishda umumbashariy qadriyatlarga sodiq bo'lganligidir. Asrlar bo'yi yaratilib, zukko xalqning yuksak ijodiy salohiyati tufayli sayqallanib kelgan ana shunday an'analar aslida o'sha millatning o'zligini, mentalitetini, milliy qiyofasini belgilaydi. Zero, bundan bir necha ming yillar muqaddam Zarautkamar va Sarmishsoy qoyatoshlariga g'aroyib surat va chizgilarni muhrlab, asrlar davomida ko'ngilday poyonsiz Vatanimizning barcha so'lim go'shalarida "Alpomish", "Go'ro'g'li" singari buyuk eposlarni kuylab kelgan zukko aj-

dodlarimiz bamisoli badiiy tafakkur sarchashmasidagi injularga qiyos qilsa arzigulik boy madaniy merosni yaratishgan.

O‘zbek xalqining paydo bo‘lish tarixi qanchalik qadimiy bo‘lsa, uning milliy an’analari, urf-odatlari, marosimlari ham shunchalik uzoq tarixiy ildizga ega. Ular xalqimizning ma’naviy ehtiyojlari zamirida juda qadim zamonlardayoq paydo bo‘lib, shakllangan va zukko ajdodlarimizning benazir ijodiy salohiyati tufayli asrlar mobaynida sayqallanib kelgan. Xalqimiz an’analarining go‘zalligi va betakrorligini his etish uchun birgina dehqonchilik madaniyati bilan aloqador urf-odatlar, mavsumiy marosimlar va serhosil g‘oyasini o‘zida mujassamlashtirgan qadriyatlarni eslashning o‘zi kifoya. Misol uchun, hut yaqinlashishi bilan, “qantar og‘ib, qoziq boshida qor turmay” erib ketadigan davr boshlanganda qish uyqusidan uyg‘ongan dala-qirlarda, tog‘ ungurlarda ko‘klam darakchilari – boychechaklar bo‘y ko‘rsatishi bilanoq xalqimiz an’anasiga ko‘ra, “boychechak xabar” marosimi o‘tkaziladi. Bolakaylar, yosh-yalanglar daladan boychechak terib kelib, mahalladagi keksa otaxonlar-u nuroniy onaxonlar, ko‘pdan buyon kasal bo‘lib yotgan kishilar oldiga borib, bahor chechaklarini taqdim etishgan. Keksalarni qadrlash va e’zozlash bilan bevosita bog‘liq bu qadriyatning mohiyati shundan iboratki, unda keksalarimiz boychechakni yuz-ko‘zlariga surtib, ko‘klamga yetib kelganliklariga shukrona qilganlar, yoshlarga iqbol, yurtga xotirjamlik tilagan. Shu tariqa tabiat bilan insonning taqdirdoshligi g‘oyasi ulug‘langan. Asrlar sinovidan o‘tib, asl qadriyat darajasiga ko‘tarilgan ana shu marosim xalqimizning mavsumiy urf-odat, an’analarining debochasi hisoblangan. Yil bo‘yi o‘tkazilgan bunday an’anaviy udumlar, rasm-rusmlarning sanab adog‘iga yetish qiyin.

Xalq ijodi o‘z mohiyatiga ko‘ra, hamisha yangilanib, yasharib, takomillashib, uzluksiz rivojlanib boradigan jarayon hisoblanadi. Bundan ming yillar burun yaratilib, hozirga qadar hech bir o‘zgarishsiz, “sof holida” yetib kelgan biror bir marosim yoki folklor asarini topish qiyin. Chunki, har bir davr, har bir avlod bobomeros qadriyatlar silsilasiga o‘z badiiy-estetik mezonlaridan kelib chiqqan holda o‘zgarish kiritishi tabiiy. Shuning uchun biz folklorni doimiy harakatdagi ijod deya ta’riflaymiz. Folklor barcha san’atning boshlanish, sarchashmasi, shu sababli ham boshqa ko‘pgina san’atlar bilan uyg‘unlikka ega, shu bilan birga hech biriga o‘xshamagan o‘ziga xoslik bilan ajralib turuvchi alohida san’at turidir. Bu soha o‘z ichiga musiqa, raqs, hunarmandchilik, tasviriy, badiiy va boshqa san’atlar bilan bog‘liq tasavvurlarni qamrab oladi. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, og‘zaki ijod xalqning o‘tmishi, buguni va kelajagini o‘zida ifoda etuvchi, uning taqdiri bilan chambarchas bog‘liq ijodiy jarayon. Folklor yuksak badiiyligi bilan ajralib turadi. Unda voqelikni ifodalashning doston, ertak, maqol, qo‘shiq, topishmoq, afsona, rivoyat va askiya singari xilma-xil janrlar shakllangan. Xalq ijodiyotining voqelik badiiy umumlashtirish o‘yin (prinsip) larida, shuningdek, bir qator kompozitsion usul (primoy)larida, chunonchi, syujet va uning uzvlari, obrazlilik, tasviriy vositalarida talay o‘ziga xoslik mavjud. Har qanday san’at folklordan boshlanadi, degan gap bugun paydo bo‘lgan emas. U uzoq yillik hayotiy kuzatish, ilmiy tajribaning hosilasidir. Haqiqatdan ham tasviriy san’at, hunarmandchilik, musiqa, raqs, badiiy va hokazo san’atlarning avvali-boshi, yuzaga kelishi bevosita xalq og‘zaki ijodiga, xalqning ilk tasavvur va ishonchlariga borib taqaladi. Muhtaram Prezidentimiz tomonlaridan ham bugun madaniyat va san’atning barcha tur va yo‘nalishlarini keng rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgani nafaqat mamlakatimiz fuqarolari balki, xorijliklarning ham e’tirofiga sazovor bo‘layotganligini ko‘rishimiz mumkin. Birgina misol 2019-yil 10-15-aprel kunlari Surxondaryo viloyatining Termiz shahrida o‘tkazilgan “Xalq baxshichilik san’ati festival-

i”ning tantanali ochilish marosimida so‘zlagan Prezidentimiz nutqiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, unda ham folklor va xalq dostonchilik an’analariga alohida to‘xtalib o‘tildi. “Jahon madaniy merosining bu o‘lmas asarlari bizga insoniyatning nasl-nasabi, tarixiy ildizlari, oliyjanob edi. Binobarin, turli millat va elat vakillarining kelajak sari intilishlari ham mushtarak ekanini anglatadi. Ayni vaqtda hozirgi globallashuv davrida, tijorat vositasiga aylangan “ommaviy madaniyat”, shov-biznesning salbiy ta’siri tobora kuchayib borayotgan murakkab zamonda har qanday milliy madaniyatning bulog‘i bo‘lgan folklor san’atiga e’tibor va qiziqish, afsuski, susayib borayotgani sir emas. Xolbuki, folklor san’ati, tabir joiz bo‘lsa bu – insoniyatning bolalik qo‘shig‘idir. Mana shunday noyob va buyuk san’at bugungi kunda shunchaki madaniy yodgorlik namunasiga aylanib, ko‘p joylarga unutilib ketayotgani, himoya va muhofazaga muhtoj bo‘lib turgani – bu ham davrimizning achchiq haqiqatidir. Ushbu go‘zal va betakror san’atning yo‘qolib ketishi san’at ahlini ko‘proq tashvishga soladi. Shu sababli tengsiz ma’naviy boyligimiz bo‘lmish mumtoz san’atni, xalq ijodining nodir namunalarini asrab-avaylab va rivojlantirish, uni kelgusi avlodga bezavol yetkazish jahondagi ilg‘or fikrli olimlar va san’atkorlarning, davlat va jamoat arboblari, barcha madaniyat ahlining ezgu burchidir”, – deb ta’kidlaydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Folklor – so‘z san’atining boshlang‘ich namunasi bo‘lib, u behad qadimiy so‘z san’ati hisoblanadi, unda uzoq o‘tmishda yashagan ibtidoiy ajdodlarimizning hali yozuvni bilmagan zamonlardagi turish-turmushi, dunyoqarashi va e’tiqodi, kurash va mag‘lubiyatlari ifodalangan. Folklorda tasvirlangan voqelik vaqt (zamon) e’tiboriga ko‘ra o‘tmishga daxldor, undagi u yoki bu janr tabiatida, til xususiyatlarida buning izlarini ko‘rish mumkin. Albatta, g‘oyatda boy badiiy an’analar mahsuli hisoblangan folklorimizda xalqimizning orzu-istaklari, ezgu o‘ylari, o‘ziga xos turmush tarzi hamda axloqiy qarashlar mujassamlashgan. Chunki, bizga ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelayotgan har bir doston, har bir qo‘shiq, har bir maqol yoki rivoyat xalqimizning o‘ziga xos milliy qiyofasi, orzu-intilishlari, ezgu maqsadini ifodalovchi g‘oyalar o‘z ifodasini topgan.

Bilamizki, chanqovuzning poyonsiz ko‘ngil kengliklariga jo bo‘lgan tuyg‘ularni tarannum etuvchi sirli navolari-yu, “Alpomish”ni kuylayotgan baxshining jozibador badihasi, farzandiga alla aytayotgan onaning mehr baytlari-yu, “ostonasi tillo uy”ga entikib qadam tashlayotgan kelinchakning poyiga qo‘shiqlardan poyandoz to‘shayotgan momolarning betakror navolari hech bir kishini befarq qoldirmaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, folklor bugungi kunda o‘ziga xos, yangicha ko‘rinish kasb etmoqda. Buni adabiyotda ham san’atda ham kuzatish mumkin. Folklorning yangicha ko‘rinishda rivojlanib borayotganligi hamisha taraqqiy etib, doimiy rivojlanib kelgan xalq ijodiyoti bugungi kun kishisining ma’naviy-madaniy hayotida ham muhim o‘rin tutishidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imomov K. O‘zbek xalq prozasi. –T., 1981.

2. Mirzayev T., Safarov O., O‘rayeva D. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi, O‘quv-qo‘llanma. – T.: Aloqachi, 2008.

3. Sarimsoqov B. O‘zbek folklori ocherklari. Uch tomlik. II tom. –T.,1989, 151-162-betlar.

Sanjar ESHQOBILOV,
Abdulla Avloniy nomidagi xalq ta'limi muamolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI DIREKTORLARINING BOSHQARUV FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumta'lim maktab direktorlarning boshqaruv faoliyati samaradorligini baholashda samaradorlikka ta'sir qiluvchi omillar va ularning muhimlik darajasini tahlil qilish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Boshqaruv faoliyati, samaradorlikning muhim ko'rsatkichi, samaradorlikka ta'sir qiluvchi omillar, boshqaruv samaradorligi, baholash mezonlari.

В статье рассматриваются факторы, влияющие на результативность директоров общеобразовательных школ при оценке эффективности управленческой деятельности, и анализируется уровень их значимости.

Ключевые слова. Управленческая деятельность, ключевые показатели эффективности, влияющие факторы на эффективность результативность управления, критерии оценки.

In this article the factors influencing the performance of directors of general education schools in assessing the effectiveness of management activities, and analyzes the level of their significance are considered.

Key words. Management activities, key performance indicators, factors influencing the effectiveness of management efficiency, management efficiency, evaluation criteria.

O'zbekistonda ta'lim tizimidagi islohotlar orqali tizimni yanada mukammal va xalqaro standartlar darajasida rivojlantirish, ta'lim tizimini taraqqiyotining yangi strategiyasini ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini rivojlantirishda zamonaviy rahbar kadrlar, yuqori ilmiy salohiyatli pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyoj paydo bo'lmoqda. Shu bilan birga umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish va baholashga qaratilgan bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda.

Ta'lim muassasasi direktori boshqaruv faoliyatining asosiy vazifasi ta'lim jarayonini tashkil etishda ijobiy natijalarga erishish uchun jamoada zaruriy sharoitlarni yaratish, raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlash va yaxlit ta'lim tizimini rivojlantirish hisoblanadi.

Ta'lim muassasalarini rivojlantirish hamda boshqaruv jarayonini takomillashtirishda muassasaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, rahbarlik uslublari, funksiya va metodlari, rahbar o'zining boshqaruv faoliyatida afzal bilgan va asoslangan barcha usullar strategik boshqaruvning taktika va strategiyalaridan tashkil topgan tizim sifatida qaraladi.

Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyat samaradorligini baholash

jarayonini amalga oshirishda eng asosiy bajariladigan vazifalardan biri boshqaruv faoliyati samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash va ilmiy jihatdan tahlil qilish zarur.

Samaradorlik – sifatning umumlashgan o‘lchovi. Samara deganda, faoliyatda qo‘yilgan maqsadga to‘la yoki qisman erishish tushuniladi. Ta’lim sifatini oqilona darajasiga erishish ta’lim muassasasi boshqaruvidagi asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Shu sababli sifatni boshqarish ba’zan samaradorlikni boshqarish deb ham aytiladi[1].

Ta’lim muassasalarini boshqarish faoliyati samaradorligi bu – boshqaruv qonuniyatlari, usul va metodlari hamda innovatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv faoliyati asosida tashkil etilgan ta’lim-tarbiya jarayonining natijaviyligi sanaladi.[2]

Umumta’lim maktab direktorlari ta’lim muassasasi bilan ijobiy natijalarga erishishida faoliyat samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash, tahlil qilish va ta’sirchanligini oshirish bilan bog‘liq harakatlarni amalga oshirishi zarur.

S.Turg‘unov boshqaruv samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar sifatida ta’lim muassasasi rahbarlari boshqaruv tamoyillari, strategik rejalashtirish, boshqaruv uslublari, faoliyatni loyihalashtirish, jamoaning integrativ faoliyati, innovatsion faoliyat, obyekt va subyekt munosabatlarini keltirib o‘tgan[3]. Ya’ni ta’lim muassasasi rahbarlari boshqaruv tamoyillari, usullarini qo‘llagan holda innovatsion faoliyatni tashkil qilish, ta’lim muassasasi bilan istiqbolga erishishda strategik rejalashtirish, jamoa ishtiroki bilan faoliyatni loyihalash, ularning kasbiy rivojlanish masalalari hamkorlikda olib borish orqali boshqaruv samaradorligini yuqori bosqichga olib chiqishi mumkin.

Umumta’lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyat samaradorligini baholash mexanizmini faoliyatning barcha yo‘nalishlarini chuqur tahlil qilish, samaradorlikka ta’sir etuvchi omillarni ilmiy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish shu bilan birga xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqish kerak bo‘ladi.

Umumta’lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyat samaradorligini baholash bo‘yicha samaradorlikka ta’sir qiluvchi omillar va muhim ko‘rsatkichlarini shakllantirishda umumta’lim maktablari jamoasi fikri o‘rganildi.

Tajriba sinov ishlarida 100 dan ortiq ishtirokchilar fikri o‘rganildi. Unga ko‘ra, samaradorlikka ta’sir qiluvchi 27 ta ko‘rsatkichlar (omillar) bo‘yicha darajasi aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, boshqaruv faoliyat samaradorligini baholash bo‘yicha samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari quyidagicha taqsimlandi (1-jadval).

1-jadval.

Samaradorlikka ta’sir etuvchi omillar, ko‘rsatkichlar	**Respondentlar soni**	**% hisobida**
Ta’lim muassasasini internet tarmog‘iga ulanganligi	106	63,2
Kadrlar bilan ta’minlanganligi	104	61,5
Oliy ma’lumotli o‘qituvchilar soni	105	58,1
Oliy va birinchi toifaga ega o‘qituvchilar soni	106	54,7
Oliy ta’lim muassasasiga kirgan o‘quvchilar soni(o‘tgan o‘quv yilida) % hisobida	105	52,4
Sport zal mavjudligi	105	51,4

[1] Qurbonov Sh., Seytxalilov E., Ta’lim sifatini boshqarish. – T.: Turon-Iqbol. 2006. – 433-b.

[2] Djurayev R.X., Turg‘unov S.T., Ta’lim menejmenti. – T.: Voris-nashriyot – 2006. –161-b.

[3] Turg‘unov S.T. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari: Doktorlik dissertatsiyasi, 2007.

AKT vositalaridan dars jarayonida faol foydalana oladigan o‘qituvchilar soni	106	50,0
Proyektor va elektron doskalar soni(sinf xonaga nisbatan % hisobida)	105	49,5
Majlislar zali mavjudligi	104	44,2
Maktab oshxonasi mavjudligi	105	42,9
Respublika olimpiadada ishtirok etgan o‘quvchilar soni	104	42,3
CEFR sertifikatiga ega ingliz tili o‘qituvchilar soni	106	38,7
Respublika olimpiada sovrindor o‘quvchilar soni	104	38,5
Viloyat olimpiada sovrindor o‘quvchilar soni	104	36,5
Tuman olimpiada sovrindor o‘quvchilar soni	104	35,6

Natijalardan ko‘rinib turibdiki, kadrlar bilan ta’minlanganligi, oliy va birinchi toifaga ega o‘qituvchilar, oliy ta’lim muassasasiga kirgan o‘quvchilar, olimpiadalarda sovrindor o‘quvchilar samaradorlikni belgilovchi muhim ko‘rsatkichlar qatoridan joy olgan.

M.Axmedov baholash samaradorligini oshirish, jarayonning adolatli va ta’sirchan bo‘lishini ta’minlash maqsadida mezonlar ikki yo‘nalishda bo‘lishi maqsadga muvofiq, ya’ni miqdoriy(kvalimetrik) va sifat ko‘rsatkichlari muassasa rahbarlari faoliyatini to‘liq qamrab olinishiga xizmat qilishini ko‘rsatib o‘tgan[4].

Olib borilgan so‘rovnomada garchi boshqaruv faoliyatini baholashda asosan, miqdor ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘rganilgan bo‘lsada, bu yondashuv umumta’lim maktab direktorlarining natijaga asoslangan boshqaruvni olib borishida muhim ahamiyatga ega.

Rivojlangan davlatlarda rahbar xodim faoliyati samaradorligini baholashda natijaga asoslanadi (result based managament). Xalqaro mehnat tashkiloti, YUNESKO, Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan natijaga asoslangan boshqaruv tizimida rahbar xodimlar faoliyatini baholash bo‘yicha yetarli darajada tavsiyalar ishlab chiqilgan[5].

Umumta’lim maktab rahbarlari boshqaruv samaradorligini KPI (Key Performance Indicators – samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari) tizimi asosida baholash orqali ular o‘z faoliyatlarini tahlil qilish va strategik rejalar tuzish, faoliyat yo‘nalishlaridagi bo‘shliqlar ustida ishlash rejalarini tuzib oladi.

Samaradorlikni baholash ko‘rsatkichi tizimida ta’lim muassasasi boshqaruvi va xodimlari faoliyati raqamlar orqali o‘lchanadi. Ko‘rsatkichlar bo‘yicha hisobot tayyorlangach, rejalashtirilgan maqsadga qanchalik darajada erishilgani, rejalar qay darajada aniq va to‘g‘ri qo‘yilganini baholash mumkin.

O‘rganilgan tahlil va tadqiqotlar natijasida, umumta’lim maktab direktorlarining faoliyat samaradorligini baholash mezonlari, indikatorlar tizimini ishlab chiqishda quyidagi jihatlarini e’tiborga olish kerak bo‘ladi:

– samaradorlikni belgilovchi mezonlar, ko‘rsatkichlar umumta’lim maktab direktorlarining lavozim majburiyatlaridan kelib chiqib shakllantirish;

– faoliyat samaradorligiga ta’sir etuvchi subyektiv va obeyktiv omillarni chuqur tahlil qilish;

[4] Axmedov M.U. Xalq ta’limi rahbar va pedagog xodimlari faoliyati samaradorligini baholash masalalari. // Zamonaviy ta’lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal, 2019-yil, 1-son.

[5] United Nations Development Group. Results-Based Management Handbook, harmonizing RBM concepts and approaches for improved development results at country level. October 2011; Results-Based Programming, Management, Monitoring and Reporting (RBM) approach as applied at UNESCO Guiding Principles. BSP 2014-2017// BSP/RBM/2008/1.REV.6 Paris, September 2015.

– rivojlangan mamlakatlar ilg‘or tajribalari o‘rganilib, o‘zimizga xos xususiyatlarni e’tiborga olgan holda, davlat talablari asosida ishlab chiqish;

– boshqaruv faoliyat samaradorligini baholash parametrlarini baholash mezonlarining muhimlik darajasiga ko‘ra belgilash;

– O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasidagi maqsadli ko‘rsatkichlarni e’tiborga olgan holda ishlab chiqilishi.

Umumta’lim maktab direktorining boshqaruv faoliyat samaradorlik darajasi muassasada ta’lim sifat va samaradorligini ko‘tarishga, hamda xalqaro arenada raqobatbardosh bitiruvchilarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538 son farmoni, – T., 5-sentabr 2018-y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712 son farmoni, – T., 29-avgust 2019-y.

3. Djurayev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti. –T.: Voris-nashriyot, 2006. - 25-b.

4. Turg‘unov S.T. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari: Monografiya. – T.: Fan, 2006. – 196-b.

5. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta’lim sifatini boshqarish. –T.: Turon-Iqbol, 2006. – 433-b.

6. Абдрахманов Г.С. Диагностический подход и оценка эффективности управления современной школой: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Казань, 1998. – С.17.

7. To‘xtaboyev A.T. Ma’muriy menejment. – T.: Moliya, 2003. –135-b.

8. Tojiboyeva D. – TMI, professor, i.f.n., Samaradorlik va unga nazariy jihatdan klassik va neoklassik yondashuv. Xalqaro moliya va hisob ilmiy elektron jurnali. № 5, oktabr, 2017-yil.

9. Axmedova N. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbarlari boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish. PhD dissertatsiyasi. – T., 2017 – 16-b.

10. Axmedov M.U. Xalq ta’limi rahbar va pedagog xodimlari faoliyati samaradorligini baholash masalalari. Zamonaviy ta’lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal, 2019-yil, 1-son.

11. United Nations Development Group. Results-Based Management Handbook, harmonizing RBM concepts and approaches for improved development results at country level. October 2011; Results-Based Programming, Management, Monitoring and Reporting (RBM) approach as applied at UNESCO Guiding Principles. BSP 2014-2017// BSP/RBM/2008/1.REV.6 Paris, September, 2015.

12. Ismadiyarov Ya.U. The specifics of the professional activity of the manager-innovator in education.// International Journal of Academic Research and Reflection, 7 (6) - 2019, 20-23 p.

13. Ismadiyarov Ya.U., Nabiulina L. Informational ensuring innovative management of higher education system// 2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), 4-6 Nov. 2019.

Mahbuba FAYZIYEVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi,
pedagogika fanlar bo'yicha falsafa doktori

TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA BAHOLASHNING SHAKLLANTIRUVCHI VA XULOSALOVCHI BOSQICHLARINING O'RNI

Annotatsiya

Maqolada ta'lim samaradorligini oshirishda shakllantiruvchi va xulosalovchi baholashning o'rni, ularning imkoniyatlari keltirilgan. Shuningdek, shakllantiruvchi va xulosalovchi baholashda qo'llaniladigan metodlar batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Shakllantiruvchi baholash, ta'lim sifati, xulosalovchi baholash, baholash metodlari.

В статье рассматривается роль формирующего и итогового оценивания в повышении эффективности обучения, их возможности. Также подробно описаны методы, используемые при формирующем и итоговом оценивании.

Ключевые слова. Формирующее оценивание, качество образования, итоговое оценивание, методы оценивания.

The article discusses the role of formative and summative assessment in improving the effectiveness of education, their opportunities. It also describes in detail the methods used in formative and summative assessment.

Key words. Formative assessment, quality of education, summative assessment, assessment methods.

Ta'lim samaradorligi o'quvchilarning ta'lim olish jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotga tatbiq eta olishlarida, amaliyotda qo'llashida olishlarida namoyon bo'ladi va unda ta'lim jarayoni sifatini doimiy ravishda nazorat qilish muhim o'rin tutadi.

Baholash – ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalar majmuini shakllanganlik darajasini o'lchash jarayonidir.

Baholash – o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarning bilim olishiga ko'maklashadi, o'qitish sifatini yaxshilaydi. Baholash o'qituvchiga ham, o'quvchiga ham o'quv maqsadlariga erishish imkoniyatini beradi.

Shakllantiruvchi baholash – o'quvchining o'quv dasturida berilgan materiallarni o'zlashtirish darajasini aniqlash hamda o'quvchi kutilgan natijaga erishishi uchun tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo'ladi. Shakllantiruvchi baholash o'qituvchiga o'quv jarayonidagi bo'shliqlarni o'z vaqtida aniqlash va bu bo'shliqlarni bartaraf etish imkonini yaratadi. Ushbu baholash turi o'quv dasturi, o'qituvchi hamda o'quvchining o'zaro aloqasini ta'minlashga xizmat qiladi. U ta'limni shakllantirishga yordam beradigan samarali vositalarni o'z ichiga oladi. Unda o'quvchilar yozma, savol-javoblar, suhbat va boshqalar orqali o'zlarini, tengdoshlarini yoki o'qituvchini baholashlari mumkin.

Shakllantiruvchi baholashning asosiy maqsadlari:

– muntazam ravishda sinfda o‘quvchini baholab borish orqali u qaysi bilim, ko‘nikma, malaka yoki kompetensiyalarni yaxshi o‘zlashtirayotgani yoki o‘zlashtirmayotgani, nimalar ustida ishlashi kerakligi haqida ma’lumot beradi;

– biror-bir mavzu oxirida nazorat ishi olish orqali o‘qituvchi o‘quvchilari shu mavzuni qay darajada o‘zlashtirganliklari, qanday xatolarga yo‘l qo‘yayotganlari haqida ma’lumot olishi va lozim bo‘lsa, o‘tilgan mavzuga yana qaytishi mumkin;

– o‘qituvchi o‘quvchilarning boshlang‘ich bilim darajasini aniqlash maqsadida test o‘tkazishi va olingan ma’lumotlar asosida keyingi qadamlarni rejalashtirishi yoki o‘quvchilarni guruhlarga ajratishi mumkin.

Ushbu kuzatuvlar o‘quvchiga o‘quv natijalariga erishish va xulosalovchi baholashni muvaffaqiyatli topshirish uchun amalga oshiriladi. Shakllantiruvchi baholashda o‘quvchi baholar olishga emas, balki yaxshi natijalarni ko‘rsatishga intiladi.

Xulosalovchi baholash – bu o‘quvchining dars davomida o‘rgangan bilimlarini baholash demakdir. Xulosalovchi baholash o‘quvchilarning bilimlari, ko‘nikma, malakalarini o‘quv jarayoni so‘ngida yoki ma’lum bir bobni tugatgandan so‘ng baholash imkonini beradi.

Xulosalovchi baholash deyarli har doim rasmiy ravishda baholanadi. Xulosalovchi baholash formativ baholash bilan birlashtirilsa va moslashtirilsa katta samara berishi va o‘qituvchilar ushbu yondashuvlarni birlashtirishning turli usullarini ko‘rib chiqishlari mumkin.

Tahlil va natijalar

Shakllantiruvchi baholash jarayonida qabul qilingan standartlarning bajarilishini kuzatish natijasida, o‘quvchining yutuqlari yoki sustkashligi qayd etiladi va yuzaga keladigan muammolar aniqlanadi.

Shakllantiruvchi baholash uchun quyidagi usullardan foydalanish tavsiya etiladi:

Kuzatish
Og‘zaki savol-javoblar
Loyihalar
Viktorinalar
O‘yinlar
Taqdimotlar
Guruh faoliyati
Sinfdagi munozaralar
Mavzuga oid savollar
Kichik guruhlar bilan ishlash
Haftalik viktorinalar
1 daqiqali yozma topshiriqlar
Uyga vazifalar
So‘rovnomalar
Testlar
O‘z-o‘zini baholash topshiriqlari

Shakllantiruvchi baholashni muntazam ravishda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini bilish uchun har doim qalam va qog‘oz ishlatish shart emas. Buning o‘rniga o‘quvchilarning rivojlanishini baholash uchun o‘yinlar, guruh taqdimotlari va amaliy mashg‘ulotlardan foydalanish mumkin.

O‘quvchilarning qanchalik yaxshi o‘rganayotgani haqida umumiy ma’lumot olish uchun o‘yin kabi guruh uslubidagi baholashdan foydalanish mumkin. Agar har bir o‘quvchi qayerda qiynalayotganini aniqlash lozim bo‘lsa, viktorina kabi individual usuldan foydalanish mumkin. Shakllantiruvchi baholash – bu o‘quvchilarning ijodiy qirralarini ochishga imkon beradigan ajoyib imkoniyat.

Shakllantiruvchi baholashni uchta usuldan biri bilan amalga oshirish mumkin.

Birinchisi, o‘quvchilarni sinfdagi faoliyatini kuzatish. Bu o‘quvchining qanday

o‘rganishi haqida aniq, konsentratsiyalangan ko‘rinish beradi.

Ikkinchisi, o‘quvchilarni his qilish orqali kuzatish. Bu o‘qituvchi instinktiga asoslangan bo‘lib, o‘qituvchi kuzatuvi asosida qaysi o‘quvchilar qo‘shimcha yordamga muhtojligini aniqlashga imkon beradi.

Uchinchisi, o‘quvchilarning ma’lumotlari orqali kuzatish. Bu o‘quvchilarni qanday o‘rganayotganligini aks ettiradigan, masalan, ular tez-tez noto‘g‘ri javob bergan savollar yoki muammoga duch kelgan mavzular kabi ma’lumotlar yordamida aniqlanadi.

Shakllantiruvchi baholash jarayonidan olingan xulosalar asosida o‘qituvchi yoki ta’lim muassasasi ta’lim jarayoniga zarur deb hisoblangan o‘zgartirishlarni kiritadi. Shakllantiruvchi baholashdan keyin o‘quvchilarga har doim tahliliy fikr-mulohazalar beriladi. Shakllantiruvchi baholash, asosan, kuzatish va natijalarni qayd etib borishga asoslanadi, ya’ni ushbu baholashda jurnalga baho qo‘yish talab etilmaydi. O‘qituvchi o‘z xohishi va maqsadiga ko‘ra bahoni jurnalga qo‘yish yoki qo‘ymaslikni o‘zi hal qiladi.

Xulosalovchi baholash har doim kurs oxirida amalga oshiriladi. Bu o‘quvchilarning bir sinfdan ikkinchisiga muhim ma’lumotlarni saqlab qolishlarini ta’minlashning ajoyib usuli.

Xulosalovchi baholash ikki maqsadga xizmat qiladi.

Birinchidan, o‘rganilgan narsalarini baholaydi.

Ikkinchidan, o‘quvchilarning keyingi akademik darajaga o‘tishga qanchalik tayyor ekanligini baholaydi.

Xulosa qilib aytganda, ko‘plab o‘qituvchilarda shunday savol tug‘iladi – shakllantiruvchi baholash muhimmi yoki xulosalovchi?

Bugungi kunda ular bir xil darajada muhim. Shakllantiruvchi baholash o‘quvchilarga nimani o‘rganayotganliklarini, xulosalovchi baholash esa o‘rgangan narsalarini ko‘rsatishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Andradi, H. & Reddy, Y.M. (2010). A Review of Rubric Use in Higher Education. Assessment & Evaluation in Higher Education. 35(4). Pp.435 – 448.

2. Andrade, H. L., & Cizek, G. J. (Eds.). (2010). Handbook of formative assessment. New York: Routledge.

3. Miller, M. D., Linn, R. L., & Gronlund, N. E. (2009). Assessment and assessment in teaching (10th ed.). Upper Saddle River, NJ: Merrill/Pearson.

4. Mussawy, S.A.J. (2009). Assessment Practices: Students and Teachers Perceptions of Classroom Assessment (masters’ Capstone project). University of Massachusetts Amherst. Retrieved from https://scholarworks.umass.edu/cie_capstones

5. Nicol, D.J. and Macfarlane-Dick, D. (2006) Formative assessment and self-regulated learning: a model and seven principles of good feedback practice. Studies in Higher Education 31(2): 2-19.

6. Ormrod, J. E. (2014). Educational psychology: Developing learners. Upper Saddle River, NJ: Pearson.

7. Theall, M. and Franklin J.L. (2010). Assessing Teaching Practices and Effectiveness for Formative Purposes. In: A Guide to Faculty Development. KJ Gillespie and DL Robertson (Eds). Jossey Bass: San Francisco, CA.

8. Trumbull, E., & Lash, A. (2013). Understanding formative assessment: Insights from learning theory and measurement theory. San Francisco: WestEd.

Bekzod KARIMOV,
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi

TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA OLIMPIYA O‘YINLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada olimpiya o‘yinlarining yangi konsepsiyasi haqida so‘z boradi. Unda o‘quvchilarning uch bosqichli tizimga asoslanib yaratilgan olimpiya ta’limi modulining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Tizim, qadriyatlar, olimpiya bilimlari asoslari, olimpiya sporti, olimpiya harakatlari, olimpiya ta’limi, olimpiya harakati tarixi, tarbiya, oliyjanoblik, axloqlilik, sog‘lom turmush tarzi.

В статье обсуждается новая концепция Олимпийских игр. Описана специфика олимпийского модуля обучения студентов, который строится по трехуровневой системе.

Ключевые слова. Система, ценности, основы олимпийских знаний, олимпийские виды спорта, олимпийские движения, олимпийское образование, история олимпийского движения, воспитание, благородство, нравственность, здоровый образ жизни.

This article is discusses the new concept of olympic education. It explains the peculiarities of the olympic education module, based on a three-tiered student system.

Key words. System, values, foundations of olympic knowledge, olympic sports, olympic movements, olympic education, history of the olympic movement, education, nobility, morality, healthy lifestyle.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-son qarorida mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma’naviy sog‘lomlikning asosi ekani e’tirof etilgan.

Hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o‘z qobiliyat va iste’dodlarini ro‘yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida muhim vazifalar belgilab qo‘yilgan.

Olimpiya ta’limi tizimida, yosh avlod ta’lim-tarbiyasida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Olimpiya o‘yinlarini o‘tkazish tashabbuskori Per de Kuberten bu haqda shunday degandi: “Hozirgi davrda ulkan imkoniyatlar va shu bilan bir vaqtda katta qiziqishlarga ega bo‘lgan olimpiya g‘oyalari oliyjanob va axloqiy prinsiplar, shuningdek, jismoniy kuch va ma’naviy energiya olish maktabi bo‘lishi mumkin”. “Olimpiya harakati – insoniyat madaniyatining muhim qismi va uning tarixini o‘rganish, shubhasiz, har bir madaniyatli odam bilimining bir qismi bo‘lishi lozim. Olimpiya ta’limini o‘qitish jarayoni-

ga kiritish bolalarda jismoniy komillikka erishishga qiziqishni shakllantirishga yordam beradi”. Uning fikricha, shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun intilishiga asoslangan antik olimpiya o‘yinlari erkinlik, tinch musobaqa va jismoniy kamolot ruhining qayta tiklanishiga ko‘mak beradi. U sportni yoshlarni baynalminal ruhda tarbiyalashning aniq imkoniyatlaridan biri, deb bilardi.

Olimpiya ta’limi o‘quvchi yoshlar o‘rtasida ma’lum bir bilimlar tizimini shakllantirish, qiziqishlarini yo‘naltirishni nazarda tutadi.

Olimpiya ta’limi, bu – zamonaviy olimpizm, uning tamoyillari va qadriyatlari, bugungi jamiyatdagi roli haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni va natijalaridir. Olimpiya ta’limining tarkibi va mazmunini tahlil qilishda Per de Kubertenning zamonaviy olimpizm tushunchasining xususiyatlarini, olimpiya ta’limining maqsad va vazifalarini, tinchlik, do‘stlik, o‘zaro tushunish va birodarlikni tarbiyalashga asoslanadi. Olimpiya ta’limi o‘z ichiga quyidagilarni oladi: shaxsni ijtimoiylashtirish va uning olimpiya g‘oyalari bilan aloqalari; ta’lim va uning olimpiya harakati bilan aloqasini gumanizatsiyalashtirish; olimpiya ta’limining tarbiyaviy vazifalari. Shaxsni ijtimoiylashtirish, shuningdek, shaxsning olimpiya ta’limidagi muhim roli sportga, olimpiya ideallariga tegishli.

Olimpiya o‘yinlari o‘tkaziladigan har bir mamlakat, ayniqsa, o‘yinlarni tashkillashtiradigan shaharlar aholisi olimpiya harakati tarixiga, olimpiya qadriyatlari va idellari mohiyatiga katta qiziqish bildirishadi. Yoshlar mashhur olimpiya chempionlari ismlari, har xil sport turlarining o‘ziga xos xususiyatlari, olimpiya o‘yinlarining muhim atributlari – olimpiya olovi estafetasi, olimpiya qasamyodi, olimpiya o‘yinlari timsollari bilan qiziqishadi. Olimpiya xartiyasida olimpizmga shunday ta’rif beriladi: Olimpizm, bu – tana, iroda va ong qadr-qimmatini muvozanatlashgan bir butunlikka birlashtiruvchi hayot falsafasidir. Sportni madaniyat va ta’limot bilan birlashtiruvchi olimpizm sa’y-harakatdan quvonish, yaxshi namuna hamda asosiy umumiy axloqiy tamoyillarni hurmat qilishning tarbiyaviy qiymatiga asoslangan turmush tarzini yaratishga intiladi. Shulardan ko‘rinib turibdiki, olimpizmning ijtimoiy ahamiyati umuminsoniy qadriyatlar va ideallar bilan bog‘liq. Uni o‘quvchi yoshlarning ta’lim-tarbiyasiga joriy etishda olimpiya ta’limining ahamiyati muhim hisoblanadi. O‘quvchi yoshlarni olimpizm qadriyatlariga jalb qilish bilan bog‘liq pedagogik faoliyatning vazifalari haqida keyingi paytlardagi ko‘plab xalqaro rasmiy hujjatlarda tilga olinmoqda. YUNESKO tomonidan qabul qilingan va unga BMTga a’zo davlatlarning deyarli barchasi imzo qo‘ygan jismoniy tarbiya va sport xalqaro xartiyasida ijtimoiy va madaniy rivojlantirish davlat dasturiga bolalar va yoshlarni olimpiya prinsiplari ruhida tarbiyalash masalasini kiritish tavsiya etilgan. YUNESKO qoshidagi jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha hukumatlararo qo‘mitaning 3-sessiyasida qabul qilingan qarorda qo‘mitaning barcha ishtirokchi davlatlariga “maktab va ta’lim muassasalarida o‘zlarining ta’lim tizimiga muvofiq olimpiya ideallarini o‘qitishni joriy etish yoki kuchaytirish” taklifi bildirilgan.

Hozirgi zamon olimpiya xartiyasi xalqaro sport harakatida eng e’tiborli huquq manbai hisoblanadi. Uning nazariy qoidalari tajribadan o‘tgan hamda sivilizatsiya tarixida sport maqomini aniqlashda etalon sifatida qabul qilingan. Shu davr ichida Olimpiya xartiyasi, xalqaro olimpiya qo‘mitalari va boshqa xalqaro sport tashkilotlari sababli jismoniy tarbiya va sport kishilar hayotiy faoliyati tizimiga qo‘shadigan hissasini muhim darajada oshirdi, aholining hamma qatlamlari hamda butun ijtimoiy institutlari rivojlantirishning zarur tarkibiy qismiga aylandi.

Olimpiya xartiyasida xalqaro va milliy olimpiya qo‘mitalari maktab va oliy o‘quv yurtlarining jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha o‘quv dasturlarida olimpiya ta’limini

rivojlantirishga, olimpizmning eng muhim prinsiplarini targ‘ib qilishga hamkorlikda barcha imkoniyatlarni ishga solishlari zarurligi ta’kidlangan. Ushbu tavsiyalarga muvofiq ko‘plab mamlakatlarda olimpiya ta’limini tashkil etish bo‘yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.

“O‘quvchi yoshlarning olimpiya ta’lim tizimi” loyihasi asosida uch bosqichli ta’limning milliy moduli ishlab chiqildi. Modulning 1-bosqichi o‘rta umumta’lim maktablari, 2-bosqichi – olimpiya zaxiralari kollejlari, 3-bosqich esa – oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan o‘quvchi yoshlar uchun mo‘ljallangan.

Modulning maqsadi – o‘quvchi yoshlarni olimpizm qadriyatlariga jalb qilish, ularning olimpiya bilimlari, ko‘nikma va malakalarini oshirish, yurish-turish madaniyati va yuksak axloqiy tarbiyasini shakllantirishni nazarda tutadi.

Ta’lim faoliyati sifatini pedagogik texnologiyalar yordamida oshirishga yo‘naltirilgan “O‘quvchi yoshlarning olimpiya ta’lim tizimi” moduli yaratildi, asoslantirildi va amaliyotda sinovdan o‘tkazildi. Modulning turli bo‘limlarni o‘z ichiga olgan strukturasi ishlab chiqildi va asoslantirildi. Ushbu modulni hayotga tatbiq etish turli modellar (keys-texnologiyalar, interfaol usullar)dan foydalangan holda o‘qitish asosida amalga oshiriladi.

“O‘quvchi yoshlarning olimpiya ta’limi” moduli har bir ta’lim bosqichi uchun uchta darslik kitobini o‘z ichiga oladi.

Uch bosqichli uzluksiz ta’lim bo‘yicha darsliklar:

1. Olimpiya harakati tarixi.
2. Olimpiya ta’limi asoslari.
3. Olimpiya bilimlari asoslari.

Ushbu darsliklarda mualliflik ishlanmalari va metodik tavsiyalar o‘rin olgan. Olimpiya ta’limi darsliklarida nazariy materiallar bilan bir qatorda, tasvirli izohlar, jadval materiallari, shuningdek, test savollari, glossariy, ya’ni matndagi notanish, tushunilishi qiyin so‘zlar lug‘ati, tavsiya qilingan adabiyotlar ro‘yxati va mavzu bo‘yicha internet manbalari ham berilgan.

Bu modulda olimpiya ta’limi bo‘yicha ma’ruza materiallari, o‘qitishning faol usullari – bahs-munozara, kontrol savolli ma’ruzalar, “Nazariy bo‘lim”ni o‘rganish natijalari bo‘yicha “Yosh olimpiyachilar”, “Olimpiya viktorinasi”, “Olimpizm haqida nimalarni bilamiz?” konkursi ko‘rinishidagi savol-javoblar kiritilgan.

Nazariy materiallar bilan bir qatorda, mualliflar multimedia materiallaridan ham foydalanishgan. Savol-javobli multimedia taqdimoti ko‘rinishida “Olimpiya ta’limi suratlarda”, deb nomlangan suratli materiallar, shuningdek, kichik guruhlar va yakka tartibda ishlash uchun kartochkalardan ham foydalanilgan. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun olimpiya ta’limi bo‘yicha ayrim mavzularni chuqurroq o‘rganish uchun olimlarning olimpiya ta’limi sohasiga bag‘ishlangan publitsistik va ilmiy maqolalari berilgan, ushbu bo‘lim materiallari o‘zlashtirilishini tekshirish uchun savollar tayyorlangan. O‘quvchilar olimpiya ta’limi sohasidagi o‘zlarini qiziqtirgan materiallarni topish oson bo‘lishi uchun bibliografik havolalar keltirilgan. Ko‘rgazmali va tarqatma materiallar mavzuni o‘quv jarayonidagi ko‘rgazmali vositalar yordamida o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Bu yo‘nalish bo‘yicha bilimlar darajasini tekshirish uchun savollar tayyorlangan.

Talabalarning mustaqil ishi uchun olimpiada ta’limi bo‘yicha test topshiriqlari tayyorlangan. Testlar ko‘rinishida ishlab chiqilgan savolnomadan “Olimpiya viktorinasi”, “Olimpizm bilimdonlari”, “Yosh olimpiadachilar”, “Sardorlar tanlovi” kabi viktorina va tanlovlarda foydalanilgan.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, o‘quvchi yoshlarni olimpiya g‘oyalari va

qadriyatlari asosida tarbiyalashda keng ko‘lamli maqsadli dasturlarni amalga oshirish kerakligini va bundagi muammolarini chuqurroq tahlil qilish lozimligini davr taqozo etmoqda. Olimpiya harakatining umumiy tushunchasiga asoslanib, olimpizmning insonparvar g‘oyalari va qadriyatlari, olimpiya ta’limining maqsadi, vazifalari, mazmuni, vositalari va uslublari takomillashtirilmoqda. Har qanday ilmiy nazariyaning samarali rivojlanishi uchun uning asosiy tushunchalari bilan tanishish va ularni o‘rganish muhim hisoblanadi. Bu bizga ma’lum bir nazariy tahlil qilinadigan obyektlarni ajratib olishga, xususiyatlarini, munosabatlarini aniqlashga va boshqa omillardan farqlashimizga imkon beradi. Bu olimpiya ta’limi nazariyasini shakllantirishning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib, o‘rganilayotgan obyektlarni tahlil qilish uchun shart-sharoitlarni yaratib beradi va ushbu obyektlar uchun mazmunli konseptual qoidalarni ishlab chiqishni asoslaydi. Olimpiya ta’limi o‘quvchi yoshlar o‘rtasida sport va olimpiya o‘yinlarining turli qirralarini, ularning ahamiyatini ommaviy ravishda targ‘ib qilish, turli mamlakatlar va xalqlar madaniyatiga va xalqaro hamjamiyatga tatbiq etiladigan ijtimoiy-madaniy salohiyatni samarali va keng talqin qilishda xizmat qiladi. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, olimpizmning ijtimoiy ahamiyati umuminsoniy qadriyatlar va ideallar bilan bog‘liq. Uni o‘quvchi yoshlarning ta’lim-tarbiyasiga joriy etishda olimpia ta’limining ahamiyati muhim hisoblanadi. Olimpizm turli davlat sportchilarini yagona ahil oilaga birlashtiradi. Bunda o‘zaro yordam, birdamlik va halollikka asoslangan do‘stona munosobatlarni shakllantirib, nafaqat jismoniy sifatlarni, balki tana va ruh uyg‘unligini tarbiyalashga qaratilgan ta’limdir. Olimpiya ta’limi, bu – ijtimoiy va shaxsiy axloqni rivojlantirishga hissa qo‘shadigan vositadir. Shaxsiy axloq doirasida biz halollik, bag‘rikenglik, mehr-shafqat, kamtarlik va ijtimoiy muhitda adolat, haqiqat, sadoqat haqida gapirishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гончарова О.В. Роль музеев спорта в создании эффективной системы олимпийского образования учащейся молодежи //Proceedings of the III Tashkent International Innovation Forum (TIIF – 2017 From Innovative Ideas to Innovative Economy II part). –Т., 2017.– С.278-286.

2. Гончарова О.В. Актуальные проблемы современного спорта**//** Материалы Международного научно-практического конгресса ‘‘Научно-педагогические школы в сфере физической культуры и спорта’’ посвященного 100-летию со дня основания ГЦОЛИФК. Москва, 2018. – С.585-590.

3. Джалилова Л.А. Воспитание молодежи с учетом основ современного олимпизма// Материалы Международного научно-практического конгресса ‘‘Научно-педагогические школы в сфере физической культуры и спорта’’ посвященного 100-летию со дня основания ГЦОЛИФК. Москва, 2018. – С. 590-595.

4. Керимов Ф.А., Гончарова О.В., Умаров Д.Х. и др. Анти-допинг в спорте. Т.: ‘‘ILMIY–TEXNIKA AXBOROTI – PRESS NASHRIYOTI’’, 2017. – С.220.

5. Керимов Ф.А., Гончарова О.В. Совершенствование Олимпийского образования учащейся молодежи в вопросах антидопинговой политики в спорте//Фундаментальные и прикладные исследования физической культуры, спорта, олимпизма: традиции и инновации: материалы I Всероссийской научно-практической конференции 24-25 мая 2017 г./ под ред. А.А. Передельского. – М.: РГУФКСМиТ, 2017. – С. 410-414.

Shahnoza XO‘JAMBERDIYEVA,
Namangan davlat universiteti “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

MAKTABGACHA TA’LIMDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

(O‘zbekiston qahramoni, O‘zbekiston Respublikasi xalq shoiri Erkin Vohidov ijodi misolida)

Annotatsiya

Maqolada xalqimizning sevimli shoiri Erkin Vohidov ijodini maktabgacha ta’lim bosqichida o‘rgatishning yangi zamonaviy yo‘llari aks etgan. Erkin Vohidovning “O‘lka” she’ri multimedia vositalaridan foydalanish orqali tushuntirib berilgan. Bu orqali yosh avlodga sevimli shoirimizning ijod namunalarini osonlik bilan o‘rgatish nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar. Uzluksiz ta’lim, ta’lim bosqichlari, multimediali kompyuterli ta’lim, dasturli o‘yin, taqdimot, slayd, yozuv, rasm, sxema, mashqlar, asosiy oyna, didaktik qism, qiziqarli o‘yinlar.

В статье отражены новые современные пути обучения творчеству любимого поэта нашего народа Эркина Вахидова на этапе дошкольного образования. Стихотворение Эркина Вахидова "Регион" объясняется использованием мультимедийных средств. Это предполагает легкое обучение подрастающего поколения образцам творчества нашего любимого поэта.

Ключевые слова. Непрерывное обучение, этапы обучения, мультимедийное компьютерное обучение, компьютерные игры, презентации, слайды, письмо, картинки, диаграммы, упражнения, главное окно, дидактическая часть, веселые игры.

This article reflects the new modern ways of teaching the works of the beloved poet of our people E.Vakhidov in preschool education. E.Vakhidov’s poem “Region” is explained using multimedia. It is intended to easily teach the younger generation the works of our beloved poet.

Key words. Lifelong learning, learning stages, multimedia computer learning, software games, presentations, slides, writing, pictures, diagrams, exercises, main window, didactic part, fun games.

Uzluksiz ta’lim tizimidagi uzviylikni ta’minlashda ta’lim turlari o‘rtasidagi uzviylik o‘quv dasturlari, darsliklar, adabiyot materiallari taqdimoti va uni o‘qitish faoliyati turlari o‘rtasida bog‘liqlikni ta’minlash orqali amalga oshiriladi.

Xalqimizning sevimli shoiri Erkin Vohidov qariyb sakson yillik hayoti davomida o‘zining juda boy va salmoqli adabiy ijod namunalarini qoldirgan. Ayni jihatdan Erkin Vohidov ijodining ta’lim bosqichlarida o‘qitilishi o‘zining qator asoslariga ega. Shu nuqtayi nazardan uni uzluksizlik tamoyillariga yondashgan holda asoslab berish tadqiqot maqsadini tashkil etadi.

So‘nggi yillarda ta’lim sohasida asosiy o‘zgarishlar uning mazmuni, usullari va tashkiliy shaklida ro‘y bermoqda. Axborot almashinuvining globallashuvi, dunyoning o‘zgarishi, odam imkoniyatlarining ortishi adabiyot o‘qitishga tamomila yangicha yondashish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bugungi inson badiiy asarga yaqin o‘tmishdagi kabi taqlid vositasi, ibrat yoxud o‘rnak manbai sifatidagina qaramaydi. XXI asr kishisi uchun badiiy adabiyot butunlay o‘zgacha mohiyat kasb etadi. Davr o‘zgarishi bilan badiiy adabiyotning mohiyati ham, adabiyotni o‘quv fani sifatida o‘qitish jarayonini uyushtirish yo‘sinlari ham jiddiy o‘zgarishlarga uchraydi. Shularga tayyor bo‘lmagan mutaxassis samarali pedagogik faoliyat ko‘rsata olmaydi.

Maktabgacha ta’lim sohasi mazkur tizimning ilk bo‘g‘ini hisoblanadi va butun ta’lim-tarbiya tizimining asosiy maqsadi – barkamol avlodni tarbiyalashga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta’lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Zero, shaxs sifatida shakllangan, kamol topgan bola o‘zini, o‘zligini taniydi va kelajakda millatning, yurtning faxriga aylanadi.

Maktabgacha davr – bu bolaning o‘sish, rivojlanish, o‘zini namoyon etishga intilish, o‘rganishga, bilishga ishtiyoqi kuchli bo‘lgan davrdir. Aynan shu davrda bolaning insoniy sifatlari va aqliy salohiyati rivojlanishi uchun poydevor bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bola bilan ta’lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi shunchalik erta namoyon bo‘ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta’sir qiladi.

Maktabgacha ta’lim-tarbiya – har bir bolaga individual yondashish, uni shaxs sifatida hurmat qilish, ma’naviy-axloqiy tomondan tarbiyalash, bolaning qiziqish va ehtiyojiga mos tarzda ta’lim berishni nazarda tutadi.

Ma’lumki, badiiy adabiyotda bitmas-tuganmas ma’rifiy, axloqiy-ma’naviy, badiiy-estetik imkoniyatlar mavjud bo‘lib, ular yoshlar shaxsining shakllanishi, takomili va kamolga yetishuviga ta’sir ko‘rsata oladi. Bunday imkoniyatdan maktabgacha ta’lim bosqichida foydalanish kichik yoshdagi bolajonlar nutqini, fikrlash salohiyatini o‘stirishga, tasavvurlar olamini boyitishga xizmat qiladi.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalarining bilimlarini aniqlash, beshta: ya’ni o‘quv maqsadlariga asoslanganlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulaylik kabi tamoyillariga asoslanadi. MTT tarbiyachisi bolalarning o‘zlashtirish jarayonida baholash tamoyillarini hisobga olishi shart. Multimediali kompyuterli ta’limda bolalarning yoshi, rivojlanish darajasi va psixologiyasini hisobga olib, o‘tilgan materiallarni baholashda uchta test savoli qo‘yiladi. Bu yoshdagi bolalarga beshta savol qiyin bo‘lishi mumkin. Buni hisobga olgan holda testga uchta savol qo‘yib, uch balli tizimda baholanadi. Tarbiyalanuvchilar bilim darajalarini aniqlash mezoni quyidagicha: o‘rganiladigan material turiga qarab 3 tadan 5 tagacha turli variantdagi dasturli o‘yin, taqdimot, slayd, yozuv, rasm, sxema, mashqlar va chizmalar savol tariqasida kompyuter xotirasiga kiritiladi. Tarbiyalanuvchilarga to‘g‘ri javobni aniqlash topshiriladi va ularning bilim darajalari test sinovi yoki kompyuter xotirasiga kiritilgan mashg‘ulot mavzusiga oid amaliy topshiriqlarni bajarish orqali aniqlanadi. Agar tarbiyalanuvchi kompyuterda berilgan variantdagi uchta topshiriqdan barchasini to‘g‘ri bajarsa, u holda unga “a’lo” bahoni ifodalaydigan “barakalla” deb rag‘batlantiriladi. Agar berilgan variantdagi ikkita topshiriqni to‘g‘ri bajarsa, u holda “yaxshi” bahoni ifodalaydigan “ofarin” qo‘yiladi. Agar berilgan variantdan bitta topshiriqni to‘g‘ri bajarsa, u holda tarbiyalanuvchiga “qoniqarli” bahoni ifodalaydigan “yaxshi” qo‘yiladi. Agar variantdagi topshiriqni to‘g‘ri bajara olmasa u holda hech

qanday ball qo‘yilmaydi. Bunday hollarda tarbiyachi tarbiyalanuvchi bilan qo‘shimcha shug‘ullanib, uning bilim darajasini aniqlash uchun qayta testga qo‘yish kerak.

“Multimedia” atamasi deyarli ingliz tilida so‘zlash manbalaridan kirib boradigan lotinizm, deyarli bir xil transkripsiyada kiradi. Bu lotin so‘zlarini ulashdan sodir bo‘ladi “mulyum” (ko‘p) va “OAV, MEDIA” (Mentemorlik, vositalar, usul). Shunday qilib, tom ma’noda “multimedia” “ko‘plab muhitlar” degan ma’noni anglatadi.

“Multimedia” tushunchasi inson faoliyatining turli sohalarida qo‘llaniladi. Kompyuter sohasi saytlar, gipermatn tizimlar, kompyuter grafikasi, kompyuter animatsiyasi va boshqalarni ishlab chiqadi. Ommaviy axborot vositalarida – jurnalistika, shu jumladan, Internet jurnalistika, nutq va ijtimoiy aloqa va boshqalar;

Tarbiyachi – yosh avlod ta’lim-tarbiyasi uchun javobgar bo‘lgan, O‘zbekistonning porloq kelajagini barpo etuvchi shaxsdir. Shunday ekan, bugungi kun tarbiyachisi nafaqat ma’naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o‘rnak bo‘lishi, balki o‘zining yetuk mutaxassis sifatidagi pedagogik mahoratini bolalarni nutqini rivojlantirishda, ularni maktabga tayyorlashda namoyon eta olishi zarur.

Tarbiyachining yetuk mutaxassis sifatidagi nutqini o‘stirish va badiiy adabiyot bilan tanishtirish asosida o‘sib kelayotgan yoshlarni sifatli ta’lim olishlari, hayotda o‘z o‘rnini topishlari**,** shaxslararo ijtimoiy-madaniy muloqotlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov ijodi namunalaridan “O‘lka”, “Ukamning jangi”, “Olma”, “Gilos” kabi she’rlarini maktabgacha ta’lim bosqichi tarbiyalanuvchilariga yod oldirish vositasida bolalar sevib tanavvul qiladigan mevalarni “so‘zlatish”, ularning shifobaxsh xususiyatlariga e’tiborini qaratish mumkin.

Bu she’rlarni yod oldirishda esa multimedia vositalaridan foydalanib, mashg‘ulotni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun maxsus multimediali slayd tayyorlanadi. Buni Erkin Vohidovning “O‘lka” she’ri vositasida ko‘rib o‘tishimiz mumkin.

“O‘lka” she’ri tarbiyalanuvchilarning tug‘ilib o‘sgan yurtiga mehr, el-yurtidan faxrlanish va g‘urur tuyg‘ularini o‘stirish kabi tarbiyaviy vazifani bajarishga yo‘naltiriladi. Mashg‘ulotni boshlashdan oldin slayd namoyish qilinadi. Ekranda O‘zbekistonning chiroyli manzarasi tasvirlangan rasm namoyish qilinadi. Rasm ostida esa, Vatanni madh etuvchi bolalar qo‘shig‘i qo‘yib eshittiriladi. Qo‘shiq tugagach ekrandagi ikkinchi oyna ochiladi. Oynada 3 ta qism ko‘rinadi.

1. Asosiy oyna.
2. Didaktik qism.
3. Qiziqarli o‘yinlar.

1-qism, asosiy oynada she’rni yoddan o‘qilgan varianti berilgan bo‘ladi.

2-qism, didaktik qismda esa she’r mazmuni orqali aks ettirilgan rasmli lavhalar berilgan bo‘ladi.

3-qismda esa bolajonlar uchun qiziqarli o‘yinlar tashkil qilingan. Asosiy oynadagi she’rning yoddan o‘qilgan varianti orqali Vatan tuyg‘usini his qildirishga erishiladi.

“Asosiy oyna” belgisini “sichqoncha” yordamida ochilsa, tabiat qo‘ynida daraxt mavjud, ushbu daraxtdan esa to‘rtburchak ramkaga solingan turli harflar daraxtning mevasidek shamoldan tebranib yerga tushgandek she’r matni pastga tushadi.

She’r matnini o‘rganishda turli xil animatsion roliklardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bolajonlarning o‘z tilidan aytilgan variantini qayta-qayta eshittirish ham yaxshi samara beradi. Chunki, she’r matni ekranda ko‘ringani bilan bog‘cha yoshidagi bolalar buni tushunishmaydi. Shuning uchun o‘z tengdoshlari tomonidan ay-

tilgan variantni eshitish yaxshi natija beradi.

2-qismga o‘tilganda she’r matniga mufoviq O‘zbekiston tabiati, uning go‘zalligi, baxtiyor bolalarning beg‘ubor kulgilari aks etgan rasmlar ekranda paydo bo‘la boshlaydi. Iloji boricha, har bir rasmda bolajonlarning baxtiyor onlari tasvirlangan bo‘lishi kerak, chunki bu orqali bolada ham vatanparvarlik, ham shunday yurtda yashayotganidan faxrlanish hissi yuzaga keladi.

3-qismda esa, o‘rganilgan bilimlarni takrorlash uchun turli xil qiziqarli o‘yinlar tashkil qilinadi. Masalan, ekranda she’r matnida uchraydigan predmetlar tasviri ko‘rinadi: oy, koinot, yulduzlar; bog‘lar, daraxtlar, tog‘lar… kabi.

Bolajonlar bu tasvirlarni nomini aytish orqali she’r matnini qaytadan yodga tushiradi. Shuningdek, ushbu tasvirdagi predmetlarning nomini takrorlash uchun topishmoqlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Ekranda topishmoq matni chiqadi, javobi aytilgach, tugmachani bosish orqali uning rasmli javobi ko‘rsatiladi.

Ushbu she’r orqali shoirning qalbida jo‘sh urgan Vatanga mehr hissini obrazli ifoda etishi; yer yuzidagi yuz ming millat, elat farzandlari ham shoir kabi o‘z Vatanini eng go‘zal, eng maftunkor yurt deya uning bog‘lari, daraxt-u tog‘larini o‘z tilida madh etishi bolajonlarning ma’naviyatini yuksaltirish uchun juda zarur.

Tarbiyachi ko‘kdan Vatan husniga lol jilmayib turgan yangi oy; yulduzlarni “etak-etak olib” ko‘kdan sochayotgan koinot tasviriga xos obrazlilikni kichik yoshdagi tinglovchilarga tushuntirishda shoir qo‘llagan tasviriy vositalarga izoh berib o‘tsa, matnning tushunarli bo‘lishi ta’minlanadi. Shoirning o‘xshatish, jonlantirish, mubolag‘a, poetik ko‘chim, sinekdoxa usulida tasvir yaratish mahorati tufayli she’rning ta’sirchanligi ta’minlanganligi asoslanadi. Shu yo‘l bilan tarbiyalanuvchilar Erkin Vohidov qalamiga mansub “O‘lka” she’rini mexanik tarzda, hissiz, tushunmay o‘qib qo‘ya qolmay, uni badiiy asar sifatida ta’sirlanib, tushunib, hayajon bilan ifodali aytishga o‘rganadilar. Buning uchun she’rni, unda ifodalangan poetik fikrning ma’nosini to‘la tushunishga yo‘llovchi savollardan foydalanish lozim. Maktabgacha ta’lim muassasalarining 5-6 yoshli katta guruhlarda badiiy adabiyot bilan tanishtirishda ushbu she’rdan foydalaniladi.

Erkin Vohidovning “Olma”, “Gilos” she’rlari kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilar yoshiga, qiziqishlari va tasavvurlar olamiga mos. Har ikki she’r yosh bolalarda quvnoq kayfiyat uyg‘otadi. Ushbu she’rlarni ham multimedia vositalari orqali o‘rgatish, bolalarning sinchkovligi, zukkoligi va ma’naviyatini yuksaltirishga juda katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Takomillashtirilgan “Bolajon” tayanch dasturi. – T., 2016.

2. “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi, – T., 2018.

3. Vohidov E. “Umrim daryosi”, – T.: Sharq nashriyoti, 2001.

4. Qodirova F., Qodirova R. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T.: Istiqlol, 2006.

Go‘zal NAZIROVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti

MAKTABGACHA TA’LIM-TARBIYA SIFATINI TA’MINLASHDA HAMKORLIK PEDAGOGIKASINING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida hamkorlik asosida ta’lim va tarbiya sifatini oshirish masalalari yoritilgan. Muallif ta’lim-tarbiya sifatini ta’minlashda hamkorlik pedagogikasining ahamiyatini asoslab bergan.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha ta’lim, hamkorlik, ta’lim sifati, boshqaruv, kognitiv, oila institutlari, mahalla, jamoatchilik.

В статье рассматриваются вопросы повышения качества образования и подготовки кадров на основе сотрудничества в дошкольных организациях. Автор обосновал важность совместной педагогики в обеспечении качества образования и профессиональной подготовки.

Ключевые слова. Дошкольное образование, сотрудничество, качество образования, управление, когнитивные, семейные учреждения, соседство, сообщество.

The article deals with the issues of improving the quality of education and training through cooperation in preschool organizations. The author has proved the importance of joint pedagogy in ensuring the quality of education and professional training.

Key words. Preschool education, collaboration, quality of education, management, cognitive, family institutions, neighborhood, community.

Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta’lim berishda ularning ijtimoiy, hissiy, kognitiv va jismoniy ehtiyojlarini uyg‘unlashtirishga e’tibor beriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari maktabgacha ta’lim maqsadlarini amalga oshirishda asosiy rolni bajaradi, shuning uchun ularga ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘z xizmatlarini taqdim etish uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu yo‘lda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar markazida, avvalo, inson omili, uning manfaatlari ustuvor o‘ringa ega bo‘lib kelmoqda. Jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk, yuksak intellektual salohiyat, zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, kelajakka ishonch bilan qaraydigan barkamol avlodni tarbiyalash haqida g‘amxo‘rlik qilish ushbu siyosatning ustuvor yo‘nalishidir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish to‘g‘risidagi qarorlari qabul qilinganidan so‘ng, oila va maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning yangi falsafasi ishlab chiqila boshlandi. Bu ota-onalar bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish uchun javobgardir va boshqa barcha ijtimoiy institutlar ushbu faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga va to‘ldirishga chaqiriladi degan fikrga asoslanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti oilani qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy tashkilot sifatida bolani tarbiyalash, o‘qitish va rivojlantirishga yordam beradi. Mavjud ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy sharoitda oila va jamoat tashkilotlari bilan o‘zaro munosabatlar mahalla fuqarolar yig‘ini faoliyatining muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Ma’lum bir bosqichda oila, ilk bolalikni parvarish qilish maktabgacha ta’lim tashkilotlari va mahalliy jamoatchilik asosiy o‘quv, tarbiyaviy va rivojlanayotgan mikromuhit – ta’lim makonini tashkil qiladi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti ham, oila ham, mahalla ham ijtimoiy tajribani bolaga o‘ziga xos tarzda yetkazadi. Faqat ular bir-biri bilan uyg‘un holda kichkina insonning katta dunyoga qadam tashlashlari uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratadi.

Hamkorlik konsepsiyasining eng asosiy maqsadi – har bir bolaning hayotda o‘z o‘rnini topib, o‘z baxti uchun zamin yaratishiga, el-yurt oldidagi mas’uliyatini seza oladigan, insonparvar bo‘lishiga qaratilgan.

Ta’lim-tarbiya jarayonining sifati eng avvalo, quyidagi bir qator muhim omillarga bog‘liq:

- maktabgacha tarbiya tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarning zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, ilg‘or pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida darslarni tashkil etilishi;
- tarbiyachilarda zarur bilimlar va hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvini samarali joriy etilishi;
- tarbiyachilarda ta’lim-tarbiya jarayonini hamkorlik pedagogikasi asosida tashkil etilishi;
- tarbiyachilarning pedagogik ehtiyojiga asoslangan metodik xizmatning samarali yo‘lga qo‘yilganligi;
- tarbiyachilar tomonidan davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zlashtirish dinamikasini tizimli kuzatish, o‘quvchilar bilimidagi bo‘shliqlar va ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda bartaraf etishga oid chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish.

V.A.Suxomlinskiy, tarbiya va rivojlanish vazifalari bolalar bog‘chasi oila bilan aloqani saqlab, uni o‘z ishiga jalb qilgan taqdirdagina muvaffaqiyatli hal qilinishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Oila va yosh bolalarni parvarishlashning maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojlanishiga ta’siri prinsipial ravishda pedagoglar, jamoat tashkilotlari va oilalarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi, bunda tarbiya bilan shug‘ullanuvchi barcha shaxslar, tashkilotlar, jamoat tashkilotlari birgalikda harakat qilishlari, kelishilgan talablarni bir-birlariga ko‘rsatishi, bir-birlariga yordam berishi, pedagogik ta’sirni to‘ldirish va kuchaytirishi kerak. Agar bunday birdamlik va sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirishga erishilmasa, unda muvaffaqiyatga erishish qiyin.

MTT bilan oila va jamoatchilikning o‘zaro hamkorligini tashkil etish quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

Tarbiyachilar va ota-onalar o‘rtasidagi do‘stona muloqot

- Tarbiyachilar har kuni ota-onalar bilan muloqot qilishadi va bu butun oilaning maktabgacha ta’limga munosabati qanday bo‘lishiga bog‘liq bo‘ladi. Har kuni tarbiyachilar va ota-onalar o‘rtasidagi xayrixohlik aloqasi alohida o‘tkaziladigan tadbirdan ko‘proq narsani anglatadi.
- Ushbu tamoyil muloqotga ijobiy munosabatni nazarda tutadi va tarbiyachilar butun faoliyati davomida ota-onalar bilan ishlashi uchun zamin yaratadi. Tarbiyachilarning ota-onalar kategoriyalari bilan muloqotida talabchan ohang mos emas.

Individual yondashuv

● Hamkorlikning ushbu prinsipi nafaqat bolalar bilan ishlashda, balki, ota-onalar bilan ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar bilan muloqotda bo‘lgan tarbiyachilar vaziyatni, ota-onalarning kayfiyatini his qilishlari kerak. Bu yerda tarbiyachilarning ota-onalarga ishonchi, hamdardligi va birgalikda muayyan vaziyatda bolaga qanday yordam berishini o‘ylash qobiliyati va pedagogik qobiliyati muhim ahamiyatga ega.

Dinamiklik

● MTT bugungi kunda oddiy faoliyat ko‘rsatish rejimida emas, balki rivojlanish rejimida bo‘lishi kerak, mobil tizim bo‘lishi, ota-onalarning ijtimoiy tarkibidagi o‘zgarishlarga, ularning ta’lim ehtiyojlariga va ta’limga bo‘lgan talablariga tezda javob berishi kerak. Shundan kelib chiqqan holda MTTning oila bilan ishlash shakli va yo‘nalishi o‘zgarishi kerak.

Ochiqlilik

● Maktabgacha ta’lim tashkilotining oila uchun ochiqligi – har bir ota-onaga uning bolasi qanday yashayotganini va rivojlanishini bilish va ko‘rish imkoniyatini yaratib berishdan iborat. Bu muammoli vaziyatlarning paydo bo‘lishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tarbiyachilar va ota-onalar o‘rtasida shaxsiy aloqalarni o‘rnatish, har kuni ota-onalarga bolaning kunni qanday o‘tkazganligi, nimani o‘rganganligi, qanday yutuqlarga erishganligi haqida ma’lumot berib borish kerak. Shu asosda ota-onalarning psixologik qobiliyatini qo‘llab-quvvatlash zamonaviy davrning eng dolzarb vazifasiga aylandi.

Ota-onalar va tarbiyachilarning birgalikdagi faoliyati bizga bolalarni tarbiyalashda mavjud muammolarini birgalikda aniqlash va ularni hal qilish imkonini beradi. Bunday hamkorlik quyidagi jihatlarga yordam beradi:

— ikkala tomonning ta’lim olishi imkoniyatlarini o‘rganish;

— yutuqlar va muammolarni tarbiyachi bilan birgalikda aniqlash (bolaning rivojlanish xaritasi ma’lumotlari asosida);

— o‘qitish, ta’lim va rivojlanishning dolzarb muammolari nuqtayi nazaridan bolalar va kattalarning birgalikdagi loyihaviy faoliyati.

Eng avvalo, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligi, zamonaviy talablarga javob beradigan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish ko‘p jihatdan barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarda zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligi konsepsiyasining maqsad va vazifalarini amaliyotga joriy etilishiga bog‘liq.

Shu bilan bir qatorda, o‘tgan davr mobaynida kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar ko‘rishni taqozo qiladigan bir qator jiddiy muammolar yuzaga keldi.

Maktabgacha ta’lim tizimida hamkorlik pedagogikasi asosida ta’lim-tarbiya sifatini boshqarishni takomillashtirishga oid takliflar ilmiy-metodik jihatdan asoslanadi, ularni pedagogik amaliyotda qo‘llash metodologiyasi ishlab chiqiladi, mazkur tadqiqot yakunida quyidagi ilmiy yangiliklarga erishish maqsad qilib qo‘yiladi. Jumladan:

1. Maktabgacha ta’lim tizimida hamkorlik pedagogikasi asosida ta’lim-tarbiya sifatini boshqarishning mexanizmi hamda shu jarayonda foydalaniladigan metod va vositalar ilmiy-metodik jihatdan asoslanadi.

2. Maktabgacha ta’lim tizimida hamkorlik pedagogikasi asosida ta’lim-tarbiya sifatini boshqarishning metodlari aniq belgilanib, tizimlashtirilgan, ilmiy-metodik jihatdan asoslangan model yaratiladi.

3. Maktabgacha ta’lim tizimida hamkorlik pedagogikasi asosida ta’lim-tarbiya sifatini boshqarishning texnologiyalari yaratiladi.

4. Maktabgacha ta’lim tizimida hamkorlik pedagogikasi asosida ta’lim-tarbiya sifatini boshqarish modelini amaliyotga samarali joriy etishni istiqbolli rejasi va nazorat qilish mexanizmi ishlab chiqiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati nafaqat ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish, uni amalga oshirish, mashg‘ulot reja, dasturlarning mazmun-mohiyati, balki tarbiyalanuvchilarning olgan bilimlari, malaka va ko‘nikmalari, mustaqil ravishda olgan bilimlari bilan bog‘liq ta’lim natijasi sifati bilan ham belgilanadi. Shunday ekan, bugungi kunda hamkorlik pedagogikasiga asoslangan g‘oyalar ta’lim-tarbiya tizimiga singib ketishi ayni muddao.

Hamkorlik pedagogikasi – an’anaviy o‘qitishdan farq qilib, bola bilan do‘stona munosabat o‘rnatishga qaratiladi. Endi oldingi an’anaviy “men” o‘rniga “biz”, ya’ni hamkorlikda – “subyekt”-“subyekt” munosabatlariga asoslangan holatda pedagogik faoliyat tashkil etiladi. “Hamkorlikda ishlash” tamoyili bola shaxsini chuqur bilishga asoslaniladi. Mashg‘ulot topshiriqlarini bajarishdan oldin strategik maqsad belgilanadi, so‘ngra uni bajarish uchun bolada o‘z kuchiga ishonch tuyg‘usi shakllantiriladi. Boshqacha qilib aytganda, hamkorlik pedagogikasi bola shaxsiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ta’lim-tarbiya jarayonida iliqlik, hamkorlik, bola xohish-irodasini yagona maqsadga – ta’lim olishga yo‘naltiradi.

Shunday qilib, hamkorlik pedagogikasi asosida ta’lim-tarbiya sifatini boshqarish modelini, hamkorlik pedagogikasi prinsiplari va konseptual g‘oyalarini amaliyotga joriy etish ta’lim-tarbiya sifatini boshqarishni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. – T.: Sharq, 1997-y.

2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. – T.: Sharq, 1997-y.

3. Иноятов У.И. Теоретические и организационно-методические основы управления и контроля качества образования в профессиональном колледже: дисс.докт.пед. наук : 13.00.01 / У.И.Иноятов; – Т., 2003. – С.236.

4. Иноятов У.И. Инновационный характер управления качеством образования внутри колледжа // Kasb-hunar ta’limi jurnali. – 2001. – №6. – 28-31-betlar.

Nargiza ABDUSAMATOVA,
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi

INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga integratsion yondashishning mazmuni, vazifalari va omillari xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Ma’naviy-axloqiy tarbiya, maktabgacha ta’lim, milliy qadriyatlar, ta’lim-tarbiya, maktabgacha yoshdagi bolalar.

В статье рассматриваются содержание, цели и факторы комплексного подхода к духовно-нравственному воспитанию дошкольников.

Ключевые слова. Духовно-нравственное воспитание, дошкольное образование, национальные ценности, образование-воспитание, дошкольники.

The article discusses the content, objectives and factors of an integrated approach to the spiritual and moral education of preschool children.

Key words. Spiritual-moral education, preschool education, national values, education, preschool children.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin hukumat tomonidan barcha e’tibor milliy qadriyatlar va madaniyatni qayta tiklashga, ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilishga, milliy tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga qaratildi. Tarbiya milliy qadriyatlarimiz, madaniyatimiz va xalq an’analari ta’siri ostida samarali bo‘ladi, ma’naviy-axloqiy barkamollikka erishiladi.

Dunyoda maktabgacha yoshdagi bolalarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish va bu borada tarbiyaga kompleks yondashuv asosida tarbiyalanuvchilarda ma’naviy-axloqiy kompetensiyani tarkib toptirishning innovatsion-pedagogik modellarini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, maqbul diagnostik vositalarni modifikatsiyalash orqali bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyalanganligini tashxis etishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish, bolalarni dastlabki odob-axloq qoidalariga o‘rgatish, ularga amal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda integrallashgan mashg‘ulotlardan foydalanish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy intellektini rivojlantirishda ma’naviy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlashning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish alohida dolzarblik kasb etadi.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida maktabgacha ta’limda ham me’yoriy-huquqiy bazani tubdan takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalar, ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatiga integratsiya qilish, maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasidagi

ilmiy, innovatsion-pedagogik faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish va ushbu tashkilotlarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish” kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu esa, integratsion yondashuv asosida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning integrativ modelini takomillashtirishni taqozo etadi.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining 2-bob 3-bandida integratsiya tushunchasiga alohida to‘xtalib, integratsiya – bola ta’limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlovchi jarayon ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

“Integratsiya” so‘zi lug‘atlarda izohlanishicha, lotincha, “integratio” so‘zidan olingan bo‘lib, qayta qurish, tiklash, to‘ldirish (“integr” – to‘liq, butun, yaxlit degan ma’noni anglatadi. Shuningdek, boshqa bir lug‘atlarda “integratsiya” – o‘zaro bog‘langan holda rivojlantirish, “integrirovat” – bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq, deyilsa, sohaviy lug‘atlarda “integratsiya” – o‘qitishning maqsad va omillarini bir butun qilib birlashtirish, deb izohlanadi.

Integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etish aniq maqsadga qaratilgan yaxlit pedagogik jarayon bo‘lib, ushbu jarayonda quyidagi pedagogik vazifalar hal qilinadi:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ma’naviy-axloqiy me’yorlar hamda axloqiy munosabatlar mohiyati va ularning ijtimoiy jamiyat hayotidagi ahamiyati to‘g‘risida ma’lumot beriladi.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma’naviy-axloqiy tushunchalarni egallashga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, ma’naviy-axloqiy ongni qaror toptirish.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijobiy mazmundagi ma’naviy-axloqiy sifatlar (vatanparvarlik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, qat’iylik, mas’uliyatlilik, ozodalik, orastalik, o‘zaro do‘stlik, ahillik, shirinso‘zlik, saxiylik, jasurlik, go‘zallikni his qilish, go‘zallik yaratishga intilish va hokazolarni) qaror toptirish.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma’naviy-axloqiy mazmundagi xulq-atvor, xarakter va irodani shakllantirish.

5. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma’naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda integratsion yondashish asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tizimiga xizmat qiluvchi ijobiy omillar bilan birga undagi pedagogik muammolarni ham aniqlashga imkon beradi:

– maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘ziga xos integral pedagogik muhit yaratish ehtiyoji va unga tashqi-ijtimoiy stixiyali ta’siri;

– tarbiyachilarni kasbiy kompetentligi, kreativligi va kasbiy mahoratini oshirish tizimi oldida turuvchi vazifalar va ushbu vazifalarni hal etish uchun ilmiy-uslubiy va didaktik ta’minot darajasining yetarli emasligi;

– tarbiyachilarning “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturlari asosida bolalar faoliyati va uning mazmunini integratsiyalash malakasiga ega emasliklari;

– maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tizimidagi inte-

gratsiya (yaxlitlik) va dezintegratsiya (bo‘linish, parchalanish) jarayonlari o‘rtasidagi ziddiyatlar;

– maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonining an’anaviy shakllari, metodlari va innovatsion metodlarini joriy etish o‘rtasidagi ziddiyatlarning mavjudligi;

– maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ma’naviy-ma’rifiy, tarbiya jarayonining tashkiliy qismi, mazmuni va tarbiya jarayonining metodikasi o‘rtasidagi nomuvofiqliklar;

Yuqoridagi fikrlarga tayanib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida integratsiyaning qo‘llanishini quyidagicha ifodalash maqsadga muvofiqdir:

– maktabgacha ta’lim tashkilotlarida integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda guruh tarbiyalanuvchilarining yoshi va bilim saviyasini hisobga olish;

– integratsiyalashgan faoliyatni tashkil etishda maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalovchi vosita sifatida qarash;

– barcha tarbiyaviy tizimlar markaziga bola shaxsini qo‘yish;

– bolalarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga insonparvarlik asosida yondashish va ularda umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish;

– bolaning ijodiy qobiliyatlarini, uning individualligini rivojlantirish;

– individual va jamoaviy tarbiyani hisobga olish lozim bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda shakllanadigan ma’naviy-axloqiy sifatlar bevosita ularning yosh va individual xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Go‘daklik davridan 3-4 yoshgacha bo‘lgan davrda salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish, yaxshi va yomon to‘g‘risidagi dastlabki tasavvurlar, mumkin, mumkin emas tushunchalari, ma’naviy-axloqiy ko‘nikmalari, odatlari, o‘zi tug‘ilib o‘sgan uyi, oila a’zolariga, atrof-muhitga, mehnatga, insonlarga mehr-muhabbat, kabi dastlabki ma’naviy-axloqiy sifatlar shakllantirilsa, 5-7 yoshgacha bo‘lgan davrda o‘zi tug‘ilib o‘sgan Vataniga, ota-onasiga, do‘stlariga mehr-muhabbat shakllantiriladi. Intizom, o‘zini tuta bilishlik, kamtarinlik, rostgo‘ylik, saxiylik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, go‘zallikni his qila olish, turli salbiy tahdidlarga o‘z munosabatini bildira olish, mardlik, shijoat, qat’iyat, zukkolik, jasorat, go‘zallik, oliyjanoblik, mehr-shafqat, oriyat kabi yuksak fazilatlarni jamlab olgan ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimi takomillashtiriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanish sohalariga integratsion yondashuv asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash jarayoni “Til va nutq”; “Qurish yasash, konstruksiyalash va matematika”; “San’at”; “Syujetli rolli o‘yinlar va drammalashtirish”; “Ilm-fan va tabiat” rivojlanish markazlarida amalga oshiriladi.

Ta’lim markazlarida olib boriladigan nutqni rivojlantirish, tasviriy faoliyat, badiiy adabiyot, atrofdagi olam bilan tanishish, tabiat bilan tanishish, elementar matematika va shu kabi mashg‘ulotlar maqsadlariga integratsion yondashish, bola shaxsini shakllanishi, ma’naviy dunyoqarashining rivojlanishi, axloqiy xulq-atvor malakalarini hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, tasviriy faoliyat jarayonida bola atrof-olamni idrok etadi. Rasm chizish, qurish-yasash, applikatsiya, loy ishiga o‘rgatish, boshqa faoliyat turlari bilan uyg‘unlashtirish bolalarning aqliy, ma’naviy, estetik va jismoniy rivojlanishiga olib keladi.

Integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda integratsiyaning quyidagi turlaridan foydalanish ko‘zda tutiladi.

Mavzulararo integratsiya – (“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturidagi oylik va haftalik mavzular integratsiyasi). Masalan, dasturda tayyorlov guruhida sentabr oyi uchun “O‘zbekiston mening-Vatanim” mavzusi berilgan. Demak, shunga ko‘ra, birinchi haftasi

“Mening qadrdon O‘zbekistonim”, ikkinchi hafta “Mening shahrim – mening mahallam”, uchinchi hafta “Men va mening oilam” va to‘rtinchi hafta “Men va mening do‘stlarim” nomli mavzularga bag‘ishlanadi, ya’ni mazmunan bir-biriga bog‘lanadi. “Oltin kuz” mavzusida tabiat bilan tanishtirish mashg‘uloti tashkil etilib, tabiat hodisalari haqida ma’lumot beriladigan bo‘lsa, bolalarni o‘zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash uchun rasm mashg‘ulotida daraxt yaproqlarini yoki ixtiyoriy mavzuda rasm chizishlari maqsad qilib olinadi. Badiiy adabiyot mashg‘ulotlarida kuz fasliga oid she’rni yod oldirish orqali bolalar olgan bilimlari mustahkamlanadi.

Mashg‘ulotlararo integratsiya – (katta va tayyorlov guruhlarida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar integratsiyasi) asosida, masalan, nutqni rivojlantirish mashg‘ulotida ularning yoshi, tushunchasi va ruhiyatiga mos keladigan ertak, hikoyalarni so‘zlab berish orqali badiiy didlarini o‘stirish va asarlarda aks ettirilgan voqealar mazmunini tushunish malakasini shakllantirish, bolalarda kitobga nisbatan qiziqish, mehr hislarini uyg‘otish. Bolalarda xushmuomalalilik va orastalikni shakllantirish. “Yaxshi”, “yomon” kabi so‘zlarning o‘zaro farqini anglashga, qilish mumkin bo‘lgan va bo‘lmagan xatti-harakatlarni farqlashga, o‘zidan kattalarga hurmatda bo‘lishga, qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib “Assalomu alaykum” deb salomlashishga o‘rgatish; tasviriy faoliyat mashg‘uloti va nutqni rivojlantirish mashg‘ulotini integratsiyalash orqali bolalar diqqatini badiiy asar mazmuni asosida ishlangan rasmlarga qaratish, ularni sinchiklab tomosha qilishga o‘rgatish, rasmlardagi go‘zallikni his etish, undan zavqlanish hissini shakllantirishga erishiladi.

Faoliyatlararo integratsiya – (o‘yin, o‘quv va mehnat faoliyati inegrallashuvi) turini gorizontal va vertikal integratsiya tamoyili asosida tashkil etish natijasida bolalar rivojlanish sohalari kompetensiyalarini, ma’naviy-axloqiy sifatlarni uyg‘un rivojlantirishga erishiladi.

Rivojlanish markazlariaro integratsiya – (til va nutq; qurilish va konstruksiyalash markazi; san’at, syujet-rolli o‘yinlar va drammalashtirish markazi; ilm-fan va tabiat markazidagi bolalarning mustaqil faoliyatini integratsiyalash) faollik markazlaridagi erkin mustaqil faoliyat orqali bolalarning ma’naviy-axloqiy sifatlari mustahkamlanadi, xulq-atvorda namoyon bo‘ladigan salbiy xususiyatlar bartaraf etiladi.

Myxtasar aytganda, maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning boshlang‘ich bo‘g‘ini sifatida bolaning har tomonlama rivojlanishi, ma’naviy yetuk shaxs sifatida shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Bundan ko‘rinadiki, barcha rivojlanish markazlarini talab darajasida to‘g‘ri tashkil etish boshlang‘ich kompetensiyalarni, ya’ni bola shaxsini har tomonlama shakllanishi, ma’naviy-axloqiy sifatlarni uyg‘un rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. PF–4947-son. 2017-yil 7-fevral. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. 2018-yil. 18-iyun.

3. Hasanboyev J., To‘raqulov X. va b. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya, 2008-y.

4. Azimova Z. Tarbiyaviy ishlar tizimini integral diagnostik asosda takomillashtirish / monografiya. –T: Muharrir. 2018-y. – 164-b.

Malika FAYZULLAYEVA,
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti katta o‘qituvchisi

MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI UCHUN NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING VARIATIV DASTURI

Annotatsiya

Ushbu maqolada uzluksiz ta’lim tizimida maktabga tayyorlov guruhi uchun nutqni rivojlantirish ta’limiy faoliyati uchun yaratilgan variativ dastur mazmuni, ekspertiza xulosalari asosida bajarilgan ishlar aks etgan.

Kalit so‘zlar. Uzluksiz ta’lim, maktabgacha ta’lim tashkiloti, nutqni rivojlantirish dasturi, ekspertiza xulosalari, tahlillar, o‘quv dasturlarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar.

В статье отражено содержание вариативной программы, созданной для образовательной деятельности по развитию речи подготовительной к школе группы в системе дополнительного образования, работы, выполненной на основе экспертных заключений.

Ключевые слова. Непрерывное образование, дошкольная образовательная организация, программа развития речи, заключения экспертизы, анализ, предложения по совершенствованию образовательных программ.

This article reflects the work done on the basis of the content, conclusions of the examination and conclusions of the datative program created for the educational activities of speech development for the school preparatory group in the system of continuing education.

Key words. Proposals for continuous education, organization of preschool education, speech development program, conclusions of expertise, analysis, improvement of educational programs.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli qaroriga ko‘ra, “Maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim o‘quv dasturlari va fanlarning uzluksizligini va uzviyligini ta’minlash” vazifasi ijrosini ta’minlash bo‘yicha “Maktabga tayyorlov guruhi uchun nutq rivojlantirish ta’limiy faoliyati variativ dasturi” tayyorlandi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga topshirildi. Maktabga tayyorlov guruhi uchun nutq rivojlantirish ta’limiy faoliyati variativ dasturiga ekspertiza xulosalari tahlil qilinib o‘rganildi.

Maktabga tayyorlov guruhi uchun nutq rivojlantirish ta’limiy faoliyati variativ dasturi asosida berilgan ekspertiza xulosalarini tahlil qilib o‘rganish va dasturni takomillashtirishga qaratilgan takliflarni inobatga olish lozim. Maktabga tayyorlov guruhi uchun nutq rivojlantirish ta’limiy faoliyati variativ dasturini mukammal tarzda yaratish darkor.

Joriy yilning yanvar oyida “Uzluksiz ta’lim tizimida fan dasturlarining mazmun

mohiyati, mavzularning mantiqiy ketma-ketligi va uzviyligini ta’minlash” maqsadida tuzilgan ishchi guruhning “Ona tili ta’limini rivojlantirish tizimi”ning maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tuzilgan ishchi guruh tomonidan “Maktabga tayyorlov guruhi uchun nutq rivojlantirish ta’limiy faoliyati variativ dasturi” ishlab chiqildi.

Dasturda maktabga tayyorlov guruhi uchun nutq rivojlantirish ta’limiy faoliyatining mazmuni belgilab berildi.

Dastur O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, dastur Davlat talablarining “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” sohasining kichik sohalari (“Nutq va til”, “O‘qish malakalari”, “Qo‘l barmoqlari mayda motorikasi”) asosida nomlangan bo‘limlardan iborat.

Dasturning birinchi “Nutq va til” bo‘limining mazmuni bolani o‘z ona tilida erkin so‘zlashishga, bolani kattalar va tengdoshlari bilan erkin muloqot yuritishga, o‘z holati, his-tuyg‘ulari va maqsadlarini nutqi orqali ravon ifodalashga; o‘zini qiziqtirgan mavzular bo‘yicha tortinmay savollar berish, suhbatdoshining nutqini tinglash va aytmoqchi bo‘layotgan fikrini anglash, his-tuyg‘ularini hurmat qilish madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

“Nutq va til” bo‘limi mazmunida bola nutqini har tomonlama rivojlantirishga alohida e’tibor qilinib, “Nutqning tovush madaniyatini shakllantirish”, “Lug‘at ishi”, “Lug‘atni faollashtirish”, “Nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish”, “Bog‘lanishli nutqni shakllantirish”, “Ijodiy hikoya qilish” kabi nutq o‘stirish vazifalari asosida mazmun yoritildi.

Nutqning tovush madaniyatini shakllantirish vazifalarining mazmunida ona tilidagi barcha tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etish malakasini mustahkamlash. Fonetik idrokni o‘stirishda davom etish. Bolaga *s-z, p-f, t-d, p-b, l-r, u-o‘, x-h, k-g* tovush guruhlarini to‘g‘ri talaffuz etish va ularni farqlashni, ovoz sifatlarini (*baland, o‘rtacha, past, yo‘g‘on, ingichka, juda ingichka),* nutq sur’atini *(tez, o‘rtacha, sekin*) tarbiyalash, so‘zda tovush o‘rnini belgilashga o‘rgatish;

Lug‘at ishi vazifalarining mazmunida bolalarning atrof-olam hodisalari haqidagi bilimlarini aniqlash, mustahkamlash va kengaytirish maqsadida mazmunli suratlar asosida suhbatlar tashkil etib ularning nutqini boyitish va faolligini oshirish, xalq maqollari (“Qushni asragan, odamni asragan bilan barobar”, “Yaxshidan rahmat, yomondan la’nat”, “Bugungi ishni ertaga qo‘yma”, “Kuch-birlikda”, “Bulbul chamanni, odam Vatanni sevar”, “Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar” va boshqalar) va topishmoqlarni tushuntirish shuningdek, bolalarga qofiyadosh so‘zlarni (*qor-tor, qosh-tosh, qayiq-ayiq, o‘roq-so‘roq, qoya-soya*) tushunib, o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llash malakalarini mustahkamlash, bolalarga nutqlarida umumlashtiruvchi so‘zlar (mevalar, sabzovotlar, mebel, idishlar, hayvonlar, parrandalar, qushlar), zid *ma’noli so‘zlar:* (*uzun-qisqa, kecha-kunduz, kuchli-kuchsiz, past-baland*), ma’nosi bir xil, ammo aytilishi xilma-xil bo‘lgan so‘zlarni (*xursand, shod, quvnoq; bahor, ko‘klam; ko‘rkam, chiroyli, go‘zal*), aytilishi bir xil, ammo ma’nolari xilma-xil bo‘lgan so‘zlarni *(o‘t-maysa, o‘t-ariqdan o‘tish, o‘t-olov v.b.*) tushunib, o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llashga o‘rgatish;

Nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish vazifalarining mazmunida bolalarda grammatik jihatdan to‘g‘ri nutqni tarbiyalash, gapirganda so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, ma’noli jumlalar tuzish malakasini shakllantirish, otlarni birlik va ko‘plikda qo‘llash, so‘zlar ma’nosini tushunish, nutqda kelishik qo‘shimchalardan to‘g‘ri foydalanishga amaliy o‘rgatish;

Bog‘lanishli nutqni shakllantirish vazifalarining mazmunida bolalarning og‘zaki

nutqning ikki shakli – so‘zlashuv va hikoya qilib berish nutqini o‘stirish, badiiy asar voqealarini so‘zlab berayotganida ovoz ohangining xilma-xil (so‘roq, his-hayajon, hayratlanish, iltimos) turini qo‘llay bilish, turli janrdagi badiiy asarlarni hikoya qilish, o‘yinchoqlar va buyum, fasllar haqida hikoya tuzishni o‘rgatayotganda o‘yinchoqlarni ta’riflab berishga, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatuvchi belgilarini (rangi, shakli, vazifasi) aniq so‘zlar orqali ifodalashga, rasmga qarab mustaqil tasviriy hikoya tuzish, bolalarni shaxsiy tajribalari asosida, tarbiyachi taklif etgan hayotiy mavzular bo‘yicha mantiqiy rivojlanib boruvchi hikoya yoki ertak tuzish layoqatlarini rivojlantirish vazifalari kiritildi.

Dasturning ikkinchi “O‘qish malakalari” bo‘limida bolalarga ko‘p vaqt davomida kitob bilan o‘tirib, uni tomosha qilish, kitobni to‘g‘ri holatda ushlashga o‘rgatishda davom etish, ayrim ma’lumotlarni yig‘ish uchun kitoblardan foydalanish, bir necha mashhur asarlar va adabiy qahramonlarni aytib berish, eslab qolgan ertak, hikoyalarni mazmunini so‘zlab berish, adabiy asarlarning ayrim parchalarini so‘zlab berish, bolalar adabiyoti janri nomini bilish (ertak, she’r, hikoya), mashhur yozuvchi va shoirlar nomini bilishga o‘rgatishda davom etish.

Kitob, kutubxona va kutubxona xodimi haqida tushuncha berish. Bolada kitobdagi rasmlar asosida boshqa bolalarga tushunganlarini so‘zlab berishlarini rag‘batlantirish. Boladan tinglagan kitobining nomi va muallifini aytib berishni so‘rash. Yoshiga mos va (yoki) mustaqil yodlagan she’rini yoddan ifodali aytib berishga o‘rgatish.

Sodda gaplarni nutqida qo‘llash, so‘z, tovush, harf, bo‘g‘in, gap haqida amaliy tushuncha berish, so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lish, bo‘g‘inli kartochkalar yordamida bo‘g‘inlardan so‘zlar tuzishga o‘rgatish. Bo‘g‘in o‘qishga o‘rgatish, peshlavha, kitob nomlari, rasm tagidagi yozuvlar va hokazolarni o‘qishlarini rag‘batlantirish.

Dasturning uchinchi “Qo‘l barmoqlari mayda motorikasi” bo‘limida katakli qog‘oz sathida to‘g‘ri chiziqlarni yozish, qo‘lni uzmasdan nuqta-chiziqchalarni birlashtirib rasm chizish, daftardagi yozuv qatorlarini aniqlay olish, rasmlarni to‘g‘ri joylashtirish, katakli qog‘oz sathida bosma harfni chizish kabi qo‘l barmoqlari mayda motorikasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan vazifalar belgilangan.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, “Maktabga tayyorlov guruhi uchun nutq rivojlantirish ta’limiy faoliyati variativ dasturi” O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablariga asosan maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim o‘quv dastur mazmunlari muvofiqlashtirilgan holda ishlab chiqildi. Maktabga tayyorlov guruhi uchun nutq rivojlantirish ta’limiy faoliyati variativ dasturi asosida ta’limiy faoliyat ishlanmalarini ishlab chiqish nazarda tutildi. Keyingi bosqichlarda kichik, o‘rta, katta guruhlar uchun ham nutq rivojlantirish ta’limiy faoliyati variativ dasturlari uzviylikni ta’minlagan holda ishlab chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti. – T., 2020.

2. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o‘quv dasturi**. –** T., 2018.

3. “Ilm yo‘li” variativ dastur. (6 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash)

4. Qodirova F.R., Maxmudova D.T., Isxoqova M., Abdullayeva N., Fayzullayeva M., Rustamova M., Raximova S. “Nutq o‘stirish metodikasi”. – T., 2019.

Hilola UMAROVA,
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident
ijod va maxsus maktablari agentligi direktori
Baxtiyor KARIMOV,
O'zbekiston xalq o'qituvchisi, Toshkent shahar Chilonzor tumani 90-umumiy o'rta ta'lim maktabi "Informatika va axborot texnologiyalari" fani o'qituvchisi

MAKTABLARDA RAQAMLI BILIMLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Annotatsiya

Maqolada buyuk ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy merosimizni asrab-avaylash masalalari yoritilgan. Mualliflar ta'lim muassasalarida talabalarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish, ularda milliy immunitetni shakllantirish bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini berib o'tishgan.

Kalit so'zlar. Ma'naviy boylik, milliy tarbiya masalalari, qadriyat, targ'ibot, dunyoqarash, ma'naviy meros, insoniy fazilatlar.

В статье рассматриваются вопросы сохранения духовного наследия наших великих предков. Авторы высказали свои взгляды и замечания на развитие духовного мировоззрения студентов в образовательных учреждениях, формирование у них национального иммунитета.

Ключевые слова. Духовное богатство, вопросы народного образования, кадры, пропаганда, мировоззрение, духовное наследие, человеческие качества.

The article deals with the issues of preserving the spiritual heritage of our great ancestors. The authors expressed their views and comments on the development of the spiritual outlook of students in educational institutions, the formation of their national immunity.

Key words. Spiritual wealth, issues of public education, personnel, propaganda, worldview, spiritual heritage, human qualities.

Mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlantirish strategiyasining bosh maqsadidir.

Prezidentimiz Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Mirzo Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak.

Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash hozirgi kunning muhim shartlaridan biriga aylanmoqda. Zero, bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda va insoniyat taraqqiyoti

ko‘p jihatdan uning rivojlanish shiddatlariga bevosita bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Chunki zamonaviy texnologiyalar bir joyda to‘xtab turmaydi. U takomillashgani sayin, tabiiyki, ta’limda ham innovatsiyalarga asoslangan bilimlar ham mustahkamlanib boraveradi. Davlat rahbarining 2018-yil 19-fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni ana shunday shiddatli davr talabiga hamohang ravishda o‘z vaqtida qabul qilingan hujjat bo‘ldi.

Ta’limda ilgari aks etmagan, ammo, kunda ommaviy axborot vositalarida tez-tez tilga olinayotgan yangi atamalar, jumladan, IT texnologiyalar, “elektron hukumat”, “elektron savdo”, “raqamli iqtisodiyot”, ”sun’iy intellekt” kabi atamalar o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otmoqda. Bu haqda yetarli bilimlarga ega bo‘lmaslik yuqorida tilga olingan O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishdagi asosiy to‘siqdir. Yangi zamonaviy tushunchalar bo‘yicha maktabdanoq keng qamrovli ma’lumotlar berib borish maqsadga muvofiq.

Yurtimiz “Xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi” bo‘yicha 2019-yilda 8 pog‘onaga ko‘tarilgan bo‘lsa-da, hali ham orqadamiz. Aksariyat ta’lim muassasalari raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroq, desak, bu ham haqiqat.

Albatta, yangi texnologiyalarni joriy qilish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz.

Yangi axborot texnologiyalari mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi, shuningdek, odamlarni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og‘ir illat – korrupsiya balosini yo‘qotishda ham samarali vosita hisoblanadi. Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, samaradorlikni oshirish, bir so‘z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin.

Bunga qanday erishiladi? Boshqacha qilib aytganda, mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirishda, umuman, xalq turmush tarzini yaxshilashda yangi axborot texnologiyalari o‘zi qanday rol o‘ynaydi? – degan savol, tabiiyki, ta’lim jarayonida o‘z yechimini topishi kerak. Hozirda O‘zbekiston ayni yangi texnologiyalar, xususan, raqamli texnologiyalar tomon jadal kirib bormoqda.

Biz XX asrning oxirlarida tashqi olamda raqamli texnologiyalar global WEB hayotning barcha sohalariga kira boshlaganida, avvaliga mijozlar tarmoq orqali dasturiy ta’minot, keyinroq o‘yinlar kitoblarni xarid qilishni boshlaganlarida befarq bo‘ldik. Vaqt o‘tishi bilan u yerda uydan chiqmasdan onlayn tarzda har qanday mahsulotni sotib olish imkoni paydo bo‘ldi. Uydan chiqmasdan buyurtma berilishi va to‘lanishi mumkin bo‘lgan dasturiy ta’minot kompyuter o‘yinlari va elektron kitoblarni sotish bozorida faol rivojlana boshladi. Shu tariqa raqamli iqtisodiyot butun jamiyatni qamrab oldi. Bizda ham telefon keng ommalashdi. Aksariyat odamlar undan kerakli ilovalardan foydalanish o‘rniga keraksiz axborotlar uchun aziz umrlarini sovurayotganliklari nihoyatda achinarli.

Bundan buyon iqtisodiyotning real sektori korxonalariga avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish jadal rivojlanishini hisobga olsak, maktabda o‘qitilayotgan “Informatika va axborot texnologiyalari” fanining roli nihoyatda dolzarbligi ayon bo‘ladi. Bu fanning yaxshi o‘zlashtirilishi yirik sanoat obyektlari ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda o‘sish, faoliyat shaffofligini ta’minlash, xizmat ko‘rsatish, mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini beradi. Jamiyatning ana shu imkoniyatlaridan foydalanuvchisi sifatida ham yurtdoshlarimiz zamonaviy texnologiyalarning eng oddiy tushunchalaridan maktabdanoq boxabar bo‘lishi lozim. Ma’lumki, axborot o‘lchov birligining eng

kichigi nol yoki bir raqamlarda o‘lchanib uni bir bit deb qabul qilingan. Butun axborot olamining asosi ana shu ikki raqam bilan kodlanganligi tufayli raqamli so‘zi shu qadar ommalashib ketdi. Har bir belgi sakkizta 0 yoki 1 dan iborat. Bu bir bayt deb qabul qilingan. Bu axborot hajmi. Raqamli televideniye, raqamli fotoapparat, bankomat va hokazo tushunchalar aynan axborotni 0 yoki 1 bilan kodlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bugungi kundagi barcha innovatsiyalarning asosi bo‘lmoqda.

Ayni paytda sun’iy aql va kognitiv intellektual tizimlar jadal taraqqiy etyapti. Buning natijasida yaqin kelajakda ayrim kasblar o‘z dolzarbligini yo‘qotadi hamda vaqti kelib, yo‘q bo‘lib ham ketadi. Misol uchun, “Iot” avtomatlashtirilgan tizimi allaqachon sinovdan o‘tkazilyapti. Pirovardida robotlar avtomobil haydovchilari, uchuvchilar va hatto, huquqshunoslarning ham o‘rnini egallashi mumkin. Zamonaviy sharoitda inson butun hayoti davomida yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘rganib borishi kerak. Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, ko‘pgina davlatlar hozirgi kunda zamonaviy axborot texnologiyalariga, aynan raqamli iqtisodiyot sohasiga jiddiy e’tibor qaratmoqda. Masalan, 2017-yilning 28-iyulida Rossiya Federatsiyasi hukumati Raqamli iqtisodiyot dasturini qabul qildi. Estoniya, Belarus Respublikasi va Ukraina raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirmoqda. O‘z navbatida, ayrim davlatlarda aynan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zaruriy infratuzilmani yaratishga harakat qilmoqda. Jumladan, Avstraliya hukumati fuqarolarga yuqori tezlikdagi raqamli aloqani taqdim etish choralarini ko‘rmoqda, ya’ni milliy keng polosali tarmoq (National Broadband Network) ushbu mamlakat aholisining 93 foizini 1 Gbit/s tezlikdagi internet bilan ta’minlash majburiyatini olgan.

Demak, bosh, ya’ni strategik maqsadga erishish uchun, fikrimizcha, asosiy vazifalar quyidagilardan iborat ekanligi maktab ta’limi oldiga katta vazifalarni qo‘yadi.

1. Barcha darajada ta’lim sifati va qamrovini oshirish, uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish, ta’lim tizimining iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta’minlash;

2. Pedagogik innovatsiyalar va ishlanmalarning amaliy salohiyatini mustahkamlash va samaradorligini oshirish, ilmiy-uslubiy, tajriba-sinov va pedagogik texnologiyalar natijalarini keng joriy etish uchun ta’lim, ilm-fan yutuqlarini integratsiya qilishning ta’sirchan mexanizmlarini izlash;

3. Innovatsiyalar, ilmiy-uslubiy, tajriba-sinov va maktab ishlariga davlat va xususiy mablag‘lar kiritilishini kuchaytirish, bu sohalardagi tadbirlarni moliyalashtirishning zamonaviy va samarali shakllarini joriy etish;

4. Boshqaruv, ya’ni ta’lim menejmentining zamonaviy usullari va vositalarini joriy etish orqali maktab faoliyatining samaradorligini oshirish;

5. Barqaror faoliyat yuritadigan maktab-oila-mahalla infratuzilmasini yaratish.

Bunda faoliyatimiz quyidagi asosiy yo‘nalishlarga qaratilmog‘i lozim, deb hisoblaymiz:

1. Fan, ixtirochilik, yangi davrga mos kasbga yo‘naltirish va ilg‘or raqamli texnologiyalarni maktabda rivojlantirish; milliy dasturda avvalgi dasturlardan farqli ravishda o‘qituvchi faqat dars beruvchi yoki bilimlarni transformatsiya qiluvchi emas, balki darslik va mashg‘ulotlarni raqamlashtirish, sun’iy intellektni qo‘llab, zamonaviy ta’limga o‘tish va pirovardida bolalarning erkin ijod qilishiga, ixtirolar qilishiga zamin yaratish.

2. Innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish; innovatsion deb hisoblangan g‘oyalarga pedagoglarga ustamalar, mukofotlar taqdim etish; shunday ishlarni amalga oshirgan bolalarga ta’limning keyingi bosqichlariga grant asosida yo‘llanmalar berish.

3. Maktablarda tez optik tolali internet va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, serverlar tashkil etish; kamida 1.2 Gbit/sekynd internet tezligiga erishish; butun maktab hududida bepul internetga kirish imkonini yaratish.

4. Ta'lim tizimi boshqaruvini to'liq raqamlashtirishga erishish.

5. Raqobatni rivojlantirish va ma'muriy to'siqlarni kamaytirish; maktabni har qanday byurokratiyadan xolis etish va maktabga aloqasi yo'q tizimlarni ta'lim va tarbiya ishiga aralashtirmaslik.

6. Kuchli bilim va salohiyatga ega informatika o'qituvchilarini turli sinov va attestatsiyalardan ozod qilib, ularga to'g'ridan-to'g'ri yuqori malaka toifalarini berish. Butun dunyoda bunday mutaxassislarga yuqori maosh to'lanadi. Ular maktabdagi tizimlarni boshqarishlari kerak.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish, taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi.

Sharq donishmandligida "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!", – degan naql bor. Inson qancha ko'p bilimga ega bo'lsa, o'z ustida ishlasa, o'qisa, izlansa, u har tomonlama yetuk, o'ziga ishonchi baland bo'lib, zamon bilan hamnafas yashaydi.

Yurtboshimiz doim ta'kidlaganlaridek, mamlakatimizda yaqin kelajakda aholi, ayniqsa, yosh avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirish va axborot texnologiyalari sohasini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor masalalaridan biri bo'lib qolishi lozim. Bu davr talab vazifani bajarishda biz pedagoglar, avvalo, o'zimiz zamonaviy bilimlarni o'zlashtirishimiz, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lishimiz kerak. Bu jarayonlar bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilishi, o'qituvchilarni yangicha ishlashga o'rgatish, ta'lim rahbarlarining raqamli savodxonligini oshirish ustida tinmay ish olib borishimiz o'ta muhimdir. Zamonaviy bilimlar asosida to'plangan boy tajribamizga tayanib yoshlarning innovatsion bilimlarini oshirish yo'lida tinmay sidqidildan samarali faoliyat olib borsakkina ko'zlangan maqsadlarga, albatta, erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2020-yil 29-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili".

2. 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida".

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Izohli lug'ati. BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi – T., 2010.

4. Pedagogika. Ensiklopediya 2 jild. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. – T., 2015.

5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad "Yusuf, Olam va odam, din va ilm". – T.: Hilol-Nashr, 2019. – 440-b.

Dilnoza YUSUPOVA,
Abdulla Avloniy nomidagi xalq ta'limi muamolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA TA'LIM MUASSASASI RAHBARINING HUQUQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada malaka oshirish tizimida ta'lim muassasasi rahbarining huquqiy vakolatlarini rivojlantirishning texnologik jihatlari jarayonning asosini tashkil etadigan vositalar, usullar, uslublar va malaka oshirish tizimidagi huquqiy kompetensiya hamda ta'lim muassasasi rahbarining huquqiy vakolatlarini rivojlantirish jarayoni to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Huquqiy kompetensiya, ratsionallik, usul, uslub, aksiologia, praksiologiya, refleksiya, integratsiya.

В статье рассматриваются технологические аспекты развития юридических полномочий руководителя образовательного учреждения в системе повышения квалификации, инструменты, методы, приемы и юридическая компетентность в системе повышения квалификации и процесс развития юридических полномочий руководителя учебного заведения.

Ключевые слова. Правовая дееспособность, ратциоалый, метод, стиль, пракциология, рефлекция, интегратция.

The article discusses the technological aspects of the development of the competence of the head of an educational institution in the system of advanced training, tools, methods, techniques that organize the process, legal competence in the system of advanced training and the scientific essence of the process of developing the legal povers of the head of an educational institution, efficiency, ratsionality, conscientiousness and application skills in management.

Key words. Legal competence, method, style, praxeology, arxiology, reflection, integration.

Ta'lim muassasasi rahbarining huquqiy vakolatlarini rivojlantirish jarayonini ilmiy-uslubiy ta'minoti ilmiy mohiyati, integralligi, axborot mazmuni, zamonaviyligi, bashorat qilinishi, ratsionalligi, yaxlitligi va boshqarilishi hisobga olingan holda aniqlanadi. Ilmlilik, avvalambor, ta'lim muassasasi rahbari tomonidan qabul qilinadigan qarorlar shaxsiy fikrlarga emas, balki ilmiy dalillarga asoslanganligini anglatadi. Ta'lim jarayonidagi yaxlitlik ta'lim muassasasi rahbari tomonidan huquqiy qarorlar qabul qilishda huquqiy bilim va ko'nikmalarni birlashtirishga yordam beradigan mexanizmlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Axborot mazmuni o'qitishni individualizatsiyalashni talab qiladi, ta'lim muassasasi rahbaridan kompyuterlar bilan ishlashni taqozo etadi, shu bilan birga o'quv jarayoni uni o'quv jarayonida kompyuter

boshqaruvidan foydalanishga yo‘naltiruvchi integral vositalar yordamida qurilishi kerak. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan o‘quv dasturi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki, huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlar bilan to‘ldiriladi; ta’lim sohasidagi davlat siyosatining huquqiy tabiati ta’lim mazmunini doimiy ravishda yangilab turishni, uning ta’lim muassasalari rahbarlarini huquqiy faoliyatga turtki berishga yo‘naltirishni talab qiladi. Bashorat qilish – kelajakka, kasbiy rivojlanish tizimining kengayib borayotgan salohiyatiga yo‘naltirish. Ratsionallik – bu ta’lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini uyg‘unlashtirish: maqsadlar, vazifalar, shartlar, usullar, vositalar va h.k. Butunlik, belgilangan maqsad va vazifalarga erishish uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlar, harakatlar tarkibining to‘liqligini, ular orasidagi bog‘lanishning izchilligini, ta’minlaydi. Boshqarish qobiliyati har bir rahbar uchun uning rivojlanishining individual dinamikasini hisobga olgan holda, ta’lim jarayonini boshqarishda ta’lim muassasasi rahbarining huquqiy kompetentligini rivojlantirishning oraliq va yakuniy natijalarini muntazam ravishda kuzatib borishni o‘z ichiga oladi.

Ta’lim muassasasining harakatlari qonuniy, demokratik qonuniy va mas’uliyatli darajada samarali bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, ta’lim muassasasi foyda olishni maqsad qilib qo‘ymaydi, bu daromad emas, balki xizmat ko‘rsatish tizimidir. Ta’lim muassasasi ayniqsa, muhim mijozlarga ega emas va o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilarining turli manfaatlarini himoya qilishi shart. Binobarin, ta’lim muassasalari rahbarlarining huquqiy masalalar bo‘yicha maxsus tayyorgarligi talab etiladi. Tajribadan kelib chiqib aytish joizki, bu odatda to‘g‘ri yondashish har doim ham yetarli darajada asoslanmaydi. Masalan, u ta’lim muassasasi rahbariga amalda uchraydigan huquqiy masalalar kompleksini to‘liq anglashiga va yuridik faoliyatning ko‘plab sohalarida erkin moslashishiga yo‘l qo‘ymadi. Shuni hisobga olgan holda o‘quv dasturi yuridik kursni nazarda tutgan. Biroq, yuridik kursning roli ko‘pincha past baholangan.

Ayni paytda u quyidagi ta’lim muammolarini hal qilishini tavsiya qilamiz: amaldagi qonunchilik va rahbar faoliyati o‘rtasidagi to‘siqni bartaraf etish; ta’lim sohasidagi qonun hujjatlari tarkibi va mazmunini oshkor qilish; – rahbarning boshqaruv faoliyatida qonunning o‘rnini belgilash. Ushbu kursning amaliy ahamiyatiga qaramay, uni assimilyatsiya qilish har doim ham samarali bo‘lmagan, asosan, ta’lim muassasalari rahbarlarining huquqiy savodxonligi talab darajasida emasligi, o‘quv dasturlarining boshqa fanlar bilan haddan tashqari ko‘pligi, ilmiy va uslubiy ta’minotning yetarli emasligi. Ta’lim jarayoniga obyektiv sabablardan tashqari subyektiv omillar ham ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu muammolar yuridik savodxonlikning poydevorini qo‘ygan, qonunchilik va me’yoriy-huquqiy baza to‘g‘risida tushuncha bergan yuridik kursni joriy etish yo‘li bilan hal qilish. Ichki mantiqiy munosabatlarga ega bo‘lgan kursni tashkil etish, menejerlar uchun qulay bo‘lgan intizomni taqdim etish metodikasini ishlab chiqish; kursning amaliy qismini asosan aniq vaziyatli vazifalarni tahlil qilishga yo‘naltirish maqsadga muvofiq.

“Ta’lim tizimining huquqiy asoslari” yuridik kursi, biz buni ko‘p funksional va quyidagi imkoniyatlarga ega deb bildik: kognitiv (huquqiy bilimlarni olish); mafkuraviy (yuridik faoliyatga yaxlit qarashlar tizimini olish); aksiologik (qonun orqali dunyoni to‘g‘ri baholash qobiliyatiga ega bo‘lish); refleksiv (o‘z-o‘zini bilish, o‘z-o‘ziga javob berish ko‘nikmalarini shakllantirish); praxeologik (dunyoda to‘g‘ri harakat qilish ko‘nikmalarini olish). Eksperimental ish jarayonida reyting o‘quv yurtlari rahbarlarining yuqorida aytib o‘tilgan imkoniyatlari quyidagicha taqsimlanganligini aniqlashga imkon berdi. Integratsiyalashgan kurs imkoniyatlarini ta’kidlab, huquqiy kompetensiyani yuqori darajada

rivojlangan rahbarlar guruhi birinchi o‘ringa bilim va mafkuraviy yo‘nalishlarni qo‘ydi; ikkinchidan – refleksiv, aksiologik va yagona zaggem prakseologik sababni berdi. O‘quv muassasalari rahbarlari huquqiy salohiyatining rivojlanish darajasi o‘rtacha, birinchi navbatda, kognitiv, mafkuraviy imkoniyatlarni ilgari surgan holda ushbu imkoniyatlarni ajratdilar; ikkinchi rol refleksiv, aksiologik, oldingi guruhda bo‘lgani kabi, prakseologik hamrohlik qilgan. Uchinchi guruhda (yuridik salohiyatning rivojlanish darajasi past bo‘lgan rahbarlar) biz integratsiyalashgan kursning imkoniyatlari quyidagicha qabul qilinganligini kuzatdik: prakseologik, kognitiv, aksiologik, g‘oyaviy va aks etuvchi. Olingan natijalar, ta’lim muassasalari rahbarlari huquqiy kompetensiyani rivojlantirishga va uni rivojlantirishda ijobiy turtkiga ehtiyoj borligi to‘g‘risida dastlabki ishlab chiqilgan farazni yana bir bor tasdiqladi. Malaka oshirish tizimida ta’lim muassasasi rahbarining huquqiy vakolatlarini rivojlantirish maqsadida eksperimental ishlarni o‘tkazish jarayonida biz bir qator muammolarni hal qildik:

1. Ta’lim metodikasini o‘zgartirdi va “Ta’lim tizimining huquqiy asoslari” kursining dasturini shunday bayon etdi. O‘rganish uchun motivatsiya darajasini oshirish, o‘quv jarayonini faollashtirish.

2. Biz dars mazmunini taraqqiyotning umumiy qonuniyatlariga mos keladigan tarzda birlashtirdik.

3. O‘rganilayotgan materialni muammolardan mustahkamlash maqsadida uni o‘zgartirdi.

O‘quv materialini tashkil etishda konsentratsiya tufayli o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha ta’lim muassasasi rahbarini evristik faoliyatga maksimal darajada jalb qilish imkoniyati tufayli ajratilgan. Huquqiy topshiriqlar tizimi ishlab chiqilgan. Belgilangan vazifalarni hal qilishning ba’zi jihatlari haqida to‘xtalamiz. Eksperimental ish jarayonida, bilim motivatsiyasiga tayanmasdan turib, ta’lim faoliyatida yuridik vakolatlarni rivojlantirishning mumkin emasligi to‘g‘risida taxmin tasdiqlandi. Shakllangan motivatsiya keyingi faoliyat samaradorligini belgilab berdi, chunki u rag‘batlantiruvchi kuch edi va “motni maqsadga” o‘tkazish mexanizmini amalga oshirdi, shaxsning ichki zaxiralarini ochib berdi va shaxsning o‘zini anglash istagini ro‘yobga chiqardi. O‘qish uchun motivatsiya darajasini oshirish uchun shaxsning barcha ijodiy kuchlarini, bilim qobiliyatlarini, aqliy jarayonlarini safarbar qilish amalga oshirildi, faoliyatni amalga oshirishda faollik, intensivlik va qat’iyatlilik va natijalarga erishishda turtki berildi; yutuq motivatsiyasi, o‘ziga, o‘z qobiliyatlariga, ijodiy kuchlarga ishonish rivojlandi; maqsadlarni, faoliyatning tarkibiy bo‘linmalarini ma’lum bir shaxsiy ma’no bilan to‘ldirish sodir bo‘ldi; yuridik bilimlarni o‘zlashtirish uchun guruhlarning umumiy yo‘nalishi va har bir ta’lim muassasasi rahbarlari alohida shakllantirildi.

Ta’lim jarayonini jadallashtirish uchun biz o‘quv materialini oqilona tanlash va tashkil qilishni amalga oshirdik, uni o‘zlashtirishning eng samarali texnikasi va usullarini ishlab chiqdik, shaxsiyat va shaxslararo munosabatlar zaxiralarini faollashtirdik va ta’lim subyektlari o‘rtasida o‘zaro muloqotni amalga oshirdik. Eksperimental ish jarayonida biz amalga oshirdik: “Ta’lim tizimining huquqiy asoslari” kursining mazmunini rivojlanishning umumiy qonuniyatlariga mos keladigan tarzda birlashtirish. Buning uchun quyidagi mantiq zarur edi; a) dastlabki, nisbatan bo‘linib ketgan yaxlitlik; b) yaxlitlikning ichki farqlanishi va elementlarga bo‘linishi; v) yuqori tartiblilik darajasida yangi yaxlitlik. Xususan, kurs tarkibiga kiritilgan har bir tarkib birligi (mavzu, bo‘lim) ma’lum bir birlik umumiy konturlarini aks ettiruvchi ichki, yaxlit rasm edi. Keyin asl, yaxlit rasm strukturaviy elementlarga bo‘linib ketdi. Tarkibning birligi tegishli umumlashtirilgan

tushunchalar, toifalar va h.k.larga asoslangan holda yuqori darajadagi yangi yaxlitlikni yaratish bilan yakunlandi. Shunday qilib, yuridik kurs tizimsizlikni, parchalanishni oldini olishga, huquqni integratsiyalashuv muammosini yanada samarali hal qilishga imkon berdi. Bilim va amaliyot. Yuridik kursda obyektiv va subyektiv o‘rtasidagi munosabatlarni biz, bir tomondan, huquqiy bilimlarning tarjimasi, boshqa tomondan, bilimlarning shaxs darajasida aks etishi va sintezi sifatida ko‘rib chiqdik.

Kursning integratsiyasi fuqarolik huquqi bilimlarining ustuvorligi asosida amalga oshirildi. Kurs mazmunini birlashtirganda, biz erkin va mas’uliyatli shaxsni shakllantirish butun malaka oshirish tizimining markaziga qo‘yilgan sharoitda avtoritarizmni rad etish va uning rol funksiyalari mavjudligini hisobga oldik. O‘qituvchi va talaba o‘zgaradi, uning mazmuni bir xil kelishib bo‘lmaydigan me’yor sifatida harakat qila olmaydi. Shunday qilib, huquqiy bilim, huquqiy munosabat, huquqiy tamoyillar kuchli harakatlar bilan ishlab chiqilgan shaxsiy e’tiqodlarni shakllantirdi, shuning uchun o‘quv predmeti uning mazmunini ko‘paytirishda uni o‘zlashtirgan odamning ongli ravishda ishtirok etishiga yordam beradigan tarzda tuzildi.

Tadqiqot natijalari haqiqiy ta’lim amaliyotida o‘quv faoliyatining mazmuni va protsessual tarkibiy qismlari o‘zaro bog‘liq va bir-biri bilan bog‘liqligini, yaxshiroq, samaraliroq bilimlarni ta’kidlash imkonini berdi. Biz bilimlarni voqealarni oldindan ko‘rish, kelajakni shakllantirish qobiliyati deb bildik. Boshqa tomondan, o‘quv faoliyati uchun protseduralarni shakllantirish faqat bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida mumkin edi, chunki samarali bilim barqaror ustunlik emas, balki dinamik voqea edi, ya’ni har qanday muammoni hal qilish jarayonida motiv, maqsad va faoliyatning o‘zaro ta’siri mahsuli. Shu ma’noda, vakolatni faqat o‘qitish orqali yaratish mumkin emas. Shu munosabat bilan, biz ta’lim faoliyatining mazmuni va operatsion tarkibiy qismlarini ta’lim faoliyatini amalga oshirishda ishlarning haqiqiy holatiga mos keladigan ajralmas birlikda ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiq deb bildik.

